O‘zbek tili 6

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

скачано с сайта www.idum.uz

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O‘)ya7
O‘ 58

Mualliflar:
Dilafruz Xidoyatova
Nargiza Yuldasheva
Nodira Usmonova
Namoz Rasulov
Yulduz Xasanova
Nurjahon Abdullayeva

Taqrizchilar:

Muhabbat Qurbonova – O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori.

Umida Hikmatillayeva – Indiana universiteti (AQSH) doktoranti.

Nigina Sadinova – SamDCHTI katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Sayyora Suyumova – Toshkent shahridagi 246-maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

Mohigul Sultonova – Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi 54-maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

O‘zbek tili [Matn]: 6-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / Dilafruz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 196 b.

ISBN 978-9943-8351-6-0

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O‘)ya7

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8351-6-0

© Respublika ta’lim markazi, 2022

скачано с сайта www.idum.uz

MUNDARIJA

KIRISH..... 5
Nutqiy kompetensiya elementlarini
o‘zbek tili darslarida shakllantirish..... 7

I chorak.
O‘ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!

1-dars. O‘zbekistonga xush kelibsiz!..... 9
2-dars. Tengdoshlarim..... 12
3-dars. Toshkent – Samarqand 15
4-dars. Samarqandning yuragi..... 17
5-dars. Naqadar go‘zal!..... 20
6-dars. Samarqand – Buxoro 22
7-dars. Buxoro – Xiva..... 25
8-dars. Xiva – Nukus..... 28
9-dars. Nukus – Toshkent 31
10-dars. Zamonaviy Toshkent 34
11-dars. Mustahkamlash. Buni bilasizmi? 36
14-dars. “Jonlangan” tuproq..... 39
15-dars. Oltin qo‘llar 41
16-dars. Qayga borsam, boshda do‘ppim… 43
17-dars. Milliy liboslar..... 46
18-dars. Mustahkamlash. Xalq durdonalari..... 49
19-dars. Zargarlik 51
20-dars. Betakror ustunlar..... 53
21-dars. Milliy taomlar 56
22-dars. Minoralar 59
23-dars. Mustahkamlash..... 61
24-dars. Adabiy o‘qish. Hunar haqida ertak 63

II chorak.
QANI, KETDIK

28-dars. Kamarlarni taqing!..... 65
29-dars. Avtobus nega qizil?..... 68
30-dars. Tezyurar poyezd..... 71
31-dars. Avtobus 74
32-dars. Nurli manzillar 76
33-dars. “Sahro kemasi”..... 79
34-dars. Parvozga tayyormisiz?..... 81
35-dars. Mustahkamlash. Iltimos, suyanmangiz! 84
38-dars. Haydovchilik guvohnomasi 86
39-dars. Yo‘l qoidasi..... 88
40-dars. Yo‘ldagi saboq..... 90
41-dars. Yo‘ldagi madaniyat..... 92
42-dars. “Yo‘l bering” (Yo‘l belgilari) 94
43-dars. Imkoniyat eshiklari 97
44-dars. Mustahkamlash. Imkoniyat 99
45-dars. Adabiy o‘qish. Yosh futbolchi 101

скачано с сайта www.idum.uz

III chorak. TEXNOPARK

49-dars. Robototexnika nima? (Qiziqarli mashg‘ulot) 103
50-dars. Dron 106
51-dars. Sehrli tomchilar 108
52-dars. Kelajak energiyasi (Quyosh energiyasi).....110
53-dars. Shamol energiyasi 112
54-dars. Yashil binolar (Kelajak uylari).....114
55-dars. 3D printer 116
56-dars. “Kindl kitob” 119
57-dars. Globus.....121
58-dars. Alisher Navoiy 124
59-dars. Observatoriya.....126
60-dars. Algoritm.....129
61-dars. Ginnes rekordlari.....131
62-dars. Mustahkamlash. Aqlga sig‘mas narsalar 134
65-dars. Internet.....136
66-dars. Favqulodda vaziyatlar 139
67-dars. Taomlanish.....141
68-dars. Dori-darmon 143
69-dars. Begona odamlar bilan munosabat 146
70-dars. Hayvonlarga munosabat. G‘amxo‘rlik 148
71-dars. Loyiha turlari 150
72-dars. Irodaning loyihasi 153
73-dars. Yosh tadqiqotchi.....155
74-dars. Adabiy o‘qish. “Besh bolali yigitcha” 158
75-dars. Takrorlash 159

IV chorak. BORIGA BARAKA

79-dars. Boriga baraka.....161
80-dars. “Ko‘ngil ko‘zi” aksiyasi.....163
81-dars. Maktabdagi aksiya 165
82-dars. Barakasini bersin 167
84-dars. Bolalarga bering dunyoni 169
85-dars. Maktabdagi kimoshdi savdosi rejasi 171
86-dars. Kimoshdi savdosi tarixi 173
87-dars. Mustahkamlash. Javob xati.....175
90-dars. Qimmatbaho kitob.....177
91-dars. “Kimoshdi” musobaqasi 179
92-dars. Adabiy o‘qish. Haqiqiy g‘olib 181
93-dars. Mening loyiham.....182
94-dars. Loyiham reklamasi.....185
95-dars. To‘g‘ri yo‘l 187
96-dars. Millioner tengdoshlarim 188
97-dars. Ishtiyoq.....190
98-dars. Adabiy o‘qish. Yaxshilikni o‘z vaqtida qil 192
99-dars. Mustahkamlash.....194

скачано с сайта www.idum.uz

KIRISH

Mamlakatimizning har tomonlama ravnaq topishi, istiqboli, taraqqiy etishi, yoshlarimizning kelajagi – bularning barchasi bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar samaradorligi bilan belgilanadi. Ilm-fan sohalaridagi eng so‘nggi yutuqlarni, yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va amaliyotga joriy etishda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir.

O‘qituvchi doimo izlanishi, yangilikka intilishi, o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni rivojlantirib borishi, bugungi kun talablari asosida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalana olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchini sevishi, ularning orzu-istaklari va qiziqishlarini bilishi hamda eng muhimi tushunishi kerak.

O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining ilmiy-amaliy faoliyatini, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil qilishi, aniq bir maqsadga mustaqil yo‘naltirish uchun har bir darsni puxta rejalashtira olishi, lozim bo‘lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida olib borishi lozim. O‘qituvchi doimiy ravishda o‘quvchilarni o‘rganilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini aytishga undashi, ular tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o‘z iste’dodini namoyish qilishga bo‘lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag‘batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, nutqiy kompetensiyasini, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim bo‘ladi. O‘qituvchi shu tariqa nafaqat o‘quvchi bilimini, balki o‘zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtirib boradi; o‘quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o‘z vazifasiga mas’uliyat hissi bilan yondashish, o‘zidagi intellektual salohiyatni o‘quvchi bilan baham ko‘rish, bag‘rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o‘rganadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili ta’limining maqsadi o‘z fikrini davlat tilida og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘zbek tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda.

Biz yillar davomida o‘zbek tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko‘ra, o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushu-

nish, gapirish, o‘qish, yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Shunday ekan, bu maqsadga erishishda o‘zbek tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish, yozish) ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchilarda bunga nisbatan ko‘nikmalarni shakllantirib borish darkor.

Qo‘lingizdagi mazkur metodik qo‘llanmada 6-sinf "O‘zbek tili" darsligidan o‘rin olgan mavzularni o‘rganish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilishi va yechimi, shuningdek, matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

NUTQIY KOMPETENSIYA ELEMENTLARINI O‘ZBEK TILI DARSLARIDA SHAKLLANTIRISH

Tinglab tushunish

O‘zbek tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarga mashq qildirib borish nihoyatda muhimdir. Bu jarayon orqali o‘quvchi diqqatini uzoq vaqt ushlash malakasi, o‘quvchilarda og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy ma’lumotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb yangiliklar mazmun-mohiyatini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, ibora va yangi so‘zlarning ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim.

Gapirish

O‘zbek tili darslarida o‘quvchining og‘zaki nutqi dialoglarni ishtirokchi bo‘lib ijro etishi, berilgan matnlarni o‘rganishi, mazmunini esa og‘zaki bayon qilishi bilan shakllanib boradi. O‘quvchining gapirish ko‘nikmasi o‘rganilgan mavzuni og‘zaki ifodalashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘rganilgan mavzuni yoki matnni og‘zaki bayon qilayotganida fikrlarini o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalashi, mavjud lug‘at boyligidan oqilona foydalanib, mavzudan chetga chiqmay mazmunni ochib berishi, bog‘lanishli nutqi asosida gapira olishi, undan xulosa chiqarishi zarur. Bu ko‘nikmalar dars jarayonida takomillashtirib borilishi kerak. Nutqini adabiy talaffuz me’yorlari bo‘yicha ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan bayon eta olishi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qilishi lozim.

O‘qib tushunish

O‘qish ko‘nikmasi orqali o‘quvchining tanish va notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish darajasi aniqlanadi. Bunda voqeaband yoki faktologik matnlarni gapning ifoda maqsadi, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qishi, berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni o‘qib tushunishi, turli janrdagi matnlarni o‘qib, o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera olishi, gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshyuralarni, internet materiallarini,

badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunishi aniqlanadi.

Yozish

O‘quvchining o‘zbek tili ta’limi jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. O‘quvchilar fikr ifodasida mantiqiy izchillikka rioya qilishlari, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishlari, ijodiy matnlar yarata olishlari, imlo-ishora belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda, shuningdek, rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlab yozishlari kerak.

I CHORAK
O‘ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!

1-DARS. O‘ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!

Maqsad: o‘zbek tilida salomlashish, tanishish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mavjud bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, mavzuda berilgan lug‘at-so‘zlardan to‘g‘ri foydalana olish, ularni to‘g‘ri yozish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda O‘zbekistonning geografik tuzilishi, viloyat va shaharlarining nomlanishi borasidagi mavjud bilimlarni yanada oshirish.


6

O‘ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!

1. Tinglang. Yozing.

… … , Maks!

Yaxshimisan? Ishlaring yaxshimi?
Oxirgi xatingda … va Buxoro haqida so‘ragan eding. Istasang, ta’tilni birga O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida o‘tkazamiz.
Seni va do‘stlaringni O‘zbekistonga … … . Toshkent, Samarqand, Buxoro, … va boshqa shaharlarga birga sayohat qilamiz. Javobingni kutaman.

Hurmat bilan … Alisher.

2. O‘qing.

TOSHKENT XALQARO AEROPORTI
– Assalomu alaykum, Maks! O‘zbekistonga xush kelibsan! 1
– Va alaykum assalom! 2
4 Men ham xursandman.
5 Sen bilan bu ta’tilda O‘zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohat qilamiz. O‘ylaymanki, bu sayohatimiz bizga juda yoqadi.
3 Seni O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida ko‘rib turganimdan xursandman.
6 Albatta, O‘zbekiston haqida ko‘p narsani bilmoqchiman.

Shmuts

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Bunda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Siz ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Siz yangi o‘quv yiliga tayyormisiz?”, “Yangi o‘quv yilida o‘z oldingizga qanday reja va maqsadlar qo‘ydingiz?”

kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqish hamda ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyligi qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling va ushbu bo‘limda eng ko‘p qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Refleksiya jarayoni. Bunda o‘tgan o‘quv yili davomida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, o‘rgangan lug‘at-so‘zlari hamda yozgi ta’tilni qanday o‘tkazishgani va qanday yangi bilimlarni o‘zlashtirishgani bo‘yicha kichik tahliliy savol-javob o‘tkazib oling.

Vazifalar:

1. Darslikda berilgan shartli belgilar va yangi darslik qahramonlarini o‘quvchilarga tanishtiring.

2. Darslikdagi 1-topshiriqda berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

1-audiomaterial matni

Assalomu alaykum, Maks!

Yaxshimisan? Ishlaring yaxshimi?

Oxirgi xatingda Samarqand va Buxoro haqida so‘ragan eding. Istasang, ta’tilni birga O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida o‘tkazamiz.

Seni va do‘stlaringni O‘zbekistonga taklif qilaman. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga birga sayohat qilamiz. Javobingni kutaman.

Hurmat bilan do‘sting Alisher!

3. Darslikda berilgan komikslar bilan o‘quvchilarni tanishtiring, ularda keltirilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgating va ularning ma’nolarini o‘z ona tillarida tushunishlari hamda og‘zaki nutqda qo‘llay olishlariga erishing.

4. Komikslar asosida keltirilgan dialogni yo ketma-ketlik asosida, yoki rollarga bo‘lgan holda ifodali tarzda o‘qittiring.



5. Rasm asosida shakllantirilgan navbatdagi topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar rasmlarda keltirilgan shahar, joy nomlarini aniqlab olib, ularni dastlab og‘zaki ravishda aytishlari, so‘ngra daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

6. 4-topshiriqni og‘zaki ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan kalit so‘zlar ishtirokida jumlani davom ettirgan holda navbatma-navbat gap tuzishlari lozim. Masalan:

1-o‘quvchi: “*O‘zbekistonda 12 ta viloyat mavjud”.*

2-o‘quvchi: “*O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri”*.

7. 5-topshiriqda O‘zbekistondagi turli shahar va viloyat nomlari keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan rasmlarga qarab harflarni to‘g‘ri ketma-ketlikda yozish orqali ularni topishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nolarni to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskaga esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlashlari lozim. Shu bilan birga loyiha qismida O‘zbekiston xaritasini chizishlari va chet ellik do‘stlari bo‘lganda, ularga vatanimizning qaysi shaharlarini sayohat uchun tavsiya qilishlarini xaritada aynan belgilab kelishlari lozim.

2-DARS. TENGDOSHLARIM


Maqsad: shaxsning ma’lum bir hududga oidligini ko‘rsatuvchi til belgilari, ya’ni *-dan* va *-lik* qo‘shimchalari borasidagi mavjud bilimlarni takrorlash hamda ularni bevosita nutqda, shaxs va sonda moslab ishlata olish malakalarini takomillashtirish; mavzuda berilgan lug‘at-so‘zlardan to‘g‘ri foydalana olish, ularni to‘g‘ri yozish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘quvchilarning turli davlat va millatlar haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlarini yanada kengaytirish; shuningdek, zamonaviy transport vositalaridan biri – tezyurar poyezdlar haqida ma’lumotlar berish va bu borada tegishli ko‘nikmalar hosil qilish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan O‘zbekiston xaritasini chizish va vatanimizdagi sayohatbop shaharlarni ushbu xaritada belgilab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga oid bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda keltirilgan dialog matnini o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda ifodali tarzda o‘qittiring.


2. 2-topshiriqni bajartirishdan oldin shaxsni ma’lum bir hududga oidligini ko‘rsatuvchi *-dan* va *-lik* qo‘shimchalari va ularning shaxs va sonda tuslanishi haqida ma’lumot bering.



Eslatma: bunda atoqli otlar, ya’ni mamlakat, hudud, shahar, qishloq nomlariga *-dan* qo‘shimchasi qo‘shilganda, so‘zlar bosh harfda yozilishini (*O‘zbekistondan, Yevropadan*, *Yaponiyadan* tarzida), *-lik* qo‘shimchasi qo‘shilganda esa atoqli ot turdosh otga aylanib, so‘zlar kichik harflarda yozilishini (*o‘zbekistonlik, yevropalik, yaponiyalik* tarzida) tushuntiring.

3. Yuqoridagi bilimlar asosida 2-topshiriqni dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar

rasmga diqqat qilgan holda kitob qahramonlarining *qayerdan* va *qayerlik* ekanlarini topishlari va javoblarni namunada ko‘rsatilgani kabi yozishlari lozim.



4. 3-topshiriqda keltirilgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

2-audiomaterial matni

“Afrosiyob” tezyurar poyezdi

O‘zbekiston bo‘ylab yerda eng yuqori tezlikda harakatlanuvchi transport “Afrosiyob” tezyurar poyezdidir. Uning eng yuqori tezligi 250 km/h hisoblanadi. U Ispaniyada ishlab chiqarilgan. 2011-yil 22-iyulda birinchi marta Toshkentga olib kelingan va Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘ylab harakatni boshlagan. Elektropoyezdning 2 harakatlantiruvchi lokomotivi, 9 ta yo‘lovchi vagoni va 1 ta restorani bor. Poyezdga jami bo‘lib 257 ta odam sig‘adi; nogironlar uchun ham qulayliklarga ega. O‘rtacha tezlikda harakatlanganda Toshkentdan Samarqandga 2 soatda yetib borishi mumkin.


5. 4-topshiriqda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi gaplardagi chiziqlar o‘rniga tinglagan matnlari bo‘yicha mos keluvchi faktlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirishlari lozim.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatn ma’lumotlari asosida shakllantirilgan testni bajarishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning shartli sinonimlarni qo‘llash bilan bog‘liq malakalari baholanadi. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikro-

fon (mikrofonning qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h.k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.



10

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1.“Afrosiyob” tezyurar poyezdi Ispaniyada ishlab chiqarilgan.*

1. “Afrosiyob” tezyurar poyezdi ___da ishlab chiqarilgan.
2. U ___ yo‘nalishi bo‘ylab harakatni boshlagan.
3. ___ uchun ham qulayliklarga ega.
4. Poyezdga jami bo‘lib ___ odam sig‘adi.
5. ___ yil birinchi marta ___ga olib kelingan.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. *Poyezdga jami bo‘lib 257 ta* ***odam*** *sig‘adi.*
Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.
A) bola B) kishi C) yo‘lovchi

2. *U Ispaniyada* ***ishlab chiqarilgan.***
Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.
A) tayyorlangan B) ishlatilgan C) topilgan

3. *O‘zbekiston bo‘ylab* ***eng yuqori*** *tezlikda harakatlanuvchi transport “Afrosiyob” tezyurar poyezdidir.*
Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.
A) eng chaqqon B) eng kuchli C) eng baland

Mustaqil topshiriq

“Afrosiyob” tezyurar poyezdi haqida ma’lumotlar to‘plang va transportlar mavzusida kollaj tayyorlab keling.

SAMARQAND

1. O‘qing.

SAMARQAND

Samarqand sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. U 2750 yoshdan oshgan. Samarqand ulkan kashfiyotlar markazi ham hisoblanadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 650-yildayoq Samarqandda qog‘ozli kitoblar bo‘lgan. Ulug‘bek rasadxonasida esa globus bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab olishlari lozim. Shuningdek, “Afrosiyob” tezyurar poyezdi haqida ma’lumotlar to‘plab hamda loyiha sifatida poyezdlar bo‘yicha qiziqarli kollaj tayyorlab kelishlari lozim.

Eslatma. Kollaj (frans. *collage* – yelimlash, yopishtirish) – tasviriy san’atdagi texnik usul bo‘lib, biror asos materialga undan rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish san’ati. Masalan, transportlarning kollajida yer ustida, havoda, suv yoki yer ostida harakatlanuvchi bir qancha transportlarning fotosuratlari yoki chizilgan rasmlari ixtiyoriy ketma-ketlik va shaklda yelimlanib, umumiy tag qism (qog‘oz, karton va shu kabi) – asosga yopishtirib chiqiladi va umumiy kompozitsiya hosil qilinadi.

3-DARS. TOSHKENT – SAMARQAND


Maqsad: O‘zbekistondagi tarixiy shahar va ziyoratgohlar haqida ma’lumot berish; orttirma daraja sifatlari, ularning qo‘llanishi, imlosi va talaffuzi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish; mavzuda berilgan lug‘at-so‘zlardan to‘g‘ri foydalana olish, ularni to‘g‘ri yozish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish; shuningdek, ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Afrosiyob” tezyurar poyezdi haqida ma’lumotlar to‘plab kelish hamda loyiha sifatida poyezdlar bo‘yicha qiziqarli kollaj tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Rasm asosida berilgan matnni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Samarqand va u haqida berilgan tarixiy fakt hamda jarayonlarni tushunishlariga diqqat qiling.

2. 2-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar yuqoridagi matn asosida berilgan gap qismlarini namunada ko‘rsatilgani kabi bir-birlariga to‘g‘ri moslab yozishlari lozim. Ya’ni *“Samarqand Rim va Afina bilan tengdosh”, “Amir Temur Samarqandni poytaxtga aylantirdi”* kabi.


11

Samarqand Amir Temur davrida poytaxtga aylantirildi. Shaharning markaziy maydoni – Registon barpo etildi. Bibixonim jome masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambli va bir qancha bog‘lar bunyod etildi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand yanada ko‘rkamlashdi. Ulug‘bek rasadxonasi qurildi.

Ilk bor bu yerga kelgan mehmonlar sayohatini shaharning me’morchilik obidalarini tomosha qilishdan boshlashadi. Bu ko‘hna binolar hali ham o‘z go‘zalligi va ulug‘vorligini yo‘qotmay, jahon ahlini lol qoldirib kelmoqda.

eng qadimiy
bunyod etildi
rasadxona
tomosha qilmoq
ko‘hna
aylanmoq
jo‘natmoq
zavqlanmoq
taklif qilmoq

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Samarqand	globus bo‘lgan.
Mirzo Ulug‘bek davrida	Samarqandni poytaxtga aylantirdi.
Amir Temur	Rim va Afina bilan tengdosh.
Ulug‘bek rasadxonasida	Samarqand yanada ko‘rkamlashdi.

3. Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.

eng qadimiy | g‘oyat go‘zal | juda katta | nihoyatda kuchli

Namuna *Samarqand 2750 yil avval barpo etilgan **qadimiy** shahardir.*

2750 | 73 | 7 | 1925–1930

DIQQAT QILING!
eng
g‘oyat
juda
nihoyatda

4. O‘ylang va toping. Yozing.

keng | past | xafa
xursand | tor | baland

? Xafa

3. Berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

3-audiomaterial matni

Samarqand sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. Uning yoshi 2750 dan oshgan. Samarqand ulkan kashfiyotlar markazi ham hisoblanadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 650-yildayoq Samarqandda

qog‘oz kitoblar bo‘lgan. Ulug‘bek rasadxonasida esa globus bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor.

Samarqand Amir Temur davrida poytaxtga aylantirildi. Shaharning markaziy maydoni – Registon barpo etildi. Bibixonim jome masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambli va bir qancha bog‘lar bunyod etildi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand yanada ko‘rkamlashdi. Ulug‘bek rasadxonasi qurildi.

Ilk bor bu yerga kelgan mehmonlar sayohatini shaharning me’morchilik obidalarini tomosha qilishdan boshlashadi. Bu ko‘hna binolar hali ham o‘z go‘zalligi va ulug‘vorligini yo‘qotmay jahon ahlini lol qoldirib kelmoqda.


12

5. O'ylang va toping. Gapiring.

SAMARQANDDA BIR KUN

Mustaqil topshiriq

Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati haqida ma'lumot topib keling.

4. Orttirma darajadagi sifatlar va ushbu darajani hosil qiluvchi *eng, juda, nihoyatda, bag‘oyat* so‘zlari haqida ma’lumot bering. Ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalar bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. O‘quvchilarga mustaqil ravishda orttirma darajadagi sifatlarni qo‘llagan holda so‘z birikmasi hamda gaplar tuzdiring va shu tariqa ularni nutqda qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiling.

5. Yuqoridagi bilimlar asosida navbatdagi topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari asosida namunada ko‘rsatilgani kabi orttirma darajadagi sifatlardan mosini qo‘yib, gaplar tuzishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Samarqand 2750 yil avval barpo etilgan eng qadimiy shaharlardandir.

6. 5-topshiriqda ham orttirma darajadagi sifatlarni qo‘llash bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar rasmlar asosida kalit so‘zlar tariqasida berilgan sifatlar oldidan mos keluvchi orttirma daraja shakllarini qo‘yib, jumlalarni ko‘chirishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajariladi.

7. Navbatdagi topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar ushbu rasmlar asosida “Samarqandda bir kun” mavzusida kichik matn tuzib berishlari, ya’ni rasmlarni og‘zaki ravishda o‘zbek tilida bayon qilishlari lozim.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ish-

lang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Geometrik figura” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan turli geometrik shakldagi kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu shakllar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘tgan darslarda yodlarida qolgan so‘zlar, masalan, bino, inshoot, qurilma, moslama va shu kabi bir qator narsa-buyum, predmetlarning tashqi ko‘rinishiga mos kelishini tasavvur qilgan holda topishlari va kartochka orqasiga o‘sha predmet, bino yoki joy nomini yozishlari kerak. Masalan, aylana shakli – *globus, Yer sayyorasi, gumbaz, do‘ppi* va hokazo; to‘rtburchak – *Registon maydoni, kitoblar, Ulug‘bek madrasasi, xat, poyezd, tarixiy binolar* va hokazo.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yod olishlari, shuningdek, Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklarning hayoti va faoliyatlari haqida ma’lumotlar topib, o‘rganib kelishlari lozim.

4-DARS. SAMARQANDNING YURAGI

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida qadimiy va navqiron Samarqand, uning mashhur qadamjolari, tarixiy inshoot va ziyoratgohlari haqida o‘quvchilarda umumiy bilim va tasavvur hosil qilish; uzoq o‘tgan zamon fe’l shakli qo‘shimchasi *-gan* haqida ma’lumot berish; uzoq o‘tgan zamon shaklining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; shuningdek, norasmiy xat yozish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklarning hayoti va faoliyatlari haqida ma’lumotlar topib, o‘rganib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Komikslarni o‘qittiring. (bunda ko‘ngilli o‘quvchilarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittirishingiz maqsadga muvofiq)

Komikslar yuzasidan berilgan savollarni o‘qib eshittiring va o‘quvchilardan dastlab og‘zaki tarzda, so‘ngra yozma ko‘rinishda ushbu savollarga javob berishlarini so‘rang. Bunda mantiqiy mushohada hamda shaxsiy tajriba va bilim talab qiluvchi savollarga (masalan, YUNESKO haqidagi savol) imkon qadar erkinroq yondashing va o‘quvchilarning shaxsiy fikr va mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.


13

SAMARQANDNING YURAGI

1. O‘qing.

Samarqandga kelgan sayyohlar birinchi Registon maydoniga borishadi. Registon maydoni Samarqandning yuragi hisoblanadi. U yerda Ulug‘bek, Tillakori va Sherdor madrasalari qad rostlagan.

“Registon” so‘zi “qumloq joy” degan ma’noni anglatadi. O‘rta asrlarda shahar markazi “Registon” deb atalgan. Shu nomdagi maydonlar Toshkent, Shahrisabz va Buxoroda ham bo‘lgan.


Samarqandning Registon maydoni Markaziy Osiyoning eng salobatli maydonlaridan bo‘lgan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti O‘zbekistonning **eng katta** va **zamonaviy** aeroporti hisoblanadi.

Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i Samarqand shahri orqali o‘tgan.

2001-yilda Registondagi uch madrasa YUNESKOning butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

2. *“Diqqat qiling!”* qismida uzoq o‘tgan zamon qo‘shimchasi *-gan* yordamida gaplar tuzish chiziqli-sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilidagi uzoq o‘tgan zamon shaklini hosil qiluvchi *-gan* haqida ma’lumot bering. Uzoq o‘tgan zamon shaklining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-gan* shakli yordamida uzoq o‘tgan zamon shakllarini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham fe’llarni og‘zaki ravishda tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.


14

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Berilgan ma’lumotlardan qaysi biri Registon maydoniga oid emas?
2. Danil bergan ma’lumotdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zga qarama-qarshi ma’noli so‘z qaysi?
3. YUNESKO haqida nimalarni bilasiz?
4. Samarqandning yana qanday tarixiy joylari haqida bilasiz?

qumloq
YUNESKO
qad ko‘tarmoq
mashhur bo‘lmoq
tuzmoq
yaratmoq

DIQQAT QILING!

Men -man
Sen bormoq + -gan -san
U –.
Biz -miz
Siz bormoq + -gan -siz
Ular -lar


3. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna *Ulug‘bek rasadxonasi Mirzo Ulug‘bek farmoniga muvofiq qurilgan.*

Assalomu alaykum, qadrli oilam! Bugungi maktubim Ulug‘bek rasadxonasi haqida bo‘ladi.
*Ulug‘bek rasadxonasi Mirzo Ulug‘bek farmoniga muvofiq (**qurilmoq**). Rasadxona joylashgan ushbu hudud mahalliy aholi orasida “Naqshi jahon” nomi bilan mashhur (**bo‘lmoq**). Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida **1018** ta yulduzning o‘rni aniqlangan va jadvali (**tuzilmoq**). O‘sha davrda matematika va astronomiya fanlariga oid ko‘plab nodir asarlar (**yaratilmoq**). Bundan tashqari, ushbu rasadxona qoshida fanning deyarli barcha sohalariga oid qariyb **10 000** jild kitob saqlangan kutubxona ham bo‘lgan.*
Sizlarga yozmoqchi bo‘lganim hozircha shulardan iborat edi. Do‘stlarim bilan tushgan rasmlarimdan jo‘natyapman. Fikrlaringizni kutib qolaman.
Sevimli Maksingiz.

rasadxona sinonim observatoriya

3. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan xatning audiomatnini ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



15

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

o‘qimoq | bormoq | yashamoq | ko‘rmoq | sayohat qilmoq | qiziqtirmoq

Namuna *Samarqandning tarixi xorijliklarni doim* ***qiziqtirgan.***

1. Samarqandning tarixi xorijliklarni doim ____ .
2. Men bolaligimda oilam bilan Rimga ____ .
3. Tarixdagi eng kuchli sarkardalar va olimlar Samarqandda ____ .
4. Sinfdoshlarimiz bilan Samarqand tarixini sevib ____ .
5. Sen kitoblarda Registonning rasmini ko‘p ____ .
6. Siz O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlariga ____ ?

Mustaqil topshiriq

Oilangizning biror a’zosiga Samarqand haqida xat yozing.

NAQADAR GO‘ZAL!

1. O‘qing.

Samarqandning Registon ansambli – dunyoga mashhur tarixiy binolardan biri. Bunday tarixiy va mashhur binolarni boshqa mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Parijda qurilgan Eyfel minorasi, Agrada joylashgan Tojmahal me’moriy yodgorligi, Misr piramidalari va Moskva shahridagi Qizil maydon doim sayyohlar bilan gavjum bo‘ladi.

Bu mashhur joylarning barchasi ham qadimiy emas. Masalan, Parijdagi Eyfel minorasi XIX asrda qurilgan. Ushbu minora o‘zining noyob arxitekturasi bilan mashhur. Shuning uchun Parijga borgan har bir sayyoh Eyfelni ko‘rmasdan qaytmaydi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

A B D E F

4-audiomaterial matni

Assalomu alaykum, qadrli oilam. Bugungi maktubim Ulug‘bek rasadxonasi haqida bo‘ladi.

Ulug‘bek rasadxonasi Mirzo Ulug‘bek farmoniga muvofiq qurilgan. Rasadxona joylashgan ushbu hudud mahalliy aholi orasida “Naqshi jahon” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida 1018 ta yulduzning o‘rni aniqlangan va jadvali tuzilgan. O‘sha davrda matematika va astronomiya fanlariga oid ko‘plab nodir asarlar yaratilgan. Bundan tashqari, ushbu rasadxona qoshida fanning deyarli barcha sohalariga oid qariyb 10 000 jild kitob saqlangan kutubxona ham bo‘lgan.

Sizlarga yozmoqchi bo‘lganim hozircha shulardan iborat edi. Do‘stlarim bilan tushgan rasmlarimdan jo‘natyapman. Fikrlaringizni kutib qolaman.

Sevimli Maksingiz.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha berilgan test savollariga og‘zaki ravishda javob berishlari lozim. Test kalitlari: *1) d; 2) d; 3) a; 4) b; 5) d.*

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini qo‘yib, ularni uzoq o‘tgan zamonda va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib chiqishlari lozim. Masalan: 1. *Samarqandning tarixi xorijliklarni doim* ***qiziqtirgan.*** 2. *Men bolaligimda oilam bilan Rimga* ***sayohat qilganman.*** Bunda o‘quvchilardan gaplarni avval og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda to‘ldirishlarini so‘rashingiz maqsadga muvofiq.

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Globoalfavit” metodini o‘tkazib oling. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligi bo‘yicha bugungi darsda o‘tilgan yodlarida qolgan so‘zlarni aytishlari lozim bo‘ladi. Masalan, 1-o‘quvchi *A* harfi bilan boshlanuvchi


so‘z – *aeroport*; 2-o‘quvchi *B* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *Buxoro* kabi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yod olib, oila a’zolaridan birortasiga Samarqand haqida xat yozib kelishlari lozim.

5-DARS. NAQADAR GO‘ZAL!

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida qadim Samarqand, uning mashhur qadamjolari, xususan, Registon ansambli va dunyoning xuddi shu kabi qator mashhur, diqqatga sazovor joylari haqida ma’lumotlar berish; tarixiy joylar va obidalar hamda madaniy turizm haqida o‘quvchilarda dastlabki bilim va tasavvurlarni hosil qilish; shuningdek, mavzuda berilgan lug‘at-so‘zlar bilan tanishtirish, ularni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan oila a’zolaridan birortasiga Samarqand haqida xat yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



15

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

o‘qimoq | bormoq | yashamoq | ko‘rmoq | sayohat qilmoq | qiziqtirmoq

Namuna *Samarqandning tarixi xorijliklarni doim **qiziqtirgan.***

1. Samarqandning tarixi xorijliklarni doim ____ .
2. Men bolaligimda oilam bilan Rimga ____ .
3. Tarixdagi eng kuchli sarkardalar va olimlar Samarqandda ____ .
4. Sinfdoshlarimiz bilan Samarqand tarixini sevib ____ .
5. Sen kitoblarda Registonning rasmini ko‘p ____ .
6. Siz O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlariga ____ ?

Mustaqil topshiriq

Oilangizning biror a’zosiga Samarqand haqida xat yozing.

NAQADAR GO‘ZAL!

1. O‘qing.

Samarqandning Registon ansambli – dunyoga mashhur tarixiy binolardan biri. Bunday tarixiy va mashhur binolarni boshqa mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Parijda qurilgan Eyfel minorasi, Agrada joylashgan Tojmahal me’moriy yodgorligi, Misr piramidalari va Moskva shahridagi Qizil maydon doim sayyohlar bilan gavjum bo‘ladi.


Bu mashhur joylarning barchasi ham qadimiy emas. Masalan, Parijdagi Eyfel minorasi XIX asrda qurilgan. Ushbu minora o‘zining noyob arxitekturasi bilan mashhur. Shuning uchun Parijga borgan har bir sayyoh Eyfelni ko‘rmasdan qaytmaydi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

A B D E F

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida navbatma-navbat o‘qittiring. Matnda ifodalangan tarixiy shahar va inshootlar haqida tushuncha va tasavvurlari bor-yo‘qligiga e’tibor bering. Kerakli o‘rinlarda tushuntirish va izohlar berib o‘ting.



16

3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Bolalar sayohatni Toshkentdan boshlashdi.		
2	Samarqandga “Afrosiyob” poyezdida borishdi.		
3	Alisher Danil va uning do‘stlarini O‘zbekistonga taklif qildi.		
4	Mirzo Ulug‘bek o‘z rasadxonasida 1018 ta yulduzning joylashuvini o‘rgangan.		
5	Registon uch madrasadan: Tillakori, Bibixonim va Sherdor madrasalaridan iborat.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.*

1. o‘zga yurtingda bo‘lguncha shoh gado o‘z yurtda bo‘l.
2. yurting ona beshiging oltin.
3. ona omon yurting bo‘lsa bo‘lmas rangi ro‘ying somon.
4. chamanni odam sevar vatanni bulbul
5. vatan bilmagan o‘z qadrini bilmas qadrini.

2. 2-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlarda aks etgan binolar haqida ma’lumotlarni og‘zaki gapirtiring.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni 2 marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


5-audiomaterial matni

Alisher chet ellik do‘sti Maks va uning do‘stlarini O‘zbekistonga taklif qildi. Ular yozgi ta’tilda O‘zbekistonga kelishdi. Bolalar sayohatni Samarqanddan boshlashdi. Sayohatga “Afrosiyob” tezyurar poyezdida borishdi. Samarqand ularga juda yoqdi. U yerda Registon va Ulug‘bek rasadxonasini tomosha qilishdi.

Danil Registondagi Tillakori, Sherdor, Ulug‘bek madrasalarida rasmga tushdi va rasmlarni oilasiga yubordi. Maks Mirzo Ulug‘bek rasadxonasiga juda qiziqib qoldi. U oilasiga yozgan xatida buyuk astronom va uning 1018 yulduzni o‘rgangani haqida ma’lumotlar berdi. Maksning ota-onasiga ham O‘zbekiston juda yoqdi va ular ham O‘zbekistonga borishni niyat qilishdi.

4. Audiomatn yuzasidan berilgan hukmlarni diqqat bilan o‘qittiring. Bunda o‘quvchilar hukmlarning yuqoridagi tinglab tushungan matnlariga muvofiq yoki muvofiq emasligini topishlari va *“to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri”* tarzida javob berishlari zarur. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 5-topshiriqda o‘zbek xalq maqollari o‘zgargan tartibda berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar so‘zlarning tartibini namunadagi kabi to‘g‘ri ketma-ketlikda yozishlari zarur. Namuna:



17

6. O‘ylang va toping. Yozing.

1. 2011-yili O‘zbekistonga olib kelinib, ilk bor Toshkent – Samarqand yo‘nalishida harakatlangan poyezd.
2. Maksning yaponiyalik do‘sti kim?
3. Yulduzlar o‘rganiladigan joy.
4. O‘zbekistonning poytaxti.
5. “Samarqandning yuragi” qayer?
6. Registondagi madrasalardan birining nomi.

Mustaqil topshiriq

Sayohatga borganingizda u yerdan esdalik uchun qanday sovg‘a olgansiz? Shu haqida ma’lumot bering.

SAMARQAND – BUXORO

Vokzallar	Qatnov jadvali
	Jo‘nash vaqti
Samarqand	10:21
	Kelish vaqti
Buxoro	12:00

1. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.

2. Ona yurting – oltin beshiging.

Topshiriq daftarda yozma ravishda bajarilishi lozim.

6. 6-topshiriqda o‘tgan mavzular yuzasidan mustahkamlash sifatida krossvord berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar savollarni o‘qiydilar va javoblarini krossvord katakchalariga (daftarlariga qalamda chizib olib) mos ravishda kiritib chiqadilar yoki savol-javob shaklida yozadilar.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tildagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodidan foydalaning. Bunda o‘quvchilar dars davomida yodda qolgan birorta so‘zni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki ko‘ngilli ravishda (qo‘l ko‘targan holda) aytishlari mumkin.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor takrorlab, sayohatga borganlarida esdalik uchun qanday sovg‘a olganlari haqida kichik axborotli matn yozib kelishlari lozim.

6-DARS. SAMARQAND – BUXORO

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida Buxoro shahri, uning mashhur qadamjolari, xususan, Labihovuz va shu kabi mashhur, diqqatga sazovor joylari haqida ma’lumotlar berish; tarixiy joylar va obidalar, madaniy turizm bo‘yicha o‘quvchilarda dastlabki bilim va tasavvurlarni hamda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish; shuningdek, yaqin o‘tgan zamon fe’li (*-di* shakli) yuzasidan mavjud bilimlarni yanada mustahkamlash; uning yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan sayohatga borganlarida esdalik uchun qanday sovg‘a olganlari haqida yozib kelgan kichik axborotli matnni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu

bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


18

1. O‘qing.

1 Alisher, Buxoroda ham sayohatimiz qiziqarli bo‘ladimi?
2 Ha, albatta. Buxoro ham Samarqand kabi qadimiy shahar.
Albatta. Eng mashhurlari – Labihovuz va Minorayi kalon.
3 Uning yoshi nechada?
4 2500 yildan ortiq.
5 Buxoroda ham qadimiy yodgorliklar ko‘pmi?
6
Buxoro gilamlari va zardo‘zi mahsulotlari bilan mashhur deb eshitganman.
7
Buxoro hunarmandlar yurti deb eshitganman. Shu rostmi?
9
8 To‘g‘ri. Bunga sayohatimiz davomida amin bo‘lasiz.
10 Albatta, Buxoro zardo‘zlik, zargarlik va kulolchilik san’ati bilan juda mashhur.
Bolalar, Buxoro 1997-yilda YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan ekan.
11

Vazifalar:


1. 1-topshiriqda berilgan komiksga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Komikslar asosida berilgan suhbat-dialoglarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. Komiksda o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini o‘quvchilarga o‘z ona tillarida tushuntiring.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar komikslar asosida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushungan matnlari bo‘yicha to‘g‘ri davom ettirishlari lozim. Topshiriq og‘zaki ravishda bajariladi.

4. “Diqqat qiling!” qismida yaqin o‘tgan zamon shaklini hosil qiluvchi *-di* qo‘shimchasining qo‘llanishi chiziqli sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilida yaqin o‘tgan zamon shaklini hosil qiluvchi *-di* shakli haqida ma’lumotlar bering. Yaqin o‘tgan zamon shaklining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘nikma hosil qiling. Misollar orqali *-di* shakli yordamida yaqin o‘tgan zamon shakllarini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

5. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


19

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Bir yuz qirqdan ortiq …
2. Bir ming to‘qqiz yuz to‘qson yettinchi yilda …
3. Ikki ming besh yuz yildan ortiq …

DIQQAT QILING!

Men — kezmoq + -di — -m
Sen — kezmoq + -di — -ng
U — kezmoq + -di — –.
Biz — kezmoq + -di — -k
Siz — kezmoq + -di — -ngiz
Ular — kezmoq + -di — -lar

3. Tinglang.

BUXORO

6-audiomaterial matni

Alisher:

– Assalomu alaykum, oyijon!

Onasi:

– Vaalaykum assalom! Yaxshi dam oldingmi?

Alisher:

– Rahmat, oyijon. Biz hozirgina Buxorodagi arkni aylanib chiqdik. Ark Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo‘lgan ekan. Gid bizga Buxoro arkining I asrdan qurila boshlanganini aytdi. Biz ko‘rgan hozirgi ark avvalgi binoning taxminan 20% i ekan. Ark majumuada xitoylik sayyohlarni uchratdik. Ular ark devorlarini Buyuk Xitoy devoriga o‘xshatdi.

Onasi:

– Labihovuzni ham tomosha qildingizmi?

Alisher:

– Ha, sayohatimiz Labihovuzdan boshlandi. U yer Buxoroning markaziy maydonlaridan biri ekan. Buxoroliklar Labihovuz Buyuk ipak yo‘lining savdo maydonlaridan biri bo‘lganligini aytishdi.

Onasi:


– Labihovuz atrofidagi madrasalarga ham kirdingizmi?

Alisher:

– Ha, oyijon, u yerlarga kirdik. Lekin bizga maydonda o‘rnatilgan Xo‘ja Nasriddinning haykali ko‘proq yoqdi. Xo‘ja Nasriddin bilan rasmga tushdik.

Onasi:

– O‘g‘lim, soat 12 bo‘ldi. O‘rtoqlaring bilan tushlik qilib ol.



20

4. O'ylang va toping. Yozing.

Ma'lumotlar	Buxoro arki	Labihovuz
Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lgan.		
Ipak yo'lining savdo maydonlaridan biri bo'lgan.		
Miloddan avvalgi I asrdan qurila boshlagan.		
Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatilgan.		
Hozirgi ark qadimgi binoning taxminan 20 foizi.		

5. O'ylang va toping. Yozing.

yetib bormoq, zavqlanmoq, aylanmoq, sotib olmoq, tomosha qilmoq

ko'hna, qarorgoh, taxminan, xonaqoh, buyruq, tashabbus

Namuna *1. Men kechki Buxoroni **tomosha qildim.***

1. Men kechki Buxoroni ___ .
2. Sen Labihovuzda o'tkazilgan jonli tadbirlarda ___ ?
3. Biz Samarqanddan Buxoroga avtobusda ___ .
4. Alisher do'stlari bilan Buxoro arkini ___ .
5. Sayyohlar Labihovuz rastalaridan esdalik sovg'alari ___ .

LATIFA

Maktabda Afandidan domlasi so'rabdi:
– Nasriddin! To'rtdan to'rtni olsa, nima qoladi?
Afandi javob berolmabdi.
– Masalan, cho'ntagingda to'rt tanga pul bor edi. Shu pul cho'ntagingdan tushib qolsa, nima qoladi?
– Nima qolar edi, tanga tushib ketgan teshik qoladi-da, – deb javob beribdi Afandi.

Mustaqil topshiriq

Buxoro haqida ma'lumotlar to'plang va yozing. Unga Buxoro shahri tasvirlangan rasmlardan yopishtirib, yo'lovchi kundaligi maketini yasab keling.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatnni tinglab tushunganlari bo‘yicha jadvalda berilgan ma’lumotlarning qaysi tarixiy obidaga oid ekanligini topishlari va mos ravishda jadvaldagi tegishli ustunga kiritishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

7. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini qo‘yib, ularni yaqin o‘tgan zamon (*-di* shakli) va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib chiqishlari lozim. Masalan: 1. *Men kechki Buxoroni **tomosha qildim**.* 2. *Sen Labihovuzda o‘tkazilgan jonli tadbirlardan **zavqlandingmi**?* (Bunda o‘quvchilardan gaplarni avval og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda to‘ldirishlarini so‘rashingiz maqsadga muvofiq)

8. Nasriddin afandi latifasini o‘quvchilarga o‘qib bering, bunda o‘quvchilarga latifani rollarga bo‘lib obrazli tarzda ijro qildirishingiz ham mumkin. Latifaning ma’nosini o‘quvchilarga (kerak bo‘lsa, o‘z ona tillarida) tushuntiring. Yana qanday Afandi latifalarini bilishlari haqida so‘rang.

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *sayohat* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda bosh harflar bilan (*SAYOHAT* tarzida) yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *S, A, Y, O, H, A, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, uni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlashlari hamda Buxoro haqida ma’lumotlar to‘plab, ularni daftarlariga yozishlari, unga Buxoro shahri tasvirlangan rasmlardan yopishtirib kichik yo‘lovchi kundaligi maketini (daftarlarining bir sahifasida) tayyorlab kelishlari lozim.

7-DARS. BUXORO – XIVA

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida Xiva shahri, uning mashhur qadamjolari, xususan, Ichanqal’a me’moriy yodgorligi haqida ma’lumotlar berish; tarixiy joylar va obidalar, madaniy turizm va sayyohlik bo‘yicha o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish; shuningdek, o‘tgan zamon fe’lining *-ib* shakli bilan tanishtirish; uning yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan Buxoro haqida ma’lumotlar to‘plab, ularni daftarlariga yozish va unga Buxoro shahri tas-

virlangan rasmlardan yopishtirib, kichik yo‘lovchi kundaligi maketini (daftarlarining bir sahifasida) tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan komiksga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Komiks asosida berilgan suhbat-dialogni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.



2. O‘qib tushunishga topshiriq qilish kerak!

3. 2-topshiriqda berilgan Ichanqal’a va Dishanqal’a rasmlariga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



7-audiomaterial matni

Xiva – O‘zbekistonning Xorazm viloyatida joylashgan qadimiy shaharlaridan biri. Shahar miloddan avvalgi V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimgi qismida joylashgan Xiva qudug‘i bilan bog‘liq.


Xiva o‘zining o‘tmishi, me’moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi bilan qadimiy shaharlar orasida alohida o‘rin tutadi. Xivaning Ichanqal’a qismi jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Xiva ikki qismdan iborat: shaharning tashqi tomoni Dishanqal’a deyiladi; shaharning ichki qismi esa Ichanqal’a deyiladi. Xivaning barcha

me’moriy yodgorliklari saqlab qolingan. U “tirik” muzey-shahardir.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha berilgan savollarga javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 4-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar berilgan rasmlar o‘rtasidagi mantiqiy va uzviy bog‘liqlikni aniqlab namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro to‘g‘ri moslashtirib chiqishlari kerak. Masalan, rasadxona Mirzo Ulug‘bek bilan, Registon maydoni Sherdor madrasasi bilan uzviy bog‘liq, demak, ushbu rasmlar ham bir-biri bilan bog‘lanishi zarur. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.


23

DIQQAT QILING!

Men — Sen — U — aytmoq + -ib, -b — -man, -san, -di

Biz — Siz — Ular — aytmoq + -ib, -b — -miz, -siz, -dilar

U Xivaga bugun boribdi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Ular yaxshi yetib olibdilar.*

(Alisherning onasi va otasi suhbatlashishyapti.)
Alisherning otasi:
– Alisher Xorazmga yetib boribdimi?
Alisherning onasi:
– Biroz avval qo‘ng‘iroqlashdik. **Ular yaxshi *(yetib olmoq)*.** Tushgacha mehmonxonada dam olibdilar. **Bolalar tushdan so‘ng Xivani *(tomosha qilmoq)*.**
Alisherning otasi:
– Xivadagi rasmlaridan ham yuboribdimi?
Alisherning onasi:
– Albatta, yuboribdi. Menimcha, ular Xivani hali to‘liq ko‘rishga ulgurmagan. Bolalar juda xursand edi. **Suzuko minora oldida rasmga chiroyli *(tushmoq)*.** Mana shu minoraning otini topa olmadim. Esladingizmi, biz ham shu yerda rasmga tushgan edik?
Alisherning otasi:
– Ha, bu – Kaltaminor. U – Xivaning ramzi.
Alisherning onasi:
– **Alisher ukalariga cho‘girma *(sotib olmoq)*. Xabarining so‘ngida barchamizga *(salom yo‘llamoq)*.**
Alisherning otasi:
– **Men o‘g‘limizni qattiq *(sog‘inmoq)*.**

Mustaqil topshiriq

Ichan qal’adagi minoraning maketini yasang (chizing).

6. “Diqqat qiling!” qismida o‘tgan zamon shaklini hosil qiluvchi *-ib* qo‘shimchasining qo‘llanishi chiziqli sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilidagi o‘tgan zamon shaklini hosil qiluvchi *-ib* shakli haqida ma’lumotlar bering. O‘tgan zamon shaklining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha ko‘nikma hosil qiling. Misollar orqali *-ib* shakli yordamida yaqin o‘tgan zamon shakllarini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

7. 5-topshiriqda Alisherning ota-onasining o‘zaro suhbat-dialogi berilgan bo‘lib, uning ayrim qismlaridagi ajratib ko‘rsatilgan fe’llar noaniq shaklda turibdi. O‘quvchilar ushbu fe’llarni o‘tgan zamon *-ib* shakliga o‘girishlari va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozishlari lozim. Namuna:

Ular yaxshi yetib olibdilar.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “BBB” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar daftarlariga uch ustundan iborat jadval chizadilar. Birinchi ustunga “Bilar edim”, ikkinchi ustunga “Bilib oldim” va uchinchi ustunga “Bilishni xohlayman” deb yozadilar va bugungi darsga xulosa qilgan holda shu uch ustunga tegishli ma’lumot va fikrlarini mos ravishda yozib qo‘yadilar, so‘ngra o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni xotirada mustahkamlab, Ichanqal’adagi minora – Kaltaminor maketini yasab (chizib) kelishlari lozim.

8-DARS. XIVA – NUKUS

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida Nukus shahri, uning diqqatga sazovor joylari, xususan, Savitskiy muzeyi va Berdaq milliy muzeyi haqida ma’lumotlar berish; tarixiy joylar va obidalar, madaniy turizm bo‘yicha o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalar hosil qilish; shuningdek, o‘tgan zamon fe’lining *-ib* shakli bo‘yicha bilimlarni yana bir bor mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan Ichanqal’adagi minora – Kaltaminor maketini yasab (chizib) kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga taqsimot asosida navbatma-navbat o‘qiting. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini o‘quvchilarga izohlab bering.

2. Matnga ilova qilingan rasmni diqqat bilan kuzatishlarini so‘rang.

3. Matn asosida berilgan savollarga og‘zaki ravishda javob berishlarini so‘rang.

4. 3-topshiriqda berilgan Savitskiy va Berdaq milliy muzeyi rasmlariga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm haqidagi audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



24

XIVA – NUKUS

1. O‘qing.

Nukus – Qoraqalpog‘istonning poytaxti, O‘zbekistonning eng shimoli-g‘arbiy shaharlaridan biri. Nukus shahrida diqqatga sazovor joylar, tarixiy yodgorliklar va zamonaviy binolarni ko‘rishingiz mumkin. “Do‘stlik” xiyoboni, Savitskiy nomidagi san’at muzeyi, Berdaq milliy muzeyi shular jumlasidandir.

Nukusdan tashqari, Mo‘ynoq, Beruniy, Xo‘jayli, Chimboy, Qo‘ng‘irot, Shumanay, Amudaryo, To‘rtko‘l kabi tumanlar ham bor. Mo‘ynoq – hozirda sayyohlarni o‘ziga eng ko‘p jalb qilayotgan joylardan biri.

Qoraqalpog‘istonning eng yirik ko‘li Oroldir.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Nukus to‘g‘risida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Amir Temur nomidagi bog‘ va xiyobonlar yana qayerlarda bor?
3. Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?

3. Tinglang.


8-audiomaterial matni

Nukusdagi afsonaviy Savitskiy nomidagi san’at muzeyini Markaziy Osiyo “Luvr”i deb atashadi. Muzey Nukus shahrining markazida joylashgan. Uning asoschisi Igor Vitalyevich Savitskiydir. Muzey 1966-yilda tashkil topgan. 1984-yildan I. V. Savitskiy nomi bilan ataladi. Uning kolleksiyasida yuz mingga yaqin eksponat mavjud. Muzey fondida 1920–30-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to‘plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtado‘zlik, to‘qimachilik buyumlari, o‘tov jihozlari va boshqalar amaliy san’at bo‘limida jamlangan.

Berdaq nomidagi davlat muzeyi mahalliy aholi va mehmonlarni qadimgi davrdan to bugungi kungacha bo‘lgan o‘lka tarixi bilan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan. Bino 1997-yilda buyuk qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri – Berdaqning 170 yilligi munosabati bilan qurilgan.

5. 4-topshiriqda berilgan so‘zlardan foydalanib gaplarni og‘zaki tuzdiring va yozdiring.

6. 5-topshiriqda berilgan Agata va Suzukoning o‘zaro suhbat-dialogini ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.



25

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Luvr muzeyi | o‘tov | 170 yil | amaliy san’at | 1966-yil | Igor | Nukus | 1997-yil

5. O‘qing.

Bolalar, bilasizmi, Berdaq milliy muzeyi qoraqalpoq adabiyoti asoschisi, shoir Berdaq nomiga qo‘yilgan. Asl ismi – Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li. U Mo‘ynoq tumanida yashagan ekan.

Qoraqalpog‘iston san’at muzeyi uning asoschisi va birinchi direktori – Igor Vitalyevich Savitskiy nomi bilan atalgan. I.V. Savitskiy 1915-yilda Kiyevda tug‘ilgan. U buyuk rassom bo‘lgan.

6. Yozing.

Namuna:

Men, Sen, U + rasmlarni saqlamoq + -ib, -b + -man, -san, -di

Biz, Siz, Ular + rasmlarni saqlamoq + -ib, -b + -miz, -siz, -dilar

saqlamoq, to‘plamoq, yopishtirmoq, kesmoq

Mustaqil topshiriq

Biror-bir buyuk rassom yoki shoir haqida ma’lumot yozib keling.

7. 6-topshiriqda o‘quvchilar berilgan noaniq shakldagi fe’llarni o‘tgan zamonning *-ib* shaklida, har uchala shaxsda, birlikda va ko‘plikda to‘g‘ri tuslagan holda namunada ko‘rsatilgani kabi yozishlari lozim. Namuna: *Men rasmlarni*

*saqla**b**man. Sen rasmlarni saqla**b**san. U rasmlarni saqla**b**di. Biz rasmlarni saqla**b**miz. Siz rasmlarni saqla**b**siz. Ular rasmlarni saqla**b**dilar.*

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tildagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonlini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Peshonamdagini top” metodini qo‘llang. Bunda dastavval o‘quvchilarga bo‘sh qog‘oz kartochkalarini tarqating. O‘quvchilar ushbu kartochkalarga bugun darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan birini eslab yozishlari lozim. So‘ngra ushbu kartochkalarni yig‘ib oling va ixtiyoriy ravishda yoki o‘tirgan ketma-ketligi bo‘yicha bittadan o‘quvchini doska oldiga taklif qiling, yig‘ilgan kartochkalarning sirt tomonidan ixtiyoriy tanlating. Tanlangan kartochkani o‘quvchining peshona qismiga, o‘ziga ko‘rsatmagan holda, yopishqoq tasmachalar yordamida beozor mahkamlang. Qolgan o‘quvchilar ushbu so‘zning sifat va belgilarini aytishi, doskadagi o‘quvchi esa bu qaysi so‘z ekanini topishi kerak.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘zlari yoqtirgan biror buyuk rassom yoki shoir haqida ma’lumot yozib kelishlari lozim.

9-DARS. NUKUS – TOSHKENT

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida poytaxt – Toshkent shahri, uning tarixiy qadamjo va inshootlari haqida ma’lumotlar berish; tarixiy joylar va obidalar, madaniy turizm bo‘yicha o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish; fe’llardagi nisbat kategoriyasi, xususan, *-l/-il*, *-n/-in* majhul nisbat qo‘shimchalari haqida ma’lumotlar berish; ularning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash.


26

NUKUS – TOSHKENT

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent qadimda Shosh deb atalgan.

1. Toshkent qadimda (*Semizkand / Shosh*) deb atalgan.
2. Buyuk ipak yo‘lining (*sharqiy / shimoliy*) tarmog‘i Toshkent orqali o‘tgan.
3. Yirik bozorlardan biri Chorsu (*Jo‘ba / Registon / Sardoba / Eski Jo‘va*) nomlari bilan yuritilgan.
4. Toshkentda (*Xoja Ahror / Yunusxon / Islomxo‘ja / Ko‘kaldosh / Hazrati imom / Hastimom / Zangi ota*) va boshqa masjid, madrasa va ziyoratgohlar barpo etilgan.

3. O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.

Ko‘kaldosh madrasasini XVI asrda Darvishxon qurdirgan.

Chorsu – 1000 yillik tarixga ega bozor.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriqqa javoban o‘quvchilar yozib kelgan biror buyuk rassom yoki shoir haqida ma’lumotni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning o‘rin-joy ravishlari hamda joy nomlari yuzasidan mavjud bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasmlarga oid audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

9-audiomaterial matni

Toshkent

(Toshkent, o‘q-yoy, Buyuk ipak yo‘li xaritasi, Chorsu bozori rasmlari beriladi)

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti. (1) U 2000 yildan ortiqroq tarixga ega. Buyuk ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i (2) Toshkent orqali o‘tgan.

Toshkentda yasalgan o‘q-yoy (3) butun Sharqda “kamoni Shoshiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan, chunki Toshkent qadimda Shosh deb atalgan. Shaharning asosiy katta bozori hozirgi Chorsu (4) hisoblangan.

Chorsu turli davrlarda “Jo‘ba”, “Registon”, “Eski Juva” nomlari bilan yuritilgan.

Toshkentda Xoja Ahror, Yunusxon, Ko‘kaldosh, Hazrati Imom (Hastimom), Zangi ota va boshqa masjid, madrasa va ziyoratgohlar barpo etilgan. 1930-yildan bu shahar poytaxtga aylantirilgan.


27

Abulqosimxon eshon madrasasi 1850-yilda qurilgan.

Toshkentlik mashhur olim Qaffol Shoshiy maqbarasi joylashgan hududda Hazrati imom majmuasi qurilgan.

DIQQAT QILING!

uyni qurdi.

-l, -il

qurildi.

Kim qurdi?

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Singlim idishlarni yuvdi. Oshxonadagi idishlar yuvildi.

1. Singlim idishlarni yuvdi. Oshxonadagi idishlar ___ .
2. Bog‘bon olmalarni uzdi. Bog‘dagi olmalar ___ .
3. Nigora ko‘chani supurdi. Ko‘chalar___ .
4. Alisher kitobni o‘qidi. Kitoblar ___ .
5. Navbatchi gullarga suv quydi. Gullarga suv ___ .

xalqaro savdo
mashhur
ziyoratgoh
yuritmoq
yirik
mamnunman
safar
bag‘oyat
rasta
ishtaha ochmoq

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna Uchquduq Navoiy viloyatida.

3 + quduq 4 + ko‘l + ko‘l + kent + tepa

3 + 6 + ariq + qamish Yangi +

2. 2-topshiriqda yuqoridagi audiomatn asosida shakllantirilgan ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar orasida yanglish javoblar ham mavjud. O‘quvchilar tinglab tushungan matnlari bo‘yicha ushbu ma’lumotlar orasidan to‘g‘ri javoblar – faktlarni aniqlashlari va namunada ko‘rsatilgani kabi belgilashlari lozim. Bunda topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

3. 3-topshiriqda berilgan ma’lumotlarni o‘qittiring. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar asosida savollar tuzishlari lozim. Topshiriqni yozma ravishda bajartiring.

4. “Diqqat qiling!” qismida fe’llarning majhul va aniq nisbatdagi ko‘rinishi sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. Fe’llardagi nisbat kategoriyasi, xususan, majhul nisbat, uning ifodalanishi, ushbu nisbatni hosil qiluvchi *-l/-il*, *-n/-in* qo‘shimchalari haqida ma’lumotlar bering. Majhul nisbatning yasalishi, imlosi, gaplarda ifodalanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha ko‘nikma hosil qiling. *-l/-il, -n/-in* qo‘shimchalari yordamida bir nechta majhul nisbatdagi fe’llarni hosil qiling va o‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni dastlab aniq, so‘ng majhul nisbatda tuslab, ular ishtirokida jumla yoki gap tuzib berishlarini so‘rang. Namuna: *yozdi* (aniq nisbat) – *yoz**il**di* (majhul nisbat). *Maktublar yoz**il**di, kitoblar o‘q**il**di, sayohatga bor**il**di, rasmlar chiz**il**di, sovg‘alar ol**in**di, chiqindilar to‘pla**n**di* va hokazo.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar aniq nisbatdagi fe’llarni majhul nisbatga aylantirishlari va namunada ko‘rsatilgani kabi gaplarni to‘g‘rilab ko‘chirishlari lozim. Namuna:

Singlim idishlarni yuvdi.

*Oshxonadagi idishlar yuv**il**di.*

6. 5-topshiriqda berilgan boshqotirmaga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu boshqotirmada O‘zbekistondagi tuman va shahar nomlari yashirilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar berilgan rasm,

so‘z va raqamlarni o‘zaro assotsiatsiya qilgan holda ushbu joy nomlarini topishlari va uning qaysi viloyat (hudud)da joylashganini aniqlab, namunadagi tartibda gaplarni yozishlari lozim.

Namuna: ***Uchquduq*** *Navoiy viloyatida joylashgan.*

To‘rtko‘l *– Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tuman.*

Toshkent *– O‘zbekistonning poytaxti.*



7. 6-topshiriqda Agata va Maksning O‘zbekiston bo‘ylab qilgan sayohatlaridan lavhalar aks etgan. Ushbu rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Agata, Maks va Alisherning o‘zaro suhbat-dialogini rollarga bo‘lgan holda ifodali tarzda o‘qittiring.

8. 6-topshiriqda yuqoridagi suhbat dialog asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari kerak. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq.

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga olishlari va uch bo‘g‘inli so‘zga bittadan misol aytishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari” mavzusida kollaj tayyorlab kelishlari lozim bo‘ladi.

10-DARS. ZAMONAVIY TOSHKENT

Maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” turkum mavzulari doirasida poytaxt – Toshkent shahri, uning bugungi ko‘rinishi va zamonaviy inshootlari, diqqatga sazovor bino va qadamjolari, xususan, Toshkent teleminorasi haqida ma’lumotlar berish. madaniy turizm va sayyohlik bo‘yicha o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish; *-l, -il* majhul nisbat qo‘shimchalari, ularning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yana bir bor mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari” mavzusida kollaj tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning joy nomlari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar:

1. Berilgan komikslarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Komikslarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda komikslar asosida shakllantirilgan gaplar berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan matnlari bo‘yicha ushbu gaplarga qavs ichida berilgan ma’lumotlardan mosini qo‘ygan holda ularni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*1. Toshkent teleminorasi balandligi bo‘yicha **O‘rta Osiyoda** birinchi o‘rinda turadi.*

*2. Teleminora MDHda **Ostankino** teleminorasidan keyingi o‘rinda turadi.*



29

7. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Alisher mehmonlarni zamonaviy Toshkent bilan ham tanishtiradi.		
2	Agataga bozorda non sotadigan rasta juda ma’qul bo‘ldi.		
3	Agataning non isidan ishtahasi ochildi.		
4	Chorsu bozori – faqat hunarmandchilik buyumlari sotiladigan bozor.		
5	Maks safar yakunlanib borayotganidan biroz xafa.		

Mustaqil topshiriq

“O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari” mavzusida kollaj tayyorlash.

ZAMONAVIY TOSHKENT

1. O‘qing. Gapiring.

Toshkent teleminorasi O‘rta Osiyodagi eng baland binodir. Uning balandligi 375 metr. Teleminora qurilishi 1978-yili boshlangan va 6 yil davomida bitkazilgan.

Inshootning balandligi bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda esa Moskvadagi Ostankino teleminorasidan keyin – ikkinchi o‘rinda turadi. Dunyo miqyosida esa 12-o‘rinda turadi.

Teleminorada sayyohlar uchun tomosha maydonchasiga ekskursiya va harakatlanuvchi “Koinot” restorani xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

100 metr balandlikdagi tomosha maydonchasiga shahar manzarasini tomosha qilish uchun bir necha binokulyarlar o‘rnatilgan.

Toshkentning teleminoradan boshqa diqqatga sazovor joylari juda ko‘p.

3. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

10-audiomaterial matni

Burj Xalifa – Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qurilgan osmono‘par bino. 2010-yilda ochilishidan oldin Burj Dubay nomi bilan tanilgan. Umumiy balandligi 829,8 m.

Eyfel minorasi – Fransiya timsoli sifatida dunyoga tanilgan, Parijning eng mashhur me’morchilik namunasi. Minora 1889-yilda qurilgan. Uning balandligi 300 m.


30

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent teleminorasi balandligi bo‘yicha O‘rta Osiyoda birinchi o‘rinda turadi.

1. Toshkent teleminorasi balandligi bo‘yicha (dunyoda, MDHda, O‘rta Osiyoda) birinchi o‘rinda turadi.
2. Teleminora MDHda (Ostankino, Eyfel, Burj Xalifa) minorasidan keyingi o‘rinda turadi.
3. Minorada (“Sayyora”, “Koinot”, “Yulduzlar”) restorani bor.
4. Toshkent teleminorasi (4 yil, 5 yil, 6 yil) davomida qurilgan.
5. Toshkent teleminorasi (375, 467, 573) metr.
6. Ostankino minorasi (Toshkent, Moskva, Pekin)da joylashgan.
7. (Dubay, Toshkent, Moskva) teleminorasi balandligi bo‘yicha dunyoda 12-o‘rinda turadi.


3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Minora nomi	Qurilgan yili	Balandligi	Joylashgan shahri
Burj Xalifa			*Dubay*
Eyfel			
Toshkent teleminorasi			

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha minoralarning muayyan ko‘rsatkichlari – qurilgan yili, balandligi va joylashgan shahrini jadvaldagi tegishli ustunlarga moslab yozib chiqishlari lozim. Namuna:

Minora nomi	Qurilgan yili	Balandligi	Joylashgan shahar
Burj Xalifa	2010-yil	829,8 m	Dubay
Eyfel			
Toshkent teleminorasi			


31

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

6. Yozing.

Namuna Eshik ochildi.

~~ochmoq~~, ishlatmoq, topmoq, ichmoq, to‘xtatmoq, yozmoq

Mustaqil topshiriq

Dunyodagi baland minoralarning ro‘yxatini yozib keling.

5. Rasm ustida ishlash. Bunda o‘quvchilar berilgan rasmlar asosida har bir epizodni mantiqan bog‘lagan holda yakka bir syujet, voqeaga ega hikoya-bayon yaratishlari lozim. Ya’ni ushbu rasmlarda tasvirlangan holat, voqeliklarni umumiy uzviy bog‘liqlik asosida og‘zaki tarzda bayon qilib berishlari kerak.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar berilgan noaniq shakldagi fe’llarni majhul nisbatga aylantirgan holda namunada ko‘rsatilgani kabi sodda gaplar tuzishlari lozim. Namuna:

Eshik ochildi. Bo‘yoq ishlatildi. Tanga topildi.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodidan foydalaning. Bunda o‘quvchilar dars davomida yodda qolgan bitta so‘zni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki ko‘ngilli ravishda (qo‘l ko‘targan holda) aytishlari mumkin.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, dunyodagi baland minoralarning ro‘yxatini yozib kelishlari lozim.

11-DARS. MUSTAHKAMLASH. BUNI BILASIZMI?

Maqsad: 1-bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olish; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlar ustida ishlash.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan dunyodagi baland minoralarning ro‘yxatini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning yo‘l belgilari yuzasidan mavjud bilimlarini mustahkamlab oling.



32

BUNI BILASIZMI?

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

Juda foydali ma’lumot | Yodimda qolgan ma’lumot | Yodimdan ko‘tarilgan ma’lumot

2. O‘ylang va toping. Yozing.

MYUNSTERBERG

v	b	u	y	u	k	i	p	a	k	y	o'	l	i	t	o	sh	k	e	n	t
k	e	n	i	y	a	s	a	m	a	r	q	a	n	d	b	u	x	o	r	o
y	a	p	o	n	i	y	a	r	e	g	i	s	t	o	n	x	i	v	a	k
o	z	b	e	k	i	s	t	o	n	d	i	sh	a	n	q	a	l	'	a	n
r	o	s	s	i	y	a	g	o	r	i	a	m	i	r	sh	e	r	d	o	r
a	d	i	ch	a	n	q	a	l	'	a	t	i	l	l	a	k	o	r	i	q

3. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Men [bear] bilan [Registan] ga bordim.
2. [Samarkand] da [Bibi-Khanym] , [Shah-i-Zinda] binolarini ko‘rdim.
3. Maks do‘stim [USA] lik, Zembi esa [Kenya] lik, Agata [UK] lik.
4. [Tashkent] ga [Afrosiyob] da yetib keldik.
5. Buxoroga [bus] da bordik.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan 3 xil holatdagi yuz ifodalari tasviriga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar o‘tilgan mavzular yuzasidan yuz ifodalariga mos tarzda, ya’ni kulib turgan yuz ifodasi o‘zlariga juda foydali bo‘lgan ma’lumotni, jilmayib turgan yuz ifodasida yodlarida qolgan ma’lumotni va xomush turgan yuz ifodasida esa yodlaridan ko‘tarilgan ma’lumotni aytib berishlari lozim. Topshiriq og‘zaki ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

2. 2-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

Jadvalda qo‘llangan so‘zlar: *Toshkent, Buyuk ipak yo‘li, O‘zbekiston, Sherdor, Buxoro, Yaponiya, Keniya, Rossiya, Ichanqal’a, Tillakori, Xiva, Registon, Go‘ri Amir.*

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar rasmlarda ifodalangan joy, narsa-buyum nomlarini to‘g‘ri kiritgan holda gaplarni to‘ldirishlari lozim. Namuna:

Maks do‘stim amerikalik, Zembi esa afrikalik, Agata angliyalik.


Buxoroga sayyohlar avtobusida bordik.

Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

4. 4-topshiriqda o‘tilgan mavzular yuzasidan test savollari berilgan bo‘lib, o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalari asosida ushbu test savollariga yozma javob berishlari lozim. Test kalitlari: *1) A; 2) B; 3) B; 4) B; 5) D; 6) D; 7) D; 8) A.*

5. 5-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar “Rasmlar orasidagi bog‘liqlik” metodi asosida ushbu rasmlarni o‘zaro assotsiatsiya qilgan holda og‘zaki tasvirlab, ifodalab berishlari lozim.

6. 6-topshiriqda berilgan “Toshkanim onam” taronasini o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating. Qo‘shiq mazmuni yuzasidan o‘quvchilar bilan kichik suhbat o‘tkazing.



33

4. O‘ylang va toping.

1. Ark qal’asi qayerda joylashgan?
A) Buxoroda B) Samarqandda D) Xivada

2. Mirzo Ulug‘bek qayerda yashagan?
A) Buxoroda B) Samarqandda
D) Xivada

3. Samarqand qaysi mashhur shaharlar bilan tengdosh?
A) Rim, Nyu York B) Afina, Rim
D) Tokio, Buxoro

4. Shohizinda ansambli qayerda joylashgan?
A) Buxoroda B) Samarqandda D) Xivada

5. Buxoroning yoshi nechada?
A) 2750 B) 2025 D) 2500

6. Qaysi majmua Buyuk ipak yo‘lining savdo maydonlaridan biri bo‘lgan?
A) Labihovuz B) Buxoro arki
D) Registon

7. Xiva qachon barpo etilgan?
A) XV asr B) III asr D) mil. avv. V asr

8. Nasriddin Afandi qaysi tarixiy shahar qahramoni?
A) Buxoro B)Samarqand D)Toshkent

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

RASMLAR ORASIDAGI BOG‘LIQLIK

11-audiomaterial matni

Toshkanim – onam

Buncha yaxshi bo‘lmasang,
Toshkanim – onam.
Seni birpas ko‘rmasam,
Ko‘zlarimda nam.

Kimsan o‘zing, nimasan?
Sehrgarmisan?
Bunchalar qiynamasang,
Zulfizarmisan?

Yurolmadim yiroqda,
Seni sog‘inib.
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

Sensiz xayolim, holim
Parokandadur.
Qayda bo‘lsam, xayolim,
Ko‘nglim sendadur.

Buncha yaxshi bo‘lmasang,
Toshkanim – onam.
Seni bir on ko‘rmasam,
Ko‘zlarimda nam.

Turob To‘la

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.


34

6. Tinglang.

TOSHKANIM, ONAM

Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni birpas ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Kimsan o'zing, nimasan,
Sehrgarmisan?
Bunchalar qiynamasang,
Zulfizarmisan?

Yurolmadim yiroqda,
Seni sog'inib.
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

Sensiz xayolim, holim
Parokandadir.
Qayda bo'lsam, xayolim,
Ko'nglim sendadir.

Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni bir on ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Turob To'la

Mustaqil topshiriq

"Toshkanim, onam" she'rini yod oling. Siz yana qanday tarixiy shaharlarni bilasiz?

"JONLANGAN" TUPROQ

1. Ko'ring.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, Toshkent haqida o‘zlari yoqtirgan she’r yoki qo‘shiqni yod olib kelishlari lozim.

14-DARS. “JONLANGAN” TUPROQ

Maqsad: yangi bo‘lim bilan tanishtirish; o‘quvchilarning kasb-hunar turlari va hunarmandchilik mahsulotlari, xususan, kulolchilik va sopol buyumlari yasash haqidagi bilim va tasavvurlarini yanada boyitish; birgalik nisbati (*-sh, -ish* shakli), yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish. mavjud bilimlarni mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan Toshkent haqida o‘zlari yoqtirgan she’r yoki qo‘shiq yod olib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Kun tartibi yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mazkur mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Shmuts

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Bunda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Siz ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Hunarmadlar kimlar?”, “Siz hunarmanchilikning qaysi sohalariga qiziqasiz?”, “Siz qaysi hunar egasi bo‘lishni xohlardingiz?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqish hamda ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling va ushbu bo‘limda eng ko‘p qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi haqida o‘ylab ko‘ring.



34

6. Tinglang.

TOSHKANIM, ONAM

Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni birpas ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Kimsan o'zing, nimasan,
Sehrgarmisan?
Bunchalar qiynamasang,
Zulfizarmisan?

Yurolmadim yiroqda,
Seni sog'inib.
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

Sensiz xayolim, holim
Parokandadir.
Qayda bo'lsam, xayolim,
Ko'nglim sendadir.

Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni bir on ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.


Turob To'la

Mustaqil topshiriq

“Toshkanim, onam” she’rini yod oling. Siz yana qanday tarixiy shaharlarni bilasiz?

“JONLANGAN” TUPROQ

1. Ko‘ring.



35

2. Savollarga javob bering.

1. Agar hamma kulolchilik bilan shug'ullansa, tuproq tugab qoladimi?
2. Kulolga ingliz va fransuz tilini bilish nimaga kerak?
3. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash uchun havo kerakmi?
4. Uyingizda loydan yasalgan idishlardan nimalar bor?
5. Kulolning biznesini tahlil qiling.
6. Kulolchilik mahsulotlari qayerda yaxshi sotiladi?

3. O'qing.

Texnologiya fani o'qituvchisi kulol bilan uchrashuv tashkil qildi. O'quvchilar Rishtondagi mashhur kulol Saidjon Ahmedovning uyiga borishdi. Kulol va uning shogirdlari o'quvchilarni yaxshi kutib olishdi. Saidjon Ahmedov ustozlari – Turg'unboy Mirzaboyev va A'zam Ahmadqulovni eslashdi. O'zining birinchi yasagan xumchasini asrab qo'yganini aytdi. Saidjon Ahmedovning bir nechta shogirdlari bor ekan. Saidjon Ahmedovning xonadoniga doim sayyohlar tashrif buyurishadi. Kulol va uning shogirdlari ingliz va fransuz tillarini bilishadi.

Suhbatdan so'ng kulol o'quvchilarga kosa yasab ko'rsatdi. Endi u olovda qizdiriladi. Kulollar o'z ishlarida kulolchilik charxi, loy va suvdan foydalanishar ekan. Oddiygina tuproq "jonlanib", undan kosa, piyola, choynak, lagan, xum, ko'za, guldon, tuvak, hushtak kabi san'at asarlari paydo bo'ladi.

4. O'ylang va toping. Yozing.

	Ma'lumotlar	A	B
1	Kulolchilik buyumlari yasovchilar ___ deyiladi.	usta	kulol
2	Kulolchilik buyumlari ___ yasaladi.	tuproqdan	misdan
3	Kulolchilik dastgohi ___ deyiladi.	kulolchilik tandiri	kulolchilik charxi
4.	O'zbekistondagi eng mashhur kulolchilik markazi ___ hisoblanadi.	Rishton	Toshkent
5.	Kulolchilik buyumlariga ___ kiradi.	kosa, piyola, lagan, ko'za, xum, o'yinchoqlar	chelak, xokandoz, tog'ora

DIQQAT QILING!

keldi

-sh, -ish

kelishdi

Usta yasadi.

Shogirdlar yasashdi.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilarning diqqatini qarating. Rasm nima haqida ekanini so‘rang. Rasm asosida tayyorlangan videomaterialni o‘quvchilarga ko‘rsating.

2. 2-topshiriqda rasmda ifodalangan hunarmandchilik buyumlarining nomlarini ayting va o‘quvchilarga takrorlating. O‘quvchilar bilan savollarga og‘zaki javob bering. Javoblarni to‘ldiring.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Kulol va kulolchilik haqida berilgan fakt jarayonlarini tushunishlariga diqqat qiling.


4. 4-topshiriqda o‘quvchilar A va B ustundagi so‘zlarning mosini qo‘yib gaplarni yozishlari talab etiladi. Birinchi misolni o‘zingiz tushuntirib bering va doska bilan ishlang.

5. "Diqqat qiling" rukniga o‘quvchilarning diqqatini jalb qiling. Birgalik nisbatining yasalish shaklini tushuntiring. Misollar keltiring.

6. 5-topshiriq asosida nuqtalar o‘rniga birgalik nisbati qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘yishlarini ayting.

7. 6-topshiriqdagi rasmlar asosida krossvordni yechib, o‘quvchilarga yozdiring.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.



36

5. Yozing.

Namuna *O'zbekistonda kulollar o'z kulolchilik maktablarini tashkil etishgan.*

O'zbekistonda kulollar o'z kulolchilik maktablarini tashkil et…gan. Ular orasida Rishton va G'ijduvon kulolchilik maktablari buyumlari o'zining nafisligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Oddiygina loydan bejirim, chiroyli buyumlar yasaydigan qo'li gul hunarmandlar o'z asarlarida milliylikni aks ettirishga harakat qil…gan. Mahalliy kulollar ajdodlarining kulolchilik san'ati sirlarini avlodlarga meros qilib qoldir…gan. Chet ellik sayyohlar o'zbek milliy kulolchilik mahsulotlariga katta qiziqish bilan qara…gan va esdalik uchun sotib ol…gan.

6. O'ylang va toping. Yozing.

1 K
2 U
3 L
4 O
5 L

Mustaqil topshiriq

O'zingiz xohlagan kulolchilik buyumining rasmini chizing yoki plastilindan yasang.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “To‘rt bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan to‘rt bo‘g‘inli so‘zni topib, ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari va ularni ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor mustahkamlab, o‘zlari xohlagan kulolchilik buyumining rasmini chizib yoki uni plastilindan yasab kelishlari lozim.

15-DARS. OLTIN QO‘LLAR

Maqsad: Hunarmanchilikning eng noyob turlaridan biri zardo‘zlik san’ati, uning tarixi, yaratilish jarayonlari haqidagi bilim va tasavvurlarni uyg‘otish; birgalik nisbati (*-sh, -ish* shakli), yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari xohlagan kulolchilik buyumining rasmini chizib yoki uni plastilindan yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



37

OLTIN QO‘LLAR

1. O‘qing. O‘ylang va toping.

Alisherning sinfidagi ko‘pchilik qizlar “Oltin qo‘llar” to‘garagiga boradilar. Ular to‘garakda zardo‘zlik bilan shug‘ullanishadi. Kecha to‘garak a’zolari maktab o‘quvchilari uchun o‘z ko‘rgazmalarini namoyish qilishdi. Aziza va Ra’no zardo‘zlik tarixi haqida o‘quvchilarga ma’lumot berdi. Buxoro VI asrda zardo‘zlik markaziga aylangan ekan. Zardan tikilgan liboslarni esa faqat amirlar va saroy ahli kiygan ekan.

Ikki qiz tikkan bolalar zarbof to‘ni, zar kamzul va ayollar poyabzali barchaga manzur bo‘ldi.

Sayyora o‘z ishlarini hammadan keyin taqdim qildi. U zardo‘zlikda sabr-toqat, e’tibor, tartib bo‘lishi kerakligini aytdi.

Qadrli o‘quvchilar, rasmga qarab toping-chi, Sayyora ko‘rgazma uchun nimalar tikkan?


2. O‘ylang va toping.

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗	Berilmagan
1	Zardo‘zlik Samarqandda rivojlangan.		+	
2	Zardo‘zlik mahsulotlari zar va kumush ipdan tikiladi.			
3	Zardo‘zlar hisob-kitobni va rasm chizishni yaxshi bilishi kerak.			+
4	Zardo‘z qizlar to‘n, kamzul, poyabzal, do‘ppi, yelpig‘ich tikishdi.			
5	Tarixda zardan tikilgan liboslarni faqat xon va uning qarindoshlari kiyishgan.			
6	Zar liboslarni nikoh to‘ylarida kelin va kuyovlar, sunnat to‘ylarida esa bolalar kiyishadi.			

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali tarzda o‘qib bering, so‘ngra ushbu matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



38

3. Tinglang. Savollarga javob yozing.

1. Zardan biror buyum tikish bilan shug'ullanuvchilar nima deyiladi?
2. Qadimda zardan buyum tikish bilan kimlar shug'ullangan? Hozir-chi?
3. Zardo'zlik mahsulotlari qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?
4. Zardo'zlar tikishda qanday matolardan foydalanadi?

4. O'qing.

Salom, Zembi! O'qishlaring yaxshimi?

Rahmat, Alisher, yaxshiman. Sen jo'natgan "Oltin qo'llar" to'garagida tikilgan zar liboslarning rasmlarini ko'rib juda xursand bo'ldim. Buxoro va Samarqandga borganimizda ko'rgan zar liboslarni biz tengi qizlar tika olishidan hayratlandim.

Agar yana O'zbekistonga borsam, men ham shu to'garak a'zolaridan tikish sirlarini o'rganmoqchiman. Ular bilan tanishishda menga yordam bera olasanmi?

Senga Buxorodan xarid qilgan libosimda tushgan suratimni jo'natyapman.

5. Savollarga javob bering.

1. Zardo'zlar qaysi fanlarni yaxshi bilishi kerak deb o'ylaysiz?
2. Nima sababdan to'garak "Oltin qo'llar" deb nomlangan? Qo'l oltin bo'lishi mumkinmi?
3. Sayyohlar nima sababdan zardan tikilgan liboslarni qadrlaydilar?

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *Zardo'zi mahsulotlarning naqshlarini ham zardo'zlarning o'zlari chizishadi.*

tikmoq | ~~chizmoq~~ | qadrlamoq | kiymoq | yordam bermoq

Mustaqil topshiriq

Zardo'zi buyumlar tikishda foydalaniladigan naqshlarni chizing.

3. 2-topshiriq asosida o‘quvchilar jadvalda berilgan ma’lumotlarni *to‘g‘ri, noto‘g‘ri* va *berilmagan* xulosalaridan tog‘risini topib, og‘zaki tahlilar orqali fikrlarini berishsin.

4. 3-topshiriqda keltirilgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

15-audiomaterial matni

Qadimda ham, hozir ham zardo‘zlik bilan shug‘ullanadigan hunarmandlarni “zardo‘z” deb atashadi.

Bu san’at o‘tgan asrning o‘rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. Zardo‘zlik san’ati o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi.

Zardo‘zlik bilan odatda erkaklar shug‘ullangan. Ular o‘z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan.

Zardo‘zlik mahsulotlarining naqshlari bo‘rtib turishi bilan ajralib turadi. Naqshlar tagiga tukli material ishlatiladi. Zardo‘zlikning asosiy gazlamalari duxoba va velyur gazlamalari hisoblanadi.

5. 4-topshiriqni rollarga bo‘lib o‘qittiring.

6. 5-topshiriq asosida o‘quvchilar bilan og‘zaki savol-javob tashkil qiling.

7. 6-topshiriqda berilgan so‘zlardan foydalanib birgalik nisbati shaklida gap tuzing va yozing.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘tilgan so‘zlardan 3 tasini eslab daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor mustahkamlab, zardo‘zi tikishda foydalaniladigan naqshlarni chizib kelishlari lozim.

16-DARS. QAYGA BORSAM, BOSHDA DO‘PPIM...

Maqsad: o‘zbek milliy bosh kiyimi – do‘ppi, uning tarixi, yaratilish jarayoni, hududlarga ko‘ra farqlanishi haqida bilim va tasavvurlarni shakllantirish; birgalik nisbati (*-sh, -ish* shakli) yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan zardo‘zi tikishda foydalaniladigan naqshlarni chizib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



39

QAYGA BORSAM, BOSHDA DO‘PPIM...

1. O‘qing.

– Salom, Suzuko! Ko‘rinishing juda chiroyli. Boshingdagi nima?
– Salom, Yasumi! Bular – o‘zbek milliy liboslari. Boshimdagi esa iroqi do‘ppi. O‘zbekistonga borganimda ko‘plab o‘zbek milliy mahsulotlaridan olib kelganman. Senga ham Buxoro do‘ppisidan olib keldim.
– Rahmat, juda ham mamnun bo‘ldim. O‘zbekistonda do‘ppilarning turlari ko‘p ekan-da-a?
– To‘ppa-to‘g‘ri, O‘zbekistonning har bir hududining o‘ziga xos bosh kiyimlari mavjud.
– Ajoyib, menga bu haqida ko‘proq ma’lumot bera olasanmi?
– Kel, yaxshisi, bu haqida do‘stim Alisherdan so‘raymiz.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Suzukoning boshida Buxoro do‘ppisi bor.		
2	Suzuko Yasumiga sovg‘a olib keldi.		
3	O‘zbekistondagi har bir hududning bosh kiyimi bor.		
4	O‘zbekistonning milliy bosh kiyimi – kepka.		
5	Suzuko Yaponiya milliy liboslari haqida gapirib berdi.		

3. Tinglang. O‘ylang va toping.

1) Marg‘ilon do‘ppisi; 2) Iroqi do‘ppi; 3) Qoraqalpoq do‘ppisi; 4) Boysun do‘ppisi; 5) Zar do‘ppi; 6) Chust do‘ppisi.

Vazifalar:


1. 1-topshiriqda berilgan Suzuko va Yasumining o‘zaro suhbat-dialogini yo rollarga bo‘lgan holda, yoki ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda yuqoridagi suhbat-dialog asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu

hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari kerak. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Suzukoning boshida Buxoro do‘ppisi bor. – Noto‘g‘ri. Suzukoning boshida Buxoro do‘ppisi emas, iroqi do‘ppi bor.

3. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



16-audiomaterial matni

Do‘ppi o‘zbek xalqining milliy iftixoridir. O‘zbekistondagi har bir hududning o‘ziga xos do‘ppisi bor.

Marg‘ilon va Chust do‘ppilari erkaklar do‘ppisi hisoblanadi. Bu do‘ppilar yuqori qismidagi qalampir nusxalari bilan boshqa do‘ppilardan ajralib turadi. Chust do‘ppisining qalampir nusxasi Marg‘ilon do‘ppisidagi nusxadan kichikroq. Rivoyatlarga ko‘ra, qalampir tasviri odamning sog‘lig‘ini to‘rt tomondan himoya qiladi. Do‘ppi chetidagi o‘n oltita gul esa katta va ahil oila bo‘lish tilagini bildiradi.

O‘zbek ayollari o‘rtasida keng urfga kirgan iroqi do‘ppi dastlab Shahrisabzda tayyorlangan. Buxoro esa zar do‘ppilari bilan mashhurdir. Xorazm do‘ppilari bezaklari ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Do‘ppining to‘rt tomoni hayotimizning to‘rt bosqichini: bolalik yoshlik, yetuklik va qarilikni anglatadi.


4. 3-topshiriqda berilgan do‘ppilar rasmiga o‘quvchilar e’tiborini qaratting. Bunda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha rasmlarda ifodalangan do‘ppilarning nomlarini topishlari va tartib raqamlarini qavs ichiga mos holda kiritib ketishlari lozim. Namuna: *Marg‘ilon do‘ppisi (1), iroqi do‘ppi (2).*

5. 4-topshiriqda ham do‘ppilar mavzusi davom etadi. Bunda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan audomatn asosida do‘ppilarning nomini uning belgilari bilan moslashlari zarur. Namuna:

Xorazm do‘ppisi boshqa hudud do‘ppilaridan bezaklari ko‘pligi bilan ajralib turadi.

6. “Diqqat qiling!” qismida o‘zbek tilidagi sifatlarning orttirma daraja shakli, uning yasalishi, orttirma darajani hosil qi-

luvchi maxsus grammatik ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot bering. Orttirma daraja sifatlarining imlosi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qiling. Misollar keltiring: *yap-yangi (yap-yangi mashina)*, *qip-qizil (qip-qizil jomadon)*, *to‘ppa-to‘g‘ri (to‘ppa-to‘g‘ri javob)*, *oppoq (oppoq bulut)*, *qop-qora (qop-qora portfel)*, *bus-butun (bus-butun ko‘ylak)*, *ko‘m ko‘k (ko‘m-ko‘k osmon)*, *sap-sariq (sap-sariq jo‘ja)*, *yam-yashil (yam-yashil o‘tloq)*. O‘quvchilardan ham mustaqil tarzda misollar tuzishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.



41

7. O‘qing.

DO‘PPI MAKETINI YASASH

Andoza tayyorlash. Buning uchun bosh aylanasi o‘lchab olinadi. Masalan, 54 cm. Olingan o‘lcham asosida do‘ppining tepa qismi radiusi R = L : 6,28 formulasi orqali aniqlanadi. Demak, 54 : 6,28 = 8,6 cm.

Bu yerda: L – o‘lcham uzunligi, 6,28 – o‘zgarmas son.

So‘ng sirkul yordamida 8,6 cm radiusli aylana chiziladi. Chizilgan aylana qaychida kesib olinadi va karton qog‘ozga ko‘chirilib, do‘ppining tepa qismi andozasi tayyorlab olinadi.

Kizak (pastki) qismini tayyorlash. Endi kizak qismi andozasi chiziladi. Buning uchun eni 4 cm, uzunligi 54 cm ga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi. Kizakning enini 4 cm dan oshirib olish ham mumkin. Bu do‘ppining chuqurroq bo‘lishini ta’minlaydi.

R=8,6 cm

4 cm

L = 54 cm

Andoza olingandan keyin ustiga mato qoplanadi va turli munchoqlar bilan bezatiladi.

Mustaqil topshiriq

1. “Do‘ppim – faxrim” mavzusida matn tuzing va do‘ppi kiygan rasmingizni ilova qiling. Do‘ppi maketini yasang.

MILLIY LIBOSLAR

1. O‘qing.

– Agata, xohlaysanmi, seni milliy liboslar ko‘rgazmasiga olib boraman?

– Ha, albatta, Alisher. Men dunyo xalqlari milliy liboslariga juda qiziqaman.

– Juda yaxshi. Bugun sen bilan Buxoro tasviriy san’at muzeyining ko‘rgazmalar zaliga boramiz.

– Bu muzeyda milliy liboslar ham saqlanadimi?

– Ha, u yerda ipak va yarim shoyi matolardan tayyorlangan turli liboslar, shuningdek, Buxoro shoyisidan tayyorlangan buxorocha liboslar, turli taqinchoqlar saqlanadi. Buxoroga kelgan sayyohlar u yerda o‘tkaziladigan namoyishlarni zavq bilan tomosha qiladilar.

– Qani, ketdik, bo‘lmasa. Juda qiziqib qoldim.

7. Yuqoridagi grammatik bilimlar asosida 5-topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi do‘ppining tegishli belgilarini tadrijiy rivojlantirib borishlari zarur. Demak, 1-belgi – uning holati, bunda orttirma daraja sifatlari ishtirok etishi zarur (masalan, yap-yangi, dum-dumaloq); 2-belgi – uning hududiga ko‘ra nomlanishi; 3-belgi – mazkur hududning qaysi viloyatga qarashli ekani. Namuna: *do‘ppi – yap-yangi – Chust – Namangan.*

8. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi oddiy daraja shaklidagi sifatlarni orttirma darajaga aylantirib, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna: *Bog‘imizdagi **qip-qizil** atirgul ochildi.*

9. Navbatdagi bosqichda do‘ppi maketini tayyorlash texnologiyasi berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan diqqat bilan ushbu jarayon yoritilgan matnni o‘qishlarini so‘rang. Bunda kerakli buyum va ashyolarni oldindan tayyorlab, sinfda ushbu jarayonni amalga oshirish uchun qulay muhit va sharoitni yaratib oling. Jarayonni yana bir bor og‘zaki ravishda tushuntiring va o‘quvchilar bilan birgalikda ishni tashkil qiling. Bunda o‘quvchilarga muayyan vazifalarni bo‘lib berishingiz va jarayonning boshqaruvchisi sifatida nazorat qilib turishingiz mumkin.

10. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘tilgan so‘zlar-

dan 3 tasini eslab daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.


Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor mustahkamlab, “Do‘ppim – faxrim” mavzusida matn tuzishlari va unga o‘zlarining do‘ppi kiygan rasmlarini ilova qilishlari yoki do‘ppi maketini yasab kelishlari lozim.

17-DARS. MILLIY LIBOSLAR

Maqsad: o‘zbek milliy liboslari, ularning tarixi, yaratilish jarayoni, hududlarga ko‘ra farqlanishi haqida bilim va tasavvurlarni shakllantirish; harakat nomi (*-sh, -ish* qo‘shimchasi) yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Shmuts

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Bunda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Siz ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Qanday milliy libos nomlarini bilasiz?”, “O‘zingizda ham milliy liboslar bormi, bo‘lsa, qanday?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling va ushbu bo‘limda eng ko‘p qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi haqida o‘ylab ko‘ring.



41

7. O‘qing.

DO‘PPI MAKETINI YASASH

Andoza tayyorlash. Buning uchun bosh aylanasi o‘lchab olinadi. Masalan, 54 cm. Olingan o‘lcham asosida do‘ppining tepa qismi radiusi R = L : 6,28 formulasi orqali aniqlanadi. Demak, 54 : 6,28 = 8,6 cm.

Bu yerda: L – o‘lcham uzunligi, 6,28 – o‘zgarmas son.

So‘ng sirkul yordamida 8,6 cm radiusli aylana chiziladi. Chizilgan aylana qaychida kesib olinadi va karton qog‘ozga ko‘chirilib, do‘ppining tepa qismi andozasi tayyorlab olinadi.

Kizak (pastki) qismini tayyorlash. Endi kizak qismi andozasi chiziladi. Buning uchun eni 4 cm, uzunligi 54 cm ga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi. Kizakning enini 4 cm dan oshirib olish ham mumkin. Bu do‘ppining chuqurroq bo‘lishini ta’minlaydi.

R=8,6 cm

4 cm

L = 54 cm

Andoza olingandan keyin ustiga mato qoplanadi va turli munchoqlar bilan bezatiladi.

Mustaqil topshiriq

1. “Do‘ppim – faxrim” mavzusida matn tuzing va do‘ppi kiygan rasmingizni ilova qiling. Do‘ppi maketini yasang.

MILLIY LIBOSLAR

1. O‘qing.

– Agata, xohlaysanmi, seni milliy liboslar ko‘rgazmasiga olib boraman?

– Ha, albatta, Alisher. Men dunyo xalqlari milliy liboslariga juda qiziqaman.

– Juda yaxshi. Bugun sen bilan Buxoro tasviriy san’at muzeyining ko‘rgazmalar zaliga boramiz.

– Bu muzeyda milliy liboslar ham saqlanadimi?

– Ha, u yerda ipak va yarim shoyi matolardan tayyorlangan turli liboslar, shuningdek, Buxoro shoyisidan tayyorlangan buxorocha liboslar, turli taqinchoqlar saqlanadi. Buxoroga kelgan sayyohlar u yerda o‘tkaziladigan namoyishlarni zavq bilan tomosha qiladilar.

– Qani, ketdik, bo‘lmasa. Juda qiziqib qoldim.

Refleksiya jarayoni. Bunda o‘tgan mustahkamlash darsida mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Do‘ppim – faxrim” mavzusida matn tuzishlari va unga o‘zlarining do‘ppi kiygan rasmlarini ilova qilishlari yoki do‘ppi maketini yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:


1. 1-topshiriqda berilgan Agata va Alisherning o‘zaro suhbat-dialogini yo rollarga bo‘lgan holda, yoki ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi dialogda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. O‘quvchilar ushbu savollarga dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ngra javoblarni mashq daftarlariga yozishlari lozim.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

4. O‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga savollarni o‘qib eshittiring. O‘quvchilar ushbu savollarga dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ngra javoblarni mashq daftariga yozishlari lozim.

5. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



42

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

-sh
-ish

1. Alisher Agatani qayerga taklif qildi?
2. Bolalar, ushbu ko'rgazma sizda ham qiziqish uyg'otdimi?
3. Siz qanday ko'rgazmalarda ishtirok etgansiz?
4. Televizor orqali namoyish etiladigan ko'rgazmalarni tomosha qilasizmi?

3. O‘qing. Gapiring.

O'zbek milliy kiyimlari uzoq tarixga ega. Unda o'zbek xalqining milliy xususiyatlari aks ettirilgan. Hozir ham milliy liboslardan keng foydalaniladi. Ular o'zbek madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir viloyat uchun o'ziga xos va mosdir.

O'zbek ayollarining milliy liboslariga zarchopon, do'ppi, atlas va beqasamdan tikilgan liboslar kiradi. Erkaklarning milliy liboslariga esa chopon, do'ppi, belbog' va yaxtak kiradi. O'zbek milliy liboslarining o'zgacha jozibasi bor. Shuning uchun dunyoning turli joylaridan kelgan mehmonlar madaniyatimizga rom bo'lib qoladilar.

1. Siz ham milliy liboslarimizga qiziqasizmi?
2. Sizga qaysi millatning milliy libosi qiziq? Nima uchun?
3. O'zingizning milliy libosingiz haqida so'zlab bering.

4. Tinglang. Yozing.

uzviy bog'liq
zarchopon
belbog'
yaxtak
ipak
baxmal
mashaqqatli
hashamatli
marosim

Milliy liboslar	Ayol	Erkak	A / E
Do'ppi			
Zarchopon			
Belbog'			
Yaxtak			
Ro'mol			

Ham ayollar, ham erkaklar kiyadigan liboslar: _____.
Barcha viloyatlarga xos bo'lgan kiyim turlari: _____.
Faqat ayollar kiyadigan liboslar: _____.
Faqat erkaklar kiyadigan liboslar: _____.

17-audiomaterial matni

• Atlas – O‘zbekistondagi mashhur mato. Bu mato ipakdan tayyorlanadi. Atlas matosidan ko‘ylak kiyish O‘zbekistonlik ayollar uchun urfga kirgan. Atlas to‘qish Marg‘ilonda rivojlangan.

• Zar to‘n o‘zbek xalqining qadimiy va hashamatli liboslaridan biridir. U mashaqqatli qo‘l mehnati bilan tikiladi. Qadimda podsholar aziz mehmonlariga zar to‘n sovg‘a qilishgan. Zar to‘n kiyish turli marosimlarda kuzatiladi. Zar to‘n kiyish ayollarga ham, erkaklarga ham xos.

• **Yaxtak** erkaklar kiyimidir. Yaxtak o‘zining qulayligi va havo o‘tkazuvchanligi bilan mashhurdir. U odatda yozda kiyiladi. Yaxtakni chit matodan tikish kerak. Yaxtakni yaxlit mato bo‘lagidan tugmasiz qilib tikish urfga kitgan. O‘zbek yigitlari yaxtak ustidan belbog‘ bog‘laydilar.

6. Jadvaldagi berilgan savol va javob qoliplarini o‘quvchilarga tushuntirib bering. Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlar ishtirokida namunada ko‘rsatilganidek savol va javob ko‘rinishidagi gaplarni tuzishlari va ularni mashq daftariga yozishlari lozim.

7. “Tashrif” nomli komiksni o‘quvchilarga bir marotaba ifodali qilib o‘qib bering. So‘ngra juftlikda yoki rollarga bo‘lib o‘qittiring.

8. Komikslar asosida berilgan savollarga o‘quvchilar *ha/yo‘q* tarzida og‘zaki javob berishlari lozim.

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskada esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari yoqtirgan milliy libos rasmini chizib kelishlari lozim.

18-DARS. MUSTAHKAMLASH. XALQ DURDONALARI

Maqsad: o‘zbek milliy hunarmandchiligi namunalari bilan tanishtirish; xalq amaliy san’ati muzeyi, eksponatlari haqida ma’lumotlar berish, bilim va tasavvurlarni shakllantirish; harakat nomi (*-sh, -ish* qo‘shimchalari) yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yana bir bor mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari yoqtirgan milliy libos rasmini chizib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur rasm yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda keltirilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. “Aqliy hujum” metodi asosida rasmda qaysi muzey tasvirlangani va undagi eksponatlar haqida qisqa savol-javob o‘tkazing.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.



43

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Tikyapti	Tikish
O‘qiyapti	
Bezatyapti	
Kiyyapti	
Ishlayapti	
Yozyapti	
Bog‘layapti	

Mustaqil topshiriq

Sizga qaysi milliy kiyim yoqadi? Rasmini chizing.

XALQ DURDONALARI

1. O‘qing. Gapiring.

Ra’no bilan Aziza Xalq amaliy san’ati muzeyiga borishdi. Ular muzeyda ikki sayyohni uchratib qolishdi. Sayyohlar kulolchilik buyumlarini tomosha qilishardi. Ularga tarixiy buyumlar juda yoqdi. Sayyohlar Azizadan muzeydagi buyumlar haqida gapirib berishini so‘rashdi. Afsuski, Aziza ingliz tilini yaxshi bilmas edi. Bu vaziyatni ko‘rgan Ra’no tezda sayyohlar oldiga kelib, ularga ingliz tilida muzeydagi eksponatlar haqida gapirib berdi. Sayyohlar zargarlik, miskarlik, gilamdo‘zlik, kulolchilik, zardo‘zlik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik namunalari bilan tanishganlaridan xursand bo‘lishdi va Ra’noga rahmat aytishdi. Ra’no esa bu voqeadan keyin kelajakda gid bo‘lishga qaror qildi.

2. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek milliy hunarmandchiligi mahsulotlarini ko‘rish uchun qaysi muzeyga borish kerak?
2. Aziza nima sababdan qiyin vaziyatga tushib qoldi?
3. Gid bo‘lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o‘zlashtirish kerak?
4. Siz Ra’noning o‘rnida bo‘lganingizda sayyohlarga nimalar haqida ma’lumot bergan bo‘lardingiz?
5. Siz qaysi muzeyga borgansiz va u yerda nimalarni ko‘rgansiz?
6. Muzeyga borganingizda sizni hayratlantirgan narsa nima?

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Ushbu savollarni o‘quvchilarga o‘qib eshittiring. O‘quvchilar savollarga dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ngra javoblarni mashq daftariga yozishlari lozim.

4. 3-topshiriqda test savollari berilgan. O‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan matnlari bo‘yicha ushbu testni bajarishlari lozim. Javoblar yozma tarzda taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi noaniq shakldagi fe’llarni harakat

nomi (*-sh, -ish)* shaklida yozib chiqishlari lozim. Namuna:


Bolalar muzeyga borishni yoqtiradi.

6. 5-topshiriqda berilgan “Boshginam og‘riydi” milliy xalq qo‘shig‘ini o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating. Qo‘shiq mazmuni yuzasidan o‘quvchilar bilan kichik suhbat o‘tkazing.

18-audiomaterial matni

Boshginam og‘riydi

– Oyijon, oyijon-e,
Boshginam og‘riydi-ye.
– Boshginangdan oying o‘rgilsin,
Nimalarga og‘riydi-ye?
– Bozorlarda bo‘lar emish,
Do‘konlarda sotar emish.
Ana uning nomi zarli do‘ppi,
O‘shanga og‘riydi-ye.
– O‘shanga og‘risa-yo,
alam-o, alam-o!
– Oyijon, oyijon-e,
Quloqqinam og‘riydi-ye.
– Quloqqinangdan oying o‘rgilsin,
Nimalarga og‘ri3ydi-ye?
– Do‘konlarda bo‘lar emish,
Bozorlarda sotar emish.
Ana uning nomi tilla zirak,
O‘shanga og‘riydi-ye.
– O‘shanga og‘risa-yo,
alam-o, alam-o!
– Oyijon, oyijon-e,
Bilakkinam og‘riydi-ye.
– Bilakkinangdan oying o‘rgilsin,
Nimalarga og‘riydi-ye?
– Zargarlarda bo‘lar ekan,
Do‘konlarda sotar ekan.
Ana uning nomi bilaguzuk,
O‘shanga og‘riydi-ye.
– O‘shanga og‘risa-yo,
alam-o, alam-o!


44

3. O‘ylang va toping.

-sh
-ish

1. Milliy bosh kiyim berilgan javobni toping.
A) telpak B) do‘ppi D) shlyapa E) kepka
2. Milliy mato berilgan qatorni toping.
A) velvet B) to‘rli mato D) bo‘z E) atlas
3. Milliy poyabzalni toping.
A) mahsi, kovush B) krepdeshin D) etik E) botinka
4. Erkaklar libosidagi milliy element...
A) kamar B) qilich D) belbog‘ E) soat
5. O‘zbek to‘ylarida kiyiladigan milliy libos...
A) zarchopon B) kostyum-shim D) yaxtak E) oq ko‘ylak

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. *Bolalar muzeyga borishni yoqtiradi.*

1. Bolalar muzeyga (*bormoq*) ni yoqtiradi.
2. Anvar zargarlik buyumlarini (*yasamoq*) ni o‘rganyapti.
3. Zumrad do‘ppi (*tikmoq*) ga qiziqadi.
4. Muzeyda ba’zi eksponatlarni (*rasmga olmoq*) mumkin emas.
5. Ra’no ingliz va fransuz tillarini (*o‘rganmoq*)ni xohlaydi.

5. Tinglang.

Boshginam og‘riydi

6. O‘ylang va toping.

Boshginam og‘riydi	Do‘kon
Bilakkinam og‘riydi	Zirak
Quloqqinam og‘riydi	Onang
Boshginangdan ____ o‘rgilsin	Do‘ppi
____ larda sotilar emish	Bilaguzuk

7. O‘ylang va toping. Gapiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: kovush, nimcha, yaktak, belbog‘, tillaqosh, baldoq, mahsi, bilaguzuk, shalvar.

Mustaqil topshiriq

Siz qanday mashhur muzeylarni bilasiz? Ularning nomlarini yozib keling.

7. Qo‘shiqdagi ma’lumotlar asosida berilgan navbatdagi – 6-topshiriqqa o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar qo‘shiqni tinglab tushungan-lari bo‘yicha berilgan vaziyatlarga mos keluvchi atributlarni topishlari va ularni namunada ko‘rsatilgani kabi moslashtirishlari zarur. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajariladi. Namuna: *boshginam og‘riydi – do‘ppi (uchun); bilakkinam og‘riydi – bilaguzuk (uchun).*

8. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillarida-

gi tarjimalari bilan qiyoslab, ma'nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga olishlari va uch bo‘g‘inli so‘zga bittadan misol aytishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, dunyodagi mashhur muzey nomlarini yozib kelishlari lozim.

19-DARS. ZARGARLIK

Maqsad: hunarmandchilikning noyob va eng nozik turlaridan biri zargarlik san'ati, uning tarixi, zargarlik buyumlarining yaratilish jarayonlari haqida bilim va tasavvurlarni hosil qilish; fe'lning harakat nomi (*-sh, -ish*) shakli yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yana bir bor mustahkamlash; ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan dunyodagi mashhur muzey nomlarini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



45

ZARGARLIK

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Danil sovg‘ani onasiga nega berdi?
A) onalar kuni bo‘lgani uchun B) onasining tug‘ilgan kuni bo‘lgani uchun
D) onasini yaxshi ko‘rgani uchun

2. Maks onasiga O‘zbekistondan qanday sovg‘a olgan?
A) zebigardon B) uzuk D) zirak

3. Danilning sovg‘asi onasiga nega yoqdi?
A) onasining orzusi bo‘lgani uchun B) qimmat bo‘lgani uchun
D) Maks tanlagani uchun

4. Sharqona taqinchoqlar judayam ... bo‘ladi.
A) qimmat B) nafis D) katta

3. O‘qing.

MEN KIMMAN?

Zargarlik O‘zbekistonda rivojlangan kasblardan biri. Zargarlik buyumlaridan milliy liboslarni boyitish maqsadida foydalaniladi. Bugungi mohir zargarlardan biri Sultonmurod Farhodov hisoblanadi. U yoshligidan zargarlikka juda qiziqqan. Maktabni tamomlagach, zargarlik kollejida o‘qishini davom ettirgan. Sultonmurodning oylik daromadi o‘rtacha 20–25 million so‘mni tashkil etadi.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarni mavzu yuzasidan berilgan rasm bilan tanishtiring. 1-topshiriqda berilgan Danil va onasining o‘zaro suhbat-dialogini audiomaterial asosida dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

19-audiomaterial matni

– Oyijon, tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman! Bu siz uchun!

– Naqadar go‘zal!!! Bu nima?

– Siz uchun O‘zbekistondan sotib olgan edim. Bu – zebigardon.

– Sharqona taqinchoqlar judayam nafis bo‘ladi. Bu qo‘l mehnati bo‘lsa kerag-a, o‘g‘lim?

– Ha, oyijon. Bu – o‘zbek zargarlarining qo‘l mehnati.

– Men shunaqasini orzu qilardim.


– Maks ham onasi uchun zirak olgan edi. Bugun u ham onasiga sovg‘a qilmoqchi edi.

– Rahmat, Danil! Mamnun bo‘ldim. Buni albatta taqaman.

– Sizga juda yarashadi. Arzimaydi.

(o‘zbekistonlik zargarlarni eslaydi)

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi dialogda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan test savollariga javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.


46

“Zargarlik buyumlariga ishlov berishda juda ehtiyotkorlik talab qilinadi”, – deydi usta.

Bitta uzukni yasash bir soat vaqt oladi. Uzuk va zirak to‘plamini yasash uchun 3–4 soat vaqt kerak bo‘ladi. Zanjir va bilaguzuklar tayyorlash uchun esa 3 soat vaqt ketadi. Avvallari zargar bir haftada yasagan buyumlarni hozir uskunalar 2–3 soatda yasaydi.

Zargar bo‘lish oson emas. Buning uchun zargar to‘g‘ri, halol, ijodkor va sabrli bo‘lishi kerak.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Zargarlarning oylik daromadi o‘rtacha 20–25 million so‘m.*

1. Zargarlarning oylik daromadi taxminan qancha? (*o‘rtacha*)
2. Uzuk va zirak to‘plami qancha vaqtda tayyor bo‘ladi? (*3–4 soat*)
3. Zargarlik buyumlari faqat qo‘lda yasaladimi? (*uskuna*)
4. Zargar qanday bo‘lishi kerak? (*sabrli*)
5. 583, 585, 999 raqamlari nimani anglatadi? (*tilla*)

zargarlik
soha
ijodkorlik
sabrlilik

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Zargarlik buyumlari

Zanjir

TEZ AYTISH

Katta-katta ko‘zmunchoq –
Ko‘ylagimga ko‘rk-munchoq.

Mustaqil topshiriq

Zargarlik buyumlarining rasmini chizing va nomlarini yozib keling.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 5-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar rasmlardagi zargarlik buyumlarining nomlarini topib yozishlari lozim.

6. Berilgan tezaytishni o‘qittiring, ma’nosi haqida o‘quvchilar bilan kichik savol-javob o‘tkazing. Tezaytish bo‘yicha musobaqa tashkillashtiring.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing.

Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (mikrofon qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h.k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, zargarlik buyumlarining rasmini chizib, ularning nomini yozib kelishlari lozim.

20-DARS. BETAKROR USTUNLAR

Maqsad: Yog‘och o‘ymakorligi san’ati, uning tarixi, yaratilish jarayonlari haqida bilim va tasavvurlarni hosil qilish. Fe’lning harakat nomi (*-sh, -ish*) shakli yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yana bir bor mustahkamlash. Ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan zargarlik buyumlarining rasmini chizib, ularning nomini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing, taassurotlari bilan o‘rtoqlashing hamda tartib sonlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan Agata va otasining o‘zaro suhbat-dialogini audiomaterial asosida dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

20-audiomaterial matni

– Otajon, yog‘och o‘ymakorligi qanday san’at turi ekanini bilasizmi?

– U qanday san’at ekan?

– Men O‘zbekistonda bo‘lganimda bino ustunlarining go‘zal naqshlar bilan bezatilganini ko‘rib hayratga tushdim.

– Ajabo, hayratdaman.

– Do‘stim Alisher bizga yog‘och o‘ymakorligi san’ati haqida juda ko‘p ma’lumot berdi. Angliyaga qaytgandan keyin bu san’atga qiziqishim yanada ortib, internetdan o‘qib o‘rgandim.

– Qizim, meni ham juda qiziqtirib qo‘yding, qani, so‘zlab ber-chi.



47

BETAKROR USTUNLAR

1. Tinglang.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Suhbatda qaysi san’at turi haqida so‘z bordi?
2. Siz bu amaliy san’at turi haqida nimalarni bilasiz?
3. Bu amaliy san’at turida nimalardan foydalaniladi?
4. Bu san’at turiga sizda qiziqish uyg‘ondimi? Qani, ketdik.

yog‘och o‘ymakorligi
_____ hissa _____
_____ bo‘rtiq _____

3. O‘qing.


Yog‘och o‘ymakorligi O‘zbekistonning barcha viloyatlarida qadimdan keng tarqalgan. O‘ymakorlikka oid bo‘rtiq naqshlar me’morchilikda keng qo‘llanadi. Eshik, darvoza, ustun, xontaxta, quticha, qalamdon va lavh kabi buyumlarda ularni uchratish mumkin.

Bu kasb kishidan ko‘p mehnat talab qiladi. Yog‘och o‘ymakorligi mahsulotlarini yasashda qayrag‘och, archa, yong‘oq, tut, o‘rik, chinor, tol, terakdan foydalaniladi.

Yog‘och o‘ymakorligi san’atining rivojlanishida Ortiq Fayzullayevning ham xizmati katta. Bu san’at namunalarini “Xotira maydoni” memorial majmuasi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Hastimom majmuasi, “Xalqlar do‘stligi” saroyida ko‘rishimiz mumkin.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi dialogda keltirilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Matn bo‘yicha kichik savol-javob o‘tkazib oling.



48

4. O‘ylang va toping. Yozing.

xontaxta | ~~qalamdon~~ | eshik | quticha | ustun | lavh

Namuna *1. Botir singlisiga yog‘och o‘ymakorligi to‘garagida qalamlarini solish uchun qalamdon yasadi.*

1. Botir singlisiga yog‘och o‘ymakorligi to‘garagida qalamlarini solish uchun ____ yasadi.
2. O‘zbek xonadonida odatda _____ atrofida o‘tirib ovqatlaniladi.
3. Ayollar zeb-ziynatlarini _____da saqlashadi.
4. Hashamatli binolarda o‘yma naqshli yog‘och _____ va _____larni ko‘rishingiz mumkin.
5. Alisher Agataga _____ sovg‘a qildi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Yog‘och o‘ymakorligi | O‘xshashligi | Zardo‘zlik

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni to‘ldirishlari lozim. Namuna:

Botir singlisiga yog‘och o‘ymakorlik to‘garagida qalamlarini solish uchun ***qalamdon*** *yasadi.*

Alisher Agataga esdalik uchun ***lavh*** *sovg‘a qildi.*

Bunda o‘quvchilardan gaplarni avval og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda to‘ldirishlarini so‘rashingiz maqsadga muvofiq.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar “Venn diagrammasi” metodi bo‘yicha yog‘och o‘ymakorligi va zardo‘zlik san’atining dastlab farqli (ikki doira ichida), so‘ng birlashtiruvchi, umumiy belgilarini (doiralarning o‘zaro tutashgan qismida) yozishlari lozim.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda tartibsiz holatda berilgan so‘zlarni topishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajariladi.

Jadvalda qo‘llangan so‘zlar: *naqsh, xontaxta, ustun, shogird, amaliy san’at, bezak, quticha, qalamdon, lavh.*


7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ngra uni o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, yog‘och o‘ymakor usta Ortiq Fayzullayev haqida ma’lumotlar to‘plab, 30–50 ta so‘zdan iboat matn yozib kelishlari kerak.

21-DARS. MILLIY TAOMLAR

Maqsad: o‘zbek milliy taomlari, ularning tayyorlanish jarayoni, turli hududlarga ko‘ra farqlanishi haqida ma’lumotlar berish; kelasi zamon shakli (*-a/-y* shakli), ularning yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; shuningdek, payt ravishlari – *doim, har doim, hamisha, odatda, ko‘pincha* shakllari bilan tanishtirish, ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malakalar hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



49

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Naqsh. 2. ...*

t	u	a	n	j	a	r	a	t	u	p	r	q	
g	s	u	a	x	o	n	t	a	x	t	a	x	
a	t	s	q	f	g	h	j	k	l	o	p	y	
z	u	c	sh	o	g	i	r	d	v	e	m	n	
q	n	e	r	t	z	u	i	o	u	s	t	a	
a	m	a	l	i	y	k	s	a	n	‘	a	t	
a	u	s	d	f	b	e	z	a	k	s	d	g	
f	n	g	z	x	c	v	b	n	m	l	k	h	
a	t	t	b	k	t	o	q	u	t	i	ch	a	
q	a	l	a	m	d	o	n	f	r	e	t	q	
s	n	b	m	l	a	v	h	r	g	s	o	l	
d	k	f	o‘	y	m	a	k	o	r	l	i	k	

Mustaqil topshiriq

Yog‘och o‘ymakor usta Ortiq Fayzullayev haqida ma’lumot yozib keling. (30–50 ta so‘zdan iborat matn tuzing.)

MILLIY TAOMLAR

1. O‘qing.

O‘zbek milliy taomlari bilan tanishamiz.

Norin – Toshkent milliy taomi. Norin bu – somonchа qilib kesilgan ot go‘shti va pishirilgan xamirdan tayyorlanadigan mazali taom.

Bilasizmi, Sirdaryo viloyatida qovurilgan baliq juda ham mazali tayyorlanadi. Buning sababi esa baliqlar daryoning o‘zidan tutiladi.

Samarqandning mashhur taomlaridan biri bu – no‘xatsho‘rak. Bu taomni sayyohlar juda sevib iste’mol qilishadi. No‘xatsho‘rak no‘xat va go‘shtdan tayyorlanadi.

Qashqadaryo viloyatining eng mashhur taomi bu – tandir go‘shti. Bu taom qo‘y go‘shtidan tayyorlanadi. Qo‘y go‘shti katta bo‘laklarga bo‘linadi va ziravorlarga to‘yintirilib, tandirda uzoq vaqt pishiriladi. Tandir go‘shti boshqa davlatlarga ham eksport qilinadi.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan yog‘och o‘ymakor usta Ortiq Fayzullayev haqida ma’lumotlar to‘plab, 30–50 ta so‘zdan iborat matn yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:


1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasm yuzasidan qisqa savol-javob o‘tkazib oling.

2. O‘zbek milliy taomlari haqida berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida milliy taomlar nomlarini o‘zlariga muvofiq keluvchi hudud nomi bilan to‘g‘ri moslashlari, ya’ni hududlarning o‘ziga xos milliy taomlarini aniqlashlari va namunada keltirilgani kabi javob berishlari lozim. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajariladi. Namuna: *Toshkent – norin; Sirdaryo – qovurilgan baliq; Qoraqalpog‘iston – jo‘xori gurtik.*

4. “Diqqat qiling!” qismida -a/-y qo‘shimchalari ishtirokida kelasi zamon fe’lini hosil qilish chiziqli sxema tarzida

aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilida kelasi zamon fe’lini hosil qiluvchi *-a/-y* shakllari haqida ma’lumotlar bering. Kelasi zamon fe’lining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-a/-y* shakllari yordamida kelasi zamon fe’llarini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.



5. 3-topshiriqda o‘quvchilar o‘rni almashtirib qo‘yilgan payt ravishlari va kelasi zamon fe’llarini namunadagi kabi to‘g‘rilab yozishlari lozim. Namuna:

Biz oshning sabzisini ko‘pincha somoncha shaklda to‘g‘raymiz.

6. 4-topshiriqda berilgan QR-kod orqali o‘zbek milliy taomi – osh tayyorlash jarayoni haqidagi videomaterialni o‘quvchilarga ko‘rsating. (Agar sinfxona texnik imkoniyati bunga javob bermasa, osh tayyorlash jarayoni haqida o‘zingiz og‘zaki tarzda bayon qiling va kichik suhbat tashkillashtiring)

21-dars videomaterial havolasi



7. Yuqoridagi videomaterial va mavjud ko‘nikmalar asosida 5-topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatishlari va ushbu mahsulotlarni jadvaldagi tegishli ustunlarga mos ravishda yozib chiqishlari lozim. Namuna:

Osh tayyorlash		
Asosiy mahsulotlar	**Qo‘shimcha mahsulotlar**	**Solinmaydigan mahsulotlar**
Sabzi	Behi	Karam
Yog‘	No‘xat	Pomidor



51

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Biz oshning sabzisini ko'pincha somoncha shaklda to'g'raymiz.*

1. Biz oshning sabzisini	doimo	somoncha shaklda	ishlatiladi
2. Shamollaganimizda	odatda	tomog'imizni	yoziladi
3. Mehmon kelganda	har doim	dasturxon	~~to'g'raymiz~~
4. Tug'ilgan kunimda	~~ko'pincha~~	yaqinlarimdan sovg'alar	olaman
5. Noringa	hamisha	ot go'shti	chayamiz

4. Tinglang.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Osh tayyorlash		
Asosiy mahsulotlar	Qo'shimcha mahsulotlar	Solinmaydigan mahsulotlar
Sabzi	Behi	Karam
_____	_____	_____

Mustaqil topshiriq

O'zingiz yoqtirgan taomning tayyorlanish usulini yozib keling.

10. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Globoalfavit” metodini o‘tkazib oling. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligi bo‘yicha bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni aytishlari lozim bo‘ladi. Masalan: 1-o‘quvchi *a* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *asosiy*; 2-o‘quvchi *b* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *beshbarmoq* kabi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari yoqtirgan taomning tayyorlanish usulini yozib kelishlari lozim.

22-DARS. MINORALAR

Maqsad: O‘zbekistondagi mashhur minoralar, ularning balandligi, tarixi, qurilish jarayonlari haqida ma’lumotlar berish; sifat darajalari yuzasidan bilimlarni yana bir bor mustahkamlash; orttirma va qiyosiy daraja shakllari, ularning yasalishi, imlosi, yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanishi bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.


Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari yoqtirgan taomning tayyorlanish usulini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating.

2. 1-topshiriqda berilgan Zembining Alisherga yo‘llagan maktubini ketma-ketlik asosida, yoki har bir o‘quvchi mustaqil tarzda o‘qishlari lozim.

3. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Minoralar haqidagi audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


52

MINORALAR

1. O‘qing.

Assalomu alaykum, do‘stim Alisher!

O‘qishlaring, ishlaring yaxshimi? Kecha menga tarixiy binolardan biri haqida taqdimot tayyorlab kelish vazifasi berildi. O‘zbekistonga borganimda meni hayratga solgan tarixiy minoralar haqida taqdimot tayyorladim. U barchaga yoqdi. Do‘stlarim bilan O‘zbekistonga borishni maqsad qildik. Borganimda sen bilan yana albatta uchrashaman.

Hurmat bilan keniyalik do‘sting Zembi.

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

minora
me’moriy yodgorlik
muhandis
me’mor
xom g‘isht
qadimiy

11 metr (mil.avv. II asr)
40 metr (1127-yil)
50 metr (XX asr)

eng baland, pastroq, balandroq, eng qadimiy, baland

Namuna *Islomxo‘ja minorasi **eng baland** minoradir.*

22-audiomaterial matni

• Minorayi Kalon (Katta minora) Arslonxon minorasi – Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Eski Buxoroning eng baland inshooti: balandligi 46.5 metr. Muhandis va me’mor – Baqo loyihasi asosida Qoraxoniylar sulolasidan bo‘lgan Arslonxon Muhammad 1127-yili qurdirgan. Tepaga minora ichidagi 104 ta pillapoyali aylanma zina orqali chiqiladi. 16 ravoqli darchalari orqali atrofni kuzatish mumkin.

• Islomxo‘ja minorasi o‘zining hashamati va chiroyi bilan tomoshabinni hayratga soladi. Ushbu minora XX asr boshida vaziri akbar Islomxo‘ja tomonidan qurdirilgan. Minoraning balandligi 51 metr bo‘lib, uning qurilishiga yarim million g‘isht ishlatilgan. Minoraga 118 ta pillapoyali aylanma zinapoya orqali ko‘tariladi. Ichkariga yorug‘lik tushib turishi uchun aylanma bo‘ylab 10 ta tuynuk qoldirilgan.

• Zurmala minorasi – miloddan avvalgi II asrda qurilgan bo‘lib, u o‘sha kezlari buddaviylik markazlaridan biri bo‘lgan. Bugungi kunda minoraning balandligi 11 metr, kengligi esa 6 metrli joyi saqlanib qolgan. Asosan to‘g‘ri to‘trburchak, silindrsimon shaklda xom g‘ishtdan qurilgan. Bu minora Termiz shahrida joylashgan. U O‘zbekistondagi eng qadimiy minora sanaladi.


4. 3-toshiriqda o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida rasmda tasvirlangan minoralarning balandligini, ularning yoshini o‘zaro taqqoslagan holda namunada ko‘rsatilgani kabi sifat daraja shakllarini to‘g‘ri qo‘llagan holda gap tuzishlari lozim. Namuna:

Islomxo‘ja minorasi eng baland minoradir.

Minorayi kalon Islomxo‘ja minorasidan pastroq.

Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar chiroqlar o‘rniga berilgan sifatlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:


53

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi **eng baland** inshootdir.

Foydalanish uchun so‘zlar: uzunroq, ~~eng baland~~, juda chiroyli va maftunkor, qadimiy, eng qadimiy, keng va yorug‘, og‘irroq.

1. Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo'lib, u O'rta Osiyodagi ___ ___ inshootdir.
2. Buxoroda ming yillik tarixga ega binolar saqlanib qolgan, u ___ ___ markazlardan biri.
3. Amudaryo Sirdaryoga qaraganda ___ .
4. Toshkent ko'chalari ___ ___ ___ .
5. Xiva shahri – ___ shaharlardan biri.
6. Samarqand noni Toshkent nonidan ___ .
7. Marg'ilonning adras, atlas matolari ___ ___ ___ ___ .

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. O'zbekistondagi minoralarni sanang.
2. Sizningcha, eng zamonaviy minora qaysi?
3. Minoralar orasida eng qadimiysi qaysi?
4. Sizda qaysi minora qiziqish uyg'otdi? Nima uchun?
5. Minoralardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Mustaqil topshiriq

Minoralardan birining maketini yasab keling.

MUSTAHKAMLASH

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi **eng baland** minoradir.*

*Buxoroda ming yillik tarixga ega binolar saqlanib qolgan, u **eng qadimiy** markazlardan biri.* Ushbu topshiriqni yozma ravishda bajartiring.

6. 5-topshiriqda berilgan savollarni o‘quvchilarga o‘qittiring. O‘quvchilar ushbu savollarga mavzuda berilgan ma’lumotlar va o‘z shaxsiy kuzatuv hamda bilimlari asosida javob berishlari lozim. Topshiriqni kichik debat tarzida o‘tkazishingiz maqsadga muvofiq.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing.

Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Timsoh” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar lug‘at-so‘zlar – yil fasllari, tabiat hodisalarini pantomima ko‘rinishida, faqatgina tana harakatlari va imo-ishora orqali ko‘rsatib berishlari, qolgan jamoadoshlari esa bu qaysi so‘z ekanini topishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yoqtirgan minoralardan birining maketini yasab kelishlari lozim.

23-DARS. MUSTAHKAMLASH

Maqsad: 1-chorak yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan dars mavzusida o‘tilgan yoki o‘zlari yoqtirgan minoralardan birining maketini yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing, maketni yasash jarayonidagi taassurotlari, nega aynan shu minorani tanlaganliklari haqida so‘rang va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab oling.


Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. “Aqliy hujum” metodi asosida rasmlar yuzasidan qisqa savol-javob o‘tkazib oling.

2. 2-topshiriqda Minorai kalon haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega matn kelti-

rilgan. O‘quvchilarga ushbu matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

3. 3-topshiriqda keltirilgan xarita rasmiga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar ushbu xarita asosida mustaqil ravishda o‘z sayohatlarining rejasini belgilashlari lozim. Bunda o‘quvchilar: (1) xaritada sayohat rejasini tartiblashlari, (2) *qayerga, nega, kim bilan, qachon* kabi savollarga javob berishlari va (3) ushbu sayohatlari haqida kichik matn yaratishlari lozim.


53

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *uzunroq, ~~eng baland~~, juda chiroyli va maftunkor, qadimiy, eng qadimiy, keng va yorug‘, og‘irroq.*

Namuna 1. *Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi **eng baland** inshootdir.*

1. Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi ____ ____ inshootdir.
2. Buxoroda ming yillik tarixga ega binolar saqlanib qolgan, u ____ ____ markazlardan biri.
3. Amudaryo Sirdaryoga qaraganda ____ .
4. Toshkent ko‘chalari ____ ____ ____ .
5. Xiva shahri – ____ shaharlardan biri.
6. Samarqand noni Toshkent nonidan ____ .
7. Marg‘ilonning adras, atlas matolari ____ ____ ____ ____ .

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. O‘zbekistondagi minoralarni sanang.
2. Sizningcha, eng zamonaviy minora qaysi?
3. Minoralar orasida eng qadimiysi qaysi?
4. Sizda qaysi minora qiziqish uyg‘otdi? Nima uchun?
5. Minoralardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Mustaqil topshiriq

Minoralardan birining maketini yasab keling.


MUSTAHKAMLASH

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar lug‘at-so‘zlar ustida ishlaydilar. Bunda o‘quvchilar o‘tilgan mavzular yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni jadvaldagi tegishli ustunlarga moslab yozib chiqishlari lozim. Namuna:

Taomlar	Binolar	Zargarlik	Yog‘och o‘ymakorligi
Osh,	Minora	Tilla	Xontaxta
No‘xat-sho‘rak	Ichan-qal’a	Bilaguzuk	Lavh

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirib o‘zbek xalq maqollarini topadilar. Keyin ularni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Maqollarda ilgari surilgan mavzu va ularning mazmuni bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida kichik davra suhbati tashkil qiling.


54

2. O‘qing.

Minorayi kalonni “Buxoro me’morchiligining o‘ziga xos durdonasi” deyishadi. Chunki turli bosqinlar, tabiiy ofatlarda ko‘plab me’moriy obidalar vayron bo‘lgan. Usta Baqo minoraga naqsh solayotib ana shu yodgorliklardagi bezaklardan nusxa olgan ekan.

Minorayi kalon qadimda savdo karvonlari uchun mayoq vazifasini o‘tagan. Uning ustiga kechalari chiroq yoqib qo‘yilgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab harakatlanib ketayotgan karvonlarga minora olis-olislardan ko‘rinib turgan.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Xaritada sayohatingizning rejasini tartiblang.
2. Qayerga? Nega? Kim bilan? Qachon? Ushbu savollarga javob bergan holda kichik matn tuzing.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

tilla, osh, uzuk, minora, ustun, somsa, no‘xatsho‘rak, xontaxta, eshik, Registon, Ichan qal’a, teleminora, zirak, bilaguzuk, norin, lavh

Taomlar	Binolar	Zargarlik	Yog‘och o‘ymakorligi
____	____	____	____

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. qadrini bilar zargar zar.
2. eskisini yangi qurmay uy turib, buzma.
3. yigitga bir qirq ham oz hunar.
4. shogird usta maqomga har yo‘rg‘alar ko‘rmagan.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida o‘quvchilarning 1-chorak bo‘yicha o‘rgangan lug‘at-so‘zlarini “Zanjir” metodini qo‘llash orqali tekshirib, baholab oling. Bunda o‘quvchilar mazkur bo‘limda o‘rgangan so‘zlarini yodga olishlari va ushbu so‘zlarni zanjir usulida, ya’ni ketma-ketlikni buzmagan holda uzviy ravishda aytib borishlari va lug‘at-so‘zlari “zanjiri”ni tuzishlari lozim. Masalan: 1-o‘quvchi “poytaxt” so‘zini aytadi, 2-o‘quvchi avval “poytaxt”, so‘ng o‘zi o‘ylagan, masalan,


“rasadxona” so‘zini aytadi. Uchinchi o‘quvchi esa birinchi va ikkinchi o‘quvchi aytgan so‘zlarni, ya’ni “poytaxt” va “rasadxona” so‘zlarini, so‘ng o‘zi o‘ylagan, masalan, “ziyoratgoh” so‘zini aytadi. Jarayon shu tarzda eng oxirgi ishtirokchi ham so‘z aytib “zanjir”ni uzguncha davom etadi. Bunda ham ziyraklik, ham xotira kuchi sinovdan o‘tkaziladi va shu tariqa lug‘at-so‘zlar mustahkamlanadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor takrorlab, o‘zlari sayohatga chiqishni xohlagan yoki sayohat qilgan manzil (joy, shahar)lari haqida qiziqarli ma’lumotlarni to‘plab kelishlari lozim.

24-DARS. ADABIY O‘QISH. HUNAR HAQIDA ERTAK

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish; shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish; badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari sayohatga chiqishni xohlagan yoki sayohat qilgan manzil (joy, shahar)lari haqida qiziqarli ma’lumotlarni to‘plab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



55

ADABIY O‘QISH

HUNAR HAQIDA ERTAK

Burungi zamonda bir podshoh bo‘lgan ekan. U bir kambag‘alning qiziga uylanmoqchi bo‘lib, sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib, podshohning niyatini qizga aytishibdi. Qiz sovchilarga:

– Podshohga aytinglar, olmoqchi bo‘lsa, men ham roziman. Lekin podshoh bir hunar bilsagina, tegaman, bilmasa – o‘rgansin, – debdi.

Sovchilar podshohning oldiga kelib qizning shartini aytishibdi.

Podshoh bu gapni eshitib, avval achchiqlanibdi, so‘ng o‘ylanib turib, qizning gapi ta’sir qilibdi: “Podshohligim hunar emas ekan-da. Xayr, hunar ham o‘rganay”, deb o‘z o‘rniga vazirini qoldirib, hunar axtarib chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni ko‘ribdi, oxiri gilamchilik ma’qul bo‘libdi. Gilam to‘qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to‘qishni o‘rganibdi. Bir gilam to‘qib qizning uyiga yuboribdi. “Hunar o‘rgandik, shartini bajardik”, debdi. Qiz:

– Podshoh shartni bajargan bo‘lsa, men ham so‘zimda turibman, – debdi.

Podshoh to‘y-tomosha qilib, qizga uylanibdi.

Kunlardan bir kuni mamlakatdagi savdogarlar, katta-katta boylardan bir qanchasi g‘oyib bo‘libdi. Qancha axtarishmasin, baribir ularning daragini topisholmabdi. Bu xabar podshohga yetib kelibdi. Podshoh: “Bularni o‘zim axtarayin, shaharda bir sir borga o‘xshaydi, buni bilmasam bo‘lmaydi”, deb podshohlik kiyimlarini yechib, boshqa kiyimlar kiyib, kechasi xalq uxlagandan keyin shaharni aylanmoqchi bo‘lib saroydan chiqib ketibdi. Aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko‘rinibdi. Podshoh to‘g‘ri shu chiroq ko‘ringan joyga borsa, bir oshxona ekan. Oshxonaning ichida ko‘p odam ovqat yeb o‘tirgan ekan. Eshikni ochib qarashi bilan oshxona egasining ko‘zi unga tushibdi va:

– Nima ishingiz bor? – deb so‘rabdi.

Podshoh:

– Qornim och, ovqat yemoqchiman, – debdi.

Oshxona egasi:

– Qani, ichkari kiring, to‘rga o‘ting, – deb podshohni ichkari xonaga olib kiribdi.

Podshoh to‘rga o‘tayotib yerto‘laga tushib ketibdi.

Qarasa, ro‘parasida bir kishi turibdi. U kishi podshohni sudrab ichkari bir xonaga olib kiribdi. Xonada odam juda ko‘p ekan. Podshohning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushibdi. Bir kishi o‘tirgan yeridan shartta turib, qo‘lida katta pichoq: “Qani, hozir navbat kimniki?” deb to‘g‘ri podshohning oldiga kelib, uni so‘ymoqchi bo‘libdi. Podshoh esankirab qolibdi:

– Sizlar kimsizlar?! Sizlarga jon kerakmi, mol kerakmi, pul kerakmi? – debdi. Ular:

– Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo‘lmasa, jon kerak, hozir sening kallang kerak, – deyishibdi.

Podshoh:

– Pul, mol topib bersam bo‘ladimi? – debdi.

Ular:

– Bo‘ladi, – deyishibdi.

Podshoh:

– Unday bo‘lsa, bir hunar ko‘rsataman, mening aytganimni qilasizlar. Men bir gilam to‘qib beraman, shuni podshohga olib borsanglar, ming tilla beradi, – debdi.

Ular:

– Qani, hunaringni ko‘raylik, – deyishibdi.

Podshoh u kerak, bu kerak deb gilam to‘qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar bozorga borib, podshoh aytgan narsalarni olib kelishibdi. Podshoh gilam to‘qishga kirishibdi. Gilamni to‘qib bo‘lgach:

– Mana bu gilamni podshohga olib boringlar. Podshoh sizlarga ming tilla beradi, – debdi.

Haligi odamlar gilamni podshoh saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkariga olib kirib, vazirga ko‘rsatibdi. Bular podshohning yo‘qolib qolganidan jig‘ibiyron bo‘lib yurgan ekan. Maslahatlashib, gilamni podshohning xotiniga ko‘rsatibdilar. Malika eri to‘qigan gilamni tanib, uni keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan odam qo‘yibdi. O‘g‘rilar tillalarni olib, suyunib to‘g‘ri oshxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan odam vazirga xabar beribdi. Vazir askarlar bilan kelib, oshxonani o‘rab, ichkariga kirib podshohni topibdi. Podshoh tutqunlikdagi odamlarning barchasini ozod qilibdi. Odam o‘g‘rilarining qo‘llarini bog‘latib, saroyga keltiribdi hamda hammasini qatl qilibdi.

O‘zbek xalq ertagi

Vazifalar:

1. Ertakni bir marta o‘zingiz ifodali tarzda o‘qib bering. Keyin o‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. Ertak bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling.

4. Matndagi yangi so‘zlar ustida ishlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha tushunchalar bering. Yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va matndagi yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘qigan matnlari – “Hunar haqida ertak” yuzasidan “Ertakdan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelishlari lozim.

II CHORAK. QANI, KETDIK

28-DARS. KAMARLARNI TAQING!

Maqsad: yangi bo‘lim bilan tanishtirish; transport turlari haqida ma’lumotlar berish; o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tinglash, yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Siz ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Siz qanday transport turlarini bilasiz?”, “Orzuyingizdagi transport qaysi?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling va ushbu bo‘limda eng ko‘p qaysi jihatlarga e’tibor qaratishg lozimligi haqida o‘ylab ko‘ring.


2-chorak
QANI, KETDIK

KAMARLARNI TAQING!

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ushbu suhbatda 3 kishi ishtirok etgan.		
2	Bolalar Samarqandga tezyurar poyezdda borganlar.		
3	Suzuko poyezdda ketayotganida tuyalarni ko‘rib qolgan.		
4	Zembi tuyalarni faqat rasmda ko‘rgan.		
5	Alisherga samolyotda uchish yoqib qolgan.		

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan adabiy o‘qish darsidagi “Hunar haqida ertak” yuzasidan “Er-

takdan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bolalarning o‘zaro suhbati aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

28-audiomaterial matni

– Assalomu alaykum, do‘stlarim.

– Yaxshi o‘qib yuribsizlarmi?

– Esingizdami, Samarqandga tezyurar poyezdda ketayotganimizda juda qiziq voqealar bo‘lgan edi.

– Ha, albatta, esimda. Juda ham maroqli sayohat qilganmiz.

– Suzuko, avtobusda ketayotganimizda cho‘lda tuyalarni ko‘rib hayratlanganing esingdami?

– Ha, men ikki o‘rkachli tuyani faqat rasmlarda ko‘rganman.

– Menga esa O‘zbekiston havo yo‘llarida uchish yoqib qolgan edi. Samolyotdagi styuardessalarning muomalasi va milliy taomlarga gap yo‘q!

– Keyingi sayohatimizda O‘zbekistonning boshqa shaharlariga boramiz.

– Unda O‘zbekistonda uchrashguncha!!!



57

Yerusti transportlari	Yerosti transportlari	Suv transportlari
___	___	___

4. O‘qing.

Asaka avtomobil zavodi O‘zbekiston avtomobil sanoatining yetakchi va to‘ng‘ich korxonasidir. Ushbu korxonaning ishga tushirilishi tufayli O‘zbekiston jahonda o‘z avtomobil sanoatiga ega bo‘lgan 28 mamlakat qatoridan o‘rin oldi. Asaka avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida 1994–1996-yillarda qurilgan.

Avtomobil zavodini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma 1992-yil 29-avgustda imzolangan, zavod qurilishi esa 1994-yil boshida boshlangan. 1996-yil 19-iyulda zavodning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu zavodda ishni asosan Shvetsiyadan keltirilgan robotlar bajaradi. Robotlarni bir necha ishchi kompyuter orqali boshqaradi. Mashinalar bo‘yash bo‘limiga o‘tib, bo‘yalib chiqadi, so‘ng yig‘uv bo‘limiga o‘tadi. Bu bo‘limda mashina detallari joy-joyiga qo‘yiladi. Tayyor bo‘lgan avtomobillar sinalib, zavod eshigidan chiqariladi.

Bugun “O‘zavtomotors” quyidagi modeldagi avtomobillarni ishlab chiqaradi: “Damas”, “Spark”, “Nexia”, “Cobalt”, “Lacetti”, “Malibu”, “Tracker”.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Mashinani haydovchi boshqaradi. Avtomobil benzin, elektr va dizelda yuradi. Uni boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasi kerak.*

Transport turlari	Mashinist	Haydovchi	Uchuvchi	Benzin	Elektr	Dizel	Guvohnoma	ABCD
Avtobus	-	+	-	+	+	+	+	D
Kema								

2. 2-topshiriqda yuqoridagi suhbat asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Ushbu suhbatda 3 kishi ishtirok etgan. To‘g‘ri. Izoh: Suzuko, Zembi va Alisher ishtirok etgan.

Suzuko poyezdda ketayotganida tuyalarni ko‘rib qolgan. Noto‘g‘ri. Izoh: ular poyezdda emas, avtobusda ketishayotganda tuyalarni ko‘rib qolishgan edi.

3. Rasmlar ustida ishlash. 3-topshiriqda o‘quvchilar rasmlarda tasvirlangan transport turlarini aniqlashlari va jadvaldagi tegishli ustunlarga mos holda yozib chiqishlari lozim.

4. Matnga ilova qilingan rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Rasm orqali nimani tushunishgani va rasmlar nima haqida ekanligi haqida fikrlarini so‘rang. Berilgan matnni ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

5. Jadval ustida ishlash. Bunda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha jadvalni namunada ko‘rsatilgani kabi to‘ldirishlari lozim. Namuna:

Mashinani haydovchi boshqaradi, benzin, elektr va dizelda yuradi. Uni boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasi kerak.

Ushbu topshiriq yozma ravishda bajariladi.


6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *transport* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *TRANSPORT* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *T, R, A, N, S, P, O, R, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, uni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor mustahkamlab, kelajak avtosi haqida ma’lumot topishlari lozim.

29-DARS. AVTOBUS NEGA QIZIL?

Maqsad: eng qulay jamoat transportlaridan biri – avtobuslar, ularning tarixi, turlari hamda yaratilish jarayoni haqidagi qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishtirish; kelasi zamon fe’li (*-a/-y* shakli), uning yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malakalar hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



58

Mashina								
Metro	+							
Mikroavtobus								
Mototsikl								
Poyezd	+							
Samolyot								
Tramvay								
Velosiped								
Vertolyot								

Mustaqil topshiriq

Kelajak avtosi haqida ma’lumot toping.

AVTOBUS NEGA QIZIL?

1. O‘qing.

Agata, xatingda boshqa shaharga ko‘chganingni yozibsan. Qaysi shahar-da yashayapsan?

Biz oilamiz bilan Londonga ko‘chib keldik. London – juda go‘zal shahar.

Bilasanmi, Agata, London deganda ko‘z oldimda “Big Ben” gavdalanadi.


Mening xayolimga esa birinchi bo‘lib “Tauer” ko‘prigi keladi.

Mening tasavvurimda esa “London Eye” (“London ko‘zi”) rasmi paydo bo‘ladi.

Men esa Londonni ikki qavatli qizil avtobuslarsiz tasavvur qila olmay-man. Toshkentda ham diqqatga sa-zovor joylarni ikki qavatli ekskursiya avtobuslarida aylangan edik.

Agata, nima uchun bu avtobuslar ikki qa-vatli va ularga aynan qizil rang tanlangan?

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kelajak avtosi haqida ma’lumot topish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



59

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Tengdoshlaringiz Londonni nimalar bilan tasavvur qilishadi?

talab ko‘paydi

ehtiyoj tug‘ildi

nazardan chetda qolmaslik

3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ikki qavatli avtobuslar “dabldeker” deb ataladi.		
2	Birinchi ikki qavatli avtobuslar Yaponiyada ishlab chiqarilgan.		
3	Dabldeker XIX asrning 20-yillarida paydo bo‘ldi.		
4	Turistlar atrofni yaxshi kuzata olishi uchun avtobus-ning ikkinchi qavati o‘ylab topilgan.		
5	Dabldekerlar noqulay ob-havoda ham yaqqol ko‘rinib turishi uchun qizil rang tanlangan.		

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan bolalarning o‘zaro suhbati yoritilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqdagi jadvalda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar yuqoridagi suhbatda bolalar Londonni nimalarsiz tasavvur

qila olmasligini topishlari va namunada ko‘rsatilgani kabi belgilashlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Suzuko Londonni katta Big Ben soatisiz tasavvur qila olmaydi.

3. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Londondagi mashhur ikki qavatli avtobuslarning tarixi yoritilgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

29-audiomaterial matn

Bu qiziq!

Bilasizmi, ikki qavatli avtobuslar “dabldeker” deb nomlanadi. Hech kimga sir emaski, yirik shaharlarda aholi soni ortishi bilan transportlarga ham talab ko‘payadi. London ham bundan mustasno emas. Undagi ilk avtobuslar XIX asrning 20-yillarida paydo bo‘ldi. Biroq Buyuk Britaniyada aholi soni shiddat bilan o‘sishi natijasida yanada ko‘proq odamni sig‘dira oladigan transportga ehtiyoj tug‘ildi.

Ayni shu vaqtda qo‘shimcha qavat yaratish taklifi paydo bo‘ldi. Shunday qilib, 1847-yildan boshlab shaharda qo‘sh qavatli dabldekerlar qatnay boshladi. Mashhur dabldeker *Routemaster* nomiga ega, ya’ni so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “yo‘l xo‘jayini” degan ma’noni bildiradi. Bu, umuman olganda, ayni haqiqat. Axir qizil rang tasodifan tanlanmagan. Bu Londonning yana bir o‘ziga xosligi bo‘lgan tumanli ob-havoda ham avtobusning nazardan chetda qolmasligiga yordam beradi.




4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha jadval ichida berilgan hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari lozim. Namuna:

Ikki qavatli avtobuslar “dabldeker” deb nomlanadi.

Birinchi ikki qavatli avtobuslar Yaponiyada ishlab chiqarilgan. Noto‘g‘ri. Izoh: birinchi ikki qavatli avtobuslar Angliyaning London shahrida ishlab chiqarilgan.

5. “Diqqat qiling!” qismida kelasi zamon fe’lining hosil bo‘lishi chiziqli sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilida kelasi zamon fe’lini hosil qiluvchi *-a/-y* shakli haqida ma’lumotlar bering. Kelasi zamon fe’lining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-a/-y* shakli yordamida kelasi zamon fe’llarini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini

so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.


60

DIQQAT QILING!

-a /-y

Men — -man
Sen — -san
U — -di
Biz — -miz
Siz — -siz
Ular — -dilar

uchmoq + -a
o‘qimoq + -y

5. O‘ylang va toping. Yozing.

tomosha qilmoq | qatnashmoq | bormoq | tayyorlamoq | bermoq | kelmoq

Namuna *Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog‘iga boramiz.*

1. Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog‘iga ____.
2. Bugun do‘stim bilan kutubxonada dars ____.
3. Siz onangizning tug‘ilgan kuniga qanday sovg‘a ____?
4. Alisher ertaga sport musobaqasida ____.
5. Malika sen yozda ingliz tili to‘garagiga ____?
6. Bolalar Toshkentni qizil avtobusda ____ ____.

Mustaqil topshiriq

Tasavvuringizdagi avtobus dizaynini yarating. Unga qanday rang tanlamoqchisiz? Nima uchun?

TEZYURAR POYEZD

1. Tinglang. Gapiring.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llarni kelasi zamon (*-a/-y* shakli) va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda moslab yozib chiqishlari lozim. Masalan:

1. *Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog‘iga bor**a**miz*.

2. *Bugun do‘stim bilan kutubxonada dars tayyorlay**miz***.

Bunda o‘quvchilar gaplarni avval og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda to‘ldirishlari maqsadga muvofiq.


7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ngra ularni o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, tasavvurlaridagi avtobus dizaynini yaratib kelishlari lozim.

30-DARS. TEZYURAR POYEZD

Maqsad: yana bir qulay yerusti transportlaridan biri – tezyurar poyezdlar, ularning tarixi, turlari, yaratilish jarayoni bo‘yicha ma’lumotlar berish; kelasi zamon fe’li (*-a/-y* shakli), uning yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yana bir bor mustahkamlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malakalar hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.


60

DIQQAT QILING!

-a /-y

Men — -man
Sen — uchmoq + -a / o‘qimoq + -y — -san
U — -di

Biz — -miz
Siz — uchmoq + -a / o‘qimoq + -y — -siz
Ular — -dilar

5. O‘ylang va toping. Yozing.

tomosha qilmoq | qatnashmoq | bormoq | tayyorlamoq | bermoq | kelmoq

Namuna *Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog‘iga boramiz.*

1. Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog‘iga ____.
2. Bugun do‘stim bilan kutubxonada dars ____.
3. Siz onangizning tug‘ilgan kuniga qanday sovg‘a ____?
4. Alisher ertaga sport musobaqasida ____.
5. Malika sen yozda ingliz tili to‘garagiga ____?
6. Bolalar Toshkentni qizil avtobusda ____ ____.

Mustaqil topshiriq

Tasavvuringizdagi avtobus dizaynini yarating. Unga qanday rang tanlamoqchisiz? Nima uchun?

TEZYURAR POYEZD

1. Tinglang. Gapiring.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan tasavvurlaridagi avtobus dizaynini yaratib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bolalarning o‘zaro suhbati aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

30-audiomaterial matni

Maks:

– Salom, Suzuko! Qayerdasan?

Suzuko:

– Salom, men Sinkansen (yangi magistral) tezyurar poyezdidaman.

Alisher:

– Eshitishimcha, bu poyezd dunyodagi eng tezyurar poyezdlardan biri ekan.

Agata:

– Nahotki?

Suzuko:

– Albatta, bizning poyezd dunyodagi ilk tezyurar poyezd hisoblanadi.

Zembi:

– Esingizdami, O‘zbekistonda ham ko‘p marta poyezdga chiqqan edik. Vodiydagi Namangan, Farg‘ona, Andijonga qilgan sayohatimizni juda

ko‘p eslayman. Sinfdoshlarimga ham aytib beraman.

Danil:

– Zembi, to‘g‘ri aytasan, tog‘larni o‘yib avtomobil uchun yo‘l qilinganiga qoyil qolmay iloj yo‘q.

Agata:

– Alisher, vodiydagilar avtomobil, poyezdlar yo‘qligida Toshkentga bora olishmaganmi?

Alisher:

– …


61

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Birinchi tezyurar “Sinkansen” poyezdi qaysi davlatga tegishli?
2. Tezyurar poyezd haqida nimalarni bilasiz?
3. Poyezdga chiqqanmisiz? Poyezddagi xotiralaringizni so‘zlab bering.
4. Vodiyda qaysi viloyatlar joylashgan?

tezyurar poyezd
eslayman
vodiy

3. O‘qing.

POYEZDLAR “SHAJARA”SI

1803-yilda ingliz ixtirochisi va muhandisi Richard Trevitik dunyodagi birinchi poyezdni va lokomotivni **loyihalashtirdi**. Bu poyezdga faqat bitta yo‘lovchi vagon **biriktirilgan**.

1834-yilda ota-bola Cherepanovlar suv bug‘i bilan ishlaydigan dvigatel – parovoz **yaratishgan**. Bu lokomotiv bug‘ bilan yurgani uchun “parovoz” deyiladi.

Elektr dvigatelli lokomotiv “elektrovoz” deyiladi. Ular parovozlardan tezroq yurib, ko‘proq vagon torta oladi. Dvigatellari tok bilan ishlaydi. Tok dvigatelga relslar ustiga tortilgan simlardan keladi.

Tezyurar poyezd deb soatiga 140 kilometr tezlikda yuradigan poyezdlarga aytiladi. Hozir Yaponiya, Xitoy va Yevropaning qator mamlakatlarida 300 kilometr masofani atigi bir soatda bosib o‘tuvchi poyezdlar oddiy transport turiga aylanib bormoqda. O‘zbekistondagi eng tezyurar poyezd “Afrosiyob”dir. Bu tezyurar poyezd soatiga 250 kilometr tezligi bilan dunyoda 17-o‘rinda turadi.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Parovoz bu – bug‘ bilan harakatlanadigan poyezd.*

1. Parovoz bu – _____.
2. Elektrovoz bu – _____.
3. Tezyurar poyezd bu – _____.
4. “Afrosiyob” bu – _____.
5. Richard Trevitik bu – _____.


1. 2-topshiriqda yuqoridagi suhbat asosida shakllantirilgan savollar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu savollarga tinglab tushungan matnlari bo‘yicha og‘zaki ravishda javob berishlari lozim.

2. 3-topshiriqda poyezdlar shajarasi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan matnni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Ushbu poyezdlarning datlabki va hozirgi ko‘rinishi o‘rtasidagi farqlari, qulayliklari, afzalliklari haqida o‘quvchilar o‘rtasida kichik suhbat uyushtiring.

3. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida berilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri ravishda davom ettirishlari (to‘ldirishlari) zarur. Namuna:

1. Parovoz bu – <u>bug‘ bilan harakatlanadigan poyezd</u>.

2. Elektrovoz bu – <u>elektr dvigatelli lokomotiv.</u>


62

DIQQAT QILING!

-a /-y

Men -man
Sen bormoq + -a -san
ishlamoq + -y
U -di

Biz -miz
Siz bormoq + -a -siz
ishlamoq + -y
Ular -dilar

5. Yozing.

Namuna *Biz Andijonga keyingi yil boramiz.*

1. Biz Andijonga keyingi yil _____.
2. Nilufar tezyurar poyezdida Samarqandga _____.
3. Bolalar dam olish kuni shahar bo‘ylab _____.
4. Ta’tildagi sayohatimizda siz muzeylarda rasmga _____.
5. Endi ular ham Germaniyaning suratlarini _____.

bordik, boryapsiz, boramiz
ketdingiz, ketadi, ketganmiz
kezadilar, kezyapmiz, kezmoqchiman
tushgan, tushasiz, tushyapti
to‘plabman, to‘plagansan, to‘playdilar

Mustaqil topshiriq

Tezyurar poyezdlarning 10 taligini tuzing.

Dovon – tog‘ning oshib o‘tish qulay bo‘lgan joyi.

AVTOBUS

1. Tinglang.

4. “Diqqat qiling!” qismida o‘zbek tilida kelasi zamon fe’lini hosil qiluvchi *-a/-y* shakllari, kelasi zamon fe’llarining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha olingan bilim va ko‘nikmalarni

yana bir bor mustahkamlang. Misollar orqali *-a/-y* yordamida kelasi zamon fe'llarini hosil qilishni o'rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko'rsating. O'quvchilardan ham og'zaki ravishda fe'llarni tuslab berishlarini so'rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

Birlik	Ko'plik	Birlik	Ko'plik
I *bor+a+man* **II** *bor+a+san* **III** *bor+a+di*	**I** *bor+a+miz* **II** *bor+a+siz* **III** *bor+a+dilar*	**I** *ish-la+y+man* **II** *ish-la+y+san* **III** *ishla +y+di*	**I** *ishla +y+miz* **II** *ishla +y+siz* **III** *ishla +y+dilar*

5. 5-topshiriqda o'quvchilar gaplardagi chiziqlar o'rniga kalit so'zlar sifatida berilgan fe'llarning kelasi zamon shaklini yozib chiqishlari lozim. Namuna:

1. Biz Andijonga keyingi yil boramiz.

2. Nilufar tezyurar poyezdda Samarqandga ketadi.


Topshiriq yozma ravishda bajariladi.

6. Lug'at-so'zlar ustida ishlang. O'quvchilarning 2-bo'lim bo'yicha o'rgangan lug'at-so'zlarini "Qaynoq mikrofon" metodi orqali tekshirib, xulosalab, baholab oling. Bunda o'quvchi mazkur bo'limda o'rgangan so'zlaridan birortasini yodga olib, mikrofonni qo'llariga olgan zahoti ushbu so'zni tezlikda aytadi va mikrofonni sherigiga uzatadi. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so'zni takrorlagan yoki belgilangan muddatdan uzoqroq vaqt davomida so'zni ayta olmagan o'quvchilar o'yinni tark etib boradi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o'quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug'at-so'zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, tezyurar poyezdlarning 10 taligini tuzib kelishlari lozim.

31-DARS. AVTOBUS

Maqsad: jamoat transportlaridan biri bo‘lgan yo‘lovchi tashuvchi avtobuslar, ularning turlari, tarixi hamda yangi avlod avtobuslari – elektrobuslar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish; bu yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.


62

DIQQAT QILING!

-a /-y

Men — -man
Sen — bormoq + -a — -san
ishlamoq + -y
U — -di

Biz — -miz
Siz — bormoq + -a — -siz
ishlamoq + -y
Ular — -dilar

5. Yozing.

Namuna *Biz Andijonga keyingi yil boramiz.*

1. Biz Andijonga keyingi yil _____.
2. Nilufar tezyurar poyezdida Samarqandga _____.
3. Bolalar dam olish kuni shahar bo‘ylab _____.
4. Ta’tildagi sayohatimizda siz muzeylarda rasmga _____.
5. Endi ular ham Germaniyaning suratlarini _____.

bordik, boryapsiz, boramiz
ketdingiz, ketadi, ketganmiz
kezadilar, kezyapmiz, kezmoqchiman
tushgan, tushasiz, tushyapti
to‘plabman, to‘plagansan, to‘playdilar

Mustaqil topshiriq


Tezyurar poyezdlarning 10 taligini tuzing.

Dovon – tog‘ning oshib o‘tish qulay bo‘lgan joyi.

AVTOBUS

1. Tinglang.

Refleksiya jarayoni. Bunda o‘tgan mustahkamlash darsida mustaqil topshiriq sifatida berilgan tezyurar poyezdlar 10 taligini tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


63

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Richard Trevitik …ni loyihalashtirgan.
A) avtomobil B) poyezd C) avtobus

2. “Benz” zavodi qaysi davlatga tegishli?
A) Germaniya B) Angliya C) Fransiya

3. “Yashil transport” bu – …
A) avtobus B) elektrobus C) avtomobil

4. Angliyada takomillashtirilgan 28 o‘rinli avtobus qachon yura boshlagan?
A) 1829-yil B) 1903-yil C) 1909-yil

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Avtobuslarning yangi avlodlari – elektrobuslar Toshkentga Belorussiyadan keltirilgan.*

Avtobuslarning yangi avlodlari – elektrobuslar Toshkentga Belorussiyadan (*keltirilmoq*). Bu transport turi atrofga zararli chiqindilar chiqarmasligi, shovqinsizligi va sof energiya manbaini qo‘llashi bilan (*ajralib turmoq*). “Yashil transport” maxsus batareyalarda (*quvvatlanmoq*). Batareyalarni so‘nggi bekatlarda 6–8 daqiqa davomida quvvatlash mumkin. To‘plangan energiya 20–25 km yo‘lni bosib o‘tishga (*yetmoq*).

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Avtobuslarning tarixi aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

31-audiomaterial matni

Birinchi avtobus 1801-yilda Angliyaning Kemborn shahri ko‘cha-

lari bo‘ylab yurgan. Uning ixtirochisi britaniyalik Richard Trevitik bo‘lib, mashina 8 nafargacha yo‘lovchini sig‘dira olgan.

28 yil o‘tgach, takomillashtirilgan avtobus modeli 28 yo‘lovchini tashiydi. 1903-yil 12-aprelda esa Londonda shahar jamoat transporti sifatida birinchi elektroavtobus qatnovi boshlandi.

Nemislarning “Benz” zavodi inglizlarning g‘oyalarini ishlab, dunyoga birinchi ichki yonuv dvigatelli avtobusni taqdim etdi.

O‘zbekistonda dastlabki avtobus 1906-yilda harakatlangan. U Farg‘ona – Marg‘ilon yo‘nalishida qatnagan.

O‘zbekistonda avtobus ishlab chiqarish 1999-yilda Samarqandda boshlangan.

1. 2-topshiriqda audiomatn yuzasidan test savollari berilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari asosida ushbu test savollariga og‘zaki ravishda javob berishlari lozim. *Test kalitlari: 1) C; 2) A; 3) B; 4) A;*

2. 3-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi qavs ichida berilgan noaniq shakldagi fe’llarni kerakli zamon kategoriyasiga moslashlari lozim. Namuna:

Avtobuslarning yangi avlodlari – elektrobuslar Toshkentga Belorussiyadan ***keltirilgan****. Bu transport turi atrofga zararli chiqindilar chiqarmasligi, shovqinsizligi va sof energiya manbayini qo‘llashi bilan* ***ajralib turadi****.*


Topshiriq yozma ravishda bajariladi.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar komikslarga tayangan holda gaplarni to‘ldirishlari lozim. Namuna:

1-rasm. Bugun Alisherlarning sinfida adabiyot, texnologiya, botanika va ***o‘zbek tili*** *darslari bo‘ldi.*

2-rasm. *Avtobus bekatda to‘xtagach, bir* ***yoshi katta otaxon*** *unga chiqdi.*

Topshiriq yozma ravishda bajariladi.


64

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Bugun Alisherlarning sinfida adabiyot, texnologiya, botanika va ____ darslari bo‘ldi. U darsdan keyin uyiga avtobusda ketmoqchi bo‘ldi va avtobusga chiqdi. Avtobusda ____ning oldidagi bo‘sh o‘rindiqqa o‘tirdi. Lekin avtobusda ____ mumkin emas.
2. Avtobus bekatda to‘xtagach, bir ____ avtobusga chiqdi. Alisher esa ____ joy bo‘shatdi. Otaxon juda mamnun bo‘lib: “Barakalla, o‘g‘lim!” dedi.
3. Alisher otaxon bilan o‘z bekatigacha suhbatlashib ketdi. Uyiga yetgach, yo‘l haqini to‘ladi. Avtobusda yo‘l haqi ____ , ____ ko‘rinishida to‘lanadi.
4. Alisher uyi atrofidagi ____ va ____ do‘koni yonidan o‘tib, uyiga kirib ketdi.

Mustaqil topshiriq

“Avtobusda” mavzusida dialog tuzib keling.

5. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali bog‘” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga olma va limon rasmi tushirilgan qog‘oz kartochkalar tarqatiladi. Olma rasmi tushirilgan kartochka egasi bugun darsda o‘tilgan transport turi – avtobus yoki elektrobuslardan birini tanlab, uning 3 tadan ijobiy jihatlarini, limonli kartochka egasi esa, aksincha, ularning 3 tadan salbiy jihatlarini yozishlari, so‘ngra og‘zaki ravishda o‘qib eshittirishlari lozim. Bunda o‘quvchilar dars mavzusini mustahkamlash bilan birga mantiqiy fikrlash, tanqidiy mushohada qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Avtobusda” mavzusida dialog tuzib kelishlari lozim.

32-DARS. NURLI MANZILLAR

Maqsad: Yurtimizdagi mashhur ziyoratgohlardan biri – Nurota chashma ziyoratgohi, uning shifobaxsh ma’danli suvi hamda so‘lim tabiati haqida qiziqarli ma’lumotlar berish. O‘quvchilarning ichki turizm yuzasidan bilim va tasavvurlarini yanada kengaytirish. *Ko‘p, juda, bag‘oyat, biroz, sal, oz, picha* kabi daraja-miqdor ravishlari bilan tanishtirish, ularning imlosi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish. Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Avtobusda” mavzusida dialog tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan Alisher va Maksning o‘zaro suhbat-dialogini ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring. Dialogda ajratib ko‘rsatilgan daraja-miqdor ravishlariga diqqat qiling.

2. 2-topshiriqda berilgan savollarga o‘quvchilar 1-topshiriqdagi dialogga tayanib javob beradilar.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Nurotadagi “Chashma” ziyoratgohi haqidagi au-

diomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



65

NURLI MANZILLAR

1. O‘qing.

Salom, Alisher! Yaxshimisan? Bugun internetda mikroavtobuslar haqidagi ma’lumotlarni o‘qib qoldim. Esingdami, Buxorodan Navoiyga borganimizda mikroavtobusda juda ko‘p joylarni tomosha qilgan edik?

Albatta, sizlar bilan qilgan sayohatimizni ko‘p eslayman.

Menga Nurotaga qilgan sayohatimiz juda yoqqan edi. Nurotadagi chashmani ko‘rib, juda hayratlangan edim. Agar menga shu chashma siri haqidagi ma’lumotlarni yuborsang, bag‘oyat mamnun bo‘lar edim.

Xo‘p, do‘stim. Ma’lumotlarni birozdan so‘ng yuboraman.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Siz mikroavtobusda sayohatga chiqqanmisiz?
2. Chashma nima? Ular haqida eshitganmisiz?
3. Bolalar Nurota sayohatidan so‘ng qayerga yo‘l olgan?

DIQQAT QILING!

ko‘p
juda
bag‘oyat
biroz

3. Tinglang.

chashma
yashayveradi
minerallashgan
xastaliklar
davo


32-audiomaterial matni

Biz Nurotadagi “Chashma” ziyoratgohiga mikroavtobusda yo‘l oldik. Bu ziyoratgoh Navoiy viloyatida joylashgan. Nurotaning nurli chashmasida baliqlar to‘lib suzadi. Eng qizig‘i, baliqlar tashqi ozuqasiz suv tarkibidagi minerallar bilan oziqlanib yashayveradi. Bu baliqlar suv tarkibidagi fosfor tufayli tovlanib, jozibali ko‘rinish paydo qiladi. Ming yillar davomida oqib turgan chashmaning muzlashi hech qachon kuzatilmagan. U minerallashgan yumshoq ichimlik suvidir. Aniqlanishicha, mazkur suvning tarkibida oltin moddasi bor. U oshqozon-ichak xastaliklariga davo.

Suvdagi yod moddasi buqoq kasalligiga, noyob brom moddasi esa asab kasalliklariga shifo bo‘ladi. Chashma suvidan bugungi kunda ko‘plab ziyoratchilar va chet eldan kelgan sayyohlar olib ketadilar.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari asosida kalit so‘zlar sifatida berilgan daraja-miqdor ravishlaridan foydalangan holda namunada ko‘rsatilgani kabi gaplar tuzishlari lozim. Topshiriq og‘zaki ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

*Nurota ziyoratgohi – **bag‘oyat** chiroyli maskan.*



66

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

*Nurota ziyoratgohi – **bag‘oyat** chiroyli maskan___*

bag‘oyat | sal | oz | ko‘p | juda | biroz | kam

5. O‘qing.

Mikroavtobus ishlab chiqarish 1950-yildan boshlangan. U 9–15 yo‘lovchini tashishga mo‘ljallangan.
Mikroavtobuslardan yo‘lovchi tashishdan tashqari, maxsus xizmatlar, masalan, tez tibbiy yordam ko‘rsatish mashinasi sifatida ham foydalaniladi.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. *Mikroavtobus nechta yo‘lovchiga mo‘ljallangan?*
A) *9–15 yo‘lovchiga mo‘ljallangan.*

1. _____?
✓A) 9–15 yo‘lovchiga mo‘ljallangan. B) 15–20 yo‘lovchiga mo‘ljallangan.
C) 20–25 yo‘lovchiga mo‘ljallangan.

2. _____?
A) paxta terish vazifasini bajaradi. ✓B) tez tibbiy yordam vazifasini bajaradi.
C) o‘t o‘chirishda xizmat qiladi.

3. _____?
A) 1960-yil B) 1940-yil ✓C) 1950-yil

4. _____?
A) Samarqandda ✓B) Navoiyda C) Xorazmda

7. O‘ylang va toping. Yozing.

Avtobus	Mikroavtobus
Kattaroq	Kichikroq
_____	_____

Mustaqil topshiriq

101, 102, 103, 104 xizmatlari haqida ma’lumot yozib keling.

5. 5-topshiriqda mikroavtobus haqida berilgan qiziqarli faktlarga ega matnni mustaqil holda o‘qittiring.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosi-

da berilgan test variantlariga namunada ko‘rsatilgani kabi savol tuzishlari va uning javobini belgilashlari lozim. Bunda savol tuzish texnikasi sinovdan o‘tkaziladi. Namuna:

Mikroavtobus nechta yo‘lovchiga mo‘ljallangan? A) 9-15 yo‘lovchiga mo‘ljallangan.

7. 7-topshiriqda o‘quvchilar “T-sxema” metodi orqali avtobus va mikroavtobusning o‘zaro farqli jihatlarini – afzalligi va kamchiliklarini qiyoslab, namunada ko‘rsatilgani kabi javoblarni yozma ravishda taqdim qilishlari lozim. Namuna:

Avtobus	**Mikroavtobus**
Kattaroq	Kichikroq
Ko‘p yo‘lovchini tashiy oladi	Yo‘lovchilar soni cheklangan

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskaga esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerlarga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, 101, 102, 103, 104 xizmatlari haqida ma’lumot yozib kelishlari lozim.

33-DARS. “SAHRO KEMASI”

Maqsad: yurtimizdagi sahro va cho‘l hududlari, ularning joylashuvi, o‘ziga xos xususiyatlari hamda “sahro kemasi” deb ataluvchi “transport” vositasi, uning afzallik va qulaylik taraflari haqida ma’lumotlar berish; bu boradagi tushuncha va tasavvurlarini yanada kengaytirish; *ko‘p, juda, bag‘oyat, biroz, sal, oz, picha* kabi daraja-miqdor ravishlari bilan tanishtirish, ularning imlosi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan 101, 102, 103, 104 xizmatlari haqida ma’lumot yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.

2. 1-topshiriqda berilgan bolalarning o‘zaro suhbat dialogi aks etgan audiomatnni dastlab 2 marotaba tinglating, yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


67

“SAHRO KEMASI”

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Kim? – Alisher, …*

Kim? –

Qayer? –

o‘rkach

bo‘taloq

ozuqa

3. O‘qing.

Tuyaning belidagi o‘rkachi qanday vazifa bajarishini bilasizmi?

Ko‘pchilikning o‘ylashicha, tuyaning o‘rkachi issiq cho‘lda ko‘p vaqt suvsiz yashash uchun kerak bo‘lgan tana a’zosidir. Lekin unda aslida suv emas, yog‘ saqlanadi. Tuya o‘rkachi ular qattiq ozuqa yeyishni boshlaganda paydo bo‘ladi, shuning uchun bo‘taloqning (tuya bolasi) o‘rkachi bo‘lmaydi. Zarur bo‘lganida tuyalar suvni o‘rkachidagi yog‘lardan oladi.

Tuya bir ichishda 200 litrgacha suvni icha oladi va buni tezlikda bajara oladi. 100 litr suvni 10 daqiqada ichib tugatadi.

Qizilqum Markaziy Osiyodagi qumli cho‘l bo‘lib, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Orol dengizi, Tyanshan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometr. Qizilqumning markaziy qismida do‘ng qumlar ko‘p. Barxanlar nisbatan kam bo‘lib, ular aholi yashaydigan joylar va quduqlar atrofida uchraydi.

33-audiomaterial matni

– Assalomu alaykum (Allo!), Alisher, yaxshimisan?

– Ooo, do‘stim! Ovozingni eshitib turganimdan bag‘oyat xursandman. Sog‘liqlaring yaxshimi?

– Bugun ajoyib bir maqola o‘qib qoldim va Xiva – Nukus yo‘nalishidagi avtomobilda qilgan sayohatimiz yodimga tushdi.

– Ha, esimda, cho‘ldagi tuyalar, haydovchi amaki so‘zlab bergan g‘aroyib voqealar.

– Men ham bugun shu haqda esladim va senga telefon qilishga qaror qildim.

– Rahmat, do‘stim. Meni ham o‘qigan maqolangga qiziqtirib qo‘yding.

– Men senga bu maqolani e-mail orqali yuboraman. Ishlaringga omad, Alisher.

– Katta rahmat, qo‘ng‘iroq qilib tur, senga ham omad tilayman, xayr

…


3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida berilgan *kim, qayerda, kim bilan, nima haqida, nima qildi* kabi so‘roqlarga namunada ko‘rsatilgani kabi javob berishlari lozim. Namuna:

*Kim? – **Alisher**. Qayerda? – **Telefonda**. Kim bilan? – **Do‘sti bilan**. Nima haqida? – **Xiva – Nukus sayohati haqida**. Nima qildi? – **Suhbat qildi**.*

4. 3-topshiriqda matn asosida berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

5. 4-topshiriqda yuqoridagi matn asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida ushbu hukmlarning *to‘g‘ri, noto‘g‘ri* yoki *matnda berilmagan* ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

1. Qadimda tuyalar transport vositasi bo‘lgan – <u>berilmagan</u>; 2. Tuyalar 100 litr suvni 10 daqiqada ichib qo‘yadi – <u>to‘g‘ri javob</u>; 3. Bo‘taloq tug‘ilganda o‘rkachlari bo‘ladi – <u>noto‘g‘ri javob</u>. Izoh: Bo‘taloq tug‘ilganda o‘rkachlari bo‘lmaydi.



68

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗	Berilmagan
1	Qadimda tuyalar transport vositasi bo‘lgan.			
2	Tuyalar 100 litr suvni 10 daqiqada ichib qo‘yadi.			
3	Bo‘taloq tug‘ilganda o‘rkachlari bo‘ladi.			
4	Qizilqum cho‘li Zarafshon tog‘lari bilan chegaradosh.			
5	Tuyaning o‘rkachlarida suv saqlanadi.			
6	Qizilqum cho‘lining umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometrni tashkil qiladi.			
7	Tuyalar – cho‘llarda erkin harakatlanadigan yagona jonivor.			

5. O‘ylang va toping. Yozing.

sayohat qilmoq | ixtiro qilmoq | bajarmoq | qiziqmoq | to‘plamoq

Namuna *1. Alisher avtomobillarga juda **qiziqadi**.*

1. Alisher avtomobillarga juda _____ .
2. Men katta bo‘lsam, eng tezyurar avtomobilni _____ .
3. Maks o‘z avtomobillari kolleksiyasini _____ .
4. Sayyohlar Samarqand, Buxoroga “Afrosiyob” tezyurar poyezdida _____ .
5. Tuyalar asosan cho‘llarda transport vazifasini _____ .

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz kelajakda minishni xohlagan avtomobil haqida yozib keling.

PARVOZGA TAYYORMISIZ?

1. O‘qing.

Qiziq, kichkinaligimdan uchayotgan qushlarga qarab havasim kelardi. “Insonlar ham qushlar kabi parvoz qila oladimi?” degan savol juda ko‘p qiynar edi. Keyinchalik insonlar ham parvoz qila olishi va unda texnikalardan foydalanishi haqida bilib oldim, ularga bo‘lgan qiziqishim ortdi. Sekin-asta samolyotlar haqida ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ldim. Kelajakda men albatta uchuvchi bo‘laman.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini qo‘yib, ularni zamon va shax-son kategoriyasida to‘g‘ri tuslagan holda yozishlari lozim. Masalan:

*1. Alisher avtomobillarga juda **qiziqadi**. 2. Men katta bo‘lsam, eng tez yurar avtomobilni **ixtiro qilaman**.*

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga olishlari va uch bo‘g‘inli so‘zga ikkitadan misol aytishlari, so‘ngra ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari kelajakda haydashni xohlagan avtomobillari haqida yozib kelishlari lozim.


34-DARS. PARVOZGA TAYYORMISIZ?

Maqsad: havo transporti vositalari, ularning turlari haqida ma’lumotlar berish; bu boradagi tushuncha va tasavvurlarini yanada kengaytirish; *oz, mo‘l, ko‘p, biroz, sal, ancha* kabi daraja-miqdor ravishlari bilan tanishtirish, ularning imlosi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari kelajakda haydashni xohlagan avtomobillari haqida yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda matn asosida berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.



68

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗	Berilmagan
1	Qadimda tuyalar transport vositasi bo‘lgan.			
2	Tuyalar 100 litr suvni 10 daqiqada ichib qo‘yadi.			
3	Bo‘taloq tug‘ilganda o‘rkachlari bo‘ladi.			
4	Qizilqum cho‘li Zarafshon tog‘lari bilan chegaradosh.			
5	Tuyaning o‘rkachlarida suv saqlanadi.			
6	Qizilqum cho‘lining umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometrni tashkil qiladi.			
7	Tuyalar – cho‘llarda erkin harakatlanadigan yagona jonivor.			

5. O‘ylang va toping. Yozing.

sayohat qilmoq | ixtiro qilmoq | bajarmoq | qiziqmoq | to‘plamoq

Namuna *1. Alisher avtomobillarga juda **qiziqadi**.*

1. Alisher avtomobillarga juda ____ .
2. Men katta bo‘lsam, eng tezyurar avtomobilni ____ .
3. Maks o‘z avtomobillari kolleksiyasini ____ .
4. Sayyohlar Samarqand, Buxoroga “Afrosiyob” tezyurar poyezdida ____ .
5. Tuyalar asosan cho‘llarda transport vazifasini ____ .

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz kelajakda minishni xohlagan avtomobil haqida yozib keling.

PARVOZGA TAYYORMISIZ?

1. O‘qing.

Qiziq, kichkinaligimdan uchayotgan qushlarga qarab havasim kelardi. “Insonlar ham qushlar kabi parvoz qila oladimi?” degan savol juda ko‘p qiynar edi. Keyinchalik insonlar ham parvoz qila olishi va unda texnikalardan foydalanishi haqida bilib oldim, ularga bo‘lgan qiziqishim ortdi. Sekin-asta samolyotlar haqida ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ldim. Kelajakda men albatta uchuvchi bo‘laman.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan daraja-miqdor ravishlaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*Samolyotlar qo‘nishdan oldin **biroz** pastlab uchadi.*

4. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Samolyotlar haqida qiziqarli ma’lumotlar aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

34-audiomaterial matni


Samolyotlar uchuvchilarsiz ham parvoz qila oladi. Zamonaviy texnologiyalar samolyotlarning uchuvchisiz ham uchishini ta’minlay oladi. Biroq yo‘lovchi reyslarida bu amaliyotdan foydalanish taqiqlangan.

Eng uzun va eng kichkina samolyot. “C-5” ning uzunligi olti qavatli binoga teng bo‘lib, u eng uzun harbiy samolyot deya e’tirof etilgan. Eng kichkina samolyotning og‘irligi esa 162 kilogramm. Bu – “BD-5” ”Micro”.

Pomidor sharbati parvoz vaqtida o‘z ta’mini o‘zgartiradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, pomidor sharbati past bosimda yanada shirinroqqa aylanadi. Shu sababli ushbu sharbatni unchalik xushlamaydigan yo‘lovchilar ham samolyot bortida ichishni ma’qul ko‘radi.

Samolyotning eng xavfsiz joyi – uning dumi. Agarda falokat yuz bergudek bo‘lsa, orqada o‘tirgan yo‘lovchilarning omon qolish ehtimoli 40 foizga ortadi.

“Qora quti”. “Qora quti”, aslida, quti ham, qora ham emas. Bu – parvozning barcha parametrlarini yozib oluvchi qurilma. Uning shakli shar yoki silindr ko‘rinishida ishlanadi, bu esa tashqi bosimga yaxshiroq qarshilik ko‘rsatishi uchun.



69

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Sizda ham uchish orzusi bo‘lganmi?
2. Imkoniyat berilsa, ilk parvozingiz uchun nimadan foydalangan bo‘lar edingiz?
3. Havo transporti nomlarini ayting.

DIQQAT QILING!
oz
mo‘l
ko‘p
biroz
sal
ancha

3. O‘ylang va toping. Yozing.

ozroq | ko‘p | ancha | juda | biroz

Namuna *1. Samolyotlar qo‘nishdan oldin biroz pastlab uchadi.*

1. Samolyotlar qo‘nishdan oldin ____ pastlab uchadi.
2. ____ insonlar aynan shu transport turidan foydalanadilar.
3. Suzuko samolyotlarga ____ qiziqadi hamda ular haqidagi ma’lumotlarni to‘playdi.
4. Yurtimizda ham viloyatlar orasida ichki qatnovlar ____ ko‘paymoqda.
5. Sayohatga chiqqanda ____ yuk olish tavsiya qilinadi.

4. Tinglang. Gapiring.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

f	d	g	h	j	t	k	sh	**q**
d	v	i	g	a	t	e	l	**o**
a	h	b	n	m	e	e	y	**r**
u	ch	u	v	ch	i	h	h	**a**
d	n	u	k	l	u	j	g	**q**
r	b	o	v	o	p	p	a	**u**
t	r	v	s	ch	t	a	s	**t**
y	g	d	a	b	i	r	d	**i**
u	f	h	m	v	r	v	f	d
s	a	m	o	l	y	o	t	j
i	o	p	l	d	e	z	g	h

5. 5-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

Jadvalda qo‘llangan so‘zlar: samolyot, dvigatel, uchuvchi, qora quti.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar “T-sxema” metodi orqali poyezd va samolyotning, havo shari va vertolyotning o‘zaro farqli jihatlarini – afzalligi va kamchiliklarini qiyoslab, namunada ko‘rsatilgani kabi javoblarni yozma ravishda taqdim qilishlari lozim. Namuna:

Poyezd	Samolyot
Yerusti transporti	Havo transporti
Manzilga sekin yetib boradi	Manzilga juda tez yetib boradi

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Globoalfavit” metodini o‘tkazib oling. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligi bo‘yicha bugungi darsda o‘tilgan yodlarida qolgan so‘zlarni aytishlari lozim bo‘ladi. Masalan: 1-o‘quvchi *A* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *aviatsiya*; 2-o‘quvchi *B* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *biroz* kabi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, istalgan havo transporti maketini yasab kelishlari lozim.

35-DARS. ILTIMOS, SUYANMANGIZ! (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad: bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan istalgan havo transporti maketini yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda o‘quvchilarga transport vositalari harakatlangandagi ovozi eshittiriladi. O‘quvchilar eshitganlari qanday transport ovozi ekanini yozishlari kerak. Foydalanish uchun o‘quvchilarga ovozi eshittiriladigan transportlarning nomi kalit so‘z qilib beriladi.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar o‘tilgan mavzular yuzasidan berilgan test savollarini bajarishlari lozim. 1–4-savollar rasmlar orasidan “Ortiqchasini toping” bo‘lib, bunda o‘quvchilar berilgan rasmlar orasidan mantiqan bog‘liq bo‘lmagan rasmni, ya’ni ortiqcha rasmni topishlari zarur. Test kalitlari: *1) E; 2) A; 3) B; 4) D; 5) B; 6) E; 7) E; 8) A.*


70

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Mustaqil topshiriq

Istalgan havo transporti maketini yasab keling.

ILTIMOS, SUYANMANGIZ!

1. Tinglang. Yozing.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ortiqchasini toping.

A) B) C) D)

3. 3-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim. *Jadvalda qo‘llanilgan so‘zlar: Matiz; Spark; Damas; Tahoe; Tico; Malibu.*

4. *4-topshiriqda berilgan komikslarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring. O‘quvchilar ushbu komiksni mantiqan davom ettirishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.*



71

2. Ortiqchasini toping.

A) B) C) D)

3. Ortiqchasini toping.

A) B) C) D)

4. Ortiqchasini toping.

A) B) C) D)

5. Avtobuslarning yangi avlodlari bu – _____.
A) trolleybus B) elektrobus C) poyezd D) mikroavtobus

6. "Sahro transporti" – _____.
A) samolyot B) kema C) poyezd D) tuya

7. Qanday poyezdlar tezyurar poyezd hisoblanadi?
A) soatiga 150 km tezlikda yuradigan B) soatiga 140 km tezlikda yuradigan
C) soatiga 200 km tezlikda yuradigan D) soatiga 240 km tezlikda yuradigan

8. Qaysi gapda "juda" so'zini qo'llash mumkin?
A) U samolyotda uchishdan … qo'rqardi.
B) Oilamiz bilan chet elning diqqatga sazovor joylarini … tomosha qildik.
C) Do'stim menga qiziqarli kitob … sovg'a qildi.
D) Ukamning … velosipedi eskiroq edi.

3. O'ylang va toping. Gapiring.

M	A	B	I	R	N	T	V	M	U
A	S	P	A	R	K	I	E	A	Y
T	E	I	A	U	T	C	K	L	F
I	T	A	H	O	E	O	L	I	W
Z	E	I	A	U	T	L	A	B	G
A	D	A	M	A	S	O	C	U	E
U	E	I	A	U	R	P	E	H	N
I	P	N	E	X	I	A	T	A	T
O	E	I	A	U	R	U	T	C	R
C	O	B	A	L	T	Y	I	M	A

5. O'quvchilar yuqorida o'qib tushungan ma'lumotlari asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o'quvchilarga ushbu savollarni o'qib eshittiring. So'ngra javoblarni og'zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o'quvchilar o'z javoblarini to'g'ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

Refleksiya jarayoni. Dars so'ngida "Qaynoq mikrofon" metodini qo'llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o'quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (mikrofonning qog'oz maketi, qalam, ruchka va h. k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o'quvchi ushbu bo'limda o'tilgan lug'at-so'zlaridan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so'zlarning qayta takrorlanmasligiga e'tibor qaratishingiz lozim.



72

4. O'ylang va toping. Yozing.

Salom, Bahrom! Ertaga mashinalar ko'rgazmasi yonida soat 1:00 da ko'rishamiz.

KO'RGAZMA

Do'stim, nega kech qolding?

15 km

Alisher, kelajakda men ham kolleksioner bo'laman. Barcha mashhur mashinalarni yig'aman.

Kolleksiyangda qaysi mashinalar bo'ladi?

1. Alisherning do'sti nima sababdan kech qoldi?
2. Alisherning sevimli mashg'uloti (hobbisi) nima?
3. Kolleksiya nima?

Mustaqil topshiriq. Bunda o'quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari, lug'at-so'zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, libos nomlari ishtirok etgan maqol yoki topishmoqlarga misollar yozib kelishlari lozim.

скачано с сайта www.idum.uz


38-DARS. HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI

Maqsad: haydovchilik guvohnomasi, haydovchi va yo‘lovchi madaniyati, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari haqida ma’lumotlar berish; o‘quvchilarda yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; fe’llardagi nisbat kategoriyasi, xususan, *-il*, *-in* majhul nisbat qo‘shimchalari haqidagi bilimlarni yana bir bor mustahkamlash; ularning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan libos nomlari ishtirok etgan maqol yoki topishmoqlarga misollar yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Mavzu boshida keltirilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. “Aqliy hujum” metodi asosida rasmda nima tasvirlangani haqida qisqa savol-javob o‘tkazing.



2. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Yo‘l harakati qoidalari tarixi aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

38-audiomaterial matni

Yo‘l harakati qoidalari uydan ko‘chaga chiquvchi barchaga taalluqlidir. Birinchi yo‘l qoidalari bundan 2000 yil oldin Yuliy Sezar davrida paydo bo‘lgan. U miloddan avvalgi 50-yillarda shaharning bir nechta ko‘chalarida bir tomonlama harakatni joriy qilgan. Quyosh chiqishi va quyosh botishidan taxminan ikki soat oldin shaxsiy aravalarda o‘tish taqiqlangan. Shaharga tashrif buyu-

ruvchilar transport vositalarini (aravalarini) shahar tashqarisida qoldirib, Rimga piyoda kirishgan.

Birinchi yo‘l harakati qoidalari 1868-yil Londonda ishlab chiqilgan.

Har bir yo‘lovchi yo‘l belgilarini bilishi shart.

3. 2-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida berilgan gap qismlarini namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro bir-birlariga to‘g‘ri moslashtirib chiqishlari lozim. Namuna:


74

DIQQAT QILING!

-l (il)

Mashinani kim yuvdi?

Mashina yuvildi.

Mashinani Sarvar yuvdi.

3. O‘ylang va toping. O‘qing.

Namuna *Haydovchilik guvohnomasi dunyoda birinchi bo‘lib 1888-yilda ixtirochi Karl Bensga topshirilgan.*

Haydovchilik guvohnomasi dunyoda birinchi bo‘lib 1888-yilda ixtirochi Karl Bensga (*topshirilgan, topshirgan*). Bu hujjatni olgan kishiga shaharda soatiga 6 km tezlikda yurish huquqi (*berilgan, berishgan*). 1909-yili 20 ta mamlakatdagi barcha avtomobil egalari haydovchilik guvohnomasi olish uchun imtihonlardan o‘tishi to‘g‘risidagi bitimga (*imzo chekkan, imzo chekilgan, imzo chektirgan*). Shundan buyon butun dunyoda bir xil belgilangan o‘quv kurslari (*tashkil etgan, tashkil etilgan*). Bu o‘quv kurslari O‘zbekistonda “avtomaktab” deb (*yuritiladi, yuritgan*).

4. O‘ylang va toping. Yozing.

harakat qilmoq | yurmoq | ~~o‘tmoq~~ | kutmoq

Namuna *Bu belgi o‘rnatilgan joylarda yo‘ldan kesib **o‘tiladi**.*

Bu belgi o‘rnatilgan joylarda

yo‘ldan kesib _____ .

yer ostidan _____.

piyoda yoki velosipedda _____ .

avtobus _____ .

Piyoda – transport vositasidan tashqarida bo‘lgan va yo‘lda biror-bir yumush bilan band bo‘lmagan kishi.

4. 3-topshiriqda haydovchilik guvohnomasi haqida berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilarning yo‘l belgilari bilan qanchalik tanish ekanlari sinovdan o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar yo‘l belgilarining qanday ma’no ifodalashini topishlari va namunada ko‘rsatilgani kabi javoblarni yozma ko‘rinishda taqdim qilishlari lozim. Namuna:

1. Bu belgi o‘rnatilgan joylarda yo‘ldan kesib o‘tish mumkin.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar savollarga javob topib, berilgan bo‘sh katakchalarga shu so‘zlarning bosh harflarini yozib chiqadilar. Shu orqali yashirilgan so‘zning javobi aniq bo‘ladi. Topshiriqni avval og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajartiring. Mavzu yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini tinglang. Namuna:

*Samoda harakatlanuvchi havo transporti – **samolyot**. Oyoq bilan harakatga keltiriladigan ikki g‘ildirakli oddiy mashina – **velosiped**.*


75

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	2	3	4	5	6	7	8
					F		

1. Samoda harakatlanuvchi havo transporti.
2. Oyoq bilan harakatga keltiriladigan ikki g‘ildirakli oddiy transport vositasi.
3. “Tesla” qanday avtomobil hisoblanadi?
4. Toshkent shahridagi eng baland minora.
5. O‘zbekistonda soatiga 250 km tezlikda harakatlanuvchi poyezdning nomi.
6. Fermer oilasida tug‘ilgan amerikalik bolakay asos solgan kompaniyaning nomi. (*“Ford”*)
7. Qadimda odamlar transport vositalari o‘rnida foydalangan jonivor.
8. 2015-yilda O‘zbekistonda qaysi milliy avtomobil markasiga asos solindi?

Mustaqil topshiriq

“Ford” kompaniyasi haqida ma’lumot to‘plab keling.

YO‘L QOIDASI

1. O‘ylang va toping. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Chizing.

1. Dorixona belgisini bilasizmi?
2. Kasalxonalar bor joylarga qanday belgi qo‘yiladi?
3. Mehmonxona bor ekanini qaysi belgi orqali bilib olasiz?
4. Yo‘llarda oshxona bor ekanini qanday bilib olasiz?
5. Transport vositalarining kirishi qaysi belgi bilan taqiqlanadi?

Yashirilgan so‘z:

1	2	3	4	5	6	7	8
S	V	E	T	O	F	O	R

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘tilgan so‘zlardan 3 tasini eslab daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Ford” kompaniyasi haqida ma’lumot to‘plab kelishlari lozim.

39-DARS. YO‘L QOIDASI

Maqsad: yo‘lovchi madaniyati, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari haqida ma’lumotlar berish; o‘quvchilarda yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; payt ergash gapli qo‘shma gap, uning turlari, yasalishi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qilish; mavjud bilimlarini mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Ford” kompaniyasi haqida ma’lumot to‘plab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Turli davlatlardagi g‘aroyib yo‘l qoidalari aks etgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

39-audiomaterial matni

• Finlandiyada taksi haydovchisi yo‘lovchi olganda musiqani yoqishi man etiladi.

• Tailandda hamma haydovchilar avtomobil haydaganda ko‘ylak kiyishlari shart.

• Fransiyada politsiyani va politsiya mashinalarini suratga olish man etiladi.

• Yaponiyada yo‘lovchiga loy yoki suv sachratsa, haydovchi jarima to‘lashi kerak bo‘ladi.

• Janubiy Afrika Respublikasida yo‘lda hayvonlar chiqib qolsa, avtomobil haydovchisi to‘xtab, hayvonlar o‘tib ketgunicha kutib turishi mumkin.



75

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1	2	3	4	5	6	7	8
					F		

1. Samoda harakatlanuvchi havo transporti.
2. Oyoq bilan harakatga keltiriladigan ikki g'ildirakli oddiy transport vositasi.
3. "Tesla" qanday avtomobil hisoblanadi?
4. Toshkent shahridagi eng baland minora.
5. O'zbekistonda soatiga 250 km tezlikda harakatlanuvchi poyezdning nomi.
6. Fermer oilasida tug'ilgan amerikalik bolakay asos solgan kompaniyaning nomi. (*"Ford"*)
7. Qadimda odamlar transport vositalari o'rnida foydalangan jonivor.
8. 2015-yilda O'zbekistonda qaysi milliy avtomobil markasiga asos solindi?

Mustaqil topshiriq

"Ford" kompaniyasi haqida ma'lumot to'plab keling.

YO‘L QOIDASI

1. O'ylang va toping. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Chizing.

1. Dorixona belgisini bilasizmi?
2. Kasalxonalar bor joylarga qanday belgi qo'yiladi?
3. Mehmonxona bor ekanini qaysi belgi orqali bilib olasiz?
4. Yo'llarda oshxona bor ekanini qanday bilib olasiz?
5. Transport vositalarining kirishi qaysi belgi bilan taqiqlanadi?


2. 2-topshiriqda yo‘l belgilari haqida berilgan savollarni o‘qib eshittiring va o‘quvchilardan og‘zaki ravishda ushbu savollarga javob berishlarini so‘rang. O‘quvchilarning shaxsiy fikr va mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

3. 3-topshiriqda kitob qaramonlari tilidan aytib berilgan qiziqarli ma’lumoltarga ega matnni ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida namunada ko‘rsatilgani kabi jadvalni to‘ldirishlari lozim. Namuna:

Davlatlar	Shahar ichida belgilangan tezlik	Avtomagistrallarda belgilangan tezlik
AQSH		
Afrika davlatlari	60 km/soat	
Angliya		110 km/ soat
Yaponiya		

6. 5-topshiriqda o‘quvchilarga “Avtomobil boshqarayotganda nimalarga amal qilinadi?” savoli bilan murojaat qiling. Bunda o‘quvchilar kalit so‘zlardan foydalangan holda ushbu savolga javob berishlari va javoblarini izohlab, asoslab berishlari ham kerak.



76

3. O'qing.

AQSHning aholi yashash punktlarida o'rtacha tezlik 25–35 km/h, magistral yo'llarda 135 km/h. Ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joylarda 35 km/h tezlik cheklovi qo'yiladi.

Afrika davlatlarida harakat chap tomonlama amalga oshiriladi. Shahar ichida transportlar 60 km/h tezlikda harakatlanadi. Avtomagistrallardagi harakat tezligi chegarasi – 120 km/h. Tezlikni oshirgan haydovchilar katta jarimalar to'lashiga to'g'ri keladi.

Angliyada belgilangan harakat tezligi shahar ichida 48 km/h, shahar tashqarisidagi yo'llarda 95 km/h va avtomagistrallarda 110 km/soatni tashkil etadi. Angliyada qoidaga amal qilish qattiq nazoratga olingan, hatto yo'lovchilar ham yo'l qoidalariga amal qilmaganlarida jarimalarga tortiladilar.

Yaponiyada transportlarga belgilangan tezlik shahar ichida 60 km/soat bo'lib, avtomagistrallarda 100 km/h tezlikda harakatlaniladi. Yo'l belgilari bo'lmagan yo'llarda esa shahar ichida belgilangan tezlik amal qiladi. Tezlik oshirilsa, yo'llardagi kameralar orqali tez aniqlanadi, qoidani buzgan shaxslar jarimaga tortiladi.

4. O'ylang va toping. Yozing.

Davlatlar	Shahar ichida belgilangan tezlik	Avtomagistrallarda belgilangan tezlik
AQSH		
Afrika davlatlari	60 km/h	
Angliya		110 km/h
Yaponiya		

5. O'ylang va toping. Gapiring.

belgilangan joydan yuriladi, ~~kamarlar taqiladi~~, yo'l belgilariga qaraladi, tezlik oshirilmaydi, ruxsat etilmagan joylarda to'xtalmaydi, piyodalar o'tish joyida piyodalarga yo'l beriladi

Avtomobil boshqarayotganda nimalarga amal qilinadi?
1. Kamarlar taqiladi.
2. _____.

Mustaqil topshiriq

Maktabdan uyingizgacha bo'lgan oraliqda yo'lingizda uchraydigan yo'l belgilari haqida ma'lumot yozib keling.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, maktabdan uylarigacha bo‘lgan oraliqda yo‘lda uchraydigan yo‘l belgilari haqida ma’lumot yozib kelishlari lozim.

40-DARS. YO‘LDAGI SABOQ


Maqsad: yo‘lovchi madaniyati, yo‘l xavsizlik qoidalari haqida ma’lumotlar berish; yo‘l belgilari, ularning turlari, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish; payt ergash gapli qo‘shma gap, uning turlari, yasalishi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qilish. Mavjud bilimlarini mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan maktabdan uylarigacha bo‘lgan oraliqda yo‘lda uchraydigan yo‘l belgilari haqida ma’lumot yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Mazkur matnda tasvirlangan voqealar yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob tashkil qiling.

Berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.



77

YO‘LDAGI SABOQ

1. Tinglang.

Sanjar 6-sinfda o‘qiydi. Do‘sti Bahodir bilan uyga qaytayotganda oldilaridan keksa onaxon chiqib qoldi. Bahodir buni ko‘rib:
– Do‘stim, kel, onaxonga yordam beramiz. Yuki og‘irga o‘xshaydi, – dedi.
Sanjar esa:
– E, qo‘ysang-chi, mening boshqa ishim yo‘qmi?! Yordam berging kelsa, o‘zing yordam beraver, – dedi va svetofor chiroqlariga ham qaramay yo‘ldan o‘tib, bekatga qarab ketdi.
Avtobus keldi. Sanjar avtobusga shoshilib chiqib oldi. Yo‘lovchilarni turtib o‘tib, bir bo‘sh o‘rindiqqa o‘tirdi. Hatto avtobusda yoshi kattalar tik turganiga ham e’tibor bermadi. Cho‘ntagidan saqichini olib, ochdi va qog‘ozini yerga tashladi. Buni kuzatib turgan bir ayol qog‘ozni oldi va “afsus...” degan ma’noda bosh chayqab qo‘ydi. Buni ko‘rgan Sanjarning jahli chiqdi. Saqichini o‘rindiqqa yopishtirib avtobusdan tushib ketdi.
Kech bo‘ldi. Sanjarning bobosi mehmonga keldi. Bobosining yuzidan xafaligi bilinib turardi. Sanjar bobosidan:
– Bobo, nega xafasiz? – deb so‘radi.
– Eh, bolajonim, odobsiz bolalar ham ko‘payib ketdi. Avtobusga chiqqandim. Kimdir o‘rindiqqa saqich yopishtirib ketgan ekan. Kiyimimga yopishib qolibdi. Shunga biroz xafaman. Sen ham shunday qilarmiding, o‘g‘lim?
Sanjarning yuzi qizarib ketdi. Bobosining savoli qulog‘i ostida tinmay jaranglayverdi.
Sanjar qilgan ishlaridan pushaymon bo‘ldi.

2. Savollarga javob bering.

1. Bahodir qanday bola deb o‘ylaysiz?
2. Sanjarning bobosi xafa bo‘lishiga aslida kim sababchi?
3. Sizda ham shunday vaziyat bo‘lganmi?
4. Sanjar o‘ziga qanday xulosa chiqardi?
5. Siz biror kishiga yordam berganmisiz? Kimlarga yordam berish kerak deb o‘ylaysiz?

yuzi qizardi
qulog‘i ostida jaranglayverdi
pushaymon bo‘ldi

3. O‘ylang va toping. Yozing.

joy beriladi, yopishtirilmaydi, eshitilmaydi, ~~yordam beriladi~~,
yo‘l beriladi, yo‘ldan o‘tilmaydi, turtilmaydi


1. **Namuna:** *Yo‘lda ketayotganda yoshi kattalarga yordam beriladi.*
2. _____.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matn asosida kalit so‘zlardan foydalangan holda namunada ko‘rsatilgani kabi gaplar tuzishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Yo‘lda ketayotganda yoshi kattalarga ***yordam beriladi****.*

5. 4-topshiriqda jadvalada berilgan hukmlarni o‘quvchilar *mumkin / mumkin emas* tarzida ajratib, namunada ko‘rsatilgani kabi yozib chiqishlari lozim. Namuna: *Telefonda gaplashib yo‘ldan o‘tish –* ***mumkin emas****.*



78

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Holatlar	Mumkin	Mumkin emas
Telefonda gaplashib yo‘ldan o‘tish.		
Piyodalar yo‘lkasidan o‘tish.		
Bekatda pista chaqib, po‘chog‘ini yerga tashlash.		
Kichik yoshdagi bolalarni mashinaning old o‘rindig‘iga o‘tirg‘izish.		
Haydovchi yonidagi old o‘rindiqda kamar taqib o‘tirish.		
Yurayotgan mashinada boshini oynadan chiqarish.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Men har doim yo‘l qoidalarga amal qilaman.*
1. har doim, men, amal qilaman, yo‘l qoidalarga.
2. bolalar, o‘tayotganda, piyodalar o‘tish yo‘lagidan, yo‘ldan, yuring.
3. belgilarini, har bir, bilishi, haydovchi, yo‘l, yoddan, shart.
4. “Toyota Yaris”, avtomobili deb, yapon avtomobili, 2000-yilning, eng yaxshi, topilgan.
5. baland, jamoat transportida, mumkin emas, ovozda, gaplashish.

Mustaqil topshiriq

“Jamoat transportida” mavzusida dialog yozing.

iltimos, marhamat, kechirasiz, keyingi bekat, ro‘parasida, o‘tkazib yuboring...

YO‘LDAGI MADANIYAT

1. Tinglang. Gapiring.

Agar biron do‘sting yoki qarindoshingni ko‘rib qolsang va u bilan ko‘rishmoqchi bo‘lsang,	yo‘lda ketayotganingda ovqat yeyish odobdan emas.
Mashinada yoki velosipedda bo‘lsang,	eniga bir saf bo‘lib ko‘chani to‘ldirib olmanglar.
Agar ko‘chada o‘rtoqlaring bilan ketayotgan bo‘lsang,	ko‘chaning o‘ng tomonidan yur.
Mashinaga yoki biror-bir ulovga mingan bo‘lsang ham,	yo‘ldan chetroqqa o‘tib ko‘rish va yo‘l o‘rtasida u bilan uzoq turma.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

assalomu alaykum, xush kelibsiz, yo‘lingiz bexatar bo‘lsin,
katta rahmat, ~~ahvollaringiz yaxshimi~~

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar tartibsiz holatda berilgan so‘zlar tartibini to‘g‘rilagan holda gaplarni ko‘chirib yozishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Men har doim yo‘l qoidalariga amal qilaman.

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini navbatdagi lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni, Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘tilgan yo‘l harakatiga oid so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Jamoat transportida” mavzusida *iltimos, marhamat, kechirasiz, keyingi bekat, ro‘parasida, o‘tkazib yuboring* kabi so‘zlarni qatnashtirgan holda dialog yozib kelishlari lozim.

41-DARS. YO‘LDAGI MADANIYAT

Maqsad: yo‘lovchi madaniyati, yo‘l xavsizlik qoidalari haqida ma’lumotlar berish, yo‘l belgilari, ularning turlari, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish; payt ergash gapli qo‘shma gap, uning turlari, yasalishi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qilish; mavjud bilimlarini mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Jamoat transportida” mavzusida *iltimos, marhamat, kechirasiz, keyingi bekat, ro‘parasida, o‘tkazib yuboring* kabi so‘zlarni qatnashtirgan holda dialog yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



78

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Holatlar	Mumkin	Mumkin emas
Telefonda gaplashib yo‘ldan o‘tish.		
Piyodalar yo‘lkasidan o‘tish.		
Bekatda pista chaqib, po‘chog‘ini yerga tashlash.		
Kichik yoshdagi bolalarni mashinaning old o‘rindig‘iga o‘tirg‘izish.		
Haydovchi yonidagi old o‘rindiqda kamar taqib o‘tirish.		
Yurayotgan mashinada boshini oynadan chiqarish.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Men har doim yo‘l qoidalarga amal qilaman.*

1. har doim, men, amal qilaman, yo‘l qoidalarga.
2. bolalar, o‘tayotganda, piyodalar o‘tish yo‘lagidan, yo‘ldan, yuring.
3. belgilarini, har bir, bilishi, haydovchi, yo‘l, yoddan, shart.
4. “Toyota Yaris”, avtomobili deb, yapon avtomobili, 2000-yilning, eng yaxshi, topilgan.
5. baland, jamoat transportida, mumkin emas, ovozda, gaplashish.

Mustaqil topshiriq

“Jamoat transportida” mavzusida dialog yozing.

iltimos, marhamat, kechirasiz, keyingi bekat, ro‘parasida, o‘tkazib yuboring…

YO‘LDAGI MADANIYAT

1. Tinglang. Gapiring.

Agar biron do‘sting yoki qarindoshingni ko‘rib qolsang va u bilan ko‘rishmoqchi bo‘lsang,	yo‘lda ketayotganingda ovqat yeyish odobdan emas.
Mashinada yoki velosipedda bo‘lsang,	eniga bir saf bo‘lib ko‘chani to‘ldirib olmanglar.
Agar ko‘chada o‘rtoqlaring bilan ketayotgan bo‘lsang,	ko‘chaning o‘ng tomonidan yur.
Mashinaga yoki biror-bir ulovga mingan bo‘lsang ham,	yo‘ldan chetroqqa o‘tib ko‘rish va yo‘l o‘rtasida u bilan uzoq turma.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

assalomu alaykum, xush kelibsiz, yo‘lingiz bexatar bo‘lsin, katta rahmat, ~~ahvollaringiz yaxshimi~~

Vazifalar:

1. Berilgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

41-audiomaterial matni

Ko‘chada turli odamlar har xil ishlar bilan yuradi. Ba’zilari piyoda, ba’zisi mashinaga mingan; biri shoshilgan va boshqasi shoshmasdan sekin ketayotgan; ba’zilari katta yoshli bo‘lsa, boshqasi kichkina. Agar sen ularning orasida yursang, o‘zingni va boshqalarni yo‘l ozorlaridan saqla. Buning uchun sen quyidagi nasihatlarga quloq solishing kerak:

1. Agar biron do‘sting yoki qarindoshingni ko‘rib qolsang va u bilan ko‘rishmoqchi bo‘lsang, yo‘ldan chetroqqa o‘tib ko‘rish va yo‘l o‘rtasida u bilan uzoq turma.


2. Tiqilinch ko‘chada ketayotganda piyodalar yo‘lakchasidan yur. Avtomobilda yoki velosipedda bo‘lsang, ko‘chaning o‘ng tomonidan yur.

3. Agar ko‘chada o‘rtoqlaring bilan ketayotgan bo‘lsang, eniga bir saf bo‘lib ko‘chani to‘ldirib olmanglar, chunki yo‘l yolg‘iz sizlar uchun emas.

4. Mashinaga yoki biron-bir ulovga mingan bo‘lsang ham, yo‘lda ketayotganingda ovqat yeyish odobdan emas. Yo‘lda yotgan toshni oyog‘ing bilan tepma va ko‘chada kitob o‘qib yurma. Yon-atrofga ko‘p alanglama.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan so‘z yoki jumlalardan mosini qo‘yib, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi ko‘chirib yozishlari lozim. Namuna:

Ko‘chada tanish kishi bilan uchrashganda “Ahvollaringiz yaxshimi?” deyiladi.


79

Namuna 1. Ko‘chada tanish kishi bilan uchrashganda “Ahvollaringiz yaxshimi?” deyiladi.

1. Ko‘chada tanish kishi bilan uchrashganda _____ deyiladi.
2. Mashinaga chiqqan odamga _____ deyiladi.
3. Yordam bergan kishiga _____ deyiladi.
4. Gap boshlashdan avval _____ deyiladi.
5. Kirib kelgan odamga _____ deyiladi.

DIQQAT QILING!

avval -gach, keyin

. . .-gach, . . .

Qo‘ng‘iroq chalingach, dars boshlanadi.

Qachon?

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Svetoforning yashil chirog‘i yongach, yo‘lni kesib o‘tish mumkin.

1. _____ -gach, yo‘lni kesib o‘tish mumkin.
2. _____ -gach, ukam mashg‘ulotlarga ketadi.
3. _____ -gach, dasturxon atrofida yig‘ilamiz.
4. _____ -gach, universitetga kiraman.
5. _____ -gach, sizni kutib oladilar.

4. O‘qing.

KO‘CHA VA YO‘LLARDAN O‘TISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILING

Yo‘lning qatnov qismini faqat yerosti o‘tish joylari, piyodalar ko‘prikchalaridan va “Piyodalarning o‘tish joyi” belgisi mavjud joylardan kesib o‘tish kerak. Ayrim holatlarda transport vositalari yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, ko‘cha va yo‘lni to‘g‘ri kesib o‘tish mumkin.

Svetofor yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchi yo‘l noziri bo‘lsa, faqat ularning ishorasi bilangina yo‘ldan o‘tish kerak. Yo‘l harakatini tartibga soluvchi vosita yo‘q joylarda yo‘lning qatnov qismini transportlarga xalal bermasdan, ikkilanmasdan kesib o‘tish lozim.

Transport ikki tomonlama harakatlanadigan ko‘cha oldida esa avval to‘xtab, chap tomondan transport vositasi kelmayotganiga ishonch hosil qilgach, yo‘ldan o‘tishni boshlash mumkin. Yo‘l o‘rtasiga borib, o‘ngga qaraladi, transport vositalari yo‘q bo‘lsa, o‘tishda davom etish mumkin.

Agar transport vositasi yaqinlashib kelayotgan bo‘lsa, xavfsiz joyda yoki ko‘chaning o‘rtasida kutib turish, yo‘l bo‘shagach, harakatni davom ettirish zarur.

3. “Diqqat qiling!” qismida *-gach* ravishdosh shakli chiziqli sxema tarzida aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilida payt ergash gaplarni hosil qiluvchi *-gach* ravishdosh shakli haqida ma’lumot bering. Payt ergash gaplarning yasalishi, imlosi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-gach* ravishdosh shakli orqali payt ergash gaplarni hosil qilishni o‘rgating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda misollar keltirishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga payt ergash gaplarning tobe (birinchi) qismini mantiqan o‘ylab namunada ko‘rsatilgani kabi yozishlari lozim. Namuna:

Svetoforning yashil chirog‘i yongach, yo‘lni kesib o‘tish mumkin.

5. 4-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qittiring. Unda tasvirlangan belgilarni o‘quvchilar daftarlariga chizdiring.

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *svetofor* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *SVETOFOR* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan o‘zbek tilida *S, V, E, T, O, F, O, R* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, yo‘lda duch kelgan biror-bir qiziqarli voqeani yozib kelishlari lozim.

42-DARS. YO‘L BERING! (YO‘L BELGILARI)

Maqsad: Yo‘l belgilari, ularning turlari, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish. Payt ergash gapli qo‘shma gap, uning turlari, yasalishi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qilish. Mavjud bilimlarini mustahkamlash. Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda keltirilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Mazkur yo‘l belgilarining ma’nosi, ahamiyati, qayerlarda uchratish mumkinligi haqida o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob tashkil qiling.

2. Berilgan audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


80

YO‘L BERING!

1. Tinglang.

Quyidagi yo‘l belgilaridan qaysilari haydovchilar uchun, qaysilari piyodalar uchun qo‘llanadi?

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Audiomatnda kim haqida so‘z ketdi?
2. Bu kasb egalari qanday vazifalarni bajaradi?
3. Bu kasb egalarining shaxsiy sifatlarini sanang.
4. Kelajakda siz qaysi kasbni egallamoqchisiz?
5. Siz tanlagan kasb egasi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna *1. Haydovchi har qanday vaziyatda g‘azabini jilovlay olishi kerak.*

42-audiomaterial matni

Haydovchi

Haydovchi bu – turli transport vositalarini boshqaradigan malakali mutaxassis. U transportda odamlarni, yuklarni belgilangan manzilga yetkazadi.

Haydovchilik kasbi o‘ta mas’uliyatli. Chunki uning ishi odamlar hayoti bilan bog‘liq. Haydovchilar dastlabki bilimlarini haydovchilik kursida oladi. Ushbu kasbni egallash uchun yo‘l qoidalarini bilishi kerak. Bundan tashqari transport vositalari haqida ham bilimga ega bo‘lishi kerak.


Haydovchining shaxsiy sifatlari:

– bosiqlik va kuchli irodaga ega bo‘lish;

– har qanday vaziyatda g‘azabini jilovlay olish;

– o‘z harakatlarini aniq muvofiqlashtirish, e’tibor va aniqlik;

– tezkor qaror qabul qilish va chaqqon harakatlanish qobiliyati.


81

4. O‘qing. Gapiring.

Nyu Yorkdagi noodatiy svetoforda piyodalar uchun ranglar o‘rniga so‘zlar ishora beradi. Svetoforda “Walk”, ya’ni “Yur” yoki “Don’t walk”, ya’ni “Yurma” degan yozuvlar bor. Svetoforda qizil va oq ranglar ishlatilgan.

Svetoforning vatani London shahrida “Svetofor daraxti” bor. Uni 1998-yili fransiyalik haykaltarosh Pyer Vivant ishlab chiqqan. Ajoyib ko‘rinishdagi svetofor tartibni saqlash bilan birga shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi.

Tailandning Krabi shahrida joylashgan ko‘rsatkichli svetoforni “tosh odam” haykali ko‘tarib turadi.

Yana bir o‘ziga xos svetoforni Daniyaning Orxus shahrida ko‘rish mumkin. Bu svetoforga jangchi tasviri tushirilgan. U nafaqat Orxus shahrining qahramonona o‘tmishini eslatib turadi, shuningdek, harakatni ham tartibga soladi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.


1. Yo‘lning qatnov qismini qanday holatlarda kesib o‘tish mumkin?
2. Svetofor yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchi yo‘l noziri bor joylarda ko‘chani qanday kesib o‘tish kerak?
3. Svetofor o‘rnatilmagan yoki yo‘l nazoratchisi yo‘q joylarda yo‘ldan qanday o‘tish mumkin?
4. Yo‘l belgilaridan qaysilarini bilasiz?

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar rasmlarda ifodalangan kasblarning o‘ziga xos shaxsiy sifat va fazilatlarini namunada

ko‘rsatilgani kabi yozishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda bajariladi. Namuna: *Haydovchi – haydovchi har qanday vaziyatda g‘azabini jilovlay olishi kerak.*

5. Kitob qahramonlari so‘zlab berayotgan “Uch ko‘zli nazoratchilar” haqidagi qiziqarli faktlarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.



82

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Amerikada qanday rangli svetoforlar bor?
2. Pyer Vivant kim?
3. Tailandda qanday svetofor bor?
4. Svetoforning vatani qayer?
5. Jangchi tasviri tushirilgan svetofor qayerda o‘rnatilgan?

7. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Mehmonlar **kelguncha** ular sayohat rejasini tuzdilar.*

bo‘lmoq | tugamoq | ~~kelmoq~~ | tushmoq | o‘qib tugatmoq

1. Mehmonlar _____ ular sayohat rejasini tuzdilar.
2. Dars _____ topshiriqlarni yakunlanglar.
3. “Sariq devni minib” asarini _____ _____ dadam kitobning ikkinchi qismini olib keldilar.
4. Qorong‘i _____ sayyohlar manzilga yetib bordilar.
5. Ovqat tayyor _____ bobom bilan shaxmat o‘ynadik.

Mustaqil topshiriq

5 ta yo‘l belgisini chizing va ularning izohini yozing.

IMKONIYAT ESHIKLARI

1. O‘qing.

Maktabda “Eng yaxshi notiq” tanlovi o‘tkazilishi haqida e’lon berildi. Ra’no va Aziz bu tanlovga qatnashmoqchi bo‘lishdi. Tanlov tashkilotchilari ularga ikkita alohida matn berib, uni yaxshilab yod olish kerakligini aytdilar. Ular esa faqatgina bitta matnni ikkiga bo‘lib yodlashdi. Tanlovdan bir kun oldin Ra’no Azizga qo‘ng‘iroq qilib, tobi yo‘qligini, ertangi musobaqaga qatnasha olmasligini aytdi. Bu xabardan Aziz qattiq tushkunlikka tushdi. Shuning uchun ertasi kuni yodlagan matnini yaxshi aytib bera olmadi. Hakamlarga nega yarmini yod olganini tushuntirib berdi va qayta imkoniyat so‘radi.

Aziz va Ra’noga yana imkon berish kerakmi?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Aziz va Ra’no bitta matnni yodlab to‘g‘ri qilishdimi?
2. Do‘stlarning uyalib qolishiga kim aybdor? Azizmi yoki Ra’no?
3. Tasavvur qiling, “Eng yaxshi notiq” tanlovi sizning maktabingizda o‘tkazilyapti. Siz hakamlarga nima aytib berardingiz?

quloqchin
havasi keldi
vaziyat
oqibat
va’da
imkon

6. Navbatdagi jarayonda o‘quvchilar ushbu ma’lumotlarni quyida berilgan rasmlar bilan muvofiqlashtirib chiqishlari lozim.

Topshiriq javoblari: 1) C; 2) D; 3) A; 4) B.

7. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling.

8. 7-topshiriqda o‘quvchilar ergash gap qismlari orasida tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llarni payt ravishdoshli fe’llarga aylantirgan holda qo‘yib, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

*Mehmonlar **kelguncha** ular sayohat rejasini tuzdilar.*

9. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevalarim so‘zlaydi” metodini qo‘llang va bugungi mavzuni mustahkamlab oling. Bunda oldindan tayyorlangan turli meva va sabzavot rasmlari tushirilgan qog‘oz kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar o‘zining kartochkasidagi meva yoki sabzavotning qanday ta’mga ega ekanligini, uning rangi va shakl-hajmini o‘sha kartochkaning orqa tomoniga yozib, so‘ngra ularni birma-bir o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, 5 ta yo‘l belgisini chizib, ularning izohini yozib kelishlari lozim.

43-DARS. IMKONIYAT ESHIKLARI


Maqsad: Payt ergash gapli qo‘shma gap, uning turlari, yasalishi, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qilish. Mavjud bilimlarini mustahkamlash**.** Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan 5 ta yo‘l belgisini chizib, ularning izohini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu yuzasidagi bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Ulardan rasmda nimalar tasvirlangani haqida fikr bildirishlarini so‘rang. Berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.



82

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Amerikada qanday rangli svetoforlar bor?
2. Pyer Vivant kim?
3. Tailandda qanday svetofor bor?
4. Svetoforning vatani qayer?
5. Jangchi tasviri tushirilgan svetofor qayerda o‘rnatilgan?

7. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Mehmonlar* ***kelguncha*** *ular sayohat rejasini tuzdilar.*

bo‘lmoq | tugamoq | ~~kelmoq~~ | tushmoq | o‘qib tugatmoq

1. Mehmonlar _____ ular sayohat rejasini tuzdilar.
2. Dars _____ topshiriqlarni yakunlanglar.
3. “Sariq devni minib” asarini _____ _____ dadam kitobning ikkinchi qismini olib keldilar.
4. Qorong‘i _____ sayyohlar manzilga yetib bordilar.
5. Ovqat tayyor _____ bobom bilan shaxmat o‘ynadik.

Mustaqil topshiriq

5 ta yo‘l belgisini chizing va ularning izohini yozing.

IMKONIYAT ESHIKLARI

1. O‘qing.

Maktabda “Eng yaxshi notiq” tanlovi o‘tkazilishi haqida e’lon berildi. Ra’no va Aziz bu tanlovga qatnashmoqchi bo‘lishdi. Tanlov tashkilotchilari ularga ikkita alohida matn berib, uni yaxshilab yod olish kerakligini aytdilar. Ular esa faqatgina bitta matnni ikkiga bo‘lib yodlashdi. Tanlovdan bir kun oldin Ra’no Azizga qo‘ng‘iroq qilib, tobi yo‘qligini, ertangi musobaqaga qatnasha olmasligini aytdi. Bu xabardan Aziz qattiq tushkunlikka tushdi. Shuning uchun ertasi kuni yodlagan matnini yaxshi aytib bera olmadi. Hakamlarga nega yarmini yod olganini tushuntirib berdi va qayta imkoniyat so‘radi.

Aziz va Ra’noga yana imkon berish kerakmi?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Aziz va Ra’no bitta matnni yodlab to‘g‘ri qilishdimi?
2. Do‘stlarning uyalib qolishiga kim aybdor? Azizmi yoki Ra’no?
3. Tasavvur qiling, “Eng yaxshi notiq” tanlovi sizning maktabingizda o‘tkazilyapti. Siz hakamlarga nima aytib berardingiz?

qulaylik
havasi keldi
vaziyat
oqibat
va’da
imkon

3. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Audiomatnni dastlab ikki marotaba tinglating, yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

43-audiomaterial matni

Alisher dadasi sovg‘a qilgan quloqchinni maktabga olib bordi. Shokirning esa bunga havasi keldi. O‘zida ham shunday quloqchin bo‘lishini xohladi. Xonada hech kim yo‘qligida Shokir quloqchinni olib, o‘zining sumkasiga solib qo‘ydi. Dars boshlangach, quloqchin yo‘qolgani ma’lum bo‘ldi. Ustoz sinf xonasiga kirgach, vaziyatni bildi va o‘g‘rilikning oqibatlarini tushuntirdi. O‘quvchilarga qog‘oz olib, “Kelajakda…” mavzusida anonim xat yozishlarini aytdi. Quloqchinni olgan o‘quvchi aybini tan olishi va uni qayerga qo‘yishini xatda yozishi kerakligini tayinladi. Shokir qilgan ishidan pushaymon bo‘ldi va xatida uzr so‘radi. Agar yana imkoniyat berilsa, bunday ishni takrorlamaslikka va’da berdi. Ustozi xatlarni o‘qib, yozuvidan Shokir aybdorligini bildi. Xatda ko‘rsatilgan joydan quloqchinni olib, o‘z egasiga topshirdi. Bolalar ustozdan kim olganligini so‘radi. Ustozi esa bilmasligini aytdi, chunki u Shokirga va’dasini bajarishi uchun imkon bergandi.


Sizningcha, Shokirga imkon berish to‘g‘rimi?

4. 4-topshiriqda yuqoridagi matn asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Alisher onasi sovg‘a qilgan quloqchinni maktabga olib bordi. Noto‘g‘ri. Izoh: quloqchinni dadasi sovg‘a qilgan edi, onasi emas.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilarning shaxsiy fikr va xohish-istaklarini bildirish va asoslay olish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi. *Namuna:*

Maktabdagi imkoniyatlar	Men istagan imkoniyatlar
1. Zamonaviy kutubxona mavjud. 2. _____	1. IT to‘garaklari tashkil qilinishi. 2. _____


83

3. Tinglang. Gapiring.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Alisher onasi sovg‘a qilgan quloqchinni maktabga olib bordi.		
2	O‘quvchilar “Kelajakda…” mavzusida xat yozishdi.		
3	Shokir quloqchinni olib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi.		
4	Ustozi xatlarni o‘qib, yozuvidan Shokir aybdorligini bildi.		
5	Ustozi Shokirni bu qilmishi uchun jazoladi.		

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Maktabdagi imkoniyatlar	Men istagan imkoniyatlar
1. Zamonaviy kutubxona mavjud. 2. _____	1. IT to‘garaklari tashkil qilinishi. 2. _____

7. 6-topshiriqda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi payt ravishdoshli ergash gap qismini mantiqan davom ettirishlari zarur. Namuna:

To‘garak boshlanguncha, ***tushlik qilib olishimiz kerak****.*

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosi-

ni to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni Dars so‘ngida “Geometrik figura” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan turli ko‘rinishdagi geometrik shakldagi kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu shakllar qaysi oshxona jihozining shakliga mos kelishini fantaziyalarini ishga solgan holda topishlari va kartochka orqasiga o‘sha jihozning nomini yozishlari kerak. Masalan, doira shakli – *piyola, kosa, likopcha;* aylana shakli – *elak;* silindr – *pichoq, vilka;* to‘g‘ri to‘rtburchak – *patnis, taxtakach* kabi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘z hududlaridagi mavjud imkoniyatlarni o‘rganib, yaratish kerak bo‘lgan yana bir qancha imkoniyatlar rejasini tuzib kelishlari lozim.

44-DARS. MUSTAHKAMLASH (IMKONIYAT)

Maqsad: 2-chorak yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘z hududlaridagi mavjud imkoniyatlarni o‘rganib, yana bir qancha yaratish kerak bo‘lgan yana bir qancha imkoniyatlar rejasini tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan “Tulpor” taronasini ikki marotaba tinglating. Qo‘shiqning so‘zlari va ma’nosi haqida o‘quvchilar bilan suhbatlashing.



84

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. To'garak boshlanguncha tushlik qilib olishimiz kerak.*

1. To'garak boshlanguncha _____
2. Onam ishdan kelguncha _____
3. Darslarimni bajarib bo'lgunimcha _____
4. Yog'ingarchilik boshlangunicha _____
5. Biz do'konga borgunimizcha _____

Mustaqil topshiriq

Shahringizda yoki mahallangizdagi mavjud imkoniyatlarni o'rganing. Yana qanday imkoniyatlar yaratsa bo'ladi deb o'ylaysiz? Rejasini tuzing.

MUSTAHKAMLASH

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Bu rasmlar sizga nimani eslatyapti?

44-audiomaterial matni




2. 2-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar berilgan rasm asosida sayohatga chiqayotganda olishlari kerak bo‘ladigan eng zaruriy anjom va shaxsiy buyumlarni ajratib, ularni yozishlari kerak bo‘ladi.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilarning grammatik bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar gaplardagi qavs ichida berilgan noaniq shakldagi fe’llarni kerakli grammatik ko‘rsatkichlar bilan to‘g‘ri qo‘llagan holda gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*1. Dadam ishdan **kelgach**, ertangi sayohat rejasini tuzib olamiz.*

*2. Ertalab tursam, nonushta **tayyorlab qo‘yilgan** ekan.*



85

3. O'ylang va toping. Yozing.

Sayohatga chiqayotganda nimalar kerak bo'ladi?

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Dadam ishdan **kelgach**, ertangi sayohat rejasini tuzib olamiz.*

1. Dadam ishdan (*kelmoq*), ertangi sayohat rejasini tuzib olamiz.
2. Ertalab tursam, nonushta (*tayyorlab qo'ymoq*)gan ekan.
3. Ta'tilimiz (*boshlanmoq*) berilgan vazifalarni bajarib qo'yishimiz lozim.
4. Uchuvchilik kasbi menga juda ham (*yoqmoq*)di.
5. Akam axborot texnologiyasi sohasida (*o'qimoq*)di.
6. Musobaqa (*tugamoq*), g'oliblar taqdirlanadi.

DIQQAT QILING!
-il
-gach
-guncha
-a
-y

5. O'ylang va toping. Yozing.

Kgsyhnszembilkmytrafrikaasdfgtrzxyashaydipotiuyfinlandiyagdgnsayohatdjchuygvavtobuskietrndschiqdikgfbhyto'qumhytfcalishercfyurimehmonasdfghsvetoforpoiupiyodapoioyiuparovozasdufisdeghaydovchiasediyguvohnomayujdsreqkutubxonaleniytyo'lbelgilaricherikasbekatlkaitsaqichheudjuk

5. 5-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

Jadvalda qo‘llanilgan so‘zlar: *Zembi, Afrika, yashaydi, Finlandiya, sayohat, avtobus, chiqdik, Alisher, mehmon, svetofor, piyoda, parovoz, haydovchi, guvohnoma, kutubxona, yo‘l belgilari, bekat, saqich.*

6. Lug‘at so‘zlarni yana bir bor mustahkamlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, Myunsterbergda topilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib kelish.

45-DARS. ADABIY O‘QISH. “YOSH FUTBOLCHI”

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish; shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish; badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan topshiriqni yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



86

ADABIY O‘QISH

YOSH FUTBOLCHI


1. O‘qing. So‘zlab bering.

Mening ismim Odil. Men ham sizlar kabi 6-sinfda o‘qiyman. Sizlarga bir voqeani hikoya qilib bermoqchiman. Hikoyamning bosh qahramoni esa kamina, ya’ni o‘zim.

Hamma o‘g‘il bolalar qatori men ham futbolga juda qiziqaman. Qiziqish ham gapmi, futbol – mening hayotim. Kelajakda mashhur futbolchi bo‘lmoqchiman. Ishonasizmi, tushlarimda ham futbolchi bo‘lganim, mashhur futbolchilar bilan bir safda to‘p tepayotganim, kuboklar olganim va eng asosiysi, oltin to‘p sohibi bo‘lganimni ko‘raman. Unda muammo nimada dersiz? Muammo shundaki, ota-onam futbolchi bo‘lishimni emas, o‘zlari singari shifokor bo‘lishimni istashadi. “Ko‘plarga foydang tegadi. Xalqning duosini olasan”, – deydilar. To‘g‘ri, shifokorlik – yaxshi kasb. Lekin baribir futbol boshqacha-da! Otam menga hozirdan Mendeleyev jadvalini o‘rgatyaptilar. Shu jadvalni har ko‘rganimda futbol darvozasi to‘ri xayolimga kelaveradi-da. Keyin o‘ylab qolaman. Mendeleyev jadvalini Mendeleyev yaratgan bo‘lsa, karra jadvalini Karra yaratganmikan-a? Sizlar bilasizlarmi? Yana meni xayolparast bola ekan deb o‘ylamanglar. Unchalik ham xayolparast emasman. Onam: “O‘zi buning yoshida shunaqa bo‘ladi”, – deb dadamga aytganlarini ko‘p eshitganman. Bunaqaligimga menmas, yoshim aybdor.

Bir kuni onamga futbolchi bo‘lmoqchiligimni, maktabdagi futbol to‘garagiga qatnashmoqchi ekanimni aytdim. Lekin onamga bu gapim uncha yoqmadi. “Nima, butun umring koptok orqasidan yugurib o‘tadimi?” – deb koyib berdilar. Shu-shu bu mavzu yopildi. Shu kundan men ham ancha jiddiy tortib qoldim. Dadam mendagi bu o‘zgarishni ko‘rib: “O‘g‘limiz ulg‘ayibdi”, – deb qo‘ydilar. Futbol to‘garagiga borayotgan tengdoshlarimga juda havas qilardim. Ba’zida ularning o‘rnida bo‘lgim ham kelib ketardi.

Ta’til boshlanishi bilan dadam meni bobomnikiga yuborardi. Bobom – juda bolajon, mehribon inson. Uni qishloqda hamma bolalar yaxshi ko‘radi. Ular yoshi ulug‘ bo‘lishlariga qaramay, bolalar bilan to‘p tepardi. Qishloqqa yangi stadion qurilganida bolalardan ham ko‘proq bobom xursand bo‘lgandi. Bir kuni bobom bilan suhbatlashayotib qolganimda, bobom menga: “Bobo, agar ruxsat berishganida edi, men mashhur futbolchi bo‘lardim. Siz ham, ota-onam ham mendek farzandingiz borligidan faxrlangan bo‘lardingiz. “Televizorda nabiram chiqadi”, – deb mahalladagilarga maqtanardingiz”, – dedim.



87

Bobom biroz o'ylanib qoldi-da: "Obbo azamat-ey, qani, yur-chi, to'p tepamiz. Bir o'zingni ko'rsat-chi", – dedilar. O'sha kuni rosa o'ynadik. Ertasi kuni bobom bilan yo'lga tushdik.

Dadam ishdan kelganlarida bobom dadamga jiddiy gaplari borligini aytdilar.

– Nega bolaning istaklari bilan qiziqmayapsan? Axir u shifokor bo'lmoqchimas-ku! O'zi istagan soha bilan shug'ullanishi uchun unga yo'l ber! Men ham bolaligimda futbolchi bo'lmoqchi edim. Lekin bobong bilan buving buni xohlashmadi. Lekin yuragimda bir umr armon bo'lib qoldi. Hali-hanuz yo'l berishgandami degan afsus bilan yashayapman. O'g'ling ham armon bilan o'tishini xohlaysanmi? Bola ham bamisoli daraxt. Uni gullatmasdan quritasanmi? O'z kasbini sevmagan insonning hayotida mazmun ham bo'lmaydi. Mehr berilmagan kasb u uchun mashaqqatli mashg'ulotdir.

Ertasi kuni dadam meni maktabning futbol to'garagiga a'zo qildirib keldilar. Bir oydan keyin maktablararo musobaqa bo'lib o'tdi. Bunda qaysi maktab yutganini taxmin qilayotgandirsiz-a? Albatta, to'g'ri topdingiz. Biz g'olib bo'ldik. Murabbiyim dadamga: "Bu – o'sadigan bola", – debdilar. Ota-onam shunaqangi quvonishdiki! Ha, aytgancha, keyingi o'quv yilidan men o'qishimni sport maktabida davom ettiraman. Kelajakda futbol chempionatlarida tomoshabin bo'lib qolsangiz, meni tanisiz degan umiddaman. Balki, shunda siz o'sha payt shifokor, o'qituvchi, tadbirkor yoki hunarmand bo'lgan bo'larsiz. Kim bo'lsangiz ham, sevimli kasbingizning ustasi, fidoyisi bo'ling.

Xasanova Yulduz

2. Savollarga javob bering.

1. "Oltin to'p" sohibi kim? Nima uchun "oltin to'p sohibi" deyiladi?
2. Mendeleyev jadvali qaysi fanda o'rganilishini bilasizmi?
3. Odilning murabbiyi "o'sadigan bola" deganda nimani nazarda tutdi?
4. Siz ham o'ylab ko'rganmisiz, karra jadvalini rostdan ham Karra ismli shaxs yaratganmi?
5. Sizning bo'lajak kasbingizga ota-onangizning munosabati qanday?
6. O'z kasbining ustasi deganda nimani tushunasiz? Shunday insonlardan kimlarni bilasiz?

3. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Odilning xayolparastligi uning muammosi edi.		
2	Hikoya qahramonining onasi shifokor edi.		
3	Bobo o'g'li bilan jiddiy gaplashgandan keyin Odilning hayoti o'zgardi.		
4	Odilning bobosi futbolchi bo'lmoqchi edi.		
5	Odil ko'p kasal bo'lgani uchun uni shifokor qilishmoqchi edi.		
6	Odil sport maktabida o'qir edi.		

Vazifalar:

1. Hikoyani bir marta o‘zingiz ifodali tarzda o‘qib bering. O‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling. Savollarni o‘qib eshittiring.

3. O‘quvchilarning hikoyani qanchalik to‘g‘ri tushunib yetganliklarini tekshiring. O‘quvchilar gaplarni o‘qib to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilaydilar. Topshiriqni avval og‘zaki bajarib, keyin daftarga yozishlari tavsiya qilinadi.

4. Matndagi yangi so‘zlar ustida ishlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha tushunchalar bering. Xotirada yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi adabiy o‘qish darsidan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.


Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va matndagi yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘qigan matnlari – “Yosh futbolchi” yuzasidan “Hikoyadan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelishlari lozim.

III CHORAK. TEXNOPARK

49-DARS. ROBOTOTEXNIKA NIMA? (QIZIQARLI MASHG‘ULOT)

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish; shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish; badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish. Hozirgi innovatsion texnologiyalar, robototexnikalar bilan tanishtirish va qiziqishlarini oshirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan oqigan matnlari – “Yosh futbolchi” yuzasidan “Hikoyadan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



3-chorak
TEXNOPARK

ROBOTOTEXNIKA NIMA?

1. O‘qing.

– Yaxshimisan, Danil?
– Rahmat, yaxshiman, Alisher.
– Danil, sen robototexnikaga qiziqasanmi?
– Albatta, qiziqaman.
– Men yaqinda maktabimizdagi robototexnika to‘garagiga yozildim. U yerda Abror aka bilan tanishdim. Abror aka yangi robot ixtiro qilgan.
– U qanday robot ekan?
– Navigator robot. Bu robot sayyohlar boradigan manzil xaritasini, manzilga qanday borishni aniqlaydi. Hatto undan avtobuslarning kelish vaqtini ko‘rish, taksiga buyurtma berish, ob-havo ma’lumotlarini olish mumkin.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Alisher qanday to‘garakka boradi?*
Alisher robototexnika to‘garagiga boradi.

1. Alisher qanday to‘garakka boradi?
2. Abror aka qanday robot ixtiro qildi?
3. Robotlar odamlarning qaysi yumushlarini bajaradi?
4. Siz qanday robotlarni bilasiz?

3. Tinglang.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan dialogni rollarga bo‘lib o‘qittiring. O‘quvchilarning talaffuziga e’tibor qarating. Robototexnika haqida qisqacha ma’lumot va izohlar berib o‘ting.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha berilgan savollarga javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.


3. Berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

49-audiomaterial matni

Robototexnika juda qiziqarli, biroq, shu bilan birga, qamrovi ancha keng va murakkab yo‘nalishdir. Sun’iy intellekt esa uning boshqaruv tizimi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ikki tushuncha hamisha yonma-yon keladi. Biz uchun oddiy bo‘lib ko‘ringan kompyuter, smartfon kabi qurilmalarning barchasi aslida sun’iy intellekt mahsuli sanaladi. Agar “Robotlar evolyutsiyasi”ga nazar tashlasak, bu jarayonning qanchalik shiddat bilan rivojlanayotganini ko‘ramiz. Jumladan, “Boston Dinamics” kompaniyasi sun’iy intellekt orqali boshqariladigan odamsimon (gumanoid) robotlarni ishlab chiqqan hamda robotlar ustida turli tajribalarni amalga oshirmoqda. Yaqin 5-10 yil ichida aeroportlardagi ma’lumot beruvchi xodimlar o‘rnida, shuningdek, harbiylar safida ham robotlarni ko‘rishimiz mumkin.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar berilgan hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini yuqoridagi audio matnda tinglab tushungan ma’lumotlari asosida topishlari kerak. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajariladi.

5. 5-topshiriqni bajarishda “Fikrlar hujumi” metodidan foydalaning. “Nima deb o‘ylaysiz, qaysi robotni birinchi yasash kerak?” savoli yuzasidan sinfda bahs- munozara tashkil qiling.


89

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Sun’iy intellekt robotning boshqaruv tizimi hisoblanadi.		
2	Kompyuter, smartfon kabi qurilmalarning barchasi aslida sun’iy intellekt mahsuli emas.		
3	“Boston Dinamics” kompaniyasi yangi rusumdagi androidlar ishlab chiqargan.		
4	5–10 yil ichida aeroportlardagi ma’lumot beruvchi xodimlar o‘rnida va harbiylar safida robotlarni ko‘rishimiz mumkin.		

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Qariya va nogironlarni yo‘ldan o‘tkazib qo‘yishga yordam beruvchi robot

Dars jadvali bo‘yicha darslik va daftarlarni yig‘ib beradigan robot

Nima deb o‘ylaysiz, qaysi robotni birinchi bo‘lib yasash kerak?

DIQQAT QILING!

-moqchi

Men, Sen, U — yasa~~moq~~ +moqchi — -man, -san, –

Biz, Siz, Ular — yasa~~moq~~ +moqchi — -miz, -siz, -lar

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Men katta bo‘lganimda g‘oyalarim haqida suhbatlashadigan robot yasamoqchiman.*

1. Men katta bo‘lganimda g‘oyalarim haqida suhbatlashadigan robot _____.
2. Bu yil ta’tilda oilamiz bilan chet elda _____.
3. Sen singlingning tug‘ilgan kuniga nima _____?
4. Maks kitobdan robotlar haqidagi ma’lumotlarni _____.
5. O‘quvchilar maktab marafonida _____.

ishtirok etmoq
sovg‘a qilmoq
dam olmoq
yasamoq
o‘qimoq

Mustaqil topshiriq

Robotlarning insonlar hayotiga foydali va zararli ta’sirlari haqida fikr yuriting.

6. “Diqqat qiling!” qismida kelasi zamon maqsad fe’li, *-moqchi* yasovchi qo‘shimchasi haqida ma’lumot bering va uning tuslanishini tushuntirib bering. Kelasi zamon maqsad fe’lining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi ham-

da og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-moqchi* shakli yordamida kelasi zamon maqsad fe’lini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

7. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini qo‘yib, ularni kelasi zamon maqsad fe’li va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib chiqishlari lozim. *Masalan:*

Men katta bo‘lganimda g‘oyalarim haqida suhbatlashadigan robot ***yasamoqchiman.***

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Timsoh” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan milliy o‘yinlardan birini ixtiyoriy tarzda tanlaydilar va pantomima ko‘rinishida, faqatgina tana harakatlari va imo-ishora orqali ushbu o‘yinni obrazli ko‘rsatib beradilar, qolgan jamoadoshlari esa bu qaysi o‘yin ekanligini topishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, robotlarning insonlar hayotidagi foydali va zararli tomonlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini yozib kelishlari lozim.

50-DARS. DRON

Maqsad: ish-harakatning bajarilish tarzi, vaqti, holatini bildiruvchi ravishlar bilan tanishish; ularni yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilish; shuningdek, milliy o‘yin turlari haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan robotlarning insonlar hayotidagi foydali va zararli tomonlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:


1. Darslikdagi 1-topshiriqda berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

50-audiomaterial matn

Dron – uchuvchisiz uchish vositasi. Dron JPS va sun’iy yo‘ldosh orqali boshqariladi. Birinchi dronlar 1800-yillarning o‘rtalarida avstriyaliklar tomonidan yaratilgan. Afsuski, ular belgilangan manzilga aniq yetib bora olmas edilar.

Hozirgi kunda texnologiyalar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bugungi kun dronlari mo‘ljalni uzoq muddat kuzatib yurish va nishonga aniq ura olish salohiyatiga ega.

Yaponiya va AQSH dehqon xo‘jaligida, avtoturargohlarda mashinalar sonini sanashda, balandlikdan suratga olishda dronlardan foydalaniladi.


90

DRON

1. Tinglang.


2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Dron nima?
2. Ular qanday boshqariladi?
3. Ilk dronlar qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
4. Ulardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
5. Siz dron parvozini kuzatganmisiz?

3. O‘qing.

2. Tinglangan matn yuzasidan berilgan savollarni o‘qib eshittiring va o‘quvchilardan dastlab og‘zaki tarzda, so‘ngra yozma ko‘rinishda ushbu savollarga javob berishlarini so‘rang.

3. Komikslarni o‘qittiring (bunda ko‘ngilli o‘quvchilarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittirishingiz maqsadga muvofiq).



91

4. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Bolalarning to'planishdan maqsadi nima edi?
2. Bolalarni nima xafa qildi?
3. Bolalar qanday xatolikka yo'l qo'yishdi?
4. Drondan nima maqsadlarda foydalaniladi?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Mustaqil topshiriq

O'zingiz ixtiro qilmoqchi bo'lgan texnikaning rasmini chizing yoki maketini yasang.

SEHRLI TOMCHILAR

1. Tinglang.

2. O'qing.

Bilasizmi, bolalar, qadimdayoq Sharq mamlakatlarida daraxtlarni sug'orishda dehqonlar daraxt ildizi yaqinida tuproqqa ko'milgan sopol xumchalardan foydalanishgan. Sopol idishlarga vaqti-vaqti bilan suv quyib turilgan. Bunday joylarda ariqlarga hojat bo'lmagan.

Suvning tomchisi ham suv. Shunday ekan, undan oqilona foydalanish zarur. Dehqonchilikda suvni tejash va to'g'ri taqsimlash maqsadida tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalaniladi. Bu usulda suv resurslari tejaladi va hosildorlik ortadi.

oqilona
tomchilatib
sug'orish
sopol
quvur

4. 4-topshiriq savollarini o‘qing. O‘quvchilardan og‘zaki javob oling. Javoblar to‘ldirib, izohlab ketilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Komikslar asosida kichik hikoya yozdiring. (Tuzgan hikoyalarini o‘qittirish ham mumkin.)

5. 5-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar krossvordda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

Jadvalda qo‘llanilgan so‘zlar: *samolyot, vertolyot, internet, texnika, dron, intellekt, robot.*

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ngra ularni o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari ixtiro qilmoqchi bo‘lgan texnikaning rasmini chizishlari yoki maketini yasab kelishlari lozim.

51-DARS. SEHRLI TOMCHILAR

Maqsad: turli xorijiy davlatlarning milliy o‘yinlari, ularning nomlanishi hamda o‘tkazilish jarayoni haqidagi bilim va tasavvurlarni hosil qilish; shuningdek, ish-harakatning belgisini bildiruvchi ravishlar hamda ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malakalarni yana bir bor mustahkamlab olish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari ixtiro qilmoqchi bo‘lgan texnikaning rasmini chizishlari yoki maketini yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Darslikdagi 1-topshiriqda berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

51-audiomaterial matn

Bilasizmi, bolalar, qadimdayoq Sharq mamlakatlarida daraxtlarni sug‘orishda dehqonlar daraxt ildizi yaqinida tuproqqa ko‘milgan sopol xumchalardan foydalanishgan. Sopol idishlarga vaqti-vaqti bilan suv quyib turilgan. Bunday joylarda ariqlarga hojat bo‘lmagan.

Suvning tomchisi ham suv. Shunday ekan, undan oqilona foydalanish zarur. Dehqonchilikda suvni tejash va to‘g‘ri taqsimlash maqsadida tomchilatib sug‘orish texnologiyasidan foydalaniladi. Bu usulda suv resurslari tejaladi va hosildorlik ortadi.

Afg‘onistonda 1886-yilda sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug‘orish boshlangan. O‘simlikning ildizini namlab sug‘orish 1913-yil AQSHda B. Hauz tomonidan namoyish etilgan. Germaniyalik olimlar esa tomchilatib sug‘orishda teshikli quvurlardan foydalanishni ishlab chiqdilar. Hozirgi zamonaviy tomchilatib sug‘orish dastlab Isroilda yo‘lga qo‘yilgan.


O‘zbekistonda ham tomchilatib sug‘orish tizimi qishloq xo‘jalik va bog‘dorchilikda qo‘llaniladi.

3. 3-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan gap qismlarini namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro birbirlariga to‘g‘ri moslab yozishlari lozim.

Namuna: *Sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug‘orish Afg‘onistonda boshlangan.*

4. 2–4-topshiriqda o‘qish uchun berilgan matnni o‘quvchilarga galma-galdan o‘qittiring. Ularning talaffuziga diqqat qiling.

5. 5-topshiriqda yuqoridagi matn asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:



92

Afg‘onistonda 1886-yilda sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug‘orish boshlangan. O‘simlikning ildizini namlab sug‘orish 1913-yili AQSHda B. Hauz tomonidan namoyish etilgan. Germaniyalik olimlar esa tomchilatib sug‘orishda teshikli quvurlardan foydalanishni ishlab chiqdilar. Hozirgi zamonaviy tomchilatib sug‘orish dastlab Isroilda yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda ham tomchilatib sug‘orish tizimi qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikda qo‘llanadi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug‘orish boshlangan	AQSHda
O‘simlikning ildizini namlab sug‘orish ishlab chiqilgan	Isroilda
Teshik quvurlardan foydalanib tomchilatib sug‘orilgan	Afg‘onistonda
Hozirgi zamonaviy tomchilatib sug‘orish dastlab yo‘lga qo‘yilgan	Germaniyada

4. O‘qing.

Suv insonning kisloroddan keyingi ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi. Odamzod ovqatsiz olti hafta yashashi mumkin, ammo suvsiz bir haftadan ortiq umr ko‘ra olmaydi.

Dunyoda eng ko‘p foydali moddalarni o‘zida jamlagan suv bu – quduq suvi. Inson o‘z qo‘li bilan bunday aralashmani tayyorlay olmaydi.

Jazoirdagi bir ko‘lning suviga ruchka yoki qalamni botirib bemalol qog‘ozga yozsa ham bo‘ladi. Bu yozuvni esa keyin umuman o‘chirib bo‘lmaydi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Jazoirdagi ko‘l suvi yozdan qishga qadar g‘oyib bo‘ladi.		
2	Quduq suvini insonlar o‘z qo‘llari bilan tayyorlashgan.		
3	Suv insonning kisloroddan keyin ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi.		
4	Jazoirdagi antiqa ko‘l suvi bilan yozilgan yozuv umuman o‘chmaydi.		

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Abror Jazoirdagi antiqa ko‘l haqida ma’lumotlar* ***to‘plamoqchi.***

1. Abror Jazoirdagi antiqa ko‘l haqida ma’lumotlar ____ *(to‘plamoq, yaratmoq, kuylamoq).*
2. Biz quduq suvini tajribadan ____ *(ishtirok etmoq, qatnashmoq,o‘tkazmoq).*
3. Men suvni tejash haqidagi loyiham bilan anjumanda ____ *(qatnashmoq, o‘qimoq, yozmoq)*
4. Siz tomorqangizda tomchilatib sug‘orishdan _____ *(ishlatmoq, foydalanmoq, o‘ylamoq)?*

Jazoirdagi ko‘l suvi yozdan qishga qadar g‘oyib bo‘ladi. -noto‘g‘ri. Izoh: Yugoslaviyadagi Sirkniskoe ko‘li suvi yozdan qishga qadar g‘oyib bo‘ladi, Jazoirdagi ko‘l emas.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini tanlab, ularni kelasi zamon maqsad fe’li va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib chiqishlari lozim. Namuna:

Abror Jazoirdagi antiqa ko‘li haqida ma’lumotlar ***to‘plamoqchi.***

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, darslikda berilgan maqollarni yod olib, ularning ma’nolarini tahlil qilib kelishlari lozim.

52-DARS. KELAJAK ENERGIYASI (QUYOSH ENERGIYASI)

Maqsad: 3-bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olish; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan darslikdagi maqollarni yod olib, ularning ma’nolarini tahlil qilib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar:

1. Darslikdagi 1-topshiriqda berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

52-audiomaterial matn

Danil fizika faniga juda qiziqadi. Darsdan keyin to‘garaklarga ham qatnashadi. Kelajakda u quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha yanada ilg‘or loyihalarni ishlab chiqmoqchi. Bugungi kun olimlari ta’kidlaganidek, “Quyosh energiyasi – kelajak energiyasi”. Danil quyosh batareyalarining ishlash jarayonini diqqat bilan o‘rganib bormoqda va kelajakda shu sohada yetuk mutaxassis bo‘lmoqchi.

Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?



93

Mustaqil topshiriq

Yod oling.

Yer – xazina, suv – gavhar.
Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suv.
Suvni bersang elga, yasharsan ming yilga.
Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan.

KELAJAK ENERGIYASI

1. Tinglang.

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Danil qaysi fanga qiziqadi?
2. Danil qanday loyiha ishlab chiqmoqchi?
3. Quyosh batareyalarini qayerlarda ko‘rgansiz?
4. Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?
5. Yetuk mutaxassis bo‘lish uchun nima qilish kerak?

ilg‘or ta’kidlaganidek jarayon sohada yetuk mutaxassis

3. O‘qing.

Quyosh nurlari har yili Yerga nihoyatda ko‘p energiya olib keladi. Bu energiyaning 60 foizi Yer atmosferasi, 25,5 foizi okean va dengiz, 14,5 foizi quruqlikni isitishga sarf bo‘ladi. Bugungi kunda yoqilg‘i manbalarini tejash uchun quyosh energiyasidan foydalaniladi. Quyosh energiyasi binolarni yoritish, isitish, havoni sovitish, shamollatishga sarflanadi. Quyosh batareyalarining tuzilishi oddiy, o‘rnatilishi oson va ulardan uzoq muddat foydalanish mumkin. Qishloq xo‘jaligida suvni tejash maqsadida tomchilatib sug‘orishdan foydalaniladi. Yoqilg‘ini tejash maqsadida esa quyosh batareyalaridan keng foydalanilmoqda.

4. O‘ylang va toping.

1. Quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasining necha foizi Yer atmosferasini isitish uchun sarflanadi?
A) 25,5 foizi B) 60 foizi C) 12,7 foizi D) 14,5 foizi

2. Quyosh batareyalaridan foydalanganda nima tejaladi?
A) suv resurslari B) oltin zaxiralari C) yoqilg‘i resurslari D) to‘g‘ri javob yo‘q

2. Tinglashga doir berilgan matn asosidagi topshiriqni yozma bajartiring. Savollarni o‘qib eshittiring. Avval og‘zaki javob oling, so‘ng yozma bajartiring.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida navbatma-navbat o‘qittiring. Quyosh energiyasi haqida tushuncha va


tasavvurlari bor yo‘qligiga e’tibor bering. Kerakli o‘rinlarda tushuntirish va izohlar berib o‘ting.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha berilgan test savollariga og‘zaki ravishda javob berishlari lozim.

Test kalitlari: 1) B, 2) D, 3) A, 4) E, 5) A.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini tanlab, ularni maqsad kelasi zamonda va shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib chiqishlari lozim. Namuna:

Men kelajakda yetuk muhandis ***bo‘lmoqchiman.***



94

3. Quyosh batareyalarini ixtiro qilishda qaysi fan muhim rol o‘ynagan?
A) fizika B) algebra C) kimyo D) informatika

4. Kelasi zamon fe’li shaklidagi so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.
A) yugurdi, sakramoqchi, ixtiro qildi
B) gapirdi, o‘yladi, ma’lumot berdi
C) hosil qilmoq, iste’molchi, xarid qilmoq
D) bo‘lmoqchi, o‘rganmoqchi, sayohat qilmoqchi

5. Danil quyosh energiyasidan foydalanib yangi loyihalarni amalga oshirmoqchi, u kelajakda kim bo‘ladi?
A) muhandis-energetik B) tarjimon C) huquqshunos D) muhandis-quruvchi

5. O‘ylang va toping. Yozing.

-moqchi

bormoq | yaratmoq | bo‘lmoq | bormoq | egallamoq

Namuna *1. Men kelajakda yetuk muhandis* ***bo‘lmoqchiman.***

1. Men kelajakda yetuk muhandis _____ .
2. Do‘stim Danil ilg‘or texnologiyalardan foydalanib innovatsion quyosh batareyalarini _____ .
3. Sinfimiz o‘quvchilari yangi zavod bilan tanishgani ekskursiyaga _____ .
4. Davron, kelajakda sen qaysi kasbni _____ .
5. Ertaga dugonam Aziza bilan kutubxonaga _____ .

Mustaqil topshiriq

O‘zbekistonda quyosh energiyasidan qayerlarda foydalaniladi? Ma’lumot topib keling.

SHAMOL ENERGIYASI

1. O‘qing.

Shamol energiyasi – shamoldan olinadigan energiya. Bu – havo oqimi ta’sirida hosil bo‘lgan kinetik energiyaning bir turi. Ushbu energiya generator orqali elektr energiyasiga aylanadi. Uning tarixi miloddan avvalgi 3000-yillarga borib taqaladi. Shamol energiyasidan qadimda kemalarni harakatga keltirishda va sug‘orish tizimida foydalanilgan. Shamol energiyasining bir qator afzalliklari mavjud:

qayta tiklanadi | tugab qolmaydi | ifloslantirmaydi | yerosti boyliklari tejaladi | arzon narxga ega

Shamol energiyasining dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchisi – AQSH, undan keyin Germaniya, Xitoy, Hindiston va Ispaniya mamlakatlari turadi.

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rgangan so‘zlaridan birortasini yodga olib, mikrofonni qo‘llariga olgan zahoti ushbu so‘zni tezlikda aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatdan uzoqroq vaqt davomida so‘zni ayta olmagan o‘quvchilar o‘yinni tark etib boradi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, O‘zbekistonda quyosh energiyasidan qayerlarda foydalanilishi haqida ma’lumot topib kelishlari lozim.

53-DARS. SHAMOL ENERGIYASI


Maqsad: zamonaviy texnologiya vositalari, xususan, energiya resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga o‘rgatish; hayotimizni yengillashtiruvchi bunday qurilmalarning afzalliklari va salbiy jihatlari haqida ma’lumotlar berish; shuningdek, *yoqadi, yoqmaydi* konstruksiyalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda o‘tgan mustahkamlash darsida mustaqil topshiriq sifatida berilgan O‘zbekistonda quyosh energiyasidan qayerlarda foydalanilishi haqida ma’lumot topib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy tarzda galma-galdan o‘qittiring. O‘qitish jarayonida ularning talaffuzlariga e’tibor bering.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi rasm va matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling.



94

3. Quyosh batareyalarini ixtiro qilishda qaysi fan muhim rol o‘ynagan?
A) fizika B) algebra C) kimyo D) informatika

4. Kelasi zamon fe’li shaklidagi so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.
A) yugurdi, sakramoqchi, ixtiro qildi
B) gapirdi, o‘yladi, ma’lumot berdi
C) hosil qilmoq, iste’molchi, xarid qilmoq
D) bo‘lmoqchi, o‘rganmoqchi, sayohat qilmoqchi

5. Danil quyosh energiyasidan foydalanib yangi loyihalarni amalga oshirmoqchi, u kelajakda kim bo‘ladi?
A) muhandis-energetik B) tarjimon C) huquqshunos D) muhandis-quruvchi

5. O‘ylang va toping. Yozing.

-moqchi

bormoq | yaratmoq | bo‘lmoq | bormoq | egallamoq

Namuna *1. Men kelajakda yetuk muhandis* ***bo‘lmoqchiman.***

1. Men kelajakda yetuk muhandis ____ .
2. Do‘stim Danil ilg‘or texnologiyalardan foydalanib innovatsion quyosh batareyalarini ____ .
3. Sinfimiz o‘quvchilari yangi zavod bilan tanishgani ekskursiyaga ____ .
4. Davron, kelajakda sen qaysi kasbni ____ .
5. Ertaga dugonam Aziza bilan kutubxonaga ____ .

Mustaqil topshiriq

O‘zbekistonda quyosh energiyasidan qayerlarda foydalaniladi? Ma’lumot topib keling.

SHAMOL ENERGIYASI

1. O‘qing.

Shamol energiyasi – shamoldan olinadigan energiya. Bu – havo oqimi ta’sirida hosil bo‘lgan kinetik energiyaning bir turi. Ushbu energiya generator orqali elektr energiyasiga aylanadi. Uning tarixi miloddan avvalgi 3000-yillarga borib taqaladi. Shamol energiyasidan qadimda kemalarni harakatga keltirishda va sug‘orish tizimida foydalanilgan. Shamol energiyasining bir qator afzalliklari mavjud:

qayta tiklanadi | tugab qolmaydi | ifloslantirmaydi | yerosti boyliklari tejaladi | arzon narxga ega

Shamol energiyasining dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchisi – AQSH, undan keyin Germaniya, Xitoy, Hindiston va Ispaniya mamlakatlari turadi.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar quyosh va shamol energiyasini “Venn diagrammasi” metodi bo‘yicha solishtirishlari kerak. Bunda o‘quvchilar ushbu ikki energiyaning o‘xshash va farqli jihatlarini yoki diagrammani chizgan holda aylanalar ichiga, yoki odatiy ko‘rinishda daftar sahifasiga yozishlari lozim. Namuna: *O‘xshash jihatlari: tugab qolmaydi, tez tiklanadi, ifloslantirmaydi, arzon. Farqi: quyosh energiyasi quyoshdan, shamol energiyasi shamoldan olinadi. Shamol energiyasi generator orqali elektr energiyasiga aylanadi. Quyosh energiyasidan quyosh batareyalarida foydalaniladi.*

4. 4-topshiriqda berilgan audiomatnni 2 marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

53-audiomaterial matn

Ob-havo doim o‘zgarib turadi.

Ba’zida osoyishta va tiniq havodan to‘yib-to‘yib nafas olish uchun sayrga chiqamiz. Besh-o‘n qadam yurmasimizdanoq to‘satdan shamol ko‘tariladi. Shamolni ko‘rmasak ham, qayerdan paydo bo‘lganini bilmasak ham, uni qo‘llarimiz, yuzimiz bilan sezamiz.

Shamol havo massasining yer uzra ko‘chib yurishidir. Havoni ko‘chib yurishga nima majbur qiladi? Bu savolga javob hamisha bitta: u ham bo‘lsa, haroratning o‘zgarishidir. Havo qiziganda kengayadi va yengillashib, yuqoriga ko‘tariladi. Uning o‘rnini esa undan og‘irroq bo‘lgan sovuq havo oqimi egallaydi. Mana shu shamoldir.


Dunyodagi eng kuchli shamol Amerikaning Oklahoma shtatida kuzatilgan. U yerda shamolning tezligi soatiga 515 km ni tashkil etgan.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan kalit so‘zlarning ta’rifini yoki ushbu so‘zga bog‘liq holatni dastlab og‘zaki ravishda aytishlari, so‘ngra daftarlariga yozishlari lozim. Namuna:

Haroratning o‘zgarishi *havoning ko‘chib yurishiga sabab bo‘ladi.*

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan kelasi zamon maqsad fe’llaridan mosini tanlab, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

Dadam dam olish kuni robot ***yasamoqchilar.***


95

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Shamoldan energiya olish bizga nima uchun kerak?
2. Yana nimalardan energiya olsa bo‘ladi deb o‘ylaysiz?
3. Shamolning yana qanday foyda va zararlari bor?
4. Shamol energiyasini ishlab chiqaruvchi qaysi davlatlarni bilasiz?

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Shamol energiyasi — O‘xshashligi — Quyosh energiyasi

4. Tinglang.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna 1. Haroratning o‘zgarishi havoning ko‘chib yurishiga sabab bo‘ladi.

Oklahoma | shamol | 515 km

havo qiziganda, ~~haroratning o‘zgarishi~~, sovuq havo

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Chehralar” metodini o‘tkazib, mavzuni mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilarga *yoqadi / yoqmaydi* konstruksiyasini eslatuvchi quvnoq chehralar va xomush chehralar (qog‘oz kartochka ko‘rinishida) tarqatiladi. Quvnoq chehrali kartochkani qabul qilib olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘ziga yoqqan holat


yoki vaziyatni, xomush chehrali kartochka egasi esa aksincha, bugungi darsda unga yoqmagan holat yoki vaziyatni kartochkaning orqa tomoniga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari talab etiladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari xohlagan shakl va dizaynda varrak yasab kelishlari lozim.

54-DARS. YASHIL BINOLAR (KELAJAK UYLARI)

Maqsad: egalik qo‘shimchasi bo‘yicha mavjud bilimlarni mustahkamlash, ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish; zamonaviy texnologiya vositalarini o‘zbek tilida ifodalash va ularni bevosita nutq jarayonida qo‘llash bo‘yicha malakalarni hosil qilish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari xohlagan shakl va dizaynda varrak yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



96

6. O‘ylang va toping. Yozing.

tomosha qilishmoqchi, bo‘lmoqchimiz, ~~yasamoqchilar~~, yordam bermoqchiman

Namuna *1. Dadam dam olish kuni robot yasamoqchilar.*

Mening dadam – muhandis. Dadam dam olish kuni robot _____. U robot ko‘chaga tashlangan chiqindilarni tozalashga dasturlanar ekan. Men ham dadamga uni yasashga _____. Bugun do‘stlarimga robot yasamoqchi ekanimizni aytdim. Ular robot qanday yasalishiga juda qiziqib qolishdi. Tayyor bo‘lgandan keyin ular ham biznikiga kelib uni _____. Singlim Ra’no ham robotlarga juda qiziqadi. Biz ham dadam kabi muhandis _____.

Mustaqil topshiriq

Varrak yasang.

YASHIL BINOLAR

1. O‘qing.

Salom, Agata!

Salom, Zembi! Ahvollaring yaxshimi?

Zembi: Yaxshi, Agata. Ta’til kunlari qanday o‘tyapti?
Agata: O, juda ham zo‘r. Biz ta’til kunlarida oilaviy dam olish uchun Yaponiyaning Tokio shahriga keldik. Bu yerlar juda ham chiroyli ekan.
Zembi: Nima, rostdan ham Tokiodamisan? (*hayratlanadi*) Orqangda turgan yam-yashil tabiatni ko‘rib, Yangi Zelandiya yoki Avstraliyadasan deb o‘ylagandim.
Agata: Yo‘q, Zembi, bu Tokiodagi yashil binolardan biri. Hozir men 30-qavatdaman va ko‘rib turganingdek, yonimda turli daraxtlar va gullar yashnab turibdi.
Zembi: Shunaqasi ham bo‘larkanmi? Ko‘p qavatli binolarda shunday daraxt va gullarni o‘stirish mumkinmi? Qoyil!
Agata: Ha, Zembi, mumkin. Bu juda foydali ekan. Daraxt va o‘simliklar havodagi zararli gazlarni yutib, o‘rniga toza kislorod ishlab chiqaradi va biz o‘sha kisloroddan nafas olamiz. Qolaversa, bu shahar ko‘rinishiga chiroy bag‘ishlab turadi.
Zembi: Ha, haqiqatan ham ajoyib! Demak, endi odamlar ko‘p qavatli uylarda yashasalar-da, o‘z bog‘lariga ega bo‘lishlari mumkin. Oh, qanday maza! Men ham xuddi shunday yashil uyim bo‘lishini xohlayman.



97

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Yashil binolar deganda nimani tushunasiz?
2. Agata dam olish uchun qaysi davlatga bordi?
3. Yashil binolarning ahamiyati nimada?
4. Siz yashaydigan joyda ham yashil binolar bormi?
5. Agar siz yashil binoda yashasangiz, qanday o‘simliklar va daraxtlar ekkan bo‘lar edingiz?

3. O‘ylang va toping. Yozing.


Namuna *1. Agata ta’tilda Yaponiya davlatiga bordi.*

30

4. Tinglang.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqdagi Agata va Zembining o‘zaro suhbat-dialogini yo ketma-ketlik asosida, yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring. O‘quvchilarning talaffuziga e’tibor qarating.



98

5. O‘ylang va toping. Gapiring. Yozing.

Namuna *1-B. 2-…*

A. Daraxtlar va o‘simliklarni binolar ichida uyg‘unlashtirish g‘oyasi ham paydo bo‘ldi. Bu g‘oya muallifi avstraliyalik dizayner Fridensrayx Hundertvasser edi. U yirik daraxtlarni o‘z ichiga olgan turarjoy binosi va mehmonxonalarni loyihalashtirgan. Dizayner bu ishlarni 1980–1990-yillari amalga oshirgan.

B. Daraxtlar qurshovida qurilgan binolar aslida yangilik emas. Bobilning afsonaviy osma bog‘lari daraxtlar, butalar va ekzotik gullar bilan tasavvur qilingan.

C. Hozirda yashil binolar dunyoning barcha mamlakatlarida qurilmoqda. Ularni Yaponiya, Xitoy, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniyada ko‘plab uchratish mumkin.

D. 1975-yilda qurib bitkazilgan bino ilk yashil bino edi. U o‘t bilan qoplangan tom bo‘lib, Buyuk Britaniyada Norman Foster tomonidan loyihalashtirilgan.

E. Yashil arxitekturaga yondashish 1970-yillarda boshlangan. Energiya inqirozi va insoniyatning atrof-muhitga ta’siri muhandislarni jiddiy o‘ylashga undagan.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Davron kelajakda yashil binolarni loyihalashtiruvchi arxitektor bo‘lmoqchi.*

Davron kelajakda yashil binolarni loyihalashtiruvchi arxitektor	ekmoqchisiz
Nodira orzusidagi yashil uyga _____ .	ko‘chib o‘tmoqchi
Biz dam olish kuni shahar bo‘ylab _____ .	sayohat qilmoqchimiz
Siz bog‘ingizga qanday gullar _____?	tayyorlamoqchiman
Bog‘imizdagi daraxt barglaridan gerbariy _____.	bo‘lmoqchi

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Bu rasmlar ularga nimani eslatayotganini so‘rang (1-topshiriq asosida) va ushbu rasmlar haqidagi ma’lumotlarni avval og‘zaki, so‘ng yozma ravishda bajarishlarini so‘rang. Namuna:

Yaponiya bayrog‘i rasmi. Agata ta’tilda Yaponiya davlatiga bordi.

4. Berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

54-audiomaterial matn

Qulay, sog‘lom muhitni yaratishga intilib, arxitektorlar, muhandislar yashil binolarni yaratmoqdalar.

Daraxtlar qurshovida qurilgan binolar aslida yangilik emas. Bobilning afsonaviy osma bog‘lari daraxtlar, butalar va ekzotik gullar bilan tasavvur qilingan.

Yashil arxitekturaga yondashish 1970-yillarda boshlangan. Energiya inqirozi va insoniyatning atrof-muhitga ta’siri muhandislarni jiddiy o‘ylab ko‘rishga undagan.

Shunday qiib, me’morlar va muhandislar o‘z loyihalariga yashil tomlar va energiya tejash choralarini qo‘shishni boshladilar.

1975-yilda qurib bitkazilgan bino ilk yashil bino edi. U Buyuk Britaniyada Norman Foster tomonidan loyihalashtirilgan. U o‘t bilan qoplangan tom bo‘lgan. Bu tom firma xodimlariga ajratilgan joy edi.

Daraxtlar va o‘simliklarni binolar ichida uyg‘unlashtirish g‘oyasi ham paydo bo‘ldi. Bu g‘oya muallifi avtraliyalik dizayner Fridensrayx Hundertvasser edi. U yirik daraxtlarni o‘z ichiga olgan turarjoy binosi va mehmonxonalarni loyihalashtirgan. Dizayner bu ishlarni 1980–1990-yillarda amalga oshirgan.

Hundertvasser daraxtlar insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza oladi, deb hisoblagan.

Hozirda yashil binolar dunyoning barcha mamlakatlarida qurilmoqda. Ularni Yaponiya, Xitoy, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniyada ko‘plab uchratish mumkin.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglagan audiomaterialning qismlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda topishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. *Javoblar: 1) B, 2) F, 3) E, 4) A, 5-D.*

6. Navbatdagi topshiriq kelasi zamon maqsad fe’li asosidagi grammatik topshiriq bo‘lib, o‘quvchilar berilgan kalit so‘zlardan mosini tanlab yozishlari kerak bo‘ladi. Namuna:

Davron kelajakda yashil binolarni loyihalashtiruvchi arxitektor ***bo‘lmoqchi.***

7. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, xonadonlarida o‘sadigan daraxt va gullar nomini yozib kelishlari lozim.

55-DARS. 3D PRINTER

Maqsad: zamonaviy innovatsion texnologiyalar, xususan, 3D printerlar, ularning yaratilish tarixi, ishlash prinsipi, afzalliklari va ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.


Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan xonadonlarida o‘sadigan daraxt va gullar nomini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan Alisher va Maksning o‘zaro suhbat-dialogini o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida yoki rollar-

ga bo‘lingan holda o‘qittiring, tushunchalarini so‘rang. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning talaffuziga ahamiyat bering.

3. Navbatdagi topshiriqdagi rasmlarni o‘quvchilarga tanishtiring. Ular 3D printerdan chiqayotgan buyumlar rasmi ekani haqida ayting. Tinglash uchun berilgan audiomatnni o‘quvchilarga ikki marotaba eshittiring yoki o‘zingiz o‘qib bering.



99

3D PRINTER

1. O‘qing. Gapiring.

– Salom, Alisher! Nima bilan shug‘ullanyapsan?
– Salom, Maks! Ertaga bo‘ladigan dars uchun tayyorlagan loyihamni printerdan chiqaryapman. Maks, 3D printer haqida eshitganmisan?
– Ha, eshitgan edim. Lekin u qanday vazifa bajarishini bilmayman. Matn va rasmlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa kerak-a u ham? Oddiy printerlardan farqi nimada?

2. Tinglang.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	AQSHda uzunligi 150 metr bo‘lgan 3D printer yaratilgan.		
2	3D printerlar orqali binolar, mashina va hatto oziq-ovqat mahsulotlarini ham “bosib chiqarish” mumkin.		
3	Bu printer taqinchoq, esdalik buyumlari yasash, uy qurish vazifasini ham bajaradi.		
4	Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, O‘zbekiston 3D printer bo‘yicha amaliy natijalarga erishgan.		
5	3D printerlardan faqat matn va rasmlar chiqarishda foydalaniladi.		
6	3D printerlar faqat plastmassa va qog‘oz buyumlarni ishlab chiqara oladi.		

55-audiomaterial matn

O’zimizga kerak bo‘lgan yoki xayolimizda tasavvur qilgan narsalarni ba’zida qayerdan topish, sotib olish mumkinligini bilmay qolamiz. Bunday paytlarda bizga 3D printerlar yordamga keladi. 3D printerlar bizga kompyuterimizga reja kiritish orqali deyarli har qanday buyumni ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan aqlli qurilmadir.

Bunday qurilma orqali biz turli buyumlar, masalan, yelim idishlar, uyimizni bezatish uchun chiroyli bezaklar, dekorativ idishlar, guldonlar, haykalchalar, turli taqinchoqlar, aksessuarlar, laboratoriya ko‘zoynaklari va shu kabi ko‘plab buyumlarni o‘zimiz xohlagan ko‘rinishda yasash imkonini beradi.

3D printerlarning oddiy printerlardan farqi unda 3 o‘lchamli obyektlarni bosish imkoniyatining mavjudligidir. Ushbu soha Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya kabi davlatlarda ayniqsa taraqqiy etgan. Yaqinda Xitoyda uzunligi 150 metr, kengligi 10 metr bo‘lgan 3D printer yaratildi. Ushbu qurilma bir necha soat ichida balandligi 6 metr bo‘lgan binoni “barpo qilishi” mumkin. Ushbu soha mamlakatimizda ham taraqqiy etib bormoqda.


Yurtdoshimiz Jonibek Tojiyevning 3D printeri orqali o‘zi harakatlana oladigan robot yaratgani ham bunga dalil bo‘la oladi.

Bugungi kunda 3D printerlar nafaqat metall, plastmassa, balki qog‘oz, keramika, oziq-ovqat va hatto tirik hujayralarni ham bosib chiqarish imkoniyatiga ega. 3D printer tomonidan bosib chiqarilgan uy, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari va hatto, odam organlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

4. 3-topshiriqda yuqoridagi audiomatn asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari bo‘yicha

ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

AQSHda uzunligi 150 metr bo‘lgan 3D printer yaratilgan. Noto‘g‘ri. Izoh: Xitoyda uzunligi 150 metr bo‘lgan 3D printer yaratilgan, AQSHda emas.



100

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Tasavvur qiling, sizning ham 3D printeringiz bor.

Loyihaning nomi	Loyihaning maqsadi	Loyihaning foydasi	Loyihaning mahsuloti	Loyiha muallifi
Bezakli zanjir (jevak)	Odamlarga yordam berish, qo‘shimcha mablag‘ topish	Kalitlar yo‘qolib qolishining oldini oladi	Kalit uchun bezakli zanjir	Tixon Nazarov (10 yosh)

Mustaqil topshiriq

4-topshiriq asosidagi loyihangiz mahsulotining rasmini chizib keling.

“KINDL KITOB”

1. O‘qing.

– Salom, Zembi! Nima qilyapsan?
– Salom, Maks! Oilamiz bilan tez-tez sayohatga chiqishimizni bilsang kerak. Navbatdagi sayohatga tayyorgarlik ko‘ryapman.
– Qanday yaxshi!
– Bir muammo bor. Qaysi kitobimni o‘zim bilan olib ketsam ekan-a? Tanlashni bilmayapman. Hammasini olib ketishning iloji yo‘q.
– Shu ham muammomi? Sen hammasini olib keta olasan. Hatto u yo‘l jomadoningning hech qancha joyini egallamaydi.
– Qanaqasiga? Buning iloji bormi?
– Albatta, iloji bor. Buning uchun sen “Kindl kitob” gadjetini sotib olsang bas.
– U qanday gadjet?

4. Navbatdagi jadvaldan foydalanib “Tasavvur qiling, sizning ham 3D printeringiz bor. Unda qanday buyumlarni chiqargan bo‘lardingiz?” savoliga javob yozdiring. Jadvalda loyiha nomi, maqsadi, foydasi, qachon foydalanilishi va muallifi (ya’ni o‘quvchining o‘zi)ni namunadagidek yozilishi kerak. Namuna:

Loyihaning nomi	Loyihaning maqsadi	Loyihaning foydasi	Loyihaning mahsuloti	Loyiha muallifi
Bezakli zanjir (jevak)	Odamlarga yordam berish, qo‘shimcha mablag‘ topish	Kalitlar yo‘qolib qolishining oldini oladi	Kalit uchun bezakli zanjir	Tixon Nazarov 10 yosh


6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir birlariga mikrofon (mikrofonning qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h. k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, 4-topshiriq asosida o‘z loyihalari mahsulotining rasmini chizib kelishlari lozim.

56-DARS. “KINDL KITOB”

Maqsad: fe’llarning zamon kategoriyasi yuzasidan mavjud bilimlarni yana bir takrorlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; “kindl kitob” to‘g‘risida ma’lumotlar berish va zamonaviy texnologiya vositalari haqidagi tushunchalarini yanada kengaytirish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



100

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Tasavvur qiling, sizning ham 3D printeringiz bor.

Loyihaning nomi	Loyihaning maqsadi	Loyihaning foydasi	Loyihaning mahsuloti	Loyiha muallifi
Bezakli zanjir (jevak)	Odamlarga yordam berish, qo‘shimcha mablag‘ topish	Kalitlar yo‘qolib qolishining oldini oladi	Kalit uchun bezakli zanjir	Tixon Nazarov (10 yosh)

Mustaqil topshiriq


4-topshiriq asosidagi loyihangiz mahsulotining rasmini chizib keling.

“KINDL KITOB”

1. O‘qing.

– Salom, Zembi! Nima qilyapsan?
– Salom, Maks! Oilamiz bilan tez-tez sayohatga chiqishimizni bilsang kerak. Navbatdagi sayohatga tayyorgarlik ko‘ryapman.
– Qanday yaxshi!
– Bir muammo bor. Qaysi kitobimni o‘zim bilan olib ketsam ekan-a? Tanlashni bilmayapman. Hammasini olib ketishning iloji yo‘q.
– Shu ham muammomi? Sen hammasini olib keta olasan. Hatto u yo‘l jomadonining hech qancha joyini egallamaydi.
– Qanaqasiga? Buning iloji bormi?
– Albatta, iloji bor. Buning uchun sen “Kindl kitob” gadjetini sotib olsang bas.
– U qanday gadjet?

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan 4-topshiriq asosida o‘z loyihalari mahsulotining rasmini chizib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



101

2. Tinglang.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Qog‘oz kitob

Elektron kitob

4. Savollarga javob bering.

1. Sizga kitob o‘qish yoqadimi?
2. Sizga qanday kitoblar yoqadi? O‘qigan kitobingiz haqida gapirib bering.
3. Yaqin kunlarda qaysi kitobni o‘qimoqchisiz?
4. Chet tilidagi kitoblarni ham o‘qiganmisiz?
5. Do‘stlaringizga ham o‘zingiz o‘qigan kitoblardan 3 tasini tavsiya qiling.

BU QIZIQ

Bill Geyts juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o‘qir ekan. Hozir dunyoning eng boy odami – Jeff Bezos “Amazon” korxonasi ishini kitob sotishdan boshlagan va hozirgacha ertalablari kitob o‘qish odatini tashlamagan. “Tesla” va “SpaceX” loyihalari bilan tanilgan Ilon Mask esa kuniga 2 ta kitob o‘qigan.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqdagi Zembi va Maks suhbatini o‘quvchilarga galma-galdan o‘qittiring. O‘qish jarayonida ularning talaffuziga ahamiyat bering.

2. Navbatdagi topshiriqda audiomatn tinglanadi. Audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring. Kitobdagi “Kindl kitob” rasmiga o‘quvchilarning diqqatini qarating.

56-audiomaterial matn

“Amazon” kompaniyasi tomonidan chiqarilgan “kindl kitob” haqida eshitganmisiz? “Kindl kitob” – kitob o‘qish uchun mo‘ljallangan gadjet. Ushbu gadjet orqali istagan kitobingizni yuklab olishingiz va elektron tarzda o‘qishingiz mumkin. Uning oddiy smartfonlardan farqi nimada deyapsizmi? Farqi shundaki, bu qurilma orqali kitob o‘qishni ko‘zingizga hech qanday zarari yo‘q. Undan ko‘chada, ishda – istalgan joyda bemalol foydalanasiz. Siz sevgan o‘nlab kitoblaringiz birgina qurilmada jamlangani bilan juda qulay.


“Kindlda” sizning kitoblaringiz slayd shaklida turadi. Kerakli kitobni bossangiz, u ochiladi. Endi uni bemalol o‘qishingiz mumkin. Har doim oxirgi marta to‘xtagan joyidan o‘qishni davom ettirishingiz mumkin. Unda shrift hajmini, fon rangini o‘zgartirish imkoniyati ham mavjud.

3. 3-topshiriq yozma bajariladi. Bunda o‘quvchilar qog‘oz kitob va elektron kitoblarning foydali tomonlari va zararli yoki noqulay jihatlarini yozishlari kerak. Namuna:

Elektron kitob: ko‘tarib yurish qulay (+), quvvati tugasa o‘qib bo‘lmaydi (-); Qog‘oz kitob: o‘qish qulay (+), og‘ir (-).

4. 4-topshiriqda berilgan savollar navbat bilan o‘qiladi. Ixtiyoriy o‘quvchidan javoblar so‘raladi va to‘ldiriladi.

5. **“**Bu qiziq!” qismidagi faktlarni o‘qib bering. Yoki biror o‘quvchidan ifodali qilib o‘qib berishini so‘rang. O‘quvchilar matndagi shaxslar haqida qanday ma’lumotlar bilishlarini so‘rang va qo‘shimcha ma’lumot bering.



102

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Bill Geyts juda bandiligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o‘qiydi.*

1. Bill Geyts juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o‘qigan.
2. Ilon Mask bolaligida kuniga 2 ta kitob o‘qigan.
3. “Kindl kitob” qurilmasi orqali istagan kitobingizni yuklab olishingiz va elektron tarzda o‘qishingiz mumkin.
4. Ko‘p kitob o‘qiydigan insonlar hayotda faol bo‘ladilar.
5. “Amazon” kompaniyasiga 1994-yilda Jeff Bezos tomonidan asos solingan.
6. “Kindl kitob”lar to‘liq quvvatlanganda bir hafta davomida ishlay oladi.

Mustaqil topshiriq

O‘qigan ertak, hikoya, asarlaringiz nomini yozing.
Ota-onangizning eng sevib o‘qigan kitoblari nomini yozib keling.

GLOBUS

1. Tinglang. Gapiring.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda erta yetim qolgan.*

-gan

1. Ulug‘ alloma ___ ota-onasidan juda erta yetim qoladi.
2. Bo‘lajak olim ____, matematika, ____, geografiya, ____ va mineralogiya kabi fanlarni chuqur o‘zlashtiradi.
3. Aristotel, ____, Yevklid, ____, al-Farg‘oniy kabi buyuk olimlarning asarlarini o‘rganadi.
4. U Markaziy Osiyoda ilk bor ____ni ixtiro qilgan.
5. Olimning “Geodeziya”, “____”, “Mineralogiya”, “____”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi ilmiy asarlari mashhur.

6. Navbatdagi 5-topshiriq grammatik topshiriq bo‘lib, berilgan gaplarning qaysi zamonda ekanini topishlari kerak bo‘ladi. Bu topshiriq yozma bajariladi. Bunda berilgan gaplarni har birining ostidan zamon ko‘rsatkichini ifodalagan shakl chiziladi va tegishli zamon ko‘rsatkichi doirachasi bo‘yaladi. Namuna:

1. Bill Geyts juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob ***o‘qiydi.*** *(hozirgi-kelasi zamon)*

2. Ilon Mask bolaligida kuniga 2 ta kitob ***o‘qigan.*** *(o‘tgan zamon)*


8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ish-

lang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ngra uni o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘qigan asarlari nomini yoki ota-onalarining eng sevib o‘qigan kitoblari nomini yozib kelishlari lozim.

57-DARS. GLOBUS


102

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Bill Geyts juda bandiligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o‘qiydi.*

1. Bill Geyts juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o‘qigan.
2. Ilon Mask bolaligida kuniga 2 ta kitob o‘qigan.
3. “Kindl kitob” qurilmasi orqali istagan kitobingizni yuklab olishingiz va elektron tarzda o‘qishingiz mumkin.
4. Ko‘p kitob o‘qiydigan insonlar hayotda faol bo‘ladilar.
5. “Amazon” kompaniyasiga 1994-yilda Jeff Bezos tomonidan asos solingan.
6. “Kindl kitob”lar to‘liq quvvatlanganda bir hafta davomida ishlay oladi.

Mustaqil topshiriq

O‘qigan ertak, hikoya, asarlaringiz nomini yozing.
Ota-onangizning eng sevib o‘qigan kitoblari nomini yozib keling.

GLOBUS

1. Tinglang. Gapiring.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda erta yetim qolgan.*

-gan

1. Ulug‘ alloma ____ ota-onasidan juda erta yetim qoladi.
2. Bo‘lajak olim ____, matematika, ____, geografiya, ____ va mineralogiya kabi fanlarni chuqur o‘zlashtiradi.
3. Aristotel, ____, Yevklid, ____, al-Farg‘oniy kabi buyuk olimlarning asarlarini o‘rganadi.
4. U Markaziy Osiyoda ilk bor ____ni ixtiro qilgan.
5. Olimning “Geodeziya”, “____”, “Mineralogiya”, “____”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi ilmiy asarlari mashhur.

Maqsad: buyuk qomusiy olim ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy, uning ilmiy merosi, jahon ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi haqida, shuningdek, globusning yaratilish tarixi haqida ma’lumotlar berish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; fe’lning o‘tgan zamon sifatdosh shakli *(-gan)* haqida ma’lumot berish, uning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash, mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida

berilgan o‘qigan asarlari nomini yoki ota-onalarining eng sevib o‘qigan kitoblari nomini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:


1. 1-topshiriqda tinglash uchun berilgan audiomatn ikki marotaba eshittiriladi yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi. Matnni tinglab bo‘lgach, eshitgan ma’lumotlarni gapirib berishlari so‘raladi.

57-audiomaterial matn

Ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda erta yetim qoladi. U yoshligidan o‘ta zehnli, tirishqoq bola bo‘lib, kitob o‘qishni sevar, ilm-fanga juda qiziqardi. Bo‘lajak olim astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya, tarix va mineralogiya kabi fanlarni chuqur o‘zlashtiradi. Aristotel, Platon, Yevklid, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy kabi buyuk olimlarning asarlarini o‘rganadi.

Beruniy birinchilardan bo‘lib Oy tutilishini kuzatgan va buni ilmiy asoslab bergan. U Markaziy Osiyoda ilk bor Yer shari maketi – globusni ixtiro qilgan.

Olimning “Geodeziya”, “Astronomiya”, “Mineralogiya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi ko‘plab ilmiy asarlari juda mashhur. Dunyo ilm-fani hozirgacha bu asarlardan muhim manba sifatida foydalanib keladi.



2. Navbatdagi 2-topshiriq audiomatnni tushunishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglagan matnlari asosida chiziqlar o‘rnini to‘ldirib, namunadagidek yozishlari kerak bo‘ladi. Namuna:


Ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda erta yetim qoladi.

3. 3-topshiriq globuslar tarixi haqida ma’lumot beruvchi, o‘qib tushunish malakasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqdir. Bunda o‘quvchilar matnni rollarga bo‘lib o‘qiydilar. So‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishiga ahamiyat berish kerak.

4. Navbatdagi 4-topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar o‘qigan ma’lumotla-

rini bir-biriga moslashlari kerak bo‘ladi. Namuna:

Birinchi globusni yunonistonlik Krates yasagan.


104

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna *1. Birinchi globusni yunonistonlik Krates yasagan.*

Birinchi globusni	Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan
Sharqda ilk globusni	Karp Maksimov tomonidan yasalgan
XIII asrda	ulkan globus – “Eartha” yaratilgan
Rossiyada birinchi globuslardan biri	Abu Rayhon Beruniy 1016-yilda yasagan
Amerikaning “DeLorme” kompaniyasi tomonidan	Misrda ham globus ishlangan
Ulkan globus “Eartha”	yunonistonlik Krates yasagan

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Amerikada **yasalgan** globus kattaligi bilan juda mashhurdir.*

uzilgan | chizilgan | oqlangan | sovg‘a qilingan | ekilgan | yasalgan

1. Amerikada ____ globus kattaligi bilan juda mashhurdir.
2. ____ kitoblarni bolalar qiziqib o‘qishdi.
3. Men ____ daraxtlarning tagini yumshatdim.
4. Yangi ____ atirgullar g‘uncha ochdi.
5. O‘quvchilar tomonidan ____ xaritalar sinf devoriga osib qo‘yildi.
6. Onam yangi ____ mevalardan sharbat tayyorladilar.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

– ining ch tirilgan li.

Mustaqil topshiriq

“Globus” she’rini yod oling.

5. **“**Diqqat qiling!” qismida o‘quvchilarga fe’lning xoslangan shakllaridan biri bo‘lgan sifatdoshning o‘tgan zamon shakli *-gan* haqida ma’lumot beriladi. O‘tgan zamon sifatdoshidan keyin egalik, ko‘plik, kelishik shakllarini qo‘llash o‘rgatiladi.

6. 5-topshiriq grammatikaga qaratilgan bo‘lib, berilgan gaplarga mos kalit so‘zlarni qo‘yib yozish kerak. Namuna:

Amerikada yasalgan globus kattaligi bilan juda mashhurdir.

7. Rebus. 6-topshiriqda rasmlar ortiga yashiringan so‘zlarni to‘g‘ri qo‘yib, gap hosil qilinishi kerak. Buning uchun rasmlar va rasmlar oldidagi belgiga e’tibor berish kerak. Agar ,, belgisi bo‘lsa, rasmdagi so‘zdan 2 ta harf olinadi. Agar ,,, belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, 3 ta harf olinadi. Hech qanday belgi yo‘q bo‘lsa, so‘z to‘liq holida olinadi. Demak*:*

***Globus** – **Yer shar**+**ining** **ki**(,,*kitob*)+**ch**+**ray**(,,,*rayhon*)+**tirilgan** **shak**(,,,*shakar*)+**li**.*

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Sevimli ertagimdan” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan ertaklarini yodga oladilar va ulardan *kim, nima, qanday, qayerda* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarga bittadan misol topib, daftarlariga yozadilar hamda ularni o‘qib eshittiradilar. Masalan, “Sholg‘om bobo” ertagi misolida oladigan bo‘lsak:

Kim?	Nima?	Qanday?	Qayerda?
Chol	Sichqon	katta (sholg‘om)	Polizda

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, globus maketini yasashlari hamda unda yer yuzidagi eng qadimiy va mashhur globuslar yasalgan shahar va davlatlarni belgilab kelishlari lozim.

58-DARS. ALISHER NAVOIY

Maqsad: texnika va qurilmalardan foydalanish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish; texnikaga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha malakalarni shakllantirish; fe’lning o‘tgan zamon sifatdosh shakli *(-gan)* haqida ma’lumot berish; uning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash.



105

ALISHER NAVOIY

1. O‘qing.

– Zumrad, kecha Navoiyning “Xamsa”sini o‘qigan edim.
– Xo‘sh, qanday taassurotlar olding?
– Bilasanmi, asarni o‘qib hayratim oshdi. Unda bugungi kun liftlari, eskalatorlari, robotlar haqida ham yozilgan ekan.
– Nahotki?! Eskalator haqida nimalar yozilgan ekan?
– Shoh taxtga chiqadigan bo‘lsa, pillapoyalar uning qadam qo‘yishi uchun pasayib, bir-birining ustiga yotadi. Shoh shu sakkiz poyaning hammasini bosib o‘tib, o‘z taxtiga o‘tirgach, u zinalar yana baland ko‘tariladi.
– Ajabo! Meni ham qiziqtirib qo‘yding.

2. Savollarga javob bering. -gan

1. Alisher Navoiy haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Navoiy asarlarida qaysi zamonaviy texnikalarning muqobillari haqida farazlar bor?
3. Eskalator nima?
4. Lift va eskalatorning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.

3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Eskalatorlardan biz savdo majmualari, metro bekatlarida foydalanamiz.*

1. Eskalatorlardan biz ____ , ____larida foydalanamiz.
2. ____ ixtiro qilgan eskalator ommalashmagan.
3. 1892-yili Jessi Reno ____ .
4. “Eskalator” degan nomni ____ taklif qilgan.
5. Eskalator ____ degan ma’noni bildiradi.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan globus maketini yasashlari hamda unda yer yuzidagi eng qadimiy va mashhur globuslar yasalgan shahar va davlatlarni belgilab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. 1-topshiriqda berilgan dialog matnini ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan dialoglari asosida berilgan savollarga og‘zaki ravishda javob berishlari lozim.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

58-audiomaterial matni

Savdo majmualari hamda turli xil metro bekatlarida yurganimizda eskalator, ya’ni o‘ziyurar zinapoyalardan foydalanamiz. Aslida, eskalator juda qimmat, lekin shu bilan birga oddiy mashina hisoblanadi.

Natan Ames 1859-yilda birinchi “eskalator”, ya’ni “aylanma zinapoyalar” g‘oyasi bilan chiqdi. Lekin u ommalashmadi.

Nihoyat, 30 yil o‘tgach,1892-yilda Jessi Reno “to‘xtovsiz konveyer” g‘oyasi uchun o‘z patentiga ega bo‘ldi. U, shuningdek, birinchi eskalatorni ishlab chiqdi – uni “qayishuvchan lift” deb nomladi.

Charlz Siberger ismli shaxs eskalatorning takomillashgan ko‘rinishi uchun patent olgan. U 1900-yilda mashinaga “eskalator” degan nomni taklif qilgan. Eskalator “olib o‘tib qo‘yish vositasi” degan ma’noni bildiradi.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari asosida kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

1. Eskalatorlardan biz ***savdo majmualari, metro bekatlarida*** *foydalanamiz.*


2. ***Natan Ames*** *ixtiro qilgan eskalator ommalashmagan.*

5. 5-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmda nima tasvirlangani, rasmning mazmun-mohiyati haqida o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob tashkil qiling. Rasmga qarab o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilib bera olishlariga, rasmdagi tasvirlarni izohlay olishlariga diqqat qiling. Talaffuz va nutqiy kamchiliklar ustida ishlang.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi qavs ichida berilgan noaniq shakldagi fe’llarni o‘tgan zamon sifatdoshiga aylantirgan holda gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

1. Alisher ***o‘qigan*** *kitobda eskalator haqida farazlar bor. 2. Taqdimotda* ***qatnashgan*** *ishtirokchilarga yangi g‘oya yoqdi.*

Bunda o‘quvchilardan gaplarni avval og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda to‘ldirishlarini so‘rashingiz maqsadga muvofiq.


106

5. O'ylang va toping. Gapiring.

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Alisher o'qigan kitobda eskalator haqida farazlar bor.*

1. Alisher (*o'qimoq*) kitobda eskalator haqida farazlar bor.
2. Taqdimotda (*qatnashmoq*) ishtirokchilarga yangi g'oya yoqdi.
3. Musobaqada (*yutmoq*) bola – mening do'stim.
4. Tongda (*termoq*) gullarimni ustozimizga sovg'a qildim.
5. U (*qizarmoq*) olmalardan singlisiga uzib berdi.

Mustaqil topshiriq

Siz qayerlarda eskalatordan foydalanishingizni va u bilan bo'lgan qiziqarli voqeani yozib keling.

OBSERVATORIYA

1. O'qing.

Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon 1394-yilda tug'ilgan. U Amir Temurning sevimli nabiralaridan biri bo'lgan.

Yosh Ulug'bek Marog'a shahriga borganida Marog'a rasadxona observatoriyasini **ko'radi**. U o'z davrining eng yirik astronomik rasadxonasi hisoblangan. Bu rasadxona XIV asrning o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan. Marog'a rasadxonasida 400 mingga yaqin qo'lyozmalar mavjud bo'lgan, 100 dan ortiq astronomlar ishlagan.

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifati-


da *eskalator* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *ESKALATOR* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *E, S, K, A, L, A, T, O, R* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, uni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, qayerlarda eskalatordan foydalanishlarini va u bilan bo‘lgan qiziqarli voqeani yozib kelishlari lozim.

59-DARS. OBSERVATORIYA

Maqsad: buyuk qomusiy olim, astronom, ma’rifatparvar podshoh, ajdodimiz Mirzo Ulug‘bek, uning ilmiy merosi, jahon ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi haqida, shuningdek, Ulug‘bek rasadxonasi va dunyodagi bir nechta rasadxonalar, ularning tarixi, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; fe’llarning o‘tgan zamon sifatdosh shakli *(-gan)*, uning yasalishi, imlosi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan qayerlarda eskalatordan foydalanishlarini va u bilan bo‘lgan qiziqarli voqeani yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



106

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Alisher o‘qigan kitobda eskalator haqida farazlar bor.*

1. Alisher (*o‘qimoq*) kitobda eskalator haqida farazlar bor.
2. Taqdimotda (*qatnashmoq*) ishtirokchilarga yangi g‘oya yoqdi.
3. Musobaqada (*yutmoq*) bola – mening do‘stim.
4. Tongda (*termoq*) gullarimni ustozimizga sovg‘a qildim.
5. U (*qizarmoq*) olmalardan singlisiga uzib berdi.

Mustaqil topshiriq

Siz qayerlarda eskalatordan foydalanishingizni va u bilan bo‘lgan qiziqarli voqeani yozib keling.

OBSERVATORIYA


1. O‘qing.

Muhammad Tarag‘ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragon 1394-yilda tug‘ilgan. U Amir Temurning sevimli nabiralaridan biri bo‘lgan.

Yosh Ulug‘bek Marog‘a shahriga borganida Marog‘a rasadxona observatoriyasini **ko‘radi**. U o‘z davrining eng yirik astronomik rasadxonasi hisoblangan. Bu rasadxona XIV asrning o‘rtalariga qadar mavjud bo‘lgan. Marog‘a rasadxonasida 400 mingga yaqin qo‘lyozmalar mavjud bo‘lgan, 100 dan ortiq astronomlar ishlagan.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.



107

Aytilishicha, o‘sha paytdan boshlab Ulug‘bek astronomiyaga juda **qiziqib qoladi.**
Mirzo Ulug‘bek 1428–1429-yillarda Samarqand shahrida rasadxona qurdiradi. U ko‘p vaqtini o‘z rasadxonasida **o‘tkazardi.** Mehnatlarining natijasi – “Ziji Ko‘ragoniy” jadvalini tuzadi. Unda astronom 1018 ta yulduzni tasvirlab, ularni 38 ta yulduz turkumiga **ajratdi.** Rasadxona o‘rta asrlarda astronomiya sohasida katta yutuqlarga erishish **imkonini beradi.**

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Mirzo Ulug‘bek kim?
2. Rasadxonada qanday ishlar bajariladi?
3. Siz yulduzlarni tomosha qilganmisiz?
4. Yulduzlar sonini bilasizmi?
5. Sayyoralarning nomini yozing.

3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Maydanak baland tog‘ observatoriyasi 1970-yilda qurilgan.*

Maydanak *baland tog‘ observatoriyasi*	quyosh soati hisoblanadi
Jantar Mantar 1727–1734-yillarda	Hindistonda qurilgan
Marog‘a rasadxonasi	1970-yilda qurilgan
Jantar Mantar dunyodagi eng katta	Eron shahrida qurilgan
Hindistonda qurilgan beshta rasadxonaning eng kattasi	Jantar Mantar rasadxonasidir

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi rasm va matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling.


3. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

59-audiomaterial matni

1. Jantar Mantar – 1727–1734-yillarda qurilgan rasadxona. Bu Hindistonda qurilgan beshta rasadxonaning eng kattasi va eng yaxshi saqlanib qolgani. O‘lchov asboblari ulkan o‘lchamlari bilan farqlanadi. Jantar Mantar dunyodagi eng katta quyosh soati hisoblanadi. Uning diametri 27 metr.

2. Maydanak baland tog‘ observatoriyasi 1970-yilda qurilgan. U Maydanak platosining g‘arbiy qismida, Shahrisabzdan 45 km janubda joylashgan. 1990-yillardan buyon rasadxona O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya instituti tasarrufida.

3. Marog‘a rasadxonasi Eronning Marog‘a shahridagi tepalikda qurilgan. Bu rasadxona XIII asrning ikkinchi yarmida dengiz sathidan 1600 metr balandlikda bunyod etilgan.



108

5. O‘ylang va toping. Yozing.

sotib olingan | pishirilgan | tayyorlangan | quritilgan | tug‘ilgan | chizgan | tayyorlangan

Namuna *1. Yaqinda sotib olingan yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.*

1. Yaqinda ___ ___ yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.
2. Buvim: “O‘choqda ___ ovqat boshqacha mazali bo‘ladi”, – deydilar.
3. ___ mevalardan ___ sharbatlar juda ham foydali bo‘lib, muntazam ichib turish tavsiya etiladi.
4. Munisaga akasi yangi ___ mushukcha sovg‘a qildi.
5. Usta rassom ___ rasmlar shunday chiroyliki, soatlab tomosha qilging keladi.
6. Bugun maktabimizda keraksiz buyumlardan ___ turli o‘yinchoqlar va jihozlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

Mustaqil topshiriq

Dunyoda eng mashhur observatoriyalar haqida ma’lumotlar to‘plab keling. Teleskop rasmini chizing va maketini yasang.

ALGORITM

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

783-850 | arab | fors | hind | yunon | arifmetikani o‘rgatgan | yaratgan | Yevropada | 20 dan

Namuna *1. Muhammad al-Xorazmiy 783–850-yillarda yashagan.*

1. Muhammad al-Xorazmiy ___ yillarda yashagan.
2. Olim ___ , ___, ___ va ___ tillarini ham o‘rgangan.
3. Buyuk olim ___ ziyod ilmiy asarlar ___ .
4. Xorazmiy butun dunyoga ___ ___ inson bo‘lib tarixda qoldi.
5. Arifmetika XII asrdan boshlab ___ ham ommalashdi.

4. 4-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan gap qismlarini namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro bir birlariga to‘g‘ri moslab yozishlari lozim. Namuna:

Maydanak baland tog‘ observatoriyasi 1970-yilda qurilgan;

Jantar Mantar 1727–1734-yillarda Hindistonda qurilgan.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga o‘tgan zamon sifatdosh qo‘shimchasini olgan kalit so‘zlardan mosini tanlab, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*1. Yaqinda **sotib olingan** yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.*

*2. Buvim: o‘choqda **pishirilgan** ovqat boshqacha mazali bo‘ladi”, – deydilar.*

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini navbatdagi lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskaga esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozadilar va navbatma-navbat dastlab ushbu so‘zlarni o‘qib eshittiradilar, so‘ngra daraxtni mevalar bilan “bezatadilar”.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, dunyodagi eng mashhur observatoriyalar haqida ma’lumotlar to‘plab kelishlari, shuningdek, teleskop rasmini chizishlari va maketini yasashlari lozim.


60-DARS. ALGORITM

Maqsad: buyuk qomusiy olim ajdodimiz Muso al-Xorazmiy, uning ilmiy merosi, jahon ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi haqida, shuningdek, u fanga olib kirgan “algoritm” tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati haqida ma’lumotlar berish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, faktlar bilan ishlash, krossvord yechish texnikasini o‘rgatish, ko‘nikmalar hosil qilish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan dunyodagi eng mashhur observatoriyalar haqida ma’lumotlar to‘plab kelishlari, shuningdek, teleskop rasmini chizishlari va maketini yasab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



108

5. O‘ylang va toping. Yozing.

sotib olingan | pishirilgan | tayyorlangan | quritilgan | tug‘ilgan | chizgan | tayyorlangan

Namuna *1. Yaqinda sotib olingan yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.*

1. Yaqinda ___ ___ yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.
2. Buvim: “O‘choqda ___ ovqat boshqacha mazali bo‘ladi”, – deydilar.
3. ___ mevalardan ___ sharbatlar juda ham foydali bo‘lib, muntazam ichib turish tavsiya etiladi.
4. Munisaga akasi yangi ___ mushukcha sovg‘a qildi.
5. Usta rassom ___ rasmlar shunday chiroyliki, soatlab tomosha qilging keladi.
6. Bugun maktabimizda keraksiz buyumlardan ___ turli o‘yinchoqlar va jihozlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

Mustaqil topshiriq

Dunyoda eng mashhur observatoriyalar haqida ma’lumotlar to‘plab keling. Teleskop rasmini chizing va maketini yasang.

ALGORITM

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

783–850 | arab | fors | hind | yunon | arifmetikani o‘rgatgan | yaratgan | Yevropada | 20 dan

Namuna *1. Muhammad al-Xorazmiy 783–850-yillarda yashagan.*

1. Muhammad al-Xorazmiy ___ yillarda yashagan.
2. Olim ___ , ___, ___ va ___ tillarini ham o‘rgangan.
3. Buyuk olim ___ ziyod ilmiy asarlar ___ .
4. Xorazmiy butun dunyoga ___ ___ inson bo‘lib tarixda qoldi.
5. Arifmetika XII asrdan boshlab ___ ham ommalashdi.


60-audiomaterial matni

Muhammad al-Xorazmiy 783–850-yillarda yashagan. U – matematik, astronom, geograf-olim. Tarixdagi ilk qomusiy olimlardan biri ham bo‘lgan.

Bo‘lajak olim boshlang‘ich ta’limni vatanida olgan. Arab, fors, hind va yunon tillarini qunt bilan o‘rgangan. Al-Xorazmiy fan sifatida algebrani yaratdi va unga shu nomni berdi.

Buyuk olim 20 dan ziyod ilmiy asarlar yaratgan. Xorazmiy o‘nlik sanoq sistemasining ahamiyatini birinchi bo‘lib payqab, uni sodda uslubda bayon qilib bergan. Shu sababdan uning kitobi ham, o‘nlik sanoq sistemasi ham tez orada Sharqiy Turk-

istondan Ispaniyagacha bo‘lgan hududdagi musulmon dunyosiga tarqaladi. XII asrdan boshlab Yevropada ham ommalashdi. Shuning uchun Xorazmiy butun dunyoga arifmetikani o‘rgatgan inson bo‘lib qoldi.



109

3. O‘qing.

Tarixdagi birinchi matematik ayol aleksandriyalik Gipatiya bo‘lgan.

Tenglik belgisi XVI asrda, manfiy sonlar esa faqat XIX asrga kelib ilk marta qo‘llangan. Birdan yuzgacha bo‘lgan jami sonlar yig‘indisi 5050 ga teng.

Lahza nima? Bu bor-yo‘g‘i ibora emas, 0,01 soniyaga teng bo‘lgan vaqt o‘lchov birligi ekan.

Algoritm – berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo‘lgan aniq ko‘rsatmalar ketma-ketligi.

Algoritm hayotimizda juda ko‘p sohalarda ishlatiladi: chorrahada – svetofor, binolarda – lift. Hatto o‘zimiz oddiy hayotiy ishlarda ham algoritm ishlatamiz: masalan, choynakka choy damlash. Algoritmlar kompyuter sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki dasturchi ishlab chiqqan dasturlar ma’lum bir ketma-ketlik bilan ishlaydi.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1. 0,01 soniyaga teng bo‘lgan vaqt o‘lchov birligi.
2. Birinchi matematik ayol kim?
3. Al-Xorazmiy kim? (3, 4, 5, 6)

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi chiziqlar o‘rniga yuqoridagi audiomatnda tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan kalit so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*1. Muhammad al-Xorazmiy **783–850**-yillarda yashagan.*

*2. Olim **arab**, **fors**, **hind** va **yunon** tillarini ham o‘rgangan.*

3. 3-topshiriqda berilgan qiziqarli faktlarga ega matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida krossvordni yechishlari, ya’ni bunda o‘quvchilar berilgan savollarga javob topishlari hamda krossvordni o‘z daftarlari sahifasiga chizib, mos ravishda katakchalarga ushbu javoblarni kiritishlari lozim. Krossvord javoblari: *1) lahza; 2) Gipatiya; 3) geograf; 4) matematik; 5) astronom; 6) olim.*



110

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Birdan yuzgacha bo‘lgan jami sonlar yig‘indisi nechaga teng?
2. “Algoritm” atamasi qaysi olimning nomi bilan bog‘liq?
3. Lahza nima?
4. Algoritmni hayotimizning qaysi sohalarida ko‘rish mumkin?
5. Choy damlash algoritmini aytib bering.

Mustaqil topshiriq

Matematika fanidan bajargan masalangiz algoritmini yozib keling.

GINNES REKORDLARI

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna: *1-d, …*

1. Ginnesning rekordlar kitobi – jahondagi...
2. Ginnesning rekordlar kitobi 1954-yili Londonda...
3. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti...
4. Dunyodagi eng ko‘p o‘g‘irlanadigan kitob...

A) “Guinness Publishing” tomonidan har yili nashr etib kelinadi.
B) aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan.
C) rekordlar va g‘aroyib narsalar haqida ma’lumotlar kiritilgan kitob.
D) Ginnesning rekordlar kitobidir.

3. O‘qing.

Dunyodagi eng ko‘p momiq ayiqchalar kolleksiyasi (8025 dona) Janubiy Dakotada. Jeki Mayli ayiqlarni AQSHning barcha shtatlari va 29 ta chet mamlakatdan keltirgan.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi ma’lumotlar asosida berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling.

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida

ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Globoalfavit” metodini o‘tkazib oling. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligi bo‘yicha bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni aytishlari lozim bo‘ladi. Masalan: 1-o‘quvchi *A* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *Ahmad*; 2-o‘quvchi *B* harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *banan* kabi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, matematika fanidan bajargan masalalari algoritmini yozib kelishlari lozim.

61-DARS. GINNES REKORDLARI

Maqsad: dunyodagi eng olamshumul rekordlar va noyob iqtidorlarni o‘zida jamlab boradigan eng mashhur kitob – Ginnesning rekordlar kitobi haqida ma’lumotlar berish. bilim va tasavvurlarni yanada kengaytirish; fe’llarning zamon kategoriyasiga oid mavjud bilimlarni yana bir bor takrorlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan matematika fanidan bajargan masalalari algoritmini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Darslikda berilgan QR-kod orqali Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan eng g‘aroyib rekordlar haqidagi videomaterialni o‘quvchilarga ko‘rsating. (Agar sinfxona texnik imkoniyati bunga javob bermasa, Ginnesning rekordlar kitobi, unda qayd etilgan qiziqarli rekordlar haqida o‘zingiz og‘zaki tarzda bayon qiling va kichik suhbat tashkillashtiring.)



110

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Birdan yuzgacha bo'lgan jami sonlar yig'indisi nechaga teng?
2. "Algoritm" atamasi qaysi olimning nomi bilan bog'liq?
3. Lahza nima?
4. Algoritmni hayotimizning qaysi sohalarida ko'rish mumkin?
5. Choy damlash algoritmini aytib bering.

Mustaqil topshiriq

Matematika fanidan bajargan masalangiz algoritmini yozib keling.

GINNES REKORDLARI

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna: *1-d, ...*

1. Ginnesning rekordlar kitobi – jahondagi...
2. Ginnesning rekordlar kitobi 1954-yili Londonda...
3. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti...
4. Dunyodagi eng ko'p o'g'irlanadigan kitob...

A) "Guinness Publishing" tomonidan har yili nashr etib kelinadi.
B) aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan.
C) rekordlar va g'aroyib narsalar haqida ma'lumotlar kiritilgan kitob.
D) Ginnesning rekordlar kitobidir.

3. O'qing.

Dunyodagi eng ko'p momiq ayiqchalar kolleksiyasi (8025 dona) Janubiy Dakotada. Jeki Mayli ayiqlarni AQSHning barcha shtatlari va 29 ta chet mamlakatdan keltirgan.

2. 1-topshiriqda berilgan rasmga o'quvchilar e'tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o'zingiz ifodali tarzda bir marotaba o'qib eshittiring.

61-audiomaterial matni

1. "Ginnes rekordlari" kitobi – jahondagi rekordlar va g'aroyib narsalar haqida ma'lumotlar kiritilgan kitob. Ushbu kitob 1954-yil Londonda aka-uka Norris va Ross Makuirter tomonidan yaratilgan. Ushbu kitob tabiat va insoniyat olamidagi olamshumul yangiliklar, ulkan yutuqlar, noyob hodisalar va g'aroyib voqealar haqida ma'lumot beradi.

2. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti bo'lgan "Guinness Publishing" tomonidan har yili nashr etib kelinadi. 1990-yilgacha 37 tilda 264 marta nashr etilgan. Dunyodagi eng ko'p o'g'irlanadigan kitob ham Ginnes rekordlar kitobidir. Har yili uning 2700 tasi o'g'irlanar ekan.



111

Natan Savayya to'liq LEGO konstruktori detallaridan qurgan "betmobil"i tufayli Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Prototip yaratilishiga 3 oy vaqt va 500 ming LEGO detali ketgan.

Dunyodagi eng yaxshi basketbolchi quyon sifatida 4 yoshli Bini tan olingan. U bir daqiqada yetti marotaba koptokni savatga tashlashi mumkin.

O'zbekistonda tayyorlangan dunyodagi eng ulkan – og'irligi 7360 kilogrammlik palov Ginnes rekordlari ro'yxatidan joy olgan.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Dunyodagi g'aroyib rekordlar haqida eshitganmisiz?
2. Sinfdoshlaringiz orasida kimlar sinf rekordini o'rnatgan? (Misol uchun, kubik-rubik, mental arifmetika bo'yicha.)
3. Siz ham Ginnesning rekordlar kitobiga kirishni istarmidingiz? Qaysi sohada o'zingizni kuchli deb hisoblaysiz?
4. Yuqoridagi rekordlardan qaysi biri sizga yoqdi?
5. Tasavvur qiling, siz Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildingiz. Undan tushgan mablag'ni nimaga sarflagan bo'lardingiz?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi tikadi.*

bermoq | tikmoq | chop etmoq | o'rnatmoq | tikmoq

Mening opam – tikuvchi. U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi____ . U ishxonasida tezkorligi bilan rekord ____ . Opam kuz mavsumida bir kunda 300 ta bosh kiyim ____. Shuning uchun u haqida gazetada ham maqola ____ . Opam menga va do'stlarimga ham chiroyli bosh kiyimlar tikib ____ . Ular menga juda yoqadi.

Mustaqil topshiriq

G'aroyib rekordlar haqida ma'lumot topib keling.

3. 2-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o'quvchilar tinglab tushungan ma'lumotlari asosida berilgan gap qismlarini namunada ko'rsatilgani kabi o'zaro bir birlariga to'g'ri moslashtirib chiqishlari lozim. Topshiriq javoblari: *1) C; 2) B; 3) A; 4) D.*

4. 3-topshiriqda berilgan Ginnes rekordlar kitobi haqida qiziqarli faktlarga ega matnni o'quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o'qittiring.

5. 4-topshiriqda o'quvchilar Ginnes rekordlari haqida berilgan shaxsiy mu-

shohada va fikrlashni talab qiluvchi savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

6. 5-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘tilgan grammatik mavzu mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llardan mosini qo‘yib grammatik ko‘rsatkichlarini to‘g‘rilab, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi ***tikadi****. U ishxonasida tezkorligi bilan rekord* ***o‘rnatgan****.*


7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *robot* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *ROBOT* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *R, O, B, O, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, uni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, g‘aroyib rekordlar haqida ma’lumot topib, ularni yozib kelishlari lozim.

62-DARS. AQLGA SIG‘MAS NARSALAR (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad: bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlar ustida ishlash; o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.



112

AQLGA SIG‘MAS NARSALAR

1. O‘qing.

Do'stlar, men "Ixtirolar" mavzusida esse yozayotgan edim. Menga yordam bera olasizmi? Yurtingizda qanday kashfiyotlar qilingan?

Fizik va elektrotexnik Aleksandr Popov radioni ixtiro qilgan.

Tomas Edison AQSHda 1093 ta, dunyoning boshqa mamlakatlarida esa 3 mingga yaqin patentga ega bo'lgan. Xavfsiz elektr cho'g'lanma lampasini yaratgan. Aynan u telefondagi muloqotni boshlash uchun "Allo" so'zini taklif qilgan.


Matematik va ixtirochi Charlz Bebbij kelajakdagi kompyuterlar uchun prototip bo'lib xizmat qilgan birinchi mexanik kompyuterni yaratgan. Shuning uchun u "kompyuter otasi" hisoblanadi.

Yaponiyalik olim Meydzi Miyasita ekranda namoyish etilayotgan taom mazasini tomoshabinga yetkazib bera oladigan televizor prototipini ixtiro qilgan. Bu televizorga "Taste the TV" deb nom berilgan.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Charlz Bebbij telefonni ixtiro qildi.		
2	Radio Rossiyada ixtiro qilingan.		
3	Tomas Edison AQSHda 3 mingga yaqin, boshqa mamlakatlarda 1093 ta patentga ega bo'lgan.		
4	Yaponiyada ma'lum bir taom namoyish qilinsa, tomoshabin uning ta'mini his qila oladigan televizor yaratildi.		
5	"Kompyuter otasi" – Charlz Bebbij.		
6	Telefonda muloqotni boshlashdagi "Allo" so'zi AQSHlik olim tomonidan taklif etilgan.		

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan g‘aroyib rekordlar haqida ma’lumot topib, ularni yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



113

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna *Beruniy yaratgan kashfiyot – globus.*

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *3. Men al-Xorazmiyman....*

1. Men ____ ____ .
Men Xorazmda (*tug‘ilmoq*). “Geodeziya” nomli asarimni 1025-yilda (*yozib tugatmoq*). Yer aylanasining kattaligi haqida (*fikr yuritmoq*).
Men kimman?

2. Men ____ .
Men Amir Temurning nabirasi (*bo‘lmoq*). Keyinchalik Temuriylar davlatini (*boshqarmoq*). Ilm olishni (*yaxshi ko‘rmoq*) va (*astronomiyaga qiziqmoq*).
Men kimman?

3. Men ____ .
20 dan ortiq ilmiy asarlar (*yaratmoq*). Mening “Al-jabr val-muqobala” asarim mashhurdir. Men matematik (*bo‘lmoq*).
Men kimman?

4. Men Alisher Navoiyman. (*Davom ettiring*).


Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan bolalarning o‘zaro suhbat-dialogini ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda yuqoridagi matn asosida shakllantirilgan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari kerak. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Charlz Bebbij telefonni ixtiro qildi. <u>Noto‘g‘ri</u>. Izoh: Charlz Bebbij kelajakdagi kompyuterlar uchun prototip bo‘lib xiz-

mat qilgan birinchi mexanik kompyuterni yaratgan, telefonni emas.



114

5. O'ylang va toping. Yozing.

1. Uy qurish, taqinchoqlar ishlab chiqarish, protez va implantatlar tayyorlash kabi vazifalarni bajara oladigan qurilma.
A) 3D printer B) usta C) dron

2. Shamol energiyasini ... orqali elektr energiyasiga aylantirish mumkin. Tushirib qoldirilgan so'zni toping.
A) ventilyator B) generator C) shamol tegirmoni

3. Rekordlar va g'aroyib narsalar jamlangan kitob qaysi?
A) Qizil kitob B) Bolalar ensiklopediyasi C) Ginnesning rekordlar kitobi

4. Tiklanadigan energiya berilgan javobni toping.
A) quyosh energiyasi B) neft C) quyosh va shamol energiyasi

Mustaqil topshiriq

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni xohlayman
Ginnesning rekordlar kitobi haqida	Ushbu kitob 1954-yili Londonda aka-uka Norris va Rossi Makuirter tomonidan yaratilgan.	O'zbekistondan kimlar bu kitobga kirgan?

INTERNET

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Internet – _____.
A) AQSHdagi ilmiy markaz nomi
B) jahon kompyuter tarmoqlari majmui
C) masofadan turib muloqot qilish qurilmasi
D) ijtimoiy tarmoqlar to'plami

3. 3-topshiriqda jadval ustida ishlash. Bunda o'quvchilar o'tilgan mavzulardagi bilimlari asosida jadvalda keltirilgan allomalarning rasmini ularga bog'liq narsa-predmet rasmi bilan bog'lashlari va og'zaki ravishda izohlab berishlari lozim. Namuna: *Abu Rayhon Beruniy – globus. Izoh: Yaqin Sharqdagi ilk globus Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan.*

4. 4-topshiriqda o'quvchilar gaplardagi chiziqlar o'rniga namunada ko'rsatilgani kabi kontekstga mos holda mavzularda o'rgangan buyuk bobokalonlarimizning ismini hamda kalit so'zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe'llarni kerakli zamon kategoriyasida to'g'ri tuslagan holda yozishlari lozim. Namuna:

*Men **Al-Xorazmiyman**. Men Xorazmda **tug'ilganman**.*

5. Mavzudagi lug'at-so'zlar bilan tanishtiring, ularni o'quvchilarning o'z ona tillaridagi tarjimalasi bilan izohlab, ma'nosini to'laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o'quvchilarning o'zbek tilidagi leksikonini mazkur lug'at-so'zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so'ngida "Bugungi darsdan nima oldim?" metodini qo'llang. Bunda o'quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so'rang va uni daftarga yozib qo'yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o'quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug'at-so'zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, "BBB" metodi asosida berilgan jadvalni namunada ko'rsatilgani kabi to'ldirib kelishlari lozim. *Namuna:*

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni xohlayman
Ginnesning rekordlar kitobi haqida.	Ushbu kitob 1954-yil Londonda aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan.	O'zbekistondan kimlar bu kitobga kirgan?

65-DARS. INTERNET

Maqsad: butunjahon kompyuterlar tarmog‘i – Internet, uning yaratilish tarixi, ahamiyati, undan foydalanishdagi me’yor va talablar haqida o‘quvchilarga ma’lumotlar berish. bu boradagi bilim va tasavvurlarini yanada kengaytirish; shuningdek, *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar bilan tanishtirish; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



114

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Uy qurish, taqinchoqlar ishlab chiqarish, protez va implantatlar tayyorlash kabi vazifalarni bajara oladigan qurilma.
A) 3D printer B) usta C) dron

2. Shamol energiyasini … orqali elektr energiyasiga aylantirish mumkin. Tushirib qoldirilgan so‘zni toping.
A) ventilyator B) generator C) shamol tegirmoni

3. Rekordlar va g‘aroyib narsalar jamlangan kitob qaysi?
A) Qizil kitob B) Bolalar ensiklopediyasi C) Ginnesning rekordlar kitobi

4. Tiklanadigan energiya berilgan javobni toping.
A) quyosh energiyasi B) neft C) quyosh va shamol energiyasi

Mustaqil topshiriq

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni xohlayman
Ginnesning rekordlar kitobi haqida	Ushbu kitob 1954-yili Londonda aka-uka Norris va Rossi Makuirter tomonidan yaratilgan.	O‘zbekistondan kimlar bu kitobga kirgan?

INTERNET

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Internet – _____.
A) AQSHdagi ilmiy markaz nomi
B) jahon kompyuter tarmoqlari majmui
C) masofadan turib muloqot qilish qurilmasi
D) ijtimoiy tarmoqlar to‘plami

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “BBB” metodi asosida jadvalni namunada ko‘rsatilgani kabi to‘ldirib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


65-audiomaterial matni

Internet bu – jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir. Internet ko‘pgina imkoniyatlarga ega. Uning yaratilish tarixi quyidagicha:

AQSHning ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan “RAND Corporation” birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashmagan kompyuter tarmog‘ini yaratishni taklif qiladi. 1964-yili 4 tarmoqdan iborat AQSHning eng nufuzli tekshirish institutlarida joylashgan ARPANET tarmog‘i yaratiladi. 1983-yilda ARPANET internet deb atala boshlandi. U juda kuchli, bir-biri bilan bog‘langan kompyuterlar va tarmoqlar to‘plamidan iborat sistemaga aylan-

di. Shu tariqa internet tarmog‘iga asos solindi.

Internetning 1990-yillardagi rivojlanishiga asosiy sabab World Wide Web (Butun Dunyo Tarmog‘i)ning tuzilishi bo‘ldi. 1990-yil noyabrda Tim Bernes-Li WWW tarmog‘ining birinchi nusxasini yaratdi. WWW serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati AQSHda joylashgan.



115

2. “WWW” – _____.
A) butundunyo tarmog‘i B) birinchi kompyuter modeli
C) qidiruv sayti nomi D) elektron kutubxona ilovasi

3. “Internet” so‘zi nechanchi yildan qo‘llana boshlandi?
A) 1964-yil B) 1990-yil C) 1976-yil D) 1983-yil

4. “WWW” tarmog‘ining birinchi nusxasini _____ yaratdi.
A) Aleksandr Bell B) Tim Byorners Li
C) Charlz Bebbij D) Aleksandr Popov

5. “WWW” serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati … da joylashgan.
A) Yaponiya B) Kanada
C) AQSH D) Buyuk Britaniya

3. O‘qing.


Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bugungi kunimizda internet hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib qoldi. Hozirda foydalanuvchilar internetga asosan ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish uchun kiradi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganda shaxsiy ma’lumotlarni kamroq joylashtirish kerak. Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda mavjud qoidalar bilan tanishish zarur. Shubhali havolalarni ochmaslik kerak. Chunki ular tarmoqdagi shaxsiy profillarga buzib kiruvchi zararli dasturlar bo‘lishi mumkin. Shaxsiy elektron pochta manzillarini hech qachon hamma ko‘radigan joylarga – ijtimoiy tarmoq, sayt va ommaviy forumlarga qo‘ymaslik kerak. Shubhali xatlarni ochmaslik, ularga javob bermaslik zarur.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Internet bizga nima uchun kerak?
2. Qaysi ijtimoiy tarmoqdan faol foydalanasiz va nima maqsadda?
3. Internet xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
4. Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda qoidalar bilan tanishish bizga nima uchun kerak?

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatn ma’lumotlari asosida shakllantirilgan testni bajarishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning faktik ma’lumotlarni eslab qolish ko‘nikmasi sinovdan o‘tkaziladi. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. *Test kalitlari: 1) B; 2) A; 3) E; 4) B; 5) D.*

3. 3-topshiriqda berilgan internetda xavfsizlik qoidalari haqidagi matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.



116

DIQQAT QILING!
Menga soyabon zarur.
Menga soyabon kerak.
zarur
kerak
imkoniyat
ijtimoiy tarmoq
o‘tkazish
havola
shaxsiy
ommaviy
zarur
kerak

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Internetdan foydalanish uchun nima kerak? Internetdan foydalanish uchun telefon yoki kompyuter kerak.*

Internetdan foydalanish uchun
Televizor ko‘rish uchun
Rasm chizish uchun
Kompyuterni ishlatish uchun
Elektr energiyasini hosil qilish uchun
Quyosh batareyalaridan foydalanish uchun

quyosh nuri
rangli bo‘yoqlar
internet tarmog‘i
quyosh batareyalari
elektr energiya
telefon yoki kompyuter

kerak / zarur.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki ravishda qabul qilib oling.

5. “Diqqat qiling!” qismida zaruriyat ma’nosini ifodalovchi *kerak, zarur, shart, lozim* kabi modal so‘zlar bilan tanishtiring. Ularning ma’nolarini o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi muqobil variantlari bilan qiyoslab tushuntiring. Ushbu modal so‘zlarning imlosi, gaplarda ifodalanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling, misollar orqali yanada mustahkamlang.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar berilgan gap qismlarini o‘zaro mantiqan to‘g‘ri

bog‘lashlari hamda namunada ko‘rsatilgani kabi *kerak, zarur* modal fe’llarini qo‘ygan holda gaplarni savol-javob tarzida yozishlari lozim. Namuna:

Internetdan foydalanish uchun nima kerak? Internetdan foydalanish uchun ***telefon yoki kompyuter*** *kerak.*



117

Mustaqil topshiriq

Oila a’zolaringiz bilan ushbu mashqlarni bajarishga odatlaning. Ushbu mashqlarning foydasi haqida kichik matn yozib keling.

FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. O‘qing.

– Alisher, kompyuterni o‘chirdingmi?
– O‘chirgan bo‘lsam kerak.
– Uydan chiqayotganda har doim o‘chirgan yoki o‘chirmaganingni tekshirishing kerak!
– Vaqt oz qolganiga shoshdim-da.
– Bunday holatlar favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uydan chiqayotganda hushyor bo‘lish kerak. Uydagi elektr va gaz uskunalari o‘chirilganini tekshirish zarur.
– Sizni tushundim. Albatta, bu qoidalarga rioya qilaman.

7. 6-topshiriqda o‘quvchilar berilgan rasmlarni assotsiativ holatda bir-biriga bog‘lab, og‘zaki ravishda bayon qilib (izohlab) berishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning talaffuz va nutqiy ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazishingiz, mavjud kamchiliklar hamda yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etib borishingiz lozim.

8. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Mevali bog‘” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga olma va limon rasmi tushirilgan qog‘oz kartochkalar tarqatiladi. Olma rasmi tushirilgan kartochka egasi Internetning 3 ta ijobiy jihatini, limonli kartochka egasi esa aksincha, uning 3 ta salbiy jihatini yozishlari, so‘ngra o‘qib eshittirishlari lozim. Bunda o‘quvchilar dars mavzusini mustahkamlash bilan birga mantiqiy fikrlash, tanqidiy mushohada qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, darslikda berilgan ko‘z uchun foydali mashqlarni oila a’zolari bilan bajarishga odatlanishlari hamda ushbu mashqlarning foydasi haqida kichik matn yozib kelishlari lozim.

66-DARS. FAVQULODDA VAZIYATLAR

Maqsad: favqulodda vaziyatlar, ularning turlari haqida ma’lumotlar berish; favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish omillari va ularning oldini olish choralari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar berish; shuningdek, *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar ustida ishlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan ko‘z uchun mashqlarning foydasi haqida kichik matn yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Matn asosida berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling. 1-topshiriqda berilgan dialogni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.


117

Mustaqil topshiriq

Oila a’zolaringiz bilan ushbu mashqlarni bajarishga odatlaning. Ushbu mashqlarning foydasi haqida kichik matn yozib keling.

FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. O‘qing.

– Alisher, kompyuterni o’chirdingmi?
– O’chirgan bo’lsam kerak.
– Uydan chiqayotganda har doim o’chirgan yoki o’chirmaganingni tekshirishing kerak!
– Vaqt oz qolganiga shoshdim-da.
– Bunday holatlar favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uydan chiqayotganda hushyor bo’lish kerak. Uydagi elektr va gaz uskunalari o’chirilganini tekshirish zarur.
– Sizni tushundim. Albatta, bu qoidalarga rioya qilaman.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga zaruriyat ma’nosini bildiruvchi modal so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

Texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ***zarur****. 2. Jo‘mraklarni ochiq qoldirmaslik* ***kerak.***

3. 3-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasmlar asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

66-audiomaterial matni

Favqulodda vaziyat nima?

Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish sabablariga ko‘ra uchga bo‘linadi:

1) tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar;

2) texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar;

3) ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga yer silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, qurg‘oqchilik, qor ko‘chishi, kuchli yomg‘ir yog‘ishi, yashin chaqishi va boshqalar kiradi.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar bu ishlab chiqarish yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan halokatlardir. Masalan: transport halokatlari, energetika va kommunal tizimdagi halokatlar, yong‘in-portlash xavfi bo‘lgan joylardagi halokatlar.


Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar haroratning ko‘tarilishi, kislorod tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi, ekologik muvozanatning buzilishi va shu kabi hodisalar hisoblanadi.

4. 4-topshiriqda favqulodda vaziyatlarga oid bir nechta rasmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu rasmlarni ularning ta’riflari bilan o‘zaro to‘g‘ri moslashlari zarur. Namuna: *1) D; 2) A; 3) B.*

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar savollarga javob topib, berilgan bo‘sh katakchalarga shu so‘zlarning bosh harfini yozib chiqadilar. Shu orqali yashirilgan so‘z aniq bo‘ladi. Topshiriqni avval og‘zaki, so‘ngra yozma bajartiring. Mavzu yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini tinglang. Namuna:

1, 10. Katta quti, ko‘zi bor, Ko‘p tomosha, so‘zi bor. ***Televizor.*** *2, 9, 12. O‘zbek milliy matosi.* ***Atlas.*** Yashirilgan so‘z:

1	2	3	4	5	6		7	8	9	10	11	12	13
T	A	B	I	I	Y		O	F	A	T	L	A	R


118

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur.*

1. Texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ___ .
2. Jo‘mraklarni ochiq qoldirmaslik ___ .
3. Qattiq shamol turgan vaqtda sababsiz ko‘chaga chiqmaslik ___ .
4. Favqulodda vaziyatlar vazirligidan kelgan xabarlarga befarq bo‘lmaslik ___ .
5. Mashina va mexanizmlarni o‘z vaqtida nazoratdan o‘tkazib turish ___.

3. Tinglang.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

A) texnogen tusdagi favqulodda vaziyat

B) ekologik tusdagi favqulodda vaziyat

C) tabiiy tusdagi favqulodda vaziyat

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *falokat* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *FALOKAT* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *F, A, L, O, K, A, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik uchun qanday qoidalarga amal qilish kerakligi haqida o‘z fikrlarini yozib kelishlari lozim.

67-DARS. TAOMLANISH

Maqsad: taomlanish odobi hamda to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari bilan tanishtirish, amaliy ko‘nikma va tushunchalar hosil qilish; shuningdek, *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar ustida ishlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik uchun qanday qoidalarga amal qilish kerakligi haqida o‘z fikrlarini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



119

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna *1, 10. Katta quti, ko‘zi bor,*
Ko‘p tomosha, so‘zi bor. (televizor)

1	2	3	4	5	6		7	8	9	10	11	12	13
T										t			

1, 10. Katta quti, ko‘zi bor, Ko‘p tomosha, so‘zi bor.
2, 9, 12. O‘zbek milliy matosi.
3. O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri.
4, 5. “Tesla” avtomobili asoschisining ismi.
6. Tabiiy ofatlardan biri.
7. Ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi inson.
8. Eyfel minorasi qayerda joylashgan?
11. Buxorodagi me’moriy majmualardan biri.

Mustaqil topshiriq

Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik uchun qanday qoidalarga amal qilish kerak?


TAOMLANISH

1. Tinglang.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.

2. 1-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



120

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Dasturxon atrofida qulay holatda o'tirib ovqatlanish kerak.*

oshqozon | issiq holda | dangasalik | suyuqlik | zarar | odobsizlik | qulay holatda

1. Dasturxon atrofida ___ ___ o'tirib ovqatlanish kerak.
2. Yotib ovqatlanish nafaqat ... hisoblanadi, balki sog'liqqa ham ___ keltiradi.
3. Inson qancha to'q bo'lsa, unda shunchalik ___ kuchayadi.
4. Ovqatlanish odoblaridan yana biri ovqatni juda ___ ___ yemaslik va ovqatlanish davomida ko'p ___ ichmaslik lozim.
5. Chunki bu ___ uchun qiyinchilik tug'diradi.

odobsizlik
ko'richak
dangasalik
issiq holda
suyuqlik

3. O'qing.

Ovqatlanish odatlari ham har xil bo'lar ekan. Masalan, Yaponiya va Hindistonda mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo'yishi mezbon uchun maqtovni bildirsa, Xitoyda buning tamoman aksi.

Italiyaliklarni qahvani sevuvchi xalq deb o'ylasangiz xato qilasiz. Haqiqiy italiyaliklar ovqatlanib bo'lgandan keyin sutli qahva ichmaydilar, chunki ularning fikricha, sut hazm qilish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Yaponiyada taomning mazali ekanini bildirish uchun chin dildan chapillatib yeyiladi. Bundan tashqari, yaponlarning fikricha, chapillatish taomning mazasini yanayam kuchaytiradi.

Portugaliya va Misrda taom yeyayotib qo'shimcha tuzdan foydalanmaganingiz ma'qul. Chunki bu oshpaz ovqatni maromiga yetkazib tayyorlamaganini bildiradi.


67-audiomaterial matni

Dasturxon atrofida qulay holatda o‘tirib ovqatlanish kerak. Yotib olish yoki yonboshlab ovqatlanish mumkin emas. Bunday holatlar nafaqat odobsizlik hisoblanadi, balki sog‘liqqa ham zarar keltiradi. Yapon olimlarining ta’kidlashicha, inson tik turgan holatda ovqatlanishi yoki suv ichishi ko‘richak kasalligiga olib kelishi mumkin. Inson tik turgan holatida ko‘richak og‘zi tepaga, ya’ni ovqat kelish yo‘liga qarab turadi. O‘tirgan holatda esa ichaklar to‘planib, ko‘richak pastga qarab turadi va natijada unga hech narsa tushmaydi. Juda ham to‘yib ovqatlanish ham to‘g‘ri emas. Inson qancha to‘q bo‘lsa, unda shunchalik dangasalik kuchayadi. Ovqatlanish odoblaridan yana biri ovqatni juda issiq holda yemaslik va ovqatlanish davomida ko‘p suyuqlik ichmaslik lozim. Chunki oshqozon uchun bu qiyinchilik tug‘diradi.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan so‘z yoki so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi ko‘chirib yozishlari lozim. Namuna:

*Dasturxon atrofida **qulay holatda** o‘tirib ovqatlanish kerak.*

4. 3-topshiriqdagi komiksga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.



121

4. O'ylang va toping. Yozing.

Yaponiya va Hindistonda	Ovqatlanib bo'lgandan keyin sutli qahva ichmaydilar.
Italiyada	Ovqatni yeyayotib qo'shimcha tuzdan foydalanmaslik kerak. Chunki bu oshpaz ovqatni maromiga yetkazib tayyorlamaganini bildiradi.
Yaponiyada	Taomning mazali ekanini bildirish uchun chin dildan chapillatib yeyiladi.
Portugaliya va Misrda	Mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo'yishi mezbon uchun maqtovni bildiradi.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Dasturxon atrofida o'tirganda gaplashmaslik kerak.
2. Ovqatni birinchi bo'lib kattalar boshlashi kerak.
3. Ovqatni chapillatmasdan yeyish zarur.
4. Tirsaklarni stol ustiga qo'yish mumkin emas.
   Ovqatlanish madaniyatiga oid yana qanday qoidalarni bilasiz?

Mustaqil topshiriq

Bir kunlik taomnomangizni yozing.

DORI-DARMON

1. Tinglang.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matnda keltirilgan ma’lumotlar berilgan davlatlar nomlari bilan o‘zaro to‘g‘ri moslashlari lozim. Namuna:

Yaponiya va Hindistonda mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo‘yishi mezmon uchun maqtovni bildiradi.

6. 5-topshiriqda berilgan taomlanish odobi va qoidalarini o‘quvchilarga o‘qib bering. Yana qanday taomlanish odobi yoki qoidalarini bilishlari haqida kichik suhbat tashkillashtiring.

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *tushlik* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *TUSHLIK* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *T, U, Sh, L, I, K* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, bir kunlik taomnomalari ro‘yxatini yozib kelishlari lozim.


68-DARS. DORI-DARMON

Maqsad: dori-darmon vositalari va vitaminlar, ularning turlari, qo‘llanishi, foydali jihatlari hamda tarkibida ko‘plab vitamin va minerallarni saqlovchi shifobaxsh tabiiy ne’matlar haqida ma’lumotlar berish. *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar ustida ishlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan bir kunlik taomnomalari ro‘yxatini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.



121

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Yaponiya va Hindistonda	Ovqatlanib bo‘lgandan keyin sutli qahva ichmaydilar.
Italiyada	Ovqatni yeyayotib qo‘shimcha tuzdan foydalanmaslik kerak. Chunki bu oshpaz ovqatni maromiga yetkazib tayyorlamaganini bildiradi.
Yaponiyada	Taomning mazali ekanini bildirish uchun chin dildan chapillatib yeyiladi.
Portugaliya va Misrda	Mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo‘yishi mezbon uchun maqtovni bildiradi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Dasturxon atrofida o‘tirganda gaplashmaslik kerak.
2. Ovqatni birinchi bo‘lib kattalar boshlashi kerak.
3. Ovqatni chapillatmasdan yeyish zarur.
4. Tirsaklarni stol ustiga qo‘yish mumkin emas.
   Ovqatlanish madaniyatiga oid yana qanday qoidalarni bilasiz?

Mustaqil topshiriq

Bir kunlik taomnomangizni yozing.


DORI-DARMON

1. Tinglang.

2. 1-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating, yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

68-audiomaterial matni

Dori kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun ishlatiladi. Har qanday dori odamlarga qo‘llashdan oldin hayvonlarda sinab ko‘riladi va klinikalarda laborator sharoitda kuzatiladi. Dorilar kimyo-farmatsevtika zavodlarida sintetik moddalar, o‘simlik, hayvon yoki mikrobiologik mahsulotlardan tayyorlanadi. Tez buziladigan ayrim dorilar esa dorixonalarda tayyorlanadi. Dorilar turli xil: suyuq (qaynatma, tindirma, eritma, suspenziya va boshqalar), yumshoq (surtma, liniment, krem, pasta va boshqalar), qattiq (sochma, tabletka, draje, granula va boshqalar) hamda alohida inyeksiya maqsadlari uchun ampula holida chiqariladi. Dorilar uyda bolalarning bo‘yi yetmaydigan joyda saqlanishi kerak. Har bir dorining yaroqlilik muddati yorlig‘ida qayd qilingan bo‘lishi kerak. Belgilangan muddatdan o‘tgan dorini tashlab yuborish zarur. Dori turlari juda ko‘p, shu bois uni faqat shifokor maslahati bilan qabul qilish zarur.



122

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Dorilar uyda bolalarning **bo‘yi yetmaydigan joyda** saqlanishi kerak.*

yorlig‘ida qayd qilingan | shifokor maslahati bilan | bo‘yi yetmaydigan joyda | tashlab yuborish

1. Dorilar uyda bolalarning ___ ___ ___ saqlanishi kerak.
2. Dori turlari juda ko‘p, shu bois uni faqat ___ ___ ___ qabul qilish zarur.
3. Belgilangan muddatdan o‘tgan dorini ___ ___ zarur.
4. Har bir dorini yaroqlilik muddati ___ ___ ___ bo‘lishi kerak.

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Hamma dorilarni ovqatdan oldin ichish kerak.		
2	Dorilarni shifokor maslahati bilan ichish kerak.		
3	Kasal bo‘lganda shifokor oldiga borish zarur.		
4	Betob bo‘lganda sport bilan shug‘ullanish kerak.		
5	Betob bo‘lganda maktabga borish kerak.		

4. O‘qing.

VITAMINLAR NIMA UCHUN KERAK?

Vitamin A ko‘z uchun foydali. U tuxum sarig‘i, qaymoq, sariyog‘ va baliq moyi tarkibida bor.

Vitamin B9 yurak kasalliklarining oldini oladi. Gemoglobin ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi, natijada anemiya, leykemiya kabi kasalliklarni davolashda yaxshi foyda beradi. U lavlagi, avokado, kungaboqar, karam, makkajo‘xori, loviya tarkibida uchraydi.


Vitamin P qon tomirlariga ijobiy ta’sir etadi, C vitaminining ta’sir kuchini oshiradi, qon tomirlari devorlarini baquvvatlashtiradi. Natijada ularning yallig‘lanishining oldini oladi va qon to‘xtatish xususiyatini oshiradi. Ushbu vitamin na’matak, buzina, lipa, qora smorodina, limon po‘stlog‘ida mavjud.

Vitamin C moddalar almashinuvida, biriktiruvchi to‘qimalarning o‘zlashtirilishida, bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishi va tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Organizmda C vitamin yetishmasa, tog‘ay va suyak to‘qimalari tuzilishi buziladi. U apelsin, kivi, olma, qulupnay, malina, olcha tarkibida uchraydi.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida beril-

gan so‘z yoki so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi ko‘chirib yozishlari lozim. Namuna:

*1. Dorilar uyda bolalarning **bo‘yi yetmaydigan joyda** saqlanishi kerak.*


123

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Vitamin A ko‘z uchun foydali. U tuxum sarig‘i, baliq yog‘i tarkibida uchraydi.*

Vitamin A — ko‘z uchun foydali
Vitamin B9 — bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishini ta’minlaydi
Vitamin P — qon to‘xtatish xususiyatini oshiradi
Vitamin C — yurak kasalliklarining oldini oladi
ko‘z uchun foydali — tuxum sarig‘i, baliq yog‘i; lavlagi, avokado, kungaboqar
bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishini ta’minlaydi — na’matak, buzina, lipa
qon to‘xtatish xususiyatini oshiradi — apelsin, kivi, malina

Mustaqil topshiriq

Siz kasal bo‘lganingizda qanday davolangansiz?

BEGONA ODAMLAR BILAN MUNOSABAT

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Aziza Zembi bilan telefonda suhbatlashdi.		
2	Aziza uyga vazifalarni tayyorlashda dadasidan yordam so‘ramoqchi.		
3	Ra’no uyga vazifalarni onasi bilan bajardi.		
4	Ra’noning eshik qo‘ng‘irog‘i chalindi.		
5	Notanish odamlarga eshikni ochmaslik kerak.		

4. 3-topshiriqda dori vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z bilimlari va shaxsiy kuzatuvlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq og‘zaki tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Hamma dorilarni ovqatdan oldin ichish kerak. Noto‘g‘ri. Izoh: ayrim dorilarni ovqatdan so‘ng ichish yoki och bo‘lmagan qoringa ichish tavsiya etiladi. Bu dorilarning xususiyatiga qarab o‘zgaruvchan jarayondir.

5. 4-topshiriqda berilgan “Vitaminlar nima uchun kerak?” mavzusidagi qiziqarli ma’lumotlarga ega matnni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan matnlari asosida uch qismga bo‘lib berilgan ma’lumotlarni namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro to‘g‘ri moslashlari zarur. Namuna:

Vitamin A ko‘z uchun foydali. U tuxum sarig‘i, baliq yog‘i tarkibida uchraydi.

Ushbu topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *darmon* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *DARMON* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *D, A, R, M, O, N* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, kasal bo‘lganlarida qanday davolanganliklari haqida qisqacha hikoya tuzib, uni gapirib berishga tayyorgarlik ko‘rib kelishlari lozim.

69-DARS. BEGONA ODAMLAR BILAN MUNOSABAT

Maqsad: begona odamlar bilan munosabatga kirishayotganda ehtiyotkorlik, uyda yolg‘iz qolganda xavfsizlik kabi kundalik hayotda asqatuvchi turli tavsiya va qoidalarni o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish; *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar ustida ishlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kasal bo‘lganlarida qanday davolanganliklari haqida qisqacha hikoya tuzib, uni gapirib berish bo‘yicha bajarilagan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



123

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Vitamin A ko‘z uchun foydali. U tuxum sarig‘i, baliq yog‘i tarkibida uchraydi.*

Vitamin A	bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishini ta’minlaydi	na’matak, buzina, lipa
Vitamin B9	qon to‘xtatish xususiyatini oshiradi	apelsin, kivi, malina
Vitamin P	yurak kasalliklarining oldini oladi	tuxum sarig‘i, baliq yog‘i
Vitamin C	ko‘z uchun foydali	lavlagi, avokado, kungaboqar

Mustaqil topshiriq

Siz kasal bo‘lganingizda qanday davolangansiz?

BEGONA ODAMLAR BILAN MUNOSABAT

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Aziza Zembi bilan telefonda suhbatlashdi.		
2	Aziza uyga vazifalarni tayyorlashda dadasidan yordam so‘ramoqchi.		
3	Ra’no uyga vazifalarni onasi bilan bajardi.		
4	Ra’noning eshik qo‘ng‘irog‘i chalindi.		
5	Notanish odamlarga eshikni ochmaslik kerak.		

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan Aziz va Ra’noning o‘zaro suhbat-dialogini audiomaterial asosida ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

69-audiomaterial matni

– Aziz, yaxshimisan? Uy vazifalaringni bajardingmi?


– Salom, Ra’no! Yo‘q, hali uy vazifalarni bajarmadim. Bugun uyda bir o‘zim edim. Dadam kelsalar, yordam so‘ramoqchiman. Sen bajardingmi?

– Ha, men ham onam bilan birga bajardim.

– Ra’no, eshigimiz qo‘ng‘irog‘i chalinyapti. Qarab olay.

– Aziz, begona odamlarga eshikni ochma. Mening onam doim shunday deydilar: “Avval kimligini so‘rash kerak. Notanish odamlarga: “Kechirasiz, uyda hech kim yo‘q edi. Kelishsa, albatta, siz haqingizda xabar beraman” – deb aytish lozim.

– Albatta, shunday qilaman.



124

3. O‘qing.

Barchamiz ko‘cha-ko‘yda tanish va notanish kishilarni uchratamiz. Tanish va notanish kishilarni ko‘rganda avvalo ularga salom berishimiz lozim. Tanish kishilar bilan xushmuomala suhbatlashish, gaplarini diqqat bilan tinglash kerak.

Notanish kishi mashinasida uyga olib borib qo‘yishni yoki do‘kondan biror nima sotib olib berishni taklif qilsa, rahmat aytib, taklifni rad etish lozim. Shubhali kimsalardan ogoh bo‘lish kerak!

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

notanish — shubhali kimsalar

1. Uyingizda yolg‘iz qolganingizda kelgan kishilarga qanday munosabatda bo‘lgansiz?
2. Uyda yolg‘iz qolganda yana nimalardan ogoh bo‘lish kerak?
3. Kimlarni biz notanish odam deb ataymiz?
4. Tanish odamlar kimlar?
5. Kimlarga salom berish kerak va nima uchun salom beramiz?

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Uyda yolg‘izligingizda begonalarga eshikni ochmang.*

OGOH BO‘LING!

Uyda	Ko‘chada
1.	1.
2	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

6. Yozing.

lozim *kerak*

Do‘konga kirib mahsulot tanlayotganda unga yaxshilab e’tibor berishingiz ___ bo‘ladi. Chunki tanlagan mahsulotingiz qalbaki yoki muddati o‘tgan bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, mahsulot qadog‘i yirtilmagan, ochilmagan bo‘lishiga ahamiyat berish ___. Agar mahsulotning haqiqiy yoki soxta ekaniga shubha qilsangiz, uning shtrix kodini skanerlashingiz mumkin. Buning uchun telefoningizga tegishli ilovani o‘rnatishingiz ___ .

Mustaqil topshiriq

O‘rgangan qoidalaringizni yozib keling.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar tinglab tushunganligi yuzasidan bir necha hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z bilimlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noo‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berishlari zarur.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar shaxsiy xavfsizlik va ehtiyotkorlik haqida berilgan shaxsiy mushohada va fikrlashni talab qiluvchi savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki qabul qilib oling. Bunda o‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

5. Jadval ustida ishlash. 5-topshiriqda o‘quvchilar jadvaldagi tegishli ustunlarga namunada ko‘rsatilgani kabi xavfsizlik choralari va qoidalarini o‘z shaxsiy yondashuv va fikrlashlari asosida mustaqil tarzda yozishlari lozim. Namuna:

Uyda yolg‘izligingizda begonalarga eshikni ochmang. Ko‘chada begona odamlar bilan suhbatlashmang.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga zaruriyat ma’nosini bildiruvchi modal so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*Do‘konga kirib mahsulot tanlayotganda unga yaxshilab e’tibor berishingiz **kerak** bo‘ladi.*

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning

va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *begona* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *BEGONA* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *B, E, G, O, N, A* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, shaxsiy xavfsizlikka doir qoidalarni yozib kelishlari lozim.

70-DARS. HAYVONLARGA MUNOSABAT. G‘AMXO‘RLIK

Maqsad: hayvonlar bilan munosabatda hushyor bo‘lish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish, ehtiyotkor hamda vazmin bo‘lishga o‘rgatish; amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish; Hayvonlar tomonidan jarohatlanganda tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha dastlabki bilim va malakalarni hosil qilish; shuningdek, *kerak, zarur, shart, lozim* kabi zaruriyat bildiruvchi modal so‘zlar ustida ishlash; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan shaxsiy xavfsizlikka doir qoidalarni yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan komikslarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Komiksdagi dialog matnini ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki qabul qilib oling.

3. 3-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


125

HAYVONLARGA MUNOSABAT. G‘AMXO‘RLIK

1. O‘qing.

Mushukvoy, qorning ochgan bo‘lsa kerak-a? Hozir senga ovqat beraman.

Voy, qo‘lim og‘riyapti.

Allo! Bizga zudlik bilan yordamingiz kerak.

Uyingizda hayvon boqasizmi? O‘g‘lingizga hayvonlarda bo‘ladigan virus yuqqan.

Kerakli muolajalar qilindi. Tez orada o‘g‘lingiz sog‘ayadi.

Yo‘q, biz hayvon boqmaymiz? Qanday qilib yuqishi mumkin?

Xayriyat!


70-audiomaterial matni

Bolalar jonivorlarni yaxshi ko‘rishadi. Bolalar ba’zan kattalar nazoratisiz qolishganda, ko‘cha-ko‘yda yurgan daydi it-mushuklarni ham silab, ularga mehr ko‘rsatishga harakat qilishadi. Ammo bu jonivorlarning ko‘pi kasal bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularning yunglarida turli xil viruslar bo‘lish ehtimoli bor. Ba’zi hayvonlarda quturish kasali bo‘lishi ham mumkin. Bu kasallik odamga daydi va qarovsiz hayvonlar tishlaganida yuqadi. Keyin virus asab tolalari bo‘ylab organizmga tarqaladi. Bunday vaziyatda darhol shifokorga murojaat qilib, quturishga qarshi emlanish zarur. Quturish kasalligiga qarshi vaksinani fransuz olimi Lui Paster kashf qilgan.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida berilgan gap qismlarini namunada ko‘rsatilgani kabi o‘zaro to‘g‘ri moslashlari zarur. Namuna:

Audiomatn nima haqida? Hayvonlar bilan muloqotda bo‘lganda ehtiyotkor bo‘lish haqida.

Ushbu topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.


126

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Bolaning xatosi nimada?
2. Ko‘chadagi hayvonlar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerak?
3. Uyingizda hayvon boqqanmisiz?
4. Hayvonlarni qanday parvarish qilish kerak?
5. Hayvonlar tishlab olganda qanday birinchi yordam ko‘rsatishni bilasizmi?

muolaja, sog‘aymoq, xayriyat, nazoratsiz, daydi, quturish, qarovsiz

3. Tinglang.

HAYVON TISHLAGANDA

1. Jarohatni yuving.
2. Shifokorga shoshiling.
3. Zarur muolajani oling.
4. Hayvonni veterinarga tekshirtiring.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Audiomatn nima haqida? — Lui Paster
2. Quturish kasaliga qarshi vaksinani kim kashf qilgan? — Hayvon tishlaganda
3. Quturish kasali qanday yuqadi? — Hayvonlar bilan muloqotda bo‘lganda ehtiyotkor bo‘lish haqida

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Hayvon tishlaganda emlanish zarur.		
2	Kasallik hayvonlar bilan o‘ynaganda yuqadi.		
3	Daydi hayvonlarga mehr ko‘rsatish kerak.		
4	Bolalar hayvonlarni yaxshi ko‘radi.		

Mustaqil topshiriq

Sevimli hayvoningizning rasmini chizing. Uni nima sababdan yaxshi ko‘rishingiz haqida kichik matn yozing.

5. 5-topshiriqda hayvonlar va ular bilan muloqotda ehtiyotkor bo‘lish mavzusi yuzasidan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z bilimlari va shaxsiy kuzatuvlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur.

Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Hayvon tishlaganda emlanish zarur. *To‘g‘ri. Izoh: chunki ba’zi hayvonlarda quturish kasali bo‘lishi mumkin. Hayvon tishlaganda quturish kasalini qo‘zg‘atuvchi viruslar odamga yuqishi va organizmga jiddiy xavf solishi mumkin. Bu xavfning oldini olish uchun emlanish shart.*

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *robot* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *ROBOT* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *R, O, B, O, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, sevimli hayvonlari rasmini chizishlari va nima sababdan yaxshi ko‘rishlarini kichik matn ko‘rinishida yozib kelishlari lozim.

71-DARS. LOYIHA TURLARI

Maqsad: loyiha turlari, uni amalga oshirish bosqichlari, qiziqarli va foydali loyiha namunalari bilan tanishtirish, ular haqida ma’lumotlar berish, bilim va ko‘nikmalar hosil qilish; kelasi zamon fe’l shakli *(-moq)* va hozirgi zamon fe’l shakli *(-yap)* haqida ma’lumotlar berish; ushbu zamon shakllarining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan sevimli hayvonlari rasmini chizishlari va nima sababdan yaxshi ko‘rishlarini kichik matn ko‘rinishida yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida

qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



127

LOYIHA TURLARI

1. O‘qing.

Loyihalar har bir sohaga taalluqlidir. Hayotda biror muammoga yechim topish maqsadida turli loyihalar amalga oshirilyapti.

“O‘z uyingni o‘zing saqla” loyihasi sizga, albatta, yoqadi. Bunda ekologiyani iflos-lanishdan saqlashga e’tibor qaratiladi. Yoshlar ko‘cha yoki maktab atrofini baklajka va qog‘ozlardan tozalashlari ko‘zda tutilgan.

“Qanotli do‘stlarimiz” loyihasida esa saqich qoldiqlaridan halok bo‘layotgan qush-larga e’tibor qaratilgan. Buning oldini olish uchun saqichlarni biror-bir narsaga o‘rab, axlat chelagiga tashlash kerakligi uqtiriladi.

Foydali harakatlardan yana biri “Tengdoshlarim bilan” loyihasidir. Kasalxonada uzoq davolanayotgan bolalar zerikadilar. Bo‘sh vaqtlarini unumli tashkillashtirish uchun ularga qog‘oz va rangli bo‘yoqlar tarqatilgan. Bemor bolalar chizgan rasmlar-dan ko‘rgazma tashkil etilgan.

Bu kabi loyihalar bugungi kunda ko‘p tashkil qilinadi. Siz ham ularda ishtirok etgan bo‘lsangiz kerak.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Loyiha nima?
2. Loyihalar orasida sizga qaysi biri yoqdi? Nima uchun?
3. Siz qanday loyihalar haqida eshitgansiz?

loyiha
unumli
ko‘rgazma
saqich
g‘oya
xavfsizlik

3. Tinglang.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.


3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki qabul qilib oling. O‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

4. 3-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

71-audiomaterial matni

O‘zbek tili darsida “Qushlar – bizning do‘stimiz” mavzusida kichik matn tuzish vazifasi berildi. Ustoz hozirgi kunda qushlar ko‘proq odamlar saqichlarni yerga tashlaganidan qirilib ketayotganligini aytdi. Bu xabar Alisherga juda qattiq ta’sir qilgan edi. Shunda Alisherda bir g‘oya paydo bo‘ldi. Qushlar qanchalik tabiatning ajralmas bo‘lagi ekani va ularsiz tabiatni tasavvur qilib bo‘lmasligini tushunib yetgan. Alisher inshosida qushlar uchun ko‘p uya yasamoqchi ekanini va ularni yaqin atrofdagi daraxtlarga ilib chiqmoqchi ekanini yozdi. Ertasi kuni ustoz Alisherning yozgan matnini hammaga o‘qib, berdi. Barcha sinfdoshlarga g‘oya yoqib qarsak chalishdi. Ustoz bu g‘oyani loyihaga aylantirishga yordam berdi. Loyiha tuzilgandan so‘ng ularni texnologiya ustozi boshchiligida barcha o‘g‘il bolalar yasaydigan bo‘lishdi. Alisherning loyihasi maktab direktoriga ham juda yoqdi. Direktor ishni boshlashdan avval, albatta, texnika xavfsizligi bilan tanishib chiqish kerakligini ta’kidladi. Bir necha darslar davomida bolalar o‘nga yaqin uyalar yasab, maktab atrofidagi daraxtlarga ilib chiqishdi. Alisherning loyihasi maktab an’anasiga aylandi. 6-sinf

o‘g‘il bolalari “qushlar qo‘riqchilari”ga aylandilar.



128

DIQQAT QILING!

Kitob o‘qiyapti.

Kitob o‘qimoqchi.

Kelasi zamon maqsad fe’li qo‘shimchasi: -moqchi
Hozirgi zamon fe’li qo‘shimchasi: -yap

4. O‘ylang va toping. Yozing.

qushlar | texnika xavfsizligi | kichik matn | Alisher | “Qushlar qo‘riqchilari”

Namuna *2. Direktor ishni boshlashdan oldin **texnika xavfsizligi** bilan tanishib chiqish kerakligini ta’kidladi.*

1. O‘zbek tili darsida “Qushlar – bizning do‘stlarimiz” mavzusida ___ ___ tuzish vazifasi berildi.
2. Direktor ishni boshlashdan oldin ___ ___ bilan tanishib chiqish kerakligini ta’kidladi.
3. ___ tabiatning ajralmas bir bo‘lagi.
4. Ertasi kuni ustoz ___ yozgan matnni hammaga o‘qib berdi.
5. 6-sinf o‘g‘il bolalari ___ ___ ga aylandilar.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Akbar shu kunlarda o‘z loyihasi ustida **ishlayapti.***

1. Akbar shu kunlarda o‘z loyihasi ustida (*ishlamoq*).
2. Mamlakatimizda loyihalarni ishga tushirish uchun imkoniyatlar (*yaratilmoq*).
3. Hozirgi kunda yoshlarimiz o‘rtasida “Startap” loyihalar (*ko‘paymoq*).
4. Loyihalarning natijalari hayotimizga ijobiy (*ta’sir ko‘rsatmoq*).
5. Ko‘plab yoshlarimiz o‘zlarining loyihalarini jahon miqyosiga (*olib chiqmoq*).

Mustaqil topshiriq

Siz ham o‘z loyihangizni tuzing va logotipingizni yarating.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida gaplardagi chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan so‘z yoki so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi ko‘chirib yozishlari lozim. Namuna:

*Direktor ishni boshlashdan oldin **texnika xavfsizligi** bilan tanishib chiqish kerakligini ta’kidladi.*

6. 5-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘tilgan grammatik mavzu mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi kalit so‘zlar sifatida berilgan noaniq shakldagi fe’llarning grammatik ko‘rsatkichlarini, ya’ni zamon va shaxs-son shakllarini to‘g‘rilab gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*1. Akbar shu kunlarda o‘z loyihasi ustida **ishlayapti.***

*2. Mamlakatimizda loyihalarni ishga tushirish uchun imkoniyatlar **yaratilgan**.*


7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *loyiha* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *LOYIHA* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *L, O, Y, I, H, A* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘z loyihalarini tuzishlari va logotiplarini yaratishlari lozim.

72-DARS. IRODANING LOYIHASI

Maqsad: loyiha turlari, uni amalga oshirish bosqichlari, qiziqarli va foydali loyiha namunalari bilan tanishtirish, ular haqida ma'lumotlar berish, bilim va ko'nikmalar hosil qilish; kelasi zamon fe'l shakli *(-moq)* va hozirgi zamon fe'l shakli *(-yap)* haqida ma'lumotlar berish; ushbu zamon shakllarining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og'zaki va yozma nutqda qo'llanilishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug'at-so'zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo'llay olish malakasini shakllantirish.


129

IRODANING LOYIHASI

1. Tinglang.

IRODANING TAQDIMOTI

Quti bu – boshpana emas.
Daydi hayvonlarga yordam bering.
Bizning loyihamizga qo'shiling!

Abdunazarova Iroda. Yoshi 14 da. "Homepaw" loyihasi asoschisi.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Irodaning loyihasi sizga yoqdimi?
2. Bu loyihaning maqsadi nima?
3. Siz yana qanday yangiliklar qo'shgan bo'lar edingiz?
4. Siz ham uysiz jonivorlarga yordam berasizmi?
5. Iroda haqida sizda qanday taassurot uyg'ondi?

o'rindiq
g'amxo'rlik
taassurot
boshpana

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *Abror uysiz hayvonlarga yordam bermoqchi, shu maqsadda veterinar bilan maslahatlashdi.*

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o'z loyihalarini tuzishlari va logotiplarini yaratishlari bo'yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o'quvchilar o'rtasida qisqa savol-javob o'tkazing va shu bilan o'quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o'quvchilar e'tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o'tkazib oling.

2. 1-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating yoki o'zingiz ifodali tarzda bir marotaba o'qib eshittiring.

72-audiomaterial matni

Salom, O'zbekiston!

Keling, "Homepaw" loyihamiz bilan tanishamiz (https://t.me/homepaw).

Biz har kuni bekatlar, axlat qutilari va minglab o'rindiqlar yonidan o'tib, ozg'in, nochor, tashlandiq, odamlar e'tibori va g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan, omon qolish uchun kurashayotgan hayvonlarni ko'ramiz. Va bizda ularga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi, lekin har doim ham yordam bera olmaymiz. "Homepaw" – uysiz hayvonlarni qutqarish, ularga yordam berish va g'amxo'rlik qilishga qaratilgan ko'ngilli loyiha. Bu loyiha

orqali biz boshpanasiz qolgan hayvonlarning holatini yaxshilashga intilamiz. Loyihamizning ishtirokchilarini tashabbuskor o‘smir yoshlar tashkil qiladi.

Bu loyiha orqali biz uysiz hayvonlarga yordam beramiz. Bizning loyihaga qo‘shilsangiz, uysiz hayvonlarga yanada ko‘proq yordam berish va himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Barcha yaxshi niyatlaringizni haqiqatga aylantira olasiz, ajoyib tajribaga ega bo‘lasiz, jamoaviy ruhni his qilasiz va ko‘plab tadbirlarda ishtirok etasiz. Maqsadimiz: insoniylik prinsiplariga amal qilgan holda bu loyihaga ko‘pgina ko‘ngilli yoshlarni jalb qilib, uysiz hayvonlarning sonini kamaytirish va ularga g‘amxo‘rlik qilish, yoshlarda atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish. Bu bilan biz kichkina harakatlarimiz orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan katta muammolarni hal qilamiz.


Biz bilan birga bo‘ling!

2021-yil 23-dekabr, Toshkent shahri

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob berishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring. So‘ngra javoblarni og‘zaki qabul qilib oling. O‘quvchilar o‘z javoblarini to‘g‘ri asoslay olishlariga diqqat qiling. Fikr-mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar berilgan rasmlar asosida namunada ko‘rsatilgani kabi fe’llarni kelasi va hozirgi zamon shaklida qo‘llagan holda qo‘shma gaplar tuzishlari lozim. Namuna:

*Abror uysiz hayvonlarga yordam **bermoqchi**, shu maqsadda veterinar bilan maslahatlashyapti.*


130

4. O‘qing.

Irodaning muvaffaqiyat siri so‘ralganda u shunday javob berdi: “Loyihani tashkil qilish uchun bir qancha bosqichlarni bosib o‘tish kerak. Birinchi bo‘lib insonga g‘oya kerak bo‘ladi. G‘oya maqsadga aylantiriladi. Maqsadni amalga oshirish uchun sohaga oid bilimga ega bo‘lish kerak. Navbatdagi jarayon harakat hisoblanadi. Yuqoridagi bosqichlardan o‘tgandan so‘ng bizga mablag‘ zarur bo‘ladi. Loyihani mana shu ketma-ketlikda amalga oshirsak, kutilgan natijaga erishamiz. Aslida muvaffaqiyatning siri tinimsiz mehnatdadir!”

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Loyihani yaratishi va amalga oshirish uchun nimalar kerak?

1. G‘
2. M
3. B
4. H
5. M
6. N

Mustaqil topshiriq

Guruhlarga bo‘linib, “Kitobxon do‘stim”, “Men kichik tadbirkorman”, “Yosh ekolog” mavzularidan birini tanlab, shu asosda o‘z loyihangiz taqdimotini tayyorlang.

YOSH TADQIQOTCHI

1. Tinglang.

5. 4-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida o‘qib tushungan ma’lumotlari asosida tuzilgan savollarga javob topishlari va ushbu javoblarni katakchalarga mos ravishda kiritib qo‘yishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna: *1)* ***g‘oya****; 2)* ***maqsad****.*

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida

ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *loyiha* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *LOYIHA* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *L, O, Y, I, H, A* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, guruhlarga bo‘lingan holda “Kitobxon do‘stim”, “Men kichik tadbirkorman”, “Yosh ekolog” mavzularidan birini tanlab, shu asosda o‘z loyihalari taqdimotlarini tayyorlab kelishlari lozim.

73-DARS. YOSH TADQIQOTCHI


Maqsad: loyiha turlari, uni amalga oshirish bosqichlari, qiziqarli va foydali loyiha namunalari bilan tanishtirish, ular haqida ma’lumotlar berish, bilim va ko‘nikmalar hosil qilish; kelasi zamon fe’l shakli *(-a/-y)* va hozirgi zamon fe’l shakli *(-yap)* haqida ma’lumotlar berish; ushbu zamon shakllarining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; mavjud bilimlarni mustahkamlash; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan guruhlarga bo‘lingan holda “Kitobxon do‘stim”, “Men kichik tadbirkorman”, “Yosh ekolog” mavzularidan birini tanlab, shu asosda o‘z loyihalari taqdimotlarini tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan audiomaterial matnini ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

скачано с сайта www.idum.uz



130

4. O‘qing.

Irodaning muvaffaqiyat siri so‘ralganda u shunday javob berdi: “Loyihani tashkil qilish uchun bir qancha bosqichlarni bosib o‘tish kerak. Birinchi bo‘lib insonga g‘oya kerak bo‘ladi. G‘oya maqsadga aylantiriladi. Maqsadni amalga oshirish uchun sohaga oid bilimga ega bo‘lish kerak. Navbatdagi jarayon harakat hisoblanadi. Yuqoridagi bosqichlardan o‘tgandan so‘ng bizga mablag‘ zarur bo‘ladi. Loyihani mana shu ketma-ketlikda amalga oshirsak, kutilgan natijaga erishamiz. Aslida muvaffaqiyatning siri tinimsiz mehnatdadir!”

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Loyihani yaratishi va amalga oshirish uchun nimalar kerak?

1. G
2. M
3. B
4. H
5. M
6. N

Mustaqil topshiriq

Guruhlarga bo‘linib, “Kitobxon do‘stim”, “Men kichik tadbirkorman”, “Yosh ekolog” mavzularidan birini tanlab, shu asosda o‘z loyihangiz taqdimotini tayyorlang.

YOSH TADQIQOTCHI

1. Tinglang.


73-audiomaterial matni

Dunyo miqyosida katta muvaffaqiyatlarga erishgan turkiyalik 16 yoshli Emirhan Kurtulush miya operatsiyalarida shifokorlarga yordam berish uchun sun’iy intellekt ishlab chiqdi. Kurtulush bu loyihasi bilan AQSHda o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi. Shu bilan birga, Stenford universitetiga ham o‘qishga qabul qilindi.

Emirhan Kurtulush Amerika Qo‘shma Shtatlarida tashkil etilgan Regeneron Xalqaro fan va muhandislik ko‘rgazmasida biotibbiyot muhandisligi sohasida dunyoda birinchi bo‘ldi. Kurtulush dekabr oyida bo‘lib o‘tadigan Nobel mukofoti marosimiga ham taklif qilindi.

Kurtulush Ixlas kollejidagi faoliyati haqida shunday dedi:

“Men bu loyihani 10-sinf o‘rtalarida boshlaganman. Bu loyiha bilan taxminan 2.5-3 yildan beri shug‘ullanaman. Umuman olganda, men ushbu loyihada 3500 soatdan ortiq ishladim. Butun jarayon davomida oilam mening eng katta yordamchim bo‘ldi, lekin oilamdagi eng katta yordamchim bobom edi. U – bolaligimdan ilm-fan bilan shug‘ullanishimni xohlagan va undagan inson. Yoshligimda multfilmlardan ko‘ra hujjatli filmlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan bola edim. Men eng ko‘p orzu qilgan universitet Stenford universiteti edi va men hozir u yerga o‘qishga qabul qilindim”.



131

2. O‘ylang va toping. Yozing.

10-sinf | bobom | Nobel | AQSH | sun’iy intellektni | Emirhan Kurtulush | 3500

Namuna *1. Emirhan Kurtulush **AQSH**da o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi.*

1. Emirhan Kurtulush ____ da o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi.
2. 16 yoshli Emirhan Kurtulush ____ ____ ishlab chiqdi.
3. Dekabr oyida bo‘lib o‘tadigan ____ mukofoti marosimiga ham taklif qilindi.
4. Ushbu loyiha uchun ____ soatdan ortiq ishladim.
5. Men bu loyihani ____ o‘rtalarida boshlaganman.
6. Mening oilamdagi eng katta yordamchim ____ edi.

muvaffaqiyat, sun’iy, miya, faoliyat, yordamchi, imtiyoz

3. O‘qing.

“InnoWeek.uz–2021” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida “International Robotics Challenge–2021” robototexnika musobaqasi o‘tkazildi.

Ushbu xalqaro tanlovda 16 ta davlatdan 40 nafar turli millat vakillari ishtirok etdi.

Ushbu tanlovda Romitandagi “Barkamol avlod” bolalar maktabida tahsil olayotgan Jahongir Ramazonov ham qatnashdi.

Maktab to‘garagi a’zosi Jahongir Ramazonov ushbu xalqaro tanlovda oliy o‘rinni egallab, oltin medalni qo‘lga kiritish bilan birga Turkiya davlatining Anqara shahridagi Ostin texnika universitetiga ham grant asosida o‘qishga qabul qilindi. Jahongir – Romitan tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o‘quvchisi. Festivalda uning “Ofitsiant robot”, “O‘t o‘chiruvchi robot” va “Yo‘l tanlamas avtomodel” loyihalari hakamlarning e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Jahongir – qo‘l mehnatini yengillashtiradigan 60 dan ortiq ixtirolar muallifi. Bo‘sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o‘rganadi.

Teylor Uilson 1994-yili tug‘ilgan. U – yadro sintezi reaksiyasi uchun mo‘ljallangan fuzor qurilmasini yaratgan dunyodagi eng yosh ixtirochi.

7 yoshida yorug‘likni o‘tkazuvchi detektor ixtirosi uchun “Intel” kompaniyasining xalqaro ilmiy-texnika yarmarkasida mukofot bilan taqdirlandi.

Teylor 2013-yilning fevral oyida “TED–2013” konferensiyasida yerosti yadro reaktorlarining parchalanishi haqida so‘zlab, barchani hayratga soldi. U ma’ruzasida o‘zi yasagan ixcham yadro reaktori 50 MVt elektr energiyasi ishlab chiqarish xususiyatiga egaligi, uni 30 yilda bir marta to‘ldirish yetarli ekanini aytdi.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqorida tinglab tushungan matnlari asosida chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan so‘z yoki so‘z birikmalaridan mosini

qo‘yib, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi ko‘chirib yozishlari lozim. Namuna:

*Emirhan Kurtulush **AQSH**da o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi; 16 yoshli Emirhan Kurtulush **sun’iy intellekt** ishlab chiqdi.*

3. 3-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki mustaqil tarzda o‘qittiring.

4. 4-topshiriqda yuqoridagi matn yuzasidan bir nechta hukmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishlari va qisqacha izoh berib o‘tishlari zarur. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma tarzda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

1. Jahongir – Romitan tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o‘quvchisi. To‘g‘ri; 2. Teylor bo‘sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o‘rganadi – noto‘g‘ri. Izoh: Jahongir bo‘sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o‘rganadi, Teylor emas.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar tartibsiz holatda berilgan so‘zlar tartibini to‘g‘rilagan holda gap hosil qilishlari hamda noaniq shakldagi fe’llarni kerakli zamon va shaxs-son kategoriyasiga aylantirishlari lozim. Topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

*1. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz tomonidan ko‘plab ixtirolar **qilin-yapti**.*


6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *ixtiro* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *IXTIRO* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *I, X, T, I, R, O* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, ixtiro qilmoqchi bo‘lgan qurilma (buyum, moslama, jihoz)larining rasmini chizishlari yoki maketini yasab kelishlari lozim.

74-DARS. ADABIY O‘QISH. BESH BOLALI YIGITCHA

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish. Shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish. Badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish.



132

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Jahongir – Romitan tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o‘quvchisi.		
2	Teylor bo‘sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o‘rganadi.		
3	Teylor Uilson 1994-yili tug‘ilgan.		
4	Yorug‘likni o‘tkazuvchi detektor ixtirosi uchun Teylor 10 yoshida “Intel” kompaniyasining xalqaro ilmiy-texnika yarmarkasida mukofotlanadi.		
5	Jahongir – qo‘l mehnatini yengillashtiradigan 60 dan ortiq ixtirolar muallifi.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz tomonidan ko‘plab ixtirolar qilinyapti.*

1. bugungi, qilinmoq, kunda, ko‘plab, ixtirolar, yoshlarimiz, yurtimizda, tomonidan.
2. Jahongir, qo‘l, ishlamoq, mehnatini, mashina, yengillashtiradigan, ustida.
3. o‘zining, yana, bosh, Teylor, bir, bo‘lajak, ixtirosi, ustida, qotirmoq.
4. Robototexnika, Zembi, to‘garagida, roboti, o‘zining, ilk, chizmoq, maketini.
5. Yaponiyalik, etmoq, do‘stlari, Suzuko, “Ixtirochi bolalar”, festivalida, bilan, birga, ishtirok.

Mustaqil topshiriq

Siz qanday ixtiro qilmoqchisiz? Ixtirongizning rasmini chizing yoki maketini yasab keling.

ADABIY O‘QISH

BESH BOLALI YIGITCHA

(asardan parcha)

...Meni qishlog‘imizdagi jamiki o‘g‘il bolalar yomon ko‘rishadi, shuning uchun ham menga “besh bolali” deb laqab qo‘yishgan. Besh bolali deyishlariga, rostini aytsam, uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz, chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o‘zim katta qilganman, opam – traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu kunduzi dalada. Otam bo‘lsa bola yupatishni hech bilmaydi, ukalarim yig‘lagudek bo‘lsa, to‘nini yelkasiga tashlab sekingina guzarga jo‘nab qoladi…

...Mana, opamning yigirmasini ham o‘tkazib yubordik, ma’rakaga to‘plangan odamlar ham tarqalib bo‘lishdi. Mo‘tabar opam idish-tovoqlarni naridan-beri yuvgan bo‘ldi-da, u ham chiqib ketdi. Parpi buvam opamni ko‘rngan kunimiz ertasiga ikki oyog‘i shol bo‘lib yotib qolgan. To‘xta xolam ham kasal: nafasi qisyapti, erta-yu kech

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan ixtiro qilmoqchi bo‘lgan qurilma (buyum, moslama, jihoz)larining rasmini chizish yoki maketini kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Asardan parchani bir marta o‘zingiz ifodali tarzda o‘qib bering. O‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. Asar haqidagi dastlabki xulosa va fikrlari bilan o‘rtoqlashing. Quyidagi savollar bilan murojaat qiling:

Sizningcha, bu asar nima haqida?

Asardagi voqealar qaysi davr voqealari deb o‘ylaysiz?

Nega asar bosh qahramoni Orifjonga “besh bolali yigitcha” deb nom qo‘yishgan edi?


Ularning “Bolalar uyi”ga tushib qolishiga sabab nima bo‘ldi?

Orifjonning qaysi xislati sizga eng ko‘p yoqdi?

Hikoya bosh qahramoni o‘rnida siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?.

3. O‘quvchilarda badiiy asar mutolaasi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantiring. G‘oyaviy-badiiy tahlil qila olishlariga, qahramonlar taqdiri, asardagi voqealarga nisbatan o‘z pozitsiyalari va qarashlarini erkin bildira olishlariga erishing. Fikr va mulohazalarini oxirigacha tinglang. Badiiy adabiyotga mehr uyg‘oting. Unutmang: adabiyot nafaqat til o‘rgatish vo-

sitasi, balki insoniy tuyg‘ularni kamol toptirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va ruhan ulg‘aytirish vositasi hamdir.



133

yotgani-yotgan. Ukalarim bilan katta uyimizda o‘tiribmiz. Otamni shu uydan kuzatgandik, opam bilan ham shu uyda vidolashganmiz…

…Detdomxona darvozasi oldida aravadan tusha boshladik. Roziq tog‘am bilan Parpi buvam yuz-ko‘zlarimizdan o‘pishib, tez-tez xabar olib turishga va’da berib, Omon bilan Robiyaning “Bu yerda qolmaymiz!” deb chinqirib yig‘lashlariga ham qaramay, ko‘zlarini chirt yumib jo‘nab ketishdi. O‘zini yerga urib yig‘layotgan Omonni men, undan battar faryod chekayotgan Robiyani O‘ris xola ko‘tarib oldi, ichkari kirdik. Hovli juda katta, gir atrofi g‘ishtli imorat ekan. O‘ris xola bizni hovlida qoldirib, o‘zi bir chekkadagi pakana uylardan biriga kirib ketdi. Ko‘z yumib ochguncha atrofimizni begona bolalar qurshab olishdi. Xuddi maymunnimi, ayiqning bolasinimi yoki undan ham qiziqroq biror narsani tomosha qilayotganday angrayib qolishdi. Bir xillari ko‘zlarini katta-katta ochib, tilini chiqarib masxara qilayotgandek; bir xillari “voy bechoralar-ey”, deb achinayotgandek; uchinchi bir xili, qani, sinchiklab qaray-chi, qaysi birini o‘rtoqlikka tanlasam bo‘larkan”, deya boshdan oyog‘imizga razm solishyapti. Yana bir xillari kiyim-boshimizga, bet-qo‘limizni yuvgan-yuvmaganligimizga ham razm solayotganga o‘xshaydi. Ular bo‘lsa ozoda kiyinib olishgan, kiyim-boshlarida yamoq yo‘q, bet-qo‘llari ham sovunlab yuvilganga o‘xshaydi. Qorinlari ham to‘q bo‘lsa kerak, ko‘zlarida ovqat tashvishi sezilmayapti, yuzlari yiltirab, chehralari kulib turibdi…

…Ishonsangiz, shu paytda juda, juda ham xursandman. Bolalarning oldida sakrab-sakrab o‘yinga tushvoray-tushvoray deb yugurib kelyapman. Oh, hozir opajonim tirik bo‘lgandamidi! A’lo baho olganimni eshitib, “aqlligimdan o‘rgilay” deb betlarimdan o‘pgan bo‘lardi…

Umrim bino bo‘lib ona tilidan birinchi marta “a’lo” olishim. Qishlog‘imizda uy ishlaridan bo‘shab, tuzukroq dars qilolmasdim, bu yerda dumini xoda-xoda qilib ma’rab turgan sigir ham yo‘q, hovli ham supurmaysan, jo‘xori tuyib osh solish-u tomga sholi yoyishni ham o‘ylamaysan, o‘qiysan, o‘qiysan, tamom-vassalom! Rostini aytsam, ilonboz samovar yaxshi bola ekan, xuddi qishloqdagi o‘rtog‘im Mahmudxonga o‘xshab ketarkan, juda rahmdil, juda mehribon. Buning ustiga, hamma fanlardan faqat “a’lo” olib o‘qiydi deng. Darslarni birga tayyorlaymiz. U-chi, agar ishonsangiz, muallimlardan ham ko‘p biladi; anavi chap yonimda yotadigan Qoravoyni aytmaysizmi, o‘zi qo‘ng‘izdek dum-dumalog‘-u, lekin kallasi to‘la bilim ekan. Qoravoy ham men bilan o‘rtoq bo‘lib qoldi. Sinfda ham yonma-yon o‘tiramiz, kechasi hovliga chiqquday bo‘lsak ham, bir-birimizga sherik bo‘lib chiqamiz.

– Besh bolali, – deydi ba’zan dars qilib o‘tirganimizda, – menga qara.
– Nima deysan? – deb so‘rayman.
– Darslaringni sal yetkazib olgin, keyin senga ham gorn chalishni o‘rgatib qo‘yaman, xo‘pmi? Og‘zing katta, tomog‘ing yo‘g‘on, sendan ajoyib gornchi chiqadi...
– Gorning nimasi?
– Men chalaman-ku, o‘sha-da.
– Uni bizning qishloqda surnay deyishadi.
– Yo‘q, bu surnay emas, gorn! Bildingmi?
– Bildim.
– O‘rgataymi?
– Mayli.

Bir nafas o‘tar-o‘tmas berigi yonboshimda peshanasini jiyirib hisob ishlab o‘tirgan samovar ham meni turtib qoladi:
– Besh bolali.
– Nima deysan?
– Kanikulda qayoqqa borasan?

4. Matndagi yangi so‘zlar ustida ishlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha tushunchalar bering. Yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi adabiy o‘qish darsidan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va matndagi yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Besh bolali yigitcha” asari yuzasidan “Asardan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelishlari lozim.

75-DARS. TAKRORLASH

Maqsad: 3-chorak yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlar ustida ishlash; ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Besh bolali yigitcha” asa-

ri yuzasidan “Asardan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *yakun* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *YAKUN* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *Y, A, K, U, N* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.



Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, ogohlantiruvchi belgilarning rasmini chizib, ularning ma’nolarini yozib kelishlari lozim.

4-CHORAK.
BORIGA BARAKA

79-DARS. BORIGA BARAKA

Maqsad: Fikrga nisbatan quvonch va achinish ma’nolarini bildiruvchi *xayriyat, baxtimga, afsus, attang* kabi modal so‘zlari bilan tanishtirish. Ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish. Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan lug‘at so‘zlarni takrorlab, yod olib kelish topshirig‘ini baholang, tahlil qiling. Ushbu lug‘at so‘zlar yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu yuzasidagi bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda keltirilgan reklama audio matnini dastlab 2 marotaba tinglating, yoki o‘zingiz bir marotaba ifodali tarzda o‘qib bering, (bunda o‘zingiz oldindan tarqatma materillar tayyorlab, ularga mashhur reklama matnlarini yozib kelishingiz va o‘quvchilarga tarqatib, ularni ifodali o‘qib berishlarini hamda ushbu reklama qilinayotgan mahsulot nomini topishlarini so‘rashingiz mumkin) Matn asosida berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.


136

4-chorak

BORIGA BARAKA

DIQQAT! DIQQAT!

1. Tinglang.

1+1=3

-70%

2. O‘qing.

1. Biz oilamiz bilan televizor ko‘rayotgan edik. Maishiy texnika mahsulotlariga aksiya bo‘layotgani haqidagi reklamani ko‘rib qoldik. Unda yozilishicha, 2 ta xarid qilingan texnika uchun 3-buyum sovg‘a tariqasida tekinga berilar ekan. Yaqinda yangi uyga ko‘chib chiqqan edik. Oyim bu reklamani ko‘rib juda xursand bo‘ldilar. “Xayriyat, ulgurar ekanmiz. Aksiya tugashiga hali bir hafta bor ekan”, – dedilar. Ikki kundan keyin maishiy texnika sotiladigan do‘konga bordik. Do‘konni topguncha biroz qiynaldik. U yerdan muzlatkich va kir yuvadigan mashina sotib oldik. Bizga sovg‘a tariqasida elektr choynak berishdi.

2. Oyimga “Telegram” messenjeri orqali bir reklama kelibdi. Unda bir do‘konda bolalar kiyimlari uchun aksiya ketayotgani yozilgan ekan. Xarid qilingan kiyimlarga 30 foiz chegirma berilar ekan. Oyim singlim ikkimizni do‘konga olib bordilar. Afsuski, chegirma muddati tugagan ekan. Shunday bo‘lsa ham, kiyimlar sotib oldik.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Matn raqamiga mos reklamani toping va juftlang.


A

Qaynoq chegirmalar mavsumi boshlandi. Endilikda siz “Bolajon” do‘konida har bir kiyim uchun 30 foiz chegirmaga ega bo‘lishingiz mumkin. 1 mln so‘mdan ortiq qiymatdagi xarid uchun esa 200 ming so‘mlik vaucher ham taqdim etiladi. Shoshiling, vaqt chegaralangan.

Manzil: Ko‘ksaroy tumani, Oqtosh ko‘chasi, 7-uy.

Ish vaqti: 8:00–20:00 gacha. Yakshanba – dam olish kuni.

2. 2-topshiriqda berilgan matnni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘quvchilarga o‘qittiring. Ajratilgan so‘zlarga diqqat qilishlarini so‘rang.



137

B Maishiy texnika sotib olmoqchimisiz? “Texnodo‘kon” – to‘g‘ri tanlov. Bu yerda siz istalgan turdagi maishiy texnika vositasini sotib olishingiz mumkin. Bizning mahsulotlarimiz sifatli va hamyonbop.
Mijozlar uchun yangilik: endi siz 2 ta buyum xarid qiling va biz 3-sini sizga sovg‘a qilamiz.

Aksiya muddati 1-martdan 22-martgacha.
Manzil Baraka ko‘chasi.
Ish vaqti Har kuni 8:00–22:00 gacha.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Matn va reklamani diqqat bilan o‘qib chiqing. Reklamadagi kamchiliklarni topib, yozing.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1-matn bo‘yicha:
1. Oilaga televizor va muzlatkich kerak edi.
2. Birinchi oilaga bonus tariqasida choynak sovg‘a qilindi.
3. Maishiy texnika xarid qilishgandan 5 kun o‘tib, aksiya tugadi.
4. Maishiy texnika haqidagi e’lonni qaysi sanada ko‘rishdi va qaysi kuni sotib olishdi?
2-matn bo‘yicha:
5. “Bolalar” kiyim do‘koni aksiya e’lon qilgan edi.
6. Bolalar kiyimlari sotiladigan do‘konda 2 ta kiyim sotib olinsa, 3-si tekinga berilar edi.
7. Kiyim do‘konida 30 foizlik chegirmadan tashqari yana boshqa aksiya ham bor edi.
8. Aksiya tugagan bo‘lsa ham, kiyimlar xarid qilishdi.

6. O‘qing.

xayriyat | afsus | attang

DIQQAT QILING!
Xayriyat | Afsus, attang

Namuna *1. Piyola qo‘limdan sirpanib tushib ketdi, xayriyat, sinmadi.*

1. Piyola qo‘limdan sirpanib tushib ketdi, ____, sinmadi.
2. ____ , bugun muzeyga borolmas ekanmiz.
3. ____ , imtihondan a’lo baho oldim.
4. ____ , olgan qovunimizning ta’mi shirin ekan.
5. Bugun juda qattiq shamol bo‘ldi. ____ , daraxtlarning gullari to‘kilib ketdi.
6. Shu kitobni juda o‘qigim kelayotgan edi, ____ , sotilib ketmabdi.
7. ____ , bu safar ham musobaqada g‘olib bo‘lolmading.
8. U juda tez yugurib ketayotgan edi, ____ , yiqilmadi.

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz yoqtirgan buyumning reklamasi matnini A4 o‘lchamdagi qog‘ozga yozing. Dizaynini ham yarating.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar berilgan matnlarni o‘qiydilar, so‘ngra ushbu matnlarga muvofiq keluvchi reklama dizaynini topib birgalikda juftlaydilar.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar berilgan reklama matnlarini o‘qib chiqishlari va o‘z shaxsiy munosabatlarini bildirgan holda ushbu reklamalardagi kamchiliklarni dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bayon qilishlari lozim.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi ikkita reklama matni bo‘yicha berilgan hukmlarning *to‘g‘ri / noto‘g‘ri* ekanligini topishlari va namunada ko‘rsatilgani kabi izoh berib o‘tishlari lozim. Ushbu topshiriq yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar gaplardagi nuqtalar o‘rniga berilgan modal sozlardan mosini tanlab, gaplarni namunada ko‘rsatilgani kabi to‘ldirishlari lozim. *Namuna: 1. Piyola qo‘limdan sirpanib tushib ketdi,* ***xayriyat****, sinmadi.*

7. Mavzudagi lug‘at so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, xotirada yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kines usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini mazkur lug‘at so‘zlari bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *reklama* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *REKLAMA* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *R, E, K, L, A, M, A* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib, ularni yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari, lug‘at so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari yoqtirgan ixtiyoriy mahsulotga reklama matni tuzib, uning dizaynini ham yaratib, A4 format qog‘ozga chizib kelishlari lozim.

80-DARS. “KO‘NGIL KO‘ZI” AKSIYASI

Maqsad: fikrning tasdig‘i va gumonini bildiruvchi *albatta, shaksiz, shubhasiz, ehtimol, chamasi, shekilli* kabi modal so‘zlari bilan tanishtirish; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



138

“KO‘NGIL KO‘ZI” AKSIYASI

1. O‘qing.

albatta, shaksiz
ehtimol, chamasi, shekilli,
xo‘sh, yo‘g‘-e, yaxshi

– Alisher, men bir narsani o‘ylab qoldim. Sen nima deysan?
– Xo‘sh, Ra’no, nimani o‘ylading?
– Sinfimizda aksiya tashkil qilsak degandim. Turli xil audio kitoblar va sport anjomlari sotib olardik. Ularni ko‘zi ojiz tengdoshlarimizga yuborar edik.
– Albatta, juda yaxshi o‘ylabsan. Buni faqat sinfimiz bilangina emas, maktabda o‘tkazishimiz ham mumkin. Buning uchun ustozimizdan yordam so‘raymiz. Bu g‘oya senda qayerdan paydo bo‘ldi?
– Kecha televizorda “Ko‘ngil ko‘zi” loyihasida “Sovg‘alar karvoni” xayriya aksiyasi Namanganga yo‘l olishi haqida ma’lumot berishdi. Bu aksiyaga men ham o‘z hissamni qo‘shgim keldi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

albatta | ehtimol

Namuna *1. Xayriya aksiyasi nima ekanini bilasizmi?*
***Albatta**, aksiya nima ekanini bilamiz.*

1. Xayriya aksiyasi nima ekanini bilasizmi?
2. Ko‘rishda nuqsoni borlarga bag‘ishlangan aksiyadan tashqari yana boshqa aksiyalar bormi?
3. Aksiyada yana nimalarni sovg‘a qilish mumkin?
4. Maktabingizda ham aksiyalar tashkil qilib turiladimi?
5. Brayl alifbosi haqida bilasizmi?

3. Tinglang.

ko‘ngil ko‘zi

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan dialog matnini o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda ifodali tarzda o‘qitiring.

2. 2-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘quvchilar *albatta* va *ehtimol* modal so‘zlarini to‘g‘ri qo‘llab savollarga javob berishlari lozim. O‘quvchilarga qaysi holatda *albatta*, qaysi holatda *ehtimol* ishlatilishi haqida tushuncha bering. O‘quvchilarning bu topshiriqni yozma bajarishlarini nazorat qiling. Topshiriqni guruhlarda ham bajarsa bo‘ladi. 1-guruh *albatta,* so‘zi bilan 2-guruh *ehtimol* so‘zini ishtirok ettirib gaplar tuzadilar. Namuna:


Albatta, aksiya nima ekanini bilamiz.

3. 3-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

80-audiomaterial matn

“Ko‘ngil ko‘zi” loyihasi muallifi Mass-media fondi raisi o‘rinbosari Saida Mirziyoyeva hisoblanadi. Ushbu loyiha 2019-yil tashkil etilgan. Unda yurtimizning barcha hududlaridagi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktab-internatlariga Yangi yil “Sovg‘alar karvoni” xayriya aksiyasi amalga oshiriladi. Loyiha doirasida ko‘zi ojiz bolalar uchun Brayl alifbosida chop etilgan bosma kitoblar, audio qo‘llanmalar, cholg‘u asboblari,

zamonaviy sport anjomlari va boshqa narsalar yetkazib beriladi. Hatto aksiya ko‘z nuri tiklanishi mumkin bo‘lgan bolalarda bepul jarrohlik amaliyoti ham o‘tkazadi.



139

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	“Ko‘ngil ko‘zi” xayriya aksiyasi eshitishida nuqsoni borlar uchun tashkil qilingan.		
2	Aksiya haqida Ra’no ma’lumot berdi.		
3	Aksiya Navro‘z bayramida o‘tkaziladi.		
4	“Ko‘ngil ko‘zi” 2019-yildan boshlab o‘tkaziladi.		
5	Aksiya doirasida ko‘z nuri tiklanishi mumkin bo‘lgan bolalarda bepul jarrohlik amaliyoti ham o‘tkazadi.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

shubhasiz | albatta | chamasi | shekilli | yaxshi

Namuna *Ular, **albatta,** yordam berishlarini aytdilar.*

Ustozimiz bilan aksiya haqida suhbatlashdik. Ular, ____ , yordam berishlarini aytdilar. ____ , bu aksiyada ota-onalar ham ishtirok etishardi. Anvarning dadasi sport kiyimlari ishlab chiqaradigan fabrikada ishlaydi. U bolalar uchun sport kiyimlari sovg‘a qilmoqchi ____ . Sobir bugun audio kitoblarni qayerdan topish mumkinligini so‘radi. ____ u audio to‘plam hadya qilmoqchi. “____ , unda men o‘zim yasagan o‘yinchoqlarni taqdim etaman”, – dedi Ra’no. ____ , barchamiz xayriya aksiyasida ishtirok etishimizdan mamnunmiz.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

“Maktabda” mavzusida dialog tuzing. *Xo‘sh, yaxshi, yo‘g‘-e, albatta, ehtimol* so‘zlaridan foydalaning.

Mustaqil topshiriq

“Mehr nuri” nomli matn tuzing.

4. O‘quvchilarga 1-topshiriqda o‘qigan dialoglari asosida 2-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda o‘quvchilar tinglab tushungan ma’lumotlari asosida berilgan hukmlarning tog‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashlari lozim. Namuna:

“Ko‘ngil ko‘zi” xayriya aksiyasi eshitishida nuqsoni borlar uchun tashkil qilingan – to‘g‘ri.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga modal so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni daftarlariga yozishlari lozim. Yuqoridagi bilimlar asosida 5-topshiriqni dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda barartiring. Namuna:

Ular, albatta, yordam berishlarini aytdilar.

6. Dars davomida olgan bilimlari va yangi so‘zlarni mustahkamlash maqsadida “Maktabda” mavzusida o‘quvchilar partadoshi bilan birga dialog tuzishi lozim. Dialog vaqtida o‘quvchilarning o‘zbek tilida so‘z qo‘llashlari va talaffuzlariga diqqat qiling. O‘quvchilar o‘z dialoglarida *xo‘sh, yaxshi, yo‘g‘-e, albatta, ehtimol* so‘zlaridan foydalanishlariga e’tibor qarating va o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur so‘zlar bilan boyitib boring.


7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *aksiya* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *AKSIYA* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *A, K, S, I, Y, A* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor mustahkamlab, “Mehr nuri” mavzusida matn tuzib kelishlari lozim.

81-DARS. MAKTABDAGI AKSIYA

Maqsad: fikrning tartibini bildiruvchi *xullas, demak, avvalo, birinchidan, ikkinchidan* kabi modal so‘zlar bilan tanishtirish; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



140

MAKTABDAGI AKSIYA

1. O‘qing.

Alisher:
– Salom, qadrdonlarim! Ahvollaringiz yaxshimi? Biz o‘tgan hafta sinfdoshlarimiz bilan ko‘zi ojiz tengdoshlarimizga sovg‘alar aksiyasini tashkil qildik.
Danil:
– Qanday yaxshi! Men ham bu haqda sinfdoshlarimga aytsam bo‘lar ekan.
Alisher:
– Shu aksiyadan keyin maktabimizda yana yangi aksiya tashkil qilinyapti.
Zembi:
– Xo‘sh, qanday aksiya ekan? Bizlarga ham aytib ber-chi.
Alisher:
– Rasmlar aksiyasi tashkil qilinyapmiz. Bizga turli xil mavzular taqdim etildi. Shu mavzularga oid rasmlar chizamiz.
Maks:
– Demak, yangi aksiyada ishtirok etarkansan-da.
Alisher:
– Albatta! Bu haqda keyinroq batafsil xat yozaman.

2. Tinglang.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

1. O‘zim uchun yangidan yangi *iqtidorlarni* kashf etdim.
A) bilimlilarni B) iste’dodlarni C) aqllilarni
2. Ra’no tasvirlagan faslni yana qanday atash mumkin?
A) fasllar kelinchagi B) kumush choyshab C) oltin fasl
3. Mehmonlar o‘zlariga yoqqan rasmlarni *sotib olishi* ham mumkin ekan.
A) olib ketmoq B) qabul qilmoq C) xarid qilmoq

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Men sizlarga varrak yasashni o‘rgatmoqchiman. (*Avvalo, albatta*), bizga qog‘oz, qamish cho‘plar, ip, qaychi, qalam va yelim kerak bo‘ladi. Ishning tartibi quyidagicha:
Birinchi, qog‘ozni olamiz. Kerakli o‘lchamda kesib olamiz.
Ikkinchi, ___ ___ ___
Uchinchi, ___ ___ ___
(Xullas, ehtimol, demak), varrak tayyor.

DIQQAT QILING!
xullas, demak, avvalo, birinchidan, ikkinchidan

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Mehr nuri” mavzusida matn tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan bolalarning o‘zaro suhbat matnini o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda ifodali tarzda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

81-audiomaterial matn

Salom, do‘stlarim. Biz maktabimizda aksiya o‘tkazdik. Bilasizlarmi, o‘quvchilar bir-biridan chiroyli rasmlar chizishdiki! O‘zim uchun yangidan yangi iqtidorlarni kashf etdim. Ayniqsa, Ra’no oppoq matoga tikkan “Yurtim jamoli” rasmi hammani

qoyil qoldirdi. U rangli iplarda kashta usulida bahor faslini tasvirlab berdi. Eng chiroyli chizilgan rasmlar tanlab olindi va rassomlarga esdalik sovg‘alari topshirildi. Endi o‘quv yili oxirida rasmlar ko‘rgazmasi tashkil qilar ekanmiz. Bu ko‘rgazmaga ko‘pgina mehmonlar taklif qilinar ekan. Mehmonlar o‘zlariga yoqqan rasmlarni sotib olishi ham mumkin ekan. To‘plangan mablag‘ga esa maktabimiz qizlari uchun yangi tikuv mashinasi sotib olinar ekan. Ha, aytgancha, men chizgan rasm ham ko‘rgazma uchun tanlab olindi. Xullas, aksiyaning birinchi qismi juda taassurotlarga boy bo‘ldi.


141

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Berilgan raqamlar ortidagi Jon Miltonning hikmatli so‘zini toping. Topishda lotin alifbosidan foydalaning. Tahlil qiling.

21 1 16 19 – 3 20 13 23 14 3 1 | 20 13 3 1 13 | 20 24 20 13
20 13 3 1 13 | 16 8 18 16 1 | 13 1 17 18 1 | 23 25 16

Mustaqil topshiriq

Kema yasash uchun nima kerakligi va ish jarayonining tartibini yozing.

BARAKASINI BERSIN

1. Tinglang

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Yuqoridagi audiomatnda qanday mantiqiy nomuvofiqliklarni sezdingiz?
2. Poliz rastasida qanday mahsulotlar sotiladi?
3. Sizningcha, mevalar rastasidan handalak sotib olish mumkinmi?
4. Sabzavotlar rastasidan qanday mahsulotlarni olamiz?

rasta
xushmuomala
narxni kelishtirish
ko‘katchi
afzallik
kamchilik

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi audiomatn ma’lumotlari asosida shakllantirilgan testni bajarishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning shartli sinonimlarni qo‘llash bilan bog‘liq malakalari baholanadi. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

Test kalitlari: 1) B; 2) A; 3) D.

4. 4-topshiriq shartiga ko‘ra o‘quvchilar grammatik ma’lumotlar asosida, yangi so‘zlardan foydalanib, rasmlarga qarab varrak yasash tartibini so‘zlab berishlari lozim. O‘quvchilar nutqida berilgan so‘zlardan foydalanishlariga e’tibor qarating va o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur so‘zlar bilan boyitib boring. Namuna:

Birinchidan, qog‘ozni olamiz. Kerakli o‘lchamda kesib olamiz.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar raqamlov ortidagi harflarning alifbodagi joylashuv tartibiga asoslanib, hikmatli so‘zni topishlari lozim. Bunda o‘quvchilardan tezkorlik va zukkolik talab qilinadi. *Javob:*

Vaqt – dunyoda undan uzun, undan qisqa narsa yo‘q.

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga olishlari va uch bo‘g‘inli so‘zga bittadan misol aytishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, kema yasash uchun nimalar kerakligi va ish jarayonining tartibini yozib kelishlari lozim.

82-DARS. BARAKASINI BERSIN

Maqsad: tasdiq va inkorni bildiruvchi *xo‘p, mayli, to‘g‘ri, yo‘q* kabi modal so‘zlar bilan tanishtirish; ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish; mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kema yasash uchun nimalar kerakligi va ish jarayonining tartibini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. *1-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.*

82-audiomaterial matni

Har yakshanba dadam bilan bozorga boramiz. Bizning bozorimiz juda serfayz. Sotuvchilar esa xushmuomala. Bugun ham bozorga bordik. Dadam sabzavot rastasidan handalak olyaptilar. Sotuvchi ayoldan narxni kelishtirishini so‘rayaptilar. Doimgidek biror mahsulot sotib olinadi. Shunda sotuvchi:

– Osh bo‘lsin! – deydi.

Dadam esa:

– Barakasini bersin, – deya javob qaytaradilar.

Men yugurib boraman-da, dadamning qo‘llaridan handalakni olaman. Endi navbat poliz mahsulotlari rastasiga. Biz u yerdan olma va o‘rik sotib olamiz. Sal nariroqdagi ko‘katchi xola esa sizga “bonus” deya yana bir bog‘ ko‘kat qo‘shib beradilar. Oxirida mevalar qatoridan sabzi va kartoshka sotib olamiz va uyga qaytamiz.

2. O‘quvchilarga tinglab tushungan matnlari asosida 2-topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar audio matn-

da uchragan xatoliklarni aniqlab, ularni to‘g‘rilab yozishlari lozim. Matnda mantiqan bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan gaplar berilgan. Bolalarga so‘zlarning sinonimlari va mantiqiy to‘g‘ri javoblarni topishlariga yordam beruvchi misol keltiring va namuna sifatida to‘g‘rilab ko‘rsating. *Namuna:*

1. *Handalak sabzavotlar rastasida sotiladimi? Yo‘q, handalak poliz mahsulotlari rastasida sotiladi.*


141

5. O'ylang va toping. Yozing.

Berilgan raqamlar ortidagi Jon Miltonning hikmatli so'zini toping. Topishda lotin alifbosidan foydalaning. Tahlil qiling.

21 1 16 19 – 3 20 13 23 14 3 1 | 20 13 3 1 13 | 20 24 20 13
20 13 3 1 13 | 16 8 18 16 1 | 13 1 17 18 1 | 23 25 16

Mustaqil topshiriq

Kema yasash uchun nima kerakligi va ish jarayonining tartibini yozing.

BARAKASINI BERSIN

1. Tinglang

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Yuqoridagi audiomatnda qanday mantiqiy nomuvofiqliklarni sezdingiz?
2. Poliz rastasida qanday mahsulotlar sotiladi?
3. Sizningcha, mevalar rastasidan handalak sotib olish mumkinmi?
4. Sabzavotlar rastasidan qanday mahsulotlarni olamiz?

rasta
xushmuomala
narxni kelishtirish
ko'katchi
afzallik
kamchilik

2. *Sotuvchi ayoldan narxni kelishtirishini so‘rayaptilar.* Ajratib ko‘rsatilgan so‘z qanday ma’noda qo‘llangan? *Yarashtirib qo‘yish ma’nosida.*


3. 3-topshiriqda o‘quvchilar “T-sxema” metodi asosida oldingi darslarda olgan bilim va ko‘nikmalariga tayangan holda an’anaviy va internet bozorlarini o‘zaro qiyoslab, ularning afzalliklari va kamchiliklarini sanab o‘tishlari va og‘zaki izohlab berishlari lozim.

4. Navbatdagi bosqichda o‘quvchilar bilan “Qaysi bozorda aksiyalar ko‘proq o‘tkaziladi va nima uchun?” savoli ostida kichik debat tashkil qiling. O‘quvchilar o‘z shaxsiy fikr va mulohazlarini asoslab berishlariga e’tibor qarating.

5. 4-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni – bozor turlarini topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim.

Jadvalda qo‘llanilgan so‘zlar: *qurilish, o‘yinchoq, kiyim, non, texnika, kitob, buyum, mashina.*

6. Dialogni o‘qittiring (bunda ko‘ngilli o‘quvchilarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qittirishingiz maqsadga muvofiq).


142

3. O'ylang va toping. Yozing.

An'anaviy bozor: Afzalliklari | Kamchiliklari
Internet bozor: Afzalliklari | Kamchiliklari

Qaysi bozorda aksiyalar ko'proq o'tkaziladi?

4. O'ylang va toping. Yozing.

DIQQAT QILING!
xo'p, mayli, menimcha, to'g'ri, yo'q

Namuna KIYIM BOZORI

A	Q	E	D	V	U	K	B	K	M
Q	A	N	O	F	I	I	U	M	A
U	R	O	S	E	B	Y	Y	U	SH
R	T	N	U	K	P	I	U	G	I
I	O	A	Z	I	N	M	M	I	N
L	G	L	U	T	A	F	A	L	A
I	U	O	N	O	N	A	F	R	E
SH	L	U	M	B	E	R	A	X	M
L	H	K	T	E	X	N	I	K	A
S	S	O'	Y	I	N	CH	O	Q	I

5. O'qing.

Dadasi:
– O'g'lim, mana shu 50 ming so'm pulni olib, bozordan non, yog', guruch olib kel.
Alisher:
– Xo'p bo'ladi, dadajon.
Alisher do'konga keldi. Sotuvchini oldiga bordi.
Alisher:
– Assalomu alaykum! Menga non, yog' va guruch kerak.
Sotuvchi:
– Va alaykum assalom! Juda yaxshi.
Alisher:
– Yog' necha pul?
Sotuvchi:
– 17 ming so'm.
Alisher:
– Amaki, guruch va non necha pul bo'lyapti?
Sotuvchi:
– Non 2000 so'm, guruch esa 11 ming so'm.
Alisher:
– Katta rahmat!
Sotuvchi:
– Salomat bo'l.

Alisher dadasiga necha pul qaytim olib keldi?

7. Dialog yuzasidan berilgan savollarni o‘qib eshittiring va o‘quvchilardan

dastlab og‘zaki tarzda, so‘ngra yozma ko‘rinishda ushbu savollarga javob berishlarini so‘rang. Bunda mantiqiy mushohada hamda shaxsiy tajriba va bilim talab qiluvchi savollarga imkon qadar erkinroq yondashing. O‘quvchilarning shaxsiy fikr va mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

8. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va ularni o‘qib eshittirishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Bozorda” mavzusida *xo‘p, mayli, albatta, xo‘sh, to‘g‘ri, yo‘q* modal so‘zlarini ishlatgan holda matn tuzib kelishlari lozim.

84-DARS. BOLALARGA BERING DUNYONI

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish. Kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish va kitobga muhabbat uyg‘otish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Bozorda” mavzusida *xo‘p, mayli, albatta, xo‘sh, to‘g‘ri, yo‘q* modal so‘zlarini ishlatgan holda matn tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.


143

6. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Aytinglar-chi, Alisher qancha xarajat qildi?
2. Dadasi bergan pulning hammasini sarfladimi?

Mustaqil topshiriq

“Bozorda” mavzusida matn tuzing. Matnda *xo‘p, mayli, albatta, xo‘sh, to‘g‘ri, yo‘q* so‘zlaridan foydalaning.

BOLALARGA BERING DUNYONI

1. Tinglang.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Sizga qaysi yozuvchi yoki shoirning kitoblari yoqadi?
2. Kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi qanday aksiyalarda ishtirok etgansiz?
3. “Kitob – eng yaqin do‘st, dono maslahatchi” deganda nimani tushunasiz?
4. Ko‘p kitob o‘qigan bola bilan kitob o‘qimaydigan bolaning farqi bormi?


kitobxon
almashmoq
fikr

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Rasmlar sizga qaysi asarlarni eslatyapti? Asar nomini muallifi bilan yozing.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



144

A) Xudoyberdi To'xtaboyev
C) Hans Kristian Andersen
B) Aleksandr Sergeyevich Pushkin
D) Jyul Vern

4. O'qing.

Dunyodagi eng og'ir kitob Britaniya muzeyida saqlanayotgan XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo'yi 1,9 metr, og'irligi 320 kilogrammdir.

Dunyodagi eng katta lug'at "Nemis lug'ati" ("Deutsches Worterbuch") bo'lib, u 1854-yili Yakob va Vilgelm Grimmlar tomonidan yozila boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo'shgan. 33 jildli ushbu lug'at 34519 betdan iborat.

Jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o'qish bo'yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat kechgan.

5. O'ylang va toping. Yozing.

1. Dunyodagi eng og'ir kitob qayerda saqlanadi?
A) Luvr muzeyida B) Britaniya muzeyida
C) Ermitaj muzeyida D) Metropoliten muzeyida

2. Dunyodagi eng katta lug'at necha sahifadan iborat?
A) 34539 B) 43539 C) 34519 D) 34195

3. Dunyodagi eng katta lug'at qaysi davlatga tegishli?
A) Germaniya B) Buyuk Britaniya C) Rossiya D) Xitoy

4. 224 soat davom etgan musobaqa qaysi yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan?
A) uzoq masofaga yugurish B) jamoa bo'lib qo'shiq kuylash
C) jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o'qish D) mashinkada harf terish

84-audiomaterial matn

Har yili 1-iyun – “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” oyim bilan kitob do‘koniga boramiz. Shu kuni bayram munosabati bilan sotib olingan kitoblar uchun ko‘plab sovg‘alar ulashiladi. O‘tgan yili kitoblar narxiga chegirma qilib berishdi. Ishonasizmi, biz 10 ta kitob sotib olgan edik, yosh kitobxonga deb menga yana bir kitob sovg‘a qilishdi. Men bu kitoblarning hammasini o‘qib tugatganman. Maktabimizda ham “Kitobxonlik aksiyasi” bo‘ladi. Bunda biz sevimli kitoblarimizdan maktab kutubxonasiga sovg‘a qilamiz. Bu menga juda yoqadi. Sababi men yoqtirgan kitobni boshqa tengdoshlarim ham o‘qiydi. Shunda ular bilan asar haqida bemalol fikr almasha olamiz. Menga Hans Kristian Andersen, Pushkin, Jyul Vern, Janni Rodari va Xudoyberdi To‘xtaboyevlarning kitoblari juda yoqadi.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi tinglab tushungan matnlari bo‘yicha berilgan savollarga og‘zaki javob berishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittirishingiz maqsadga muvofiq.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar rasmlarda berilgan ertaklar mualliflarini topishlari lozim. Qo‘shimcha tarzda bu ertaklar qaysi xalq ertaklari ekanligini ham so‘rashingiz mumkin. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq.

Test kalitlari: *1) C; 2) C; 3) D; 4) A; 5) B; 6) B.*

4. 4-topshiriqda berilgan faktalogik ma’lumotlarni ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qittiring.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar test savollariga javob topadilar.

Test kalitlari: *1) B; 2) C; 3) A; 4) C.*

6. 6-topshiriqda o‘quvchilar bugungi o‘zlashtirilgan grammatik bilimlar asosida qavs ichida berilgan modal so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

***Balki**, sizga ham oyingiz yoki buvijoningiz “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib bergandir. **Ehtimol**, siz ham achingandirsiz.*

7. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (mikrofonning qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h. k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, yoqtirgan kitoblari qahramonlarining rasmini chizib kelishlari lozim.

85-DARS. MAKTABDAGI KIMOSHDI SAVDOSI REJASI

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan yoqtirgan kitoblari qahramonlarining rasmini chizib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



145

6. O‘ylang va toping. Yozing.

DIQQAT QILING!
balki, albatta, ehtimol, afsus

Namuna *Balki, sizga ham oyingiz yoki buvijoningiz “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib bergandir.*

Bolalikni ertaklarsiz tasavvur qilish qiyin. (*Balki, darhaqiqat*), sizga ham oyingiz yoki buvijoningiz “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib bergandir. Bu ertakni eshitganimda bo‘g‘irsoqqa juda achinganman. (*Ehtimol, demak*), siz ham achingandirsiz. Aytingchi, nega ertakning oxiri bunday yakun topdi?

“Oltin baliq” ertagi ham juda qiziqarli. (*Albatta, attang*), uni eshitgansiz. (*Afsus, xayriyat*), ertakning oxirida cholning uyi yana eski bo‘lib qoladi-da.

Ayting-chi, baliq oviga borganmisiz? Siz ham oltin baliq tutib olsangiz, undan nima so‘ragan bo‘lar edingiz?

Mustaqil topshiriq

Yoqtirgan kitoblaringiz qahramonlarini chizing.

MAKTABDAGI KIMOSHDI SAVDOSI REJASI

1. O‘qing.

Salom, Agata! O‘qishlaring yaxshimi? Mening ishlarim va o‘qishlarim yaxshi. Yaqinda do‘stlarimiz bilan yangi loyiha ishlab chiqdik. Loyihamizni amalga oshirish uchun bizga mablag‘ kerak bo‘lyapti. Bu haqida uzoq o‘yladik va do‘stim Anvar maktabda kimoshdi savdosi o‘tkazish taklifini berib qoldi. Biz sinfdoshlarimiz bilan robototexnika to‘garagida yasagan narsalarimizni kimoshdiga qo‘ymoqchimiz. Kimoshdi savdosida ota-onalarimiz ishtirok etadilar. Sizlarda ham shunday kimoshdi savdolari o‘tkaziladimi?

Kimoshdi savdosi o‘tgandan keyin, albatta, natijasi bilan bo‘lishaman.

Hurmat bilan o‘zbekistonlik do‘sting Alisher.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Kimoshdi savdosi haqida eshitganmisiz?
2. Bolalar nima uchun kimoshdi savdosi o‘tkazishga qaror qilishdi?
3. Kimoshdi savdosida ular nimalarni sotmoqchi?
4. Kimoshdi savdosida kimlar ishtirok etadi?

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnini o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida ifodali tarzda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan savollarga og‘zaki javob berishlarini so‘rang. O‘quvchilarga ushbu savollarni o‘qib eshittiring.

3. 3-topshiriqni o‘rganilgan grammatik mavzu asosida bajaradilar. Topshiriq shartiga ko‘ra, o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirishlari lozim. So‘ngra bu topshiriqni mashq daftarida yozma ravishda bajartiring. Namuna:

“Xo‘sh, qanday yangiliklar bor?” – deb so‘radi O‘ktam.


O‘ktam qanday yangiliklar borligini so‘radi.

4. 4-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

85-audiomaterial matni

Maktabdagi kimoshdi savdosi rejasi

Maktabimiz o‘quvchilari yangi ishlab chiqqan loyihalariga mablag‘ topish maqsadida kimoshdi savdosi, ya’ni auksion o‘tkazishga qaror qilishdi. Auksion o‘tkazish qoidalariga ko‘ra, o‘tkazilish sanasi va soatini ham kelishib olishdi. Anvar auksionga to‘garaklarda yasagan mahsulotlarini qo‘yishlarini ta’kidladi. Yulduz qizlar ham zardo‘zi mahsulotlari bilan qatnashmoqchiligini aytdi. Bir ovozdan bolalar kelishib oldilar. O‘quvchilar ichidan Sarvar auksion o‘zi nimaligini so‘radi. “Auksion” lotincha so‘z bo‘lib, maxsus kimoshdi bozorini anglatadi. Unda cheklangan ro‘yxat asosida mahsulotlar sotuvga qo‘yiladi. Sinf rahbari Nazira Abduvaliyevna auksion savdosida namuna mahsulotlar savdoga qo‘yilishini, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi mahsulotni sotib olishini aytdi. Bolalarga bu juda qiziq tuyuldi. Albatta, ularning ham ota-onalari auksionda qatnashmoqchi ekanini aytishdi. Shunday qilib, bolalar kimoshdi savdosi o‘tkaziladigan kunni intizorlik bilan kuta boshlashdi.


146

DIQQAT QILING!

Maktabda kimoshdi savdosini o‘tkazamiz.

Anvar maktabda kimoshdi savdosini o‘tkazishimiz haqida aytdi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *“Xo‘sh, qanday yangiliklar bor?” – deb so‘radi O‘ktam. O‘ktam qanday yangiliklar borligini so‘radi.*

1. “Kimoshdi savdosini qaysi kuni o‘tkazamiz?” – deb so‘radi Zumrad.
2. “Kelasi shanba kuni maktab faollar zalida kimoshdi savdosi o‘tkaziladi”, – dedi Alisher.
3. “Kimoshdi savdosida mening bobom ham ishtirok etadi”, – dedi Botir.
4. “Kimoshdi savdosida men ham yasagan robotimni sotuvga qo‘yaman”, – dedi faxrlanib Dilshod.
5. “Sinfimiz qizlari zardo‘zi mahsulotlari bilan qatnashadi”, – dedi Yulduz.

4. Tinglang.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Anvar	qizlar ham zardo‘zi mahsulotlari bilan qatnashmoqchiligini aytdi.
Sarvar	kimoshdi savdosida namuna mahsulotlar savdoga qo‘yilishini aytdi.
Nazira Abduvaliyevna	ota-onalari kimoshdida qatnashmoqchi ekanini aytishdi.
Yulduz	kimoshdiga to‘garaklarda yasagan mahsulotlarini qo‘yishlarini ta’kidladi.
Bolalar	kimoshdi o‘zi nimaligini so‘radi.

Mustaqil topshiriq.

Sinfda o‘quvchilar bilan auksion tashkillashtiring. Sinf auksionida qatnashish uchun o‘zingiz tayyorlagan mahsulotni olib keling.

5. 5-topshiriq 4-topshiriqda tinglangan matn asosida bajartiriladi. O‘quvchilar berilgan ismlar va ular bildirgan fikrlar mosligini topishlari lozim. Top-

shiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq. Namuna:

Anvar auksionga to‘garaklarda yasagan mahsulotlarini qo‘yishlarini ta’kidladi.

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *robot* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *ROBOT* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *R, O, B, O, T* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, sinf auksionida qatnashish uchun biror buyum yoki mahsulot tayyorlab olib kelishlari lozim.

86-DARS. KIMOSHDI SAVDOSI TARIXI

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan sinf auksionida qatnashish uchun biror buyum yoki mahsulot tayyorlab olib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa



147

KIMOSHDI SAVDOSI TARIXI

1. O‘qing.

O‘quvchilar orziqib kutgan kun keldi. Maktab faollar zalida o‘quvchilar tomonidan ilk marta tashkil etilayotgan kimoshdi savdosi boshlandi. Birinchi bo‘lib Zumrad zardo‘zlik to‘garagida tikkan zardo‘zi do‘ppi sotuvga qo‘yildi. O‘quvchilar mahsulotlar narxini kimoshdi savdosi shartiga ko‘ra boshlang‘ich narxni mahsulotga ketgan xomashyolar narxidan kelib chiqib belgilashgan edi. Do‘ppi qatnashchilarga juda ham yoqdi va do‘ppini Dilshodning dadasi yaxshi narxga sotib oldi. Shu tariqa, mahsulotlar auksioni qiziqarli va qizg‘in davom etdi. Auksion so‘ngida Dilshodning ixtirosi bo‘lgan dars jadvali bo‘yicha ma’lumot beruvchi, qiziqarli latifalar aytib beruvchi robot ham sotuvga qo‘yildi. Barcha ota-onalar bu ixtiroga qoyil qolishdi. Farzandlarini albatta robototexnika to‘garagiga berishlarini aytishdi. Robot juda qizg‘in bahslashuvlar natijasida Botirning bobosiga sotildi. U bundan juda baxtiyor ekanini kimoshdi savdosi oxirida gapirib o‘tdi. Bolalar ko‘zlaganlaridan ham ko‘proq mablag‘ga ega bo‘lishdi. Maktab ma’muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Maktab ma’muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.*
“Bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turamiz”, – deb ota-onalar va maktab ma’muriyati kelishib oldilar.

1. Maktab ma’muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.
2. Botirning bobosi robot sotib olganidan juda baxtiyor ekanini aytib o‘tdi.
3. Barcha ota-onalar farzandlarini robototexnika to‘garagiga berishlarini aytishdi.
4. Dilshodning dadasi do‘ppi juda ham did bilan tikilganini aytdi.

3. Tinglang.

savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga oid bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirishni namunada berilgandek tushuntirib bering. Topshiriqni dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajartiring. Namuna:

Maktab ma’muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.

“Bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turamiz”, – deb ota-onalar va maktab ma’muriyati kelishib oldilar.

3. 3-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

86-audiomaterial matni

Auksionlar uch yuz yil oldin o‘tkazilishni boshlagan. Birinchi auksion XVII asrda Gollandiyada o‘tkazilgan. Undan keyin Angliyada, Fransiyada va boshqa joylarda o‘tkazila boshlangan. Kimoshdi savdolari ikki xil bo‘lib, birinchisi narxni pasaytirish va ikkinchisi narxni oshirish hisobiga amalga oshirilgan. Gollandiya uslubida birinchi bo‘lib narxni to‘lashga rozi bo‘lgan insonga mahsulot sotilgan va bu pasaytirilgan narxli auksion hisoblangan. Angliyacha kimoshdi savdosida esa eng katta narxni taklif qilgan inson mahsulotini sotib olgan. Kimoshdi savdosining o‘ziga xos turlari mavjud: sotib olgan inson haqida ma’lumot beriladigan va sotib oluvchi e’lon qilinmay, sir tutiladigan.

Kimoshdi savdosi auksionchi va uning assistentlari yordamida maxsus jihozlangan joyda, belgilangan vaqtda, ro‘yxati aniq mahsulotlar bilan o‘tkaziladi.

4. 4-topshiriqda yuqoridagi audiomatn yuzasidan berilgan savollarni o‘qib eshittiring va o‘quvchilardan ushbu savollarga javob berishlarini so‘rang. Bunda mantiqiy mushohada hamda shaxsiy tajriba va bilim talab qiluvchi savollarga imkon qadar erkinroq yondashing. O‘quvchilarning shaxsiy fikr va mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

5. 5-topshiriq lug‘at ustida ishlash bo‘lib, bunda o‘quvchilar Myunsterberg metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni topishlari va ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari lozim. Jadvalda qo‘llanilgan so‘zlar: *kimoshdi, auksion, savdo, Gollandiya, Angliya, internet, ovozli.*

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang.


Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *auksion* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda AUKSION so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *A, U, K, S, I, O, N* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, kimoshdi savdosi o‘tkazilayotgan jarayonni tasvirlab dialog tuzib kelishlari lozim.

87-DARS. MUSTAHKAMLASH JAVOB XATI

Maqsad: bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kimoshdi savdosi o‘tkazilayotgan jarayonni tasvirlab dialog tuzib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



148

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Kimoshdi savdolari nechanchi asrdan boshlab o'tkazila boshlagan?
2. Birinchi auksion qaysi qit'ada o'tkazilgan?
3. Narxni oshirish usulida o'tkaziladigan auksion qaysi davlatga xos?
4. Hozirgi kunda auksionning ikki xil turidan asosan qaysi biri o'tkaziladi?
5. Maktab o'quvchilari o'tkazgan auksion kimoshdi savdosining qaysi turiga mansub?
6. Nima deb o'ylaysiz: maktabda o'tkazilgan kimoshdi savdosi talabga javob berdimi? Faktlarni keltiring.

5. O'ylang va toping. Yozing.

g	d	z	c	a	v	b	n	m	l	j
o	a	u	**k**	s	i	o	n	g	j	h
l	q	e	**i**	**s**	r	t	y	u	i	o
l	t	y	**m**	i	o	v	o	z	l	i
a	f	g	**o**	s	a	v	d	o	h	p
n	d	f	**sh**	t	v	b	n	h	g	f
d	p	o	**d**	e	u	o	u	o	u	y
i	c	v	**i**	n	t	e	r	n	e	t
y	o	b	t	t	e	r	q	o	p	l
a	n	g	l	i	y	a	ch	a	h	j

Mustaqil topshiriq

Kimoshdi savdosi o'tkazilayotgan jarayonni tasvirlab dialog tuzib keling.

JAVOB XATI

1. O'qing.

Salom, Alisher! Yozgan ikkala xatingni ham oldim. Ishlaring va o'qishlaring yaxshi ekanidan xursandman. Men ham yaxshiman. Shu kunlarda imtihonlarim bor. Astoydil tayyorlanyapman. To'g'risi, yozgan xatlaringni o'qib, men ham sizlar bilan birga bo'lib qolgim keldi. Xatingni do'stlarimga ham o'qib berdim. Kimoshdi savdosi o'tkazib, loyihalaringiz uchun mablag' yig'ganlaringiz bizni ruhlantirdi. Biz ham sinfimiz o'quvchilari bilan aynan shunday kimoshdi savdosi o'tkazib, o'z fondimizni yaratmoqchimiz. Bu topgan mablag'larimizdan yordamga muhtoj bolalarga yordam beramiz. "Xalqaro bolalar fondi"ga o'z hissamizni qo'shamiz. Jamoa bilan ishlash insonga zavq bag'ishlaydi. O'ylaymanki, bunday kimoshdi savdosini endi tez-tez o'tkazib turasizlar. Biz ham shunga kelishdik. Ishlaring va o'qishlaringga muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan angliyalik do'sting Agata.


Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilarga 1-topshiriqdagi matn mazmuni asosida dialog

tuzdiring. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi va ularni nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash malakasi baholanadi. Telefon orqali gaplashish odobi haqida ham ma’lumot berib o‘ting.

3. 3-topshiriqda berilgan krossvordga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlarning sinonimini topishlari va daftarlariga ushbu krossvordni chizib, so‘zlarni katakchalarga mos ravishda yozib chiqishlari lozim. Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarning ham grammatik bilimlari, ham lug‘at boyligi sinovdan o‘tkaziladi.



Krossvord javoblari: *1. Kichik – katta. 2. Tez – sekin; 3. Qattiq – yumshoq. 4. Qora – oq. 5. To‘la – bo‘sh. 6. Past – baland. 7. Yo‘g‘on – ingichka.*

4. 4-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar asosida o‘quvchilar jarayonni nomlaydilar va u haqida berilgan ketma-ketlik asosida so‘zlab beradilar. Bunda mantiqiy mushohada hamda shaxsiy tajriba va bilim talab qiluvchi savollarga imkon qadar erkinroq yondashing. O‘quvchilarning shaxsiy fikri va mulohazalarini oxirigacha eshitishga harakat qiling.

5. 5-topshiriqni og‘zaki bajartiring. O‘quvchilarga savollarni o‘qib eshittiring. Bunda o‘quvchilarning javob berish jarayonida jumlalarni to‘g‘ri tuzishlariga e’tibor qaratishingiz lozim.

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ngra ularni o‘qib eshittiradilar.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, kimoshdi savdosi orqali sotilgan san’at asarlari haqida ma’lumot to‘plab kelishlari lozim.

90-DARS. QIMMATBAHO KITOB

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kimoshdi savdosi orqali sotilgan san’at asarlari haqida ma’lumot to‘plab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



150

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Agar sizni kimoshdi savdosida ishtirok etishga taklif qilishsa, qanday mahsulot bilan qatnashgan bo‘lar edingiz?
2. Siz tanlagan mahsulotning tannarxi qancha turadi?
3. Do‘stlaringiz orasida biror mahsulotni taklif qiladigan o‘quvchilar bormi?
4. Kimoshdi savdosi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ldingizmi?
5. Yana nimalarni bilishni xohlar edingiz?

Mustaqil topshiriq

Kimoshdi savdosi orqali sotilgan san’at asarlari haqida bilib keling.

QIMMATBAHO KITOB

1. O‘qing.

Dunyodagi eng qimmatbaho kitob bu – Leonardo da Vinchi tarafidan yozilgan “Lester Kodeksi” kitobidir. Bu kitobning hozirgi egasi amerikalik milliarder Bill Geyts hisoblanadi. Bill Geyts kitobni 1994-yili kimoshdi savdosida 30,8 million dollarga sotib olgan.

“Nomsiz” asari Say Tvombil tomonidan 1969-yilda chizilgan. Suratda kanopdan to‘qilgan mato, moy, mumli qalam, grafit, flomaster ishlatilgan. Asar 2020-yil 6-oktyabrda kimoshdi savdosida 38 million 685 ming dollarga sotilgan.


Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarining birinchi nashri 1825-yilda Sankt-Peterburg nashriyotida chop etilgan. Bu asar London kimoshdi savdosida 582000 dollarga sotilgan. U belgilangan narxidan 3 barobar qimmatga sotilgan asardir.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga taqsimot asosida navbatma-navbat o‘qiting.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar qavs ichida berilgan fe’llardan mosinini tanlab, namunada ko‘rsatilgani kabi yozishlari lozim. Namuna:

*Danil maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosida dadasi qatnashganligini **aytdi**.*



151

aytdi
gapirdi

2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Danil maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosida dadasi qatnashganini … (*aytdi, bordi*).
2. Agata menga kimoshdi savdosida Zumradning zardo‘zi do‘ppisi sotilgani haqida … (*gapirdi, bildi*).
3. O‘qituvchimiz kimoshdi savdosi muvaffaqiyatli o‘tganini (*kuyladi, gapirdi*).
4. O‘tkazilgan kimoshdi savdosi haqida Agataga xat yozganini (*aytdi, o‘qidi*).
5. Danil Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari 528000 dollarga sotilgani haqida (*aytdi, o‘ynadi*).

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *1. Ilm dargohi – maktab.*

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
M											

1. Ilm dargohi.
2. Samolyot boshqaruvchisi.
3. Ikki g‘ildirakli transport.
4, 7, 11. Kimoshdi savdosi.
5, 6. Faqat oyoq bilan o‘ynaladigan to‘p o‘yini.
8. Olmos, yoqut qanday toshlar hisoblanadi?
9. Yer yuzasining biror joyidagi ob-havoning ko‘p yillik rejimi.
10. Biz yashayotgan sayyora.
12. “Bo‘g‘irsoq” ertagida bo‘g‘irsoqni yeb qo‘ygan o‘rmon jonivori.

4. Tinglang.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar savollarga javob topib, berilgan bo‘sh katakchalarga shu so‘zlarning bosh harflarini yozib chiqadilar. Shu orqali yashirilgan so‘z aniq bo‘ladi. Topshiriqni avval og‘zaki, so‘ngra yozma ravishda bajartiring. Mavzu yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini tinglang. Namuna:

*1. Ilm dargohi – **maktab.***

*2. Samolyot boshqaruvchisi – **uchuvchi.***

Yashirilgan so‘z:


1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
M	U	V	A	F	F	A	Q	I	Y	A	T

4. 4-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

90-audiomaterial matni

1. Ginnes rekordlar kitobi – jahondagi rekordlar va g‘aroyib narsalar haqida ma’lumotlar kiritilgan kitob. Ushbu kitob 1954-yil Londonda aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan. Ushbu kitob tabiat va insoniyat olamidagi olamshumul yangiliklar, ulkan yutuqlar, noyob hodisalar va g‘aroyib voqealar haqida xabar beradi.

2. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti bo‘lgan “Guinness Publishing” tomonidan har yili nashr etib kelinadi. 1990-yilgacha 37 tilda 264 marta nashr etilgan. Dunyodagi eng ko‘p o‘g‘irlanadigan kitob ham Ginness rekordlar kitobidir. Har yili 2700 tasi o‘g‘irlanar ekan.


152

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Siz haftasiga necha soat kitob o‘qiysiz?
2. Qanday kitoblar o‘qishga qiziqasiz?

Mustaqil topshiriq

1. Kitobcha tayyorlash texnologiyasini uyda bajarib ko‘ring.

a

b

2. 2, 7, 3, 9 raqamlarining har birining orqasiga qaysi raqamlar to‘g‘ri keladi?
1, 4, 5, 8 raqamlarini chap tomondagi katakchalar ichiga yozing. O‘ylaymizki, sizlarda sahifalar raqamlari ketma-ket keladi. Tasavvuringizni ishga solib topshiriqni bajaring.

2 7 3 8

1 5 4 6

5. 5-topshiriqda berilgan savollar yuzasidan o‘quvchilar bilan kichik davra suhbati tashkil qiling. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga, fikr va mulohazalarini oxirigacha tinglashga harakat qiling.

6. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *rekord* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *REKORD* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *R, E, K, O, R, D* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, darslikda berilgan kitobcha tayyorlash texnologiyasi asosida mustaqil ravishda ixtiyoriy mavzu va dizaynda kitobcha tayyorlab kelishlari lozim.

91-DARS. “KIMOSHDI” MUSOBAQASI

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan kitobcha tayyorlash texnologiyasi asosida mustaqil ravishda kitobcha tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



153

“KIMOSHDI” MUSOBAQASI

1. O‘qing.


O‘qituvchi:
– Assalomu alaykum, bolalar! Bugun sizlar bilan “Kimoshdi” musobaqasini o‘tkazamiz?
Davron:
– Assalomu alaykum, ustoz! Bu qanday musobaqa? Biz uchun juda qiziq.
Yulduz:
– Maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosi kabi nimadir taklif beramizmi?
O‘qituvchi:
– Yo‘q, bu gal taklifni men beraman. Sizlar esa uni mehnatingiz, aql-u zakovatingiz hisobiga “sotib” olasiz.
Alisher:
– Biz kimoshdi savdosida ishtirok etamizmi, qanday yaxshi!
Davron:
– Bilasizmi, ustoz, men katta bo‘lsam, kimoshdi savdosida ishtirok etmoqchiman va noyob kitoblarni sotib olaman.
Akmal:
– Men esa avtomobillarga qiziqaman, eng qimmat avtomobilni sotib olaman.
O‘qituvchi:
– Juda yaxshi. Bugun esa yil davomida foydalanish uchun “Olimpiada masalalari” kitobini bilimingiz bilan “sotib” olishingiz mumkin.
(Zumrad anchadan buyon ota-onasidan olib berishlarini so‘ramoqchi bo‘lib yurgan kitobi kimoshdiga qo‘yilishini eshitib juda xursand bo‘lib ketdi.)
O‘qituvchi:
– Boshladikmi? Mana o‘tilgan mavzular yuzasidan misol va masalalar. Kim birinchi bo‘lib xatosiz ishlab topshirsa, “Kimoshdi”da yutib chiqadi.
(Bolalar bir ovozdan taklifni ma’qulladilar va misol yechishga kirishib ketdilar. Zumradning maqsadi shu kitobni qo‘lga kiritish edi. Bu ishga jiddiy kirishdi. U topshiriqni hammadan birinchi bajardi.)
O‘qituvchi:
– Barakalla, Zumrad! Sen hammadan o‘zib ketding. Topshiriqni to‘g‘ri va tez bajarding. Bu kitob seniki. Bugungi “Kimoshdi” musobaqasida Zumrad barchangizdan oshdi va kitobni qo‘lga kiritdi. Uni hammamiz tabriklaymiz.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Sizda ham “Kimoshdi” musobaqasida qatnashish istagi paydo bo‘ldimi?
2. Bu musobaqani kimoshdi savdosining qaysi turiga o‘xshatdingiz?
3. O‘quvchilar nimaning evaziga bugungi musobaqa ishtirokchisi bo‘ldilar?
4. Siz kelajakda qaysi kimoshdi savdosida qatnashgan bo‘lar edingiz?
5. Maktabingizda “Kimoshdi” musobaqasiga o‘xshagan tadbirlar o‘tkazib turiladimi?

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan dialogni ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holatda o‘qittiring.



154

3. O‘ylang va toping. Yozing.

4. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Devorga qo‘ngan qushim:
Ba’zilari bir qanot,
Ba’zilari qo‘sh qanot.
2. Bir do‘stim bor ajoyib:
Agar kim unga boqsa,
Kulib boqar iljayib.
3. Tepdim, tepdim,
Tepaga chiqdim.
4. Oyog‘i yo‘q, yuradi,
Og‘zi yo‘q, gapiradi.

Mustaqil topshiriq

“Mening orzum” mavzusida matn yozib keling.

ADABIY O‘QISH

HAQIQIY G‘OLIB

Bir qirol xalqi uchun yo‘l qurishga qaror qilibdi. Xalqqa yo‘lni ko‘rsatishdan oldin esda qolarli bir musobaqa uyushtirishni istabdi. Musobaqa shartiga ko‘ra, yo‘lni munosib tarzda bosib o‘tgan odam mukofotlanardi. Poygada g‘olib bo‘lishni xohlaydigan tumonat odam yig‘ildi. O‘sha kuni yo‘lni bosib o‘tgan odamlar qirolga bir narsadan shikoyat qilibdilar, ya’ni yo‘lning bir burchagida kattagina tosh va tuproq uyumi harakatlanishga noqulaylik tug‘dirganmish. Kun nihoyasida yolg‘iz bir yo‘lovchi marra chizig‘iga horib-charchab yetib kelibdi. Usti-boshi loy, tuproqqa belangan, ammo qirolga bebaho sovg‘a bilan yuzlanibdi: u oltin to‘la ko‘za uzatibdi.
– Yo‘lda tosh va tuproq uyumiga duch keldim. Odamlarga qulay bo‘lsin deb o‘sha to‘siqlarni olishga urindim. Tosh ichidan oltinga to‘la shu ko‘za chiqdi. Oltinlarni sizga olib keldim.
Qirol kulib javob beribdi:
– Bu oltinlar seniki!
– Yo‘q, meniki emas. Mening hech qachon buncha ko‘p boyligim bo‘lmagan.
– Ha, – dedi qirol. – Bu oltinlarga sen ega chiqding, musobaqa g‘olibi sensan! O‘z yo‘lini munosib bosib o‘tgan kishi sensan! Yo‘lni to‘siq-g‘ovdan bartaraf etgan kishi haqiqiy g‘olibdir!

2. 2-topshiriqda berilgan savollar yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual tartibda ishlashga, fikrlarini tinglashga harakat qiling.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar “Venn diagrammasi” metodidan foydalanib “Kimoshdi” musobaqasi va kimoshdi savdosining farqli va umumiy jihatlarini o‘zaro taqqoslashlari lozim. Ushbu topshiriqni avval og‘zaki, so‘ngra yozma bajartiring.

4. 4-topshiriqda berilgan topishmoqlarni audiomaterial asosida o‘quv-

chilarga ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring. O‘quvchilar topishmoq javoblarini topganlaridan so‘ng yana qanday topishmoqlarni bilishlarini so‘rang. Topishmoqlarning javoblarini qaysi belgilari asosida topganliklari haqida ham suhbatlashing.

91-audiomaterial matni

Topishmoqlar

1. Devorga qo‘ngan qushim,
   Ba’zilari bir qanot,
   Ba’zilari qo‘sh qanot.

2. Bir do‘stim bor ajoyib,
   Agar kim unga boqsa,
   Kulib boqar iljayib.

3. Tepdim, tepdim,
   Tepaga chiqdim.

4. Oyog‘i yo‘q, yuradi,
   Og‘zi yo‘q, gapiradi.


5. Mavzudagi lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *jumboq* so‘zi beriladi va doskaga gorizontal holatda *JUMBOQ* so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari yod olgan o‘zbek tilida *J, U, M, B, O, Q* harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib eshittirishlari lozim bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Mening orzum” mavzusida matn yaratib kelishlari lozim.

92-DARS. ADABIY O‘QISH. HAQIQIY G‘OLIB

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish; shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish; badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish.



154

3. O‘ylang va toping. Yozing.

4. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Devorga qo‘ngan qushim:
Ba’zilari bir qanot,
Ba’zilari qo‘sh qanot.
2. Bir do‘stim bor ajoyib:
Agar kim unga boqsa,
Kulib boqar iljayib.
3. Tepdim, tepdim,
Tepaga chiqdim.
4. Oyog‘i yo‘q, yuradi,
Og‘zi yo‘q, gapiradi.

Mustaqil topshiriq

“Mening orzum” mavzusida matn yozib keling.

ADABIY O‘QISH

HAQIQIY G‘OLIB

Bir qirol xalqi uchun yo‘l qurishga qaror qilibdi. Xalqqa yo‘lni ko‘rsatishdan oldin esda qolarli bir musobaqa uyushtirishni istabdi. Musobaqa shartiga ko‘ra, yo‘lni munosib tarzda bosib o‘tgan odam mukofotlanardi. Poygada g‘olib bo‘lishni xohlaydigan tumonat odam yig‘ildi. O‘sha kuni yo‘lni bosib o‘tgan odamlar qirolga bir narsadan shikoyat qilibdilar, ya’ni yo‘lning bir burchagida kattagina tosh va tuproq uyumi harakatlanishga noqulaylik tug‘dirganmish. Kun nihoyasida yolg‘iz bir yo‘lovchi marra chizig‘iga horib-charchab yetib kelibdi. Usti-boshi loy, tuproqqa belangan, ammo qirolga bebaho sovg‘a bilan yuzlanibdi: u oltin to‘la ko‘za uzatibdi.

– Yo‘lda tosh va tuproq uyumiga duch keldim. Odamlarga qulay bo‘lsin deb o‘sha to‘siqlarni olishga urindim. Tosh ichidan oltinga to‘la shu ko‘za chiqdi. Oltinlarni sizga olib keldim.

Qirol kulib javob beribdi:

– Bu oltinlar seniki!

– Yo‘q, meniki emas. Mening hech qachon buncha ko‘p boyligim bo‘lmagan.


– Ha, – dedi qirol. – Bu oltinlarga sen ega chiqding, musobaqa g‘olibi sensan! O‘z yo‘lini munosib bosib o‘tgan kishi sensan! Yo‘lni to‘siq-g‘ovdan bartaraf etgan kishi haqiqiy g‘olibdir!

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Mening orzum” mavzusida matn yaratib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling.

Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Hikoyani bir marta o‘zingiz ifodali tarzda o‘qib bering. O‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ketma-ketlik asosida o‘qittiring.



155

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Qirol qanday musobaqa uyushtirdi?
2. Nima uchun ko‘pchilik musobaqaning boshidan taslim bo‘ldi?
3. Musobaqada kim marraga yetib keldi?
4. Yo‘lovchi marraga qo‘lida nima bilan keldi?
5. Qirolning musobaqa so‘ngida chiqargan qarori to‘g‘rimi?
6. Siz ham shunga o‘xshash vaziyatlarga duch kelganmisiz yoki shunga o‘xshash voqealarni eshitganmisiz?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Qirol yo‘l qurishga qaror qildi.		
2	Tekis yo‘l hammani xursand qilgan edi.		
3	Yo‘l yomon bo‘lishiga qaramasdan, hamma marraga yetib bordi.		
4	Yo‘lovchi yo‘ldan oltin topib oldi.		
5	Qirol xalqining mehnatkash ekanligidan quvondi.		
6	Qirol oltinlar xalqniki ekanini aytdi.		
7	Yo‘lovchi oltinlarni qirolga olib keldi.		
8	Qirol oltinlarni haqiqiy g‘olibga berdi.		

Mustaqil topshiriq

Hikoya yuzasidan xulosangizni yozma bayon qiling.

MENING LOYIHAM

1. O‘qing.

Hozirgi davr bolalari juda ham iqtidorli. Ular turli xil sohalarga qiziqadilar. Maktab davridayoq bolalar o‘z orzusini amalga oshirish uchun turli loyihalar o‘ylab topadilar. Bu loyihalarning nafaqat bolaning o‘ziga, balki tabiatga, Vatanga, oilaga ham foydasi bor. Avval aytganimizdek, arxitektor bo‘lishni xohlagan bolalar qushlar uchun ajoyib uychalar yasab, ularni daraxtlarga ilishdi. Bu bilan ular o‘zlarining loyihalarini amalga oshirdilar. Tabiatimizdagi qushlarni asrashga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ba’zi o‘quvchilar kasalxonadagi og‘ir xastalikka chalingan bolajonlar bilan “Kelajakda men...” mavzusida rasm chizdilar. So‘ng bu rasmlardan ko‘rgazma tashkil qildilar. Hatto eng yaxshi rasmlarni auksionga qo‘ydilar. Tushgan pullarni bolajonlarning davolanishi uchun berdilar. Tadbirkorlikni tanlagan o‘quvchilar bolalarda kelajakka umid uyg‘otdilar. Bunday loyihalar juda ko‘plab uchraydi. Quvonarlisi shundaki, uddaburon bolalar o‘z manfaatlari uchun qayg‘urmadilar, balki bemorlarga yordam berdilar. Kelajak tadbirkorlari bundan ham yaxshi loyihalarni amalga oshirishlarini his qildilar.

2. 1-topshiriqda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling.

3. 2-topshiriq orqali o‘quvchilar hikoyani qanchalik to‘g‘ri tushunib yetganlari tekshiriladi. O‘quvchilar gap-

larni o‘qib, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilaydilar. Topshiriqni avval og‘zaki bajarib, keyin daftarga yozishlari tavsiya qilinadi.

4. Matndagi yangi so‘zlar ustida ishlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha tushunchalar bering. Yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi adabiy o‘qish darsidan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va matndagi yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, hikoyadan olgan xulosalarini yozma bayon qilib kelishlari lozim.

93-DARS. MENING LOYIHAM

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan hikoyadan olgan xulosalarini yozma bayon qilib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlar yuzasidan kichik savol-javob o‘tkazib oling. Rasmlar asosida berilgan audiomatnni 2 marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.


93-audiomaterial matni

Hozirgi davr bolalari juda ham iqtidorli. Ular turli xil sohalarga qiziqadilar. Maktab davridayoq bolalar o‘z orzusini amalga oshirish uchun turli loyihalar o‘ylab topadilar. Bu lo-

yihalarning nafaqat bolaning o‘ziga, balki tabiatga, Vatanga, oilaga ham foydasi bor. Avval aytganimizdek arxitektor bo‘lishni xohlagan bolalar qushlar uchun ajoyib uychalar yasab, ularni daraxtlarga ilishdi. Bu bilan ular o‘zlarining loyihalarini amalga oshirdilar. Tabiatimizdagi qushlarni asrashga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ba’zi o‘quvchilar kasalxonadagi og‘ir xastalikka uchragan bolajonlar bilan “Kelajakda men” mavzusida rasm chizdilar. So‘ng bu rasmlardan ko‘rgazma tashkil qildilar. Hattoki eng yaxshi rasmlarni auksionga qo‘ydilar. Tushgan pullarni bolajonlarning davolanishi uchun berdilar. Tadbirkorlikni tanlagan o‘quvchilar bolalarda kelajakka umid uyg‘otdilar. Bunday loyihalar juda ko‘plab uchraydi. Quvonarlisi shundaki, uddaburon bolalar o‘z manfaatlari uchun qayg‘urmadilar, balki bemorlarga yordam berdilar. Kelajak tadbirkorlari bundan ham yaxshi loyihalarni amalga oshirishlarini his qildilar.

2. “Diqqat qiling!” qismida o‘zbek tilida shart mayli, uni hosil qiluvchi *-sa* shakli haqida ma’lumotlar bering. Shart maylining yasalishi, imlosi, shaxs-sonda tuslanishi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlar hosil qiling. Misollar orqali *-sa* shakli yordamida shart maylini hosil qilishni o‘rgating hamda ularni shaxs-sonda tuslab ko‘rsating. O‘quvchilardan ham og‘zaki ravishda fe’llarni tuslab berishlarini so‘rang va shu tariqa grammatik mavzuni mustahkamlab oling.



155

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Qirol qanday musobaqa uyushtirdi?
2. Nima uchun ko‘pchilik musobaqaning boshidan taslim bo‘ldi?
3. Musobaqada kim marraga yetib keldi?
4. Yo‘lovchi marraga qo‘lida nima bilan keldi?
5. Qirolning musobaqa so‘ngida chiqargan qarori to‘g‘rimi?
6. Siz ham shunga o‘xshash vaziyatlarga duch kelganmisiz yoki shunga o‘xshash voqealarni eshitganmisiz?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Qirol yo‘l qurishga qaror qildi.		
2	Tekis yo‘l hammani xursand qilgan edi.		
3	Yo‘l yomon bo‘lishiga qaramasdan, hamma marraga yetib bordi.		
4	Yo‘lovchi yo‘ldan oltin topib oldi.		
5	Qirol xalqining mehnatkash ekanligidan quvondi.		
6	Qirol oltinlar xalqniki ekanini aytdi.		
7	Yo‘lovchi oltinlarni qirolga olib keldi.		
8	Qirol oltinlarni haqiqiy g‘olibga berdi.		

Mustaqil topshiriq

Hikoya yuzasidan xulosangizni yozma bayon qiling.

MENING LOYIHAM

1. O‘qing.

Hozirgi davr bolalari juda ham iqtidorli. Ular turli xil sohalarga qiziqadilar. Maktab davridayoq bolalar o‘z orzusini amalga oshirish uchun turli loyihalar o‘ylab topadilar. Bu loyihalarning nafaqat bolaning o‘ziga, balki tabiatga, Vatanga, oilaga ham foydasi bor. Avval aytganimizdek, arxitektor bo‘lishni xohlagan bolalar qushlar uchun ajoyib uychalar yasab, ularni daraxtlarga ilishdi. Bu bilan ular o‘zlarining loyihalarini amalga oshirdilar. Tabiatimizdagi qushlarni asrashga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ba’zi o‘quvchilar kasalxonadagi og‘ir xastalikka chalingan bolajonlar bilan “Kelajakda men...” mavzusida rasm chizdilar. So‘ng bu rasmlardan ko‘rgazma tashkil qildilar. Hatto eng yaxshi rasmlarni auksionga qo‘ydilar. Tushgan pullarni bolajonlarning davolanishi uchun berdilar. Tadbirkorlikni tanlagan o‘quvchilar bolalarda kelajakka umid uyg‘otdilar. Bunday loyihalar juda ko‘plab uchraydi. Quvonarlisi shundaki, uddaburon bolalar o‘z manfaatlari uchun qayg‘urmadilar, balki bemorlarga yordam berdilar. Kelajak tadbirkorlari bundan ham yaxshi loyihalarni amalga oshirishlarini his qildilar.


3. Ushbu grammatik bilimlar asosida 3-topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga fe’llarning shart mayli shaklini shaxs-sonda to‘g‘ri tuslagan holda yozib, gaplarni to‘ldirishlari lozim. Namuna:

*Men maktabni tugat**sa**m, iqtisodiyot universitetiga o‘qishga kiraman. Agar sen astoydil harakat qil**sa**ng, maqsadingga erishasan.*

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga kalit so‘zlar sifatida berilgan shart maylidagi fe’llardan mosini qo‘ygan holda gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*Yoz **kelsa**, bolalar ta’tilga chiqadilar.*

*Harakat **qilsa**, loyiha amalga oshadi.*



156

DIQQAT QILING!

-sa

Men
Sen
U
bormoq +sa
-m
-ng
–

Biz
Siz
Ular
bormoq +sa
-k
-ngiz
-lar

iqtidor
soha
og'ir xastalik
bemor
uddaburon
manfaat
qayg'urmoq

2. Yozing.

1. Men maktabni tugat…, Iqtisodiyot universitetiga o'qishga kiraman.
2. Agar loyihamizni yozib tugat…, tanlovda ishtirok eta olamiz.
3. Agar sen astoydil harakat qil…, maqsadingga erishasan.
4. Loyihamni maktab direktori tasdiqla…, uni amalga oshiramiz.
5. Ular olimpiadada g'olib bo'l…, xalqaro turnirda qatnashadilar.

3. O'ylang va toping. Yozing.

kelsa | tursa | qilsa | o'qisa | bo'lsa | kelsa

1. Yoz ___, bolalar ta'tilga chiqadilar.
2. Harakat ___, loyiha amalga oshadi.
3. O'quvchi vaqtli ___, maktabga kech qolmaydi.
4. Bola ko'p kitob ___, aqlli bo'ladi.
5. Havo bulutli ___, yomg'ir yog'adi.
6. Boshingga qilich ___ ham, rost gapir.

4. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

5. Lug'at-so'zlar bilan tanishtiring, ularni o'quvchilarning o'z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma'nosini to'laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o'quvchilarning o'zbek tilidagi leksikonini mazkur lug'at-so'zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so'ngida "Bugungi darsdan nima oldim?" metodini qo'llang. Bunda o'quvchilardan bugungi darsdan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so'rang va uni daftarga yozib qo'yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o'quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug'at-so'zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, "Men yaratmoqchi bo'lgan loyiha" mavzusida 20-30 ta so'zdan kam bo'lmagan esse yozib kelishlari lozim.

94-DARS. LOYIHAM REKLAMASI

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Men yaratmoqchi bo‘lgan loyiha” mavzusida 20-30 ta so‘zdan kam bo‘lmagan esse yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm asosida berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.

94-audiomaterial matni

Ishbilarmonlarning o‘z bizneslari biror g‘oyani loyihaga aylantirishdan boshlangan. Ular loyihalari ustida tinmay mehnat qilganlar. Yuqori natijaga erishish uchun ba’zida reklamadan ham foydalanganlar. Biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun har doim ham mehnat yetarli emas. Aniq reja va omad daromad kalitidir.



157

5. Savollarga javob bering.

1. Rayan Ross ilk millionlarini topganida sizdan katta edimi yoki kichik edimi?
2. “80-10-10” qoidasi biznes uchun muhimmi?
3. Rayan Rossni biznesda kim qo‘llagan? Bunday insonlar atrofimizda bo‘lishi shartmi?
4. Ko‘chmas mulk tushunchasi nimani anglatadi?
5. Rayan Rossning loyihasi sizga yoqdimi? Rayanga qanday savol bergan bo‘lardingiz?

Mustaqil topshiriq

Siz loyiha qilsangiz, u qanday mavzuda bo‘ladi? Fikringizni 20–30 ta so‘zdan kam bo‘lmagan esse shaklida yozing.

LOYIHAM REKLAMASI

1. O‘qing.

Reklama – tovarlarning sifati va u haqidagi axborot.

Reklama dastlab Yunoniston va Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan. O‘sha davrlarda ham og‘zaki va yozma reklamalardan foydalanilgan. Tovar belgisi qo‘yib tamg‘alash yo‘li bilan mahsulotlar reklama qilingan. Hozirgi shakldagi reklama AQSHda paydo bo‘lgan. XIX asrda reklama agentliklari faoliyat ko‘rsatishni boshlagan. Reklama katta daromad keltirgan. Dastlab yozma reklama xaridorlarni do‘kon va unda sotiladigan tovarlardan xabardor qilish vazifasini bajargan. Keyinchalik reklama afishalar, kitoblar, jurnallar, gazetalarda e’lonlar shaklida paydo bo‘ldi. Reklama ishiga ommaviy axborot vositalari: matbuot, radio, televideniye jalb etildi.

Reklama bir necha vazifani bajaradi:
1) xabar va ma’lumot berish;
2) ishontirish;
3) eslatish, yodga solish.


dastlab paydo bo‘lmoq
tamg‘alash
mahsulot
vazifasini bajarmoq
daromad
ommaviy axborot

2. 2-topshiriqda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling. Savollarni o‘qib eshittiring.

3. Yuqoridagi bilimlar asosida 3-topshiriqda berilgan so‘zlardan foydalanib o‘quvchilarga muvaffaqiyatga erishish uchun qilinadigan harakatlar ketma-ketligini tuzdiring. Reja tuzilgandan so‘ng topshiriq vazifasiga ko‘ra o‘z rejalarini ishlab chiqish uchun sinfdan kelib chiqib vaqt belgilang. Topshiriq dastlab yozma, so‘ngra og‘zaki bajarilishi maqsadga muvofiq.

4. 4-topshiriqda berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga

harakat qiling. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq. Bu topshiriqda lug‘at bilan faol ishlanadi.


158

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Birinchi bor reklama qayerlarda paydo bo'lgan?
2. Reklama nima uchun kerak?
3. Reklamalar qayerlarda e'lon qilinadi?
4. Reklamaning vazifalarini bilasizmi?
5. Siz ham reklamadan foydalanganmisiz?

3. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

"BALIQ SKELETI" METODI

natija | loyiha | mehnat | reklama | muvaffaqiyat | g'oya

1 3 4 2 5

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Muvaffaqiyatga erishish uchun avvalo nima qilish kerak?
2. Siz loyihangizni ommalashtirish uchun nima qilasiz?
3. Qaysi reklama usulidan foydalanasiz?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Mening loyiham | Loyiham amalga oshsa...

Mustaqil topshiriq

Loyihangiz reklamasini tayyorlang.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar o‘z loyihalari amalga oshganda nimalar bo‘lishi mumkinligi, uning foyda va istiqbollari haqida “Loyiham amalga oshsa” mavzusida kichik esse yozishlari lozim. Esse 20-25 ta so‘zdan iborat bo‘lishi va yozib bo‘lingach, o‘qib eshittirilishi maqsadga muvofiq.


6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘zlari yaratmoqchi bo‘lgan loyiha reklamasi (dizayni, matni)ni tayyorlab kelishlari lozim.

95-DARS. TO‘G‘RI YO‘L

Maqsad: Mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



159

TO‘G‘RI YO‘L

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

2. O‘qing.


G‘oya	Bu inson xayoliga keladigan fikr	Baklajkadan gultuvak yasash
Loyiha	Ma’lum bir ketma-ketlikda g‘oyani amalga oshiruvchi jarayon	Atrofdagi baklajkalarni bolalar bilan yig‘ib, sinf xonasiga gultuvak yasash
Mehnat	Inson faoliyati	Bolalar bilan jarayonni tashkil qilish
Reklama	Mahsulot haqida xabar	Boshqa sinf o‘quvchilariga qilayotgan ishimizni aytish
Natija	Belgilangan maqsadga erishish	Xonalardagi gultuvaklarni chiroyli va ko‘rkam holga keltirish va ulardan zavqlanish
Muvaffaqiyat	Yutuq	Ustozlardan rag‘bat so‘zlarni eshitish

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan o‘zlari yaratmoqchi bo‘lgan loyiha, reklamasi (dizayni, matni)ni tayyorlab kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarning diqqatini komiksga qarating. Ular komiks orqali mustaqil gaplar tuzib, voqeani bayon qilib berishlari lozim. So‘zlarni qo‘llashda sinonimlardan foydalanishlarini alohida e’tiborga oling.

2. 2-topshiriqni dastlab o‘zingiz o‘qib eshittiring. Undan so‘ng o‘quvchilarga ketma-ketlikda o‘qittiring. Imkon darajasida berilgan fikrlarni tahlil qilib boring. So‘zlarning to‘g‘ri talaffuziga e’tibor bering.



160

3. O‘ylang va toping. Yozing.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Do‘stim Arseniyda g‘oya tug‘il…, albatta, unga loyiha ishlab chiqamiz.
2. Siz qattiq mehnat qil…, natijasi ham shunga yarasha bo‘ladi.
3. Biz mahsulotimizni reklama qil…, loyihamiz ommalashadi.
4. Faqat natija uchun harakat qilin…, natijaga erishish oson bo‘ladi.
5. Men o‘z kuchimga ishon…, muvaffaqiyat qozona olaman.

g‘oya, natija, ketma-ketlik, jarayon, yutuq, belgilamoq, rag‘bat, ko‘rkam

Mustaqil topshiriq

Jadval asosida o‘z loyihangizni rejalashtiring.

G‘oya	
Loyiha	
Mehnat	
Reklama	
Natija	
Muvaffaqiyat	

3. 3-topshiriqda ijodiylik talab qilinadi. O‘quvchilarga qalamdon yasash loyihasi taqdim etiladi. Qalamdon yasash loyihasini tahliliy ko‘rib chiqing. Berilgan

tayanch so‘zlar yordamida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

4. 4-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘tilgan grammatik mavzu mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi chiziqlar o‘rniga fe’llarning grammatik ko‘rsatkichlarini to‘g‘rilab, gaplarni ko‘chirishlari lozim. Namuna:

*Do‘stim Arseniyda go‘ya tug‘il**di,** albatta, unga loyiha ishlab chiqamiz. Siz qattiq mehnat qil**sangiz** natijasi ham shunga yarasha bo‘ladi.*

5. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, berilgan jadval asosida o‘z loyihalarini rejalashtirib kelishlari lozim.

96-DARS. MILLIONER TENGDOSHLARIM


Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan jadval asosida o‘z loyihalarini rejalashtirib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holatda o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



161

MILLIONER TENGDOSHLARIM

1. O‘qing.

KATTALARNING YORDAMISIZ MILLIONERGA AYLANGAN BOLALAR

Bola millioner bo‘lishi uchun har doim ham uning ota-onasi boy bo‘lishi shart emas ekan. To‘g‘ri, bu – kamdan kam uchraydigan holat, lekin baribir oramizda millioner bo‘lgan bolalar bor.

Tavi Gevinson Chikagoga tutashgan qishloqda yashaydi. 11 yoshli amerikalik bu o‘quvchi qiz 2009-yilda omadli qadam boshlaganlardan biri. Otasi ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lib, pensiyaga (nafaqaga) chiqqan. Onasi esa ibroniy tilidan ta’lim beradi. Tavi moda va o‘smir qizning ruhiy kechinmalariga bag‘ishlangan blogini ochishga qaror qildi. Bu paytda u o‘rta maktab o‘quvchisi edi. Uning blogi “Style Rookie”, ya’ni “Boshlovchi uslubchi” deb atalgan.

U buvisining eski sandig‘idagi kiyim-kechaklarni suratga oladi. Moda haqidagi mulohazalarini aralash-quralash tarzda blogiga joylay boshlaydi. Ko‘p o‘tmay unga minglab kishilar a’zo bo‘ladi. Moda olamida jahonga mashhur jurnalist Derek Blasberg unga qiziqib qoladi. Deyarli har kuni o‘zining tvitter sahifasida Tavining postlarini muhokama qilishga tushadi.

Hatto uni yuksak modalar haftaligiga taklif eta boshlaydilar. Hozir Tavi 23 yoshda. U mashhur yozuvchi va kolumnist. Kinoda suratga tushadi. Mol-mulki esa yetti million dollarga baholangan.

2. Tinglang.

96-audiomaterial matni

Avstraliyalik o‘quvchi Jek Blumfild 12 yoshida qo‘shnilarning maysasini kesish orqali ishlab topgan puli evaziga elektron tijorat bilan shug‘ullana boshlaydi.


– Bu ishni qanday bajarish to‘g‘risida juda ko‘p o‘qiganman, – deydi u.

Hozir 17 yoshli tadbirkor quyidagi jadval asosida ishlaydi: ertalab 5:30 da uyg‘onadi; maktabga borishidan oldin o‘zining “Bloom Ventures” onlayn biznesi bilan ikki soat shug‘ullanadi; kechasi uy vazifalarini bajarib bo‘lgach, ishga qaytadi. Bugungi kunga kelib uning bu ishi qariyb bir million dollarga baholangan. Yaqinda u “2019 Success Summit” biznes-forumi ishtirokchilari oldida nutq so‘zladi. Jekning ota-onasi – o‘rtamiyona tadbirkorlar. Uni faqat ruhan qo‘llab-quvvatlashgan.

3. 3-topshiriqda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling.

4. 4-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘quvchilar o‘z kun tartibini yozib chiqadilar. Topshiriq dastlab yozma, so‘ngra og‘zaki bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 5-topshiriq mazmunidan kelib chiqib o‘quvchilar birinchi jadvalda berilgan fikrning ikkinchi yarmini ikkinchi jadvaldan topib gaplar hosil qiladilar. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq.



162

3. Savollarga javob bering.

1. Tavi Gevinson qanday loyihani amalga oshirdi?
2. Blog haqida nimalarni bilasiz?
3. Elektron tijorat tijoratning qanday turi?
4. Jek Blumfild muvaffaqiyatlarida kun tartibining ahamiyati bormi?

maysa
evaziga
qariyb
nutq so‘zlamoq
o‘rtamiyona
qo‘llab-quvvatlamoq
ruhan

4. O‘ylang va toping. Yozing.

BUGUNGI KUN TARTIBIM

Sana		
	6:00	Uyqudan turdim.
	7:00	
	8:00	
	10:00	
	12:00	O‘zbek tili darsi
	14:00	
	16:00	
	18:00	Kechki ovqat.
	20:00	
	22:00	Uyquga yotaman.

5. Diqqat qiling. Gapiring. Yozing

Tinmay harakat qilsa	mehnatining natijasini ko‘radi
Kun tartibiga rioya qilsa	maqsadga erishadi
Mehnat qilsang	orzung amalga oshadi
Olim bo‘lsang	hurmat ko‘rasan
Hurmat qilsang	olam seniki

Mustaqil topshiriq

“Bloger kim?” mavzusida fikringizni yozib keling. (20–30 ta so‘z)

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosi-

ni to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.


Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, “Bloger kim?” mavzusida o‘z fikr va mulohazalarini yozib kelishlari lozim (20-30 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi shart)

97-DARS. ISHTIYOQ

Maqsad: mavzu yuzasidan berilgan lug‘at-so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Bloger kim?” mavzusida o‘z fikr va mulohazalarini yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.


163

ISHTIYOQ

1. O‘ylang va toping. Gapiring. Yozing.

Men katta bo‘lsam, ...

Namuna 1. Men katta bo‘lsam, tadbirkor bo‘laman.


2. Tinglang.

Reklama qilinayotgan qo‘l soatlarining millari nega aynan 10 dan 10 daqiqa o‘tganini ko‘rsatadi?

Vazifalar:

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmlardan foydalanib “Men katta bo‘lsam…” mazmunida namunadagidek gaplar tuzdiring. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq.

2. 2-topshiriqda berilgan audiomatnni ikki marotaba tinglating yoki o‘zingiz ifodali tarzda bir marotaba o‘qib eshittiring.



164

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ichimliklar reklamasini olishda muz bo‘lakchalaridan foydalaniladi.		
2	Gollivudning “Hollywood” yozuviga 1923-yilda asos solingan.		
3	“Hollywood” yozuvi dastlab “Hollywood dream” deb yozilgan.		
4	Soatlar reklamasida soat millari 12:00 ni ko‘rsatadi.		
5	Qo‘l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o‘tganini ko‘rsatishi tabassumga o‘xshash shaklni hosil qiladi.		
6	Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.		
7	Reklama har doim taklif beruvchi va xaridorlar uchun foydali hisoblanadi.		

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Men olimpiadada g‘olib bo‘lsam, maktabimiz sha’nini himoya qilgan bo‘laman.*

Men olimpiadada g‘olib bo‘lsam	natijani tezroq qo‘lga kiritasiz
Agar u bu loyihani tugatsa	albatta, yechimini topamiz
Siz bu ishni vaqtida amalga oshirsangiz	imtihonni a’lo baholarga topshiradilar
Biz bu masala yuzasidan ko‘proq bosh qotirsak	mavzularni o‘zlashtirishda muammoga duch kelmaysan
Ular mavzularni yaxshi o‘zlashtirsalar	maktabimiz sha’nini himoya qilgan bo‘laman
Sen o‘z vaqtida uyga vazifalarni tayyorlasang	albatta, katta natijani qo‘lga kiritadi

5. O‘qing.


ISHTIYOQ FORMULASI

Hayotdagi muvaffaqiyatning asosiy siri o‘z iste’dodini topa olish, so‘ngra hayotida amalga oshirishdir.

Henri Ford

Bolalar, ehtimol har biringizning sevimli mashg‘ulotingiz bo‘lsa kerak? Ba’zi insonlar uchun uning sevimli mashg‘uloti butun hayotining mazmuniga aylanadi va bunday odam haqida “u o‘z ishtiyoqini topgan” deb aytishadi. Ishtiyoq bu – qiziqishlaringiz, qobiliyat va istaklaringiz kesishadigan nuqtadir. O‘z ishtiyoqini topish bu – sevgan ishi bilan shug‘ullanish va undan zavq olish, o‘zining ichki dunyosi va atrofdagi olam bilan uyg‘unlikda yashash, o‘ziga ishonch va hayot mazmuniga shubha qilmaslik.

Ishtiyoq har bir insonda bor. Biroq hamma ham yoshligidan ishtiyoqi nimadaligini aniqlay olmaydi. Uni qidirish kerak. Ba’zan u tez fursatda topiladi, ba’zan bunga yillar ketadi. Ishtiyoq har doim ham bir ishda namoyon bo‘lmaydi. Ishtiyoqni bir necha sohalardan topish mumkin. Masalan, kimlardir kitob yozish bilan birga o‘qituvchilik yoki notiqlik kasblarini olib boradi. Muvaffaqiyatli dasturchi bir vaqtning o‘zida bolalar futbol jamoasining murabbiyi, shifokor esa ayni paytda rassom ham bo‘lishi mumkin.



165

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Keling, ishtiyoqingizni aniqlaymiz.

Oddiy bo‘lsa-da, 10 ta eng sevimli mashg‘ulotingizni yozing. Ulardan qaysi biriga sizning ishtiyoqingiz bo‘lishi mumkinligini quyidagi test yordamida aniqlab oling.

Har bir holat yuzasidan 10 ballik sistemada baholang. Yig‘indilar asosida ishtiyoqingizni toping.

Namuna:

Mashg‘ulot nomi	Xohlayman	Qila olaman	Qo‘limdan keladi	Yaxshi ko‘raman	Ballar	Shug‘ullana olaman
Turli videoroliklarni suratga olish	9	6	5	7	27	Ha
?						

Mustaqil topshiriq

Berilgan testlar asosida yaqinlaringizning ishtiyoqlarini aniqlang.

MUSTAHKAMKASH

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ichimliklar reklamasini olishda muz bo‘lakchalaridan foydalaniladi.		
2	Qo‘l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o‘tganda tabassumga o‘xshash shaklni hosil qiladi.		
3	Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.		
4	Akbar balandlikka sakrash bo‘yicha musobaqada qatnashdi.		
5	Ahrorning oldidan quyon chiqib qoldi.		
6	Musobaqada Baxtiyor g‘olib chiqdi.		

97-audiomaterial matni

1. Kamdan-kam odam reklama qilinayotgan qo‘l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o‘tganini ko‘rsatishiga e’tibor berishadi. Bu bilan odamlarda brend haqida yaxshi taassurot qoldirish maqsadida tabassumga o‘xshash shakl yasaladi.

2. Gollivudning ramzi sanalgan “Hollywood” yozuvi 1923-yilda ko‘chmas mulkni reklama qilish maqsadida o‘rnatilgan. “Hollywoodland”ning reklama qilish muddati yarim yilga mo‘ljallangan edi, biroq yozuv keyinchalik o‘z joyida qolgan. 1949-yilda yozuv qayta ta’mirlanib, oxirgi to‘rtta harf olib tashlangan. Reklama maqsadida o‘rnatilgan yozuv yillar o‘tib shaharning tashrif qog‘oziga aylangan.

3. Ichimliklarning chiroyli reklamasini suratga olish sal mushkul. Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.

3. 3-topshiriqni yuqorida tinglab tushungan audiomatnlari asosida bajartiring. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aytishlari lozim. Topshiriq og‘zaki bajariladi.

4. O‘quvchilar 3-topshiriqda berilgan gaplarning ikkinchi yarmini topib, daftarlariga yozishlari kerak. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 5-topshiriqda berilgan matnni ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holatda o‘qittiring. Matnda berilgan ma’lumotlar asosida o‘quvchilar o‘zlarining ishtiyoqlarini aniqlaydilar. Formula asosida hisoblash tushunarli bo‘lishi uchun avval bir o‘quvchini tanlab oling. Shu o‘quvchi misolida tushuntiring

6. Lug‘at-so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur lug‘at-so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni. Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganlari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, berilgan testlar asosida o‘z yaqinlarining ishtiyoqlarini aniqlab, jadval ko‘rinishida yozib kelishlari lozim.

98-DARS. ADABIY O‘QISH. YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

Maqsad: o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z boyligini oshirish va boyitib borish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahoratni va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirib borish; shuningdek, kitobga mehr uyg‘otish, o‘qiganlariga, qahramonlar taqdiri, o‘y-kechinmalariga hissiy munosabatda bo‘la olishni shakllantirish; badiiy matnni estetik jihatdan his qilish, uni tahlil qilish, u bo‘yicha mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish.


Refleksiya jarayoni. Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan testlar asosida o‘z yaqinlarining ishtiyoqlarini aniqlab, jad-

val ko‘rinishida yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar:

1. Hikoyani bir marta o‘zingiz ifodali tarzda o‘qib bering. O‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ketma-ketlik asosida o‘qittiring.

2. 2-topshiriqda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling. Savollarni o‘qib eshittiring.



167

YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

1. O‘qing.

YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

Bolalarga oromgoh juda yoqdi. Havosi toza, atrofi tog‘, hamma yoq yam-yashil maydon. Ammo aynan shu oromgohning yana bir o‘zgacha tomoni bor edi. Bu yerdagi dam oluvchilar ota-onasidan olgan pulga do‘kondan hech narsa xarid qila olmas, biroq pulni o‘zlari ishlab topishlari mumkin edi. Qanday qilib deysizmi? Turli musobaqalarda g‘olib bo‘lib-da! Ona tili, rus, ingliz tili, matematika bo‘yicha o‘tadigan musobaqalarda hamma o‘z bilimini ko‘rsatib yuqori o‘rin olar, ayniqsa, sport musobaqalari fan tanlovlaridan ham taassurotlarga boy bo‘lardi. Albatta, har bir ishtirokchi g‘olib bo‘lishga intilardi. Jamoa bilan o‘ynaganda esa g‘oliblarga topshiriladigan pul har bir jamoa a’zosiga bir xil taqsimlanardi. Jamoa sportida yugurish, sakrash, velosipedda manzilga eng tez yetib kelish musobaqalari joy olgan bo‘lib, so‘nggisi velosipeddagi poyga edi.

Akbar o‘z jamoasi uchun bolalarni tanlab bo‘lgan. Eng tez yuguradigan Ahror, balandga sakrash bo‘yicha Shamshod bo‘lsa, uzunlikka sakrashda Baxtiyorga yetadigani yo‘q. Velosiped esa Akbarning jon-u dili. Mahalladagi poygada hammadan o‘zadigani ham o‘zi edi. Bu to‘rtlik bir necha kun ichida ancha do‘stlashib qolishgandi.

Musobaqaga hamma jamoa qizg‘in tayyorlanar, boshqa jamoalardan ham Baxtiyor va Odil degan bolalar velosipedda tinmay mashq qilishar edi.

Akbarning o‘rtoqlari musobaqada yutishsa, mukofot puliga qanday shirinlik va kitob olishni o‘ylab ham qo‘yishdi. Lekin eng muhimi – g‘alaba nashidasi kuchliroq tuyulardi.

Mana, orziqib kutilgan kun ham keldi. Musobaqalarga start berildi. Birinchisi – yugurish poygasi. Ahror manzilga birinchi bo‘lib keldi. Balandlikka sakrash bo‘yicha Shamshod, uzunlikka sakrash bo‘yicha Baxtiyor ham yaxshi ko‘rsatkichga erishdi. Asosiysi – velosiped poygasi esa oldinda.


Akbar, Odil va Baxtiyor yo‘lakda start berilishini kutib turishmoqda. Mana, start berildi-yu, velosiped g‘ildiraklari gir aylanib, bir-birlaridan o‘zib ketishdi. Uchta aylanishning so‘nggisi ham yaqinlashmoqda. Uzoqdan o‘rtoqlarining “Akbar! Akbar!” deb baqirishlari eshitilib turardi. Akbar ancha oldinda. Shu payt shundoq yo‘ldan tipratikan chiqib qolsa bo‘ladimi, vaqtini topganini qarang. Biroq Akbar uni chaqqonlik bilan chetlab o‘tdi. Ura! U shu so‘zni aytishga ham ulgurmay orqadan velosipedning g‘iyqillagan va ag‘darilgan ovozi eshitildi. Ortiga o‘girilib qarasaki, ikkinchi bo‘lib kelayotgan Odilning velosipedi ag‘darilib yotibdi. Akbar nima qilarini bilmay to‘xtadi. Baxtiyor ularga yaqinlashayotgan edi. Akbar onasining gapini esladi: “Yaxshilikni kechiktirmay vaqtida qilish kerak”. U darrov Odilga yordam berishga shoshildi. Bu orada Baxtiyor zuv etib o‘tib ketdi. “Rahmat, o‘rtoq!” – dedi Odil velosipedga o‘tirayotib. U yana yo‘lida davom etdi. Xayriyat, oyog‘i uncha qattiq lat yemagan ekan. Finishga Baxtiyordan so‘ng ozroq vaqt o‘tgach, Odil va Akbar barobar kelishdi.

– Nima qilganing bu? – dedi Ahror Akbarga. – Birinchilik qo‘ldan ketdi-ku!

– To‘g‘ri qildi! – jahli chiqdi Shamshodning. – Men ham shunday qilardim. Botir esa indamay qo‘ya qoldi.

3. O‘quvchilarning hikoyani qanchalik to‘g‘ri tushunib yetganlarini tekshiring. O‘quvchilar gaplarni o‘qib to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilaydilar. Topshiriqni avval og‘zaki bajarib, keyin daftarga yozishlari tavsiya qilinadi.

3. Matndagi yangi so‘zlar ustida ishlang, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tillaridagi tarjimalari bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi hamda og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi bo‘yicha tushunchalar bering. Yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik usullardan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikonini mazkur yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



168

Oromgoh tablosida fan olimpiadasi bo‘yicha g‘oliblarning ismi-shariflari chiqdi, ammo negadir sport musobaqasi g‘oliblarining familiyasi ko‘rinmadi. Yetakchilar ham hech nima bilishmasdi.

Mana, kechki yig‘inda tantanali taqdirlash boshlandi.

Oromgoh boshlig‘i birma-bir fan g‘oliblarini taqdirlab, maqtov yorlig‘i va mukofot pullarini topshirdi.

– Endi esa, – dedi u, – biz uchun qaror qabul qilish juda murakkab bo‘lgan musobaqaga yetib keldik. Bu musobaqada Akbar raqibiga yordam bergani uchun g‘olib bo‘la olmadi. Raqibining yiqilganiga e’tibor bermagan Baxtiyor esa birinchi bo‘lib keldi. Bugun biz hay’at a’zolari bilan maslahatlashib, qoidani biroz o‘zgartirdik. Va 1-o‘rinni Akbarning jamoasiga berishga qaror qildik.

– Nega ekan?! – dedi kimdir Baxtiyorning jamoasida.

– Chunki Akbar o‘zining g‘alabasi va shuhratini emas, qiyin ahvolga tushgan yonidagi o‘rtog‘ini o‘yladi.

Atrofdagilar qarsak chalib yuborishdi.

Kavsar Turdiyeva

2. Savollarga javob bering.

1. Siz oromgohga borganmisiz?
2. Oromgohning o‘ziga jalb qiladigan tomonlarini ayting.
3. Oromgohda orttirgan do‘stlaringiz haqida gapiring.

Refleksiya jarayoni Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi adabiy o‘qish darsidan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga


yozib qo‘yishlarini iltimos qiling. Shu bilan dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va matndagi yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, o‘qigan matnlari – “Yaxshilikni o‘z vaqtida qil” yuzasidan “Hikoyadan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelishlari lozim.

99-DARS. MUSTAHKAMLASH

Maqsad: 4-chorak yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash; o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish; lug‘at-so‘zlari ustida ishlash; ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni: Bunda oldingi darsda mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Yaxshilikni o‘z vaqtida qil” hikoyasi yuzasidan “Hikoyadan olgan taassurotim” mavzusida kichik ijodiy insho yozib kelish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab oling.



165

pish bu – sevgan ishi bilan shug'ullanish va undan zavq olish, o'zining ichki dunyosi va atrofdagi olam bilan uyg'unlikda yashash, o'ziga ishonch va hayot mazmuniga shubha qilmaslik.

Ishtiyoq har bir insonda bor. Biroq hamma ham yoshligidan ishtiyoqi nimadaligini aniqlay olmaydi. Uni qidirish kerak. Ba'zan u tez fursatda topiladi, ba'zan bunga yillar ketadi. Ishtiyoq har doim ham bir ishda namoyon bo'lmaydi. Ishtiyoqni bir necha sohalardan topish mumkin. Masalan, kimlardir kitob yozish bilan birga o'qituvchilik yoki notiqlik kasblarini olib boradi. Muvaffaqiyatli dasturchi bir vaqtning o'zida bolalar futbol jamoasining murabbiyi, shifokor esa ayni paytda rassom ham bo'lishi mumkin.

6. O'ylang va toping. Yozing.

Keling, ishtiyoqingizni aniqlaymiz.

Oddiy bo'lsa-da, 10 ta eng sevimli mashg'ulotingizni yozing. Ulardan qaysi biriga sizning ishtiyoqingiz bo'lishi mumkinligini quyidagi test yordamida aniqlab oling.

Har bir holat yuzasidan 10 ballik sistemada baholang. Yig'indilar asosida ishtiyoqingizni toping.

Namuna:

Mashg'ulot nomi	Xohlayman	Qila olaman	Qo'limdan keladi	Yaxshi ko'raman	Ballar	Shug'ullana olaman
Turli videoroliklarni suratga olish	9	6	5	7	27	Ha
?						

Mustaqil topshiriq

Berilgan testlar asosida yaqinlaringizning ishtiyoqlarini aniqlang.


MUSTAHKAMKASH

1. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Ichimliklar reklamasini olishda muz bo'lakchalaridan foydalaniladi.		
2	Qo'l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o'tganda tabassumga o'xshash shaklni hosil qiladi.		
3	Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.		
4	Akbar balandlikka sakrash bo'yicha musobaqada qatnashdi.		
5	Ahorning oldidan quyon chiqib qoldi.		
6	Musobaqada Baxtiyor g'olib chiqdi.		

Vazifalar:

1. O‘tilgan mavzular asosida o‘quvchilarning bilimi sinaladi. O‘quvchilar 1-topshiriqda berilgan gaplarni o‘qib, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlaydilar. Topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bu topshiriqda fikrlarni asoslovchi savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq.



166

2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Yoz ____, bolalar ta'tilga chiqadilar.
2. Harakat ____, loyiha amalga oshadi.
3. O'quvchi vaqtli ____, maktabga kech qolmaydi.
4. Biz mahsulotimizni reklama qil____, loyihamiz ommalashadi.
5. Faqat natija uchun harakat qilin____, natijaga erishish oson bo'ladi.
6. Men o'z kuchimga ishon____, muvaffaqiyat qozona olaman.

3. Savollarga javob bering.

1. Muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak?
2. Tavi Gevinson qanday loyihani amalga oshirdi?
3. Jek Blumfild qanday qilib muvaffaqiyatga erishdi?
4. Birinchi bor reklama qayerlarda paydo bo'lgan?
5. Reklama nima uchun kerak?

4. O'ylang va toping. Yozing.

kelsa | borsam | qilsak | ~~tugatishsa~~ | o'qisang | qilsangiz

Namuna *Hakamlar maslahatni tugatishsa, g'oliblarni e'lon qilishadi.*

Hakamlar maslahatni ____, g'oliblarni e'lon qilishadi.
Men oromgohga ____, yangi do'stlar bilan tanishaman.
Sen ko'p kitob ____, eng yaxshi kitobxon tanlovida g'olib bo'lasan.
U velosipedda birinchi yetib ____, 1-o'rinni olamiz.
Biz birga harakat ____, loyihamiz amalga oshadi.
Ishtiyoq bilan harakat ____, muvaffaqiyatga erishasiz.

5. O'ylang va toping. Yozing.

2. O‘quvchilarning grammatik bilimlarini va lug‘at boyliklarini tekshirish uchun 2-topshiriqni yozma bajartiring. Toshiriq shartiga ko‘ra, chiziqlar o‘rniga so‘zlar qo‘yiladi. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq.

3. 3-topshiriqda berilgan savollar yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, fikrlarini tinglashga harakat qiling.

4. 4-topshiriq shartiga ko‘ra, o‘quvchilar chiziqlar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini yozadilar. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma bajarilishi maqsadga muvofiq. Gaplarni o‘z ona tillariga tarjima qildiring.

5. Berilgan 4 ta punktga javoban o‘quvchilar o‘zi haqida ma’lumot yozib beradi.

Refleksiya jarayoni: Lug‘at-so‘zlar ustida ishlang. O‘quvchilarning butun o‘quv yili davomida o‘rgangan lug‘at-so‘zlarni “Qaynoq mikrofon” metodi orqali tekshirib, xulosalab, baholab oling. Bunda o‘quvchilar butun o‘quv yili davomida o‘rgangan so‘zlaridan birortasini qo‘llariga mikrofon tegishi zahoti tezlikda aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatdan uzoqroq vaqt davomida so‘zni ayta olmagan o‘quvchilar o‘yinni tark etib boradi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq. Bunda o‘quvchilar dars davomida ulgurmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va lug‘at-so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, ta’til davomida takrorlab kelishlari lozim.

O‘ZBEK TILI

6

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

(Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun)

Muharrir *Ilhom Qosimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Mansur Siddiqov*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 06.12.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i __. Nashriyot-hisob tabog‘i __.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.